

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GWARDIYASI
HARBIY-TEXNIK INSTITUTI**

M.X. RUSTAMBAYEV

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JINOYAT HUQUQI
K U R S I**

V TOM

MAXSUS QISM

**JAMOAT XAVFSIZLIGI VA JAMOAT TARTIBIGA
QARSHI JINOYATLAR. HARBIY XIZMATNI O‘TASH
TARTIBIGA QARSHI JINOYATLAR**

Oliy ta’lim muassasalari uchun darslik
(2-nashr, to’ldirilgan va qayta ishlangan)

TOSHKENT

UO‘K – 343.36(575.1)

KBK - 67.408(50’)

R-92

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti kengashida ma’qullangan. 2018 yil 29 iyundagi 9-sonli bayonnoma

O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. 2018 yil 15 avgustdagi 718-sonli buyrug‘i

Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 5. Maxsus qism. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar. harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar. Darslik.2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 367 bet.

Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga 2018 yil 1 noyabrgacha kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartishlar inobatga olingan holda tayyorlangan. Unda amaldagi qonun hujjatlari, tergov va sud amaliyoti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari asosida jinoyat huquqining Umumiy va Maxsus qismi masalalari yoritilgan.

Darslik besh tomдан iborat. Birinchi va ikkinchi tomlar JKning Umumiy qismiga bag‘ishlangan. Birinchi tomда jinoyat qonuni va jinoyat to‘g‘risidagi ta’limot masalalari yoritilgan. Ikkinchisida jazo, javobgarlik va jazodan ozod qilish, jinoyat-huquqiy ta’sirning boshqa choralari yoritilgan. Uchinchi, to‘rtinchi va beshinchi tomlar JKning Maxsus qismi normalarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun javobgarlik masalalariga bag‘ishlangan. Muallif tomonidan barcha jinoyatlar tarkibining belgilari tahlil qilingan, ularni kvalifikatsiya qilish masalalari, o‘xshash jinoyatlar tarkiblarini farqlash muammolari ko‘rib chiqilgan.

Darslik yuridik oliy o‘quv muassasalari bakalavr va magistr lari, Bosh prokuratura Akademiyasi tinglovchilari, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti kursantlari, O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi tinglovchilari, o‘qituvchilarga mo‘ljallangan, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari va jinoyat huquqi muammolari bilan qiziquvchi shaxslar tomonidan foydalanilishi mumkin.

Taqrizchilar:

Abdurasulova K.R. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi “Kriminologiya” kafedrasi boshlig‘i, yu.f.d., professor

Mirazov D.M. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik Instituti “Sohaviy huquqiy fanlar” kafedrasi boshlig‘i, yu.f.d., dotsent

ISBN 978-9943-5559-5-2

© Rustambayev M.X., 2018

© O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik Instituti, 2018

MUNDARIJA

I BOB. JAMOAT XAVFSIZLIGIGA QARSHI JINOYATLAR.....	8
1-§. Jinoiy uyushma tashkil etish (JK 242-moddasi)	10
2-§. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (JK 243-moddasi)....	17
3-§. Ommaviy tartibsizliklar (JK 244-moddasi)	18
4-§. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish (JK 244 ¹ -moddasi).....	21
5-§. Diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish (JK 244 ² -moddasi)	25
6-§. Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish (JK 244 ³ -moddasi)	26
7-§. Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish (JK 245-moddasi).....	31
8-§. Kontrabanda (JK 246-moddasi).....	34
9-§. O‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash (JK 247-moddasi).....	39
10-§. Qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalariga qonunga xilof ravishda egalik qilish (JK 248-moddasi)	47
11-§. O‘qotar qurol yoki o‘q-dorilarni beparvolik bilan saqlash (JK 249-moddasi)	51
12-§. Portlash xavfi bo‘lgan moddalar yoki pirotexnika buyumlaridan foydalanish qoidalarini buzish (JK 250-moddasi)	53
13-§. Pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi (JK 250 ¹ -moddasi) ...	57
14-§. Kuchli ta’sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda egallash (JK 251-moddasi).....	64
15-§. Kuchli ta’sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish (JK 251 ¹ -moddasi).....	67
16-§. Radioaktiv materiallarni qonunga xilof ravishda egallash (JK 252-moddasi)	72
17-§. Radioaktiv materiallardan foydalanish qoidalarini buzish (JK 253-moddasi)	75
18-§. Radioaktiv materiallardan qonunga xilof ravishda foydalanish (JK 254-moddasi)	78
19-§. Yadro qurilmalaridan foydalanish qoidalarini buzish (JK 255-moddasi)	81
20-§. Bakteriologik, kimyoviy va boshqa xil yalpi qirg’in qurollari turlarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, to‘plash, olish, birovga o‘tkazish, saqlash, qonunga xilof ravishda egallash va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etish (JK 255 ¹ -moddasi)	83
21-§. Neft quvurlarini, gaz quvurlarini, neft va gaz mahsulotlari quvurlarini yaroqsiz holatga keltirish (JK 255 ² -moddasi)	88
22-§. Tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda xavfsizlik qoidalarini buzish (JK 256-moddasi).....	91

23-§. Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish (JK 257-moddasi).....	93
24-§. Sanitariyaga oid qonun hujjatlarini yoki epidemiyaga qarshi kurash qoidalarini buzish (JK 257 ¹ -moddasi).....	96
25-§. Tog'-kon, qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalarini buzish (JK 258-moddasi).....	98
26-§. Yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish (JK 259-moddasi)	100
27-§. O'ta muhim va toifalangan obyektlarning qo'riqlanishini ta'minlashga doir majburiyatlarni bajarmaslik (JK 259 ¹ -moddasi)	102
«Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar.....	104
Qo'shimcha adabiyotlar	106
Rahbariy adabiyotlar	106
O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar	107
Ilmiy maqolalar	108

II BOB. TRANSPORT HARAKATI VA UNDA FOYDALANISH

XAVFSIZLIGIGA QARSHI JINOYATLAR..... 110

1-§. Temir yo'l, dengiz, daryo yoki havo transportining harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish (JK 260-moddasi)	110
2-§. O'zbekiston Respublikasining samoviy hududidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish (JK 260 ¹ -moddasi).....	120
3-§. Mast holdagi shaxsning transport vositasini boshqarishiga yo'l qo'yish (JK 261-moddasi).....	123
4-§. Transportni ta'mirlash yoki uni foydalanishga chiqarish qoidalarini buzish (JK 262-moddasi).....	126
5-§. Temir yo'l, dengiz, daryo, havo transporti vositasi yoki aloqa yo'llarini yaroqsiz holatga keltirish (JK 263-moddasi)	131
6-§. Havo kemasidan foydalanish vaqtida lazer nurini yo'naltirish orqali xalaqit berish (JK 263 ¹ -moddasi).....	134
7-§. Temir yo'lining harakatlanadigan tarkibini, havo, dengiz yoki daryo kemasini olib qochish yoki egallab olish (JK 264-moddasi).....	135
8-§. Xalqaro uchish qoidalarini buzish (JK 265-moddasi)	139
9-§. Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish (JK 266-moddasi).....	143
10-§. Transport vositasini olib qochish (JK 267-moddasi).....	152
11-§. Transportning xavfsiz ishlashini ta'minlashga doir qoidalarni buzish (JK 268-moddasi).....	156
10-§. Avtomobil yo'llaridan foydalanish va ularni qo'riqlash qoidalarini buzish (JK 269-moddasi)	159

«Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar	161
Qo'shimcha adabiyotlar	162
O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar	162
Ilmiy maqolalar	163
III BOB. GIYOHVANDLIK VOSITALARI YOKI PSIXOTROP MODDALAR BILAN QONUNGA XILOF RAVISHDA MUOMALA QILISHDAN IBORAT JINOYATLAR.....	164
1-§. Taqiqlangan ekinlarni yetishtirish (JK 270-moddasi)	165
2-§. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash (JK 271-moddasi).....	176
3-§. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek, ularni qonunga xilof ravishda o'tkazish (JK 273-moddasi) ..	181
4-§. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb etish (JK 274-moddasi)	190
5-§. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar ishlab chiqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish (JK 275-moddasi)	196
6-§. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar (JK 276-moddasi).....	200
«Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar	202
Qo'shimcha adabiyotlar	203
O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar	203
Ilmiy maqolalar	204
IV BOB. JAMOAT TARTIBIGA QARSHI JINOYATLAR	207
1-§. Bezorilik (JK 277-moddasi).....	207
2-§. Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish hamda o'tkazish (JK 278-moddasi)	216
«Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar	223
Qo'shimcha adabiyotlar	224
O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar	224
Ilmiy maqolalar	224
V BOB. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI JINOYATLAR	226
1-§. Axborotlashtirish qoidalarini buzish (JK 278 ¹ -moddasi)	226

2-§. Kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish (JK 278 ² -moddasi).....	237
3-§. Kompyuter tizimidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus vositalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab tayyorlash yoxud o‘tkazish va tarqatish (JK 278 ³ -moddasi).....	245
4-§. Kompyuter axborotini modifikatsiyalashtirish (JK 278 ⁴ -moddasi).....	249
5-§. Kompyuter sabotaji (JK 278 ⁵ -moddasi).....	255
6-§. Zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, ishlatish yoki tarqatish (JK 278 ⁶ -moddasi)	258
«Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar	263
Qo‘shimcha adabiyotlar	264
O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar	264
Ilmiy maqolalar	265

VI BOB. BO‘YSUNISH VA HARBIY SHA’NGA RIOYA ETISH TARTIBIGA QARSHI JINOYATLAR..... 269

1-§. Bo‘ysunmaslik (JK 279-moddasi)	274
2-§. Buyruqni bajarmaslik (JK 280-moddasi).....	279
3-§. Boshliqqa qarshilik ko‘rsatish yoki uni xizmat vazifalarini buzishga majbur qilish (JK 281-moddasi)	280
4-§. Boshliqni qo‘rqitish (JK 282-moddasi)	285
5-§. Badanga shikast yetkazish (JK 283-moddasi)	286
6-§. Bo‘ysunuvchining o‘z boshlig‘ini yoki boshliqning o‘ziga bo‘ysunuvchini haqorat qilishi (JK 284-moddasi).....	289
7-§. Bir-biriga tobe bo‘lmagan harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga oid ustav qoidalarini buzish (JK 285-moddasi).....	291
8-§. Marodiyorlik (JK 286-moddasi)	298
«Bo‘ysunish va harbiy sha’nga rioya etish tartibiga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar	299

VII BOB. HARBIY XIZMATNI O‘TASH TARTIBIGA QARSHI JINOYATLAR..... 301

1-§. Harbiy qism yoki xizmat joyini o‘zboshimchalik bilan tashlab ketish (JK 287-moddasi).....	301
2-§. Dezertirlik (JK 288-moddasi)	306
3-§. Halok bo‘layotgan harbiy kemani tashlab ketish (JK 289-moddasi)	309
4-§. O‘zining biron a‘zosini mayib qilish yo‘li bilan yoki boshqa usulda harbiy xizmatdan bo‘yin tovlash (JK 290-moddasi)	312
5-§. Qorovul xizmatini o‘tash qoidalarini buzish (JK 291-moddasi).....	316

6-§. Ichki xizmatni o'tash yoki garnizonda patrullik qilish qoidalarini buzish (JK 292-moddasi).....	323
7-§. Jangovar navbatchilikni o'tash qoidalarini buzish (JK 293-moddasi).....	326
8-§. Chegara xizmatini o'tash qoidalarini buzish (JK 294-moddasi).....	329
«Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar.....	331
Qo'shimcha adabiyotlar	332
Ilmiy maqolalar	332

VIII BOB. HARBIY MULKNI SAQLASH YOKI UN DAN FOYDALANISH

TARTIBIGA QARSHI JINOYATLAR..... 333

1-§. Harbiy mulkni behuda sarflash, yo'qotish yoki ishdan chiqarish (JK 295-moddasi)	333
2-§. Harbiy mulkni nobud qilish yoki unga shikast yetkazish (JK 296-moddasi).....	338
3-§. Atrofdagilar uchun katta xavf manbai bo'lgan qurol-yarog', shuningdek, modda va buyumlar bilan muomalada bo'lish qoidalarini buzish (JK 297-moddasi)	341
4-§. Mashinalarni boshqarish va ulardan foydalanish qoidalarini buzish (JK 298-moddasi)	346
5-§. Uchish yoki uchishga tayyorgarlik ko'rish qoidalarini buzish (JK 299-moddasi)	352
6-§. Kemani boshqarish qoidalarini buzish (JK 300-moddasi).....	355
«Harbiy mulkni saqlash yoki undan foydalanish tartibiga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar	358


IX BOB. HARBIY MANSABDORLIK JINOYATLARI 359

1-§. Hokimiyatni suiiste'mol qilish, hokimiyat vakolatidan tashqariga chiqish yoki hokimiyat harakatsizligi (JK 301-moddasi)	359
2-§. Xizmatga sovuqqonlik bilan qarash (JK 302-moddasi).....	364
«Harbiy mansabdorlik jinoyatlari» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar	366
Qo'shimcha adabiyotlar	366
O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar	366


* JKning 272-moddasi O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 20 avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 832-I-son Qonuni bilan bekor qilingan. (XI bo'lim 28-band).


I BOB. JAMOAT XAVFSIZLIGIGA QARSHI JINOYATLAR

1-sxema



2-sxema





1-§. Jinoiy uyushma tashkil etish (JK 242-moddasi)

Mazkur jinoyatning **bevosita obyekti** jamoat va fuqarolar xavfsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

NOTA BENE !

Jamoat xavfsizligi – ijtimoiy hayot kechirish uchun xavfsiz shart-sharoitlar, shuningdek, fuqarolar hayoti va sog'lig'i daxlsizligi, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlarini, barcha davlat yoki jamoat tuzilmalari normal faoliyatini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar.

JK 242-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan **jinoyat obyektiv tomondan** jinoiy uyushma tashkil etish, jinoiy uyushma yoki uning bo'linmalarini tuzish yoki ularga rahbarlik qilish, shuningdek, ularning mavjud bo'lishi va ishlab turishini ta'minlashga qaratilgan faoliyatda ifodalanadi.

JK 29-moddasi 5-qismiga ko'ra ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun oldindan birlashishi **jinoiy uyushma** deb topiladi.

Jinoiy uyushmaning quyidagi belgilari mavjud:

1) uyushmaning barqarorligi va a'zolarining jipslashganligi. Jipslashganlik ishtirokchilarning o'z oldiga qo'ygan jinoiy maqsadlarga erishishdagi birdamligi, ya'ni birgalikda harakat qilishida ifodalanadi.

Barqarorlik kabi jipslik jinoiy uyushma a'zolari sodir etishni mo'ljallayotgan jinoyatlarning og'irligi va jinoiy faoliyatning ko'proq yoki kamroq davom etishiga bog'liq bo'ladi;

2) umumiy jinoiy niyat asosida birlashish;

3) ierarxik tuzilish (rahbarlar, oddiy bajaruvchilarning mavjudligi, guruh a'zolari o'rtasida vazifa va majburiyatlarning taqsimlanganligi);

4) jinoiy faoliyat olib borish uchun ikki yoki undan ortiq shaxs birlashgan uyushgan guruhdan farqli ravishda jinoiy uyushmaga bir necha uyushgan guruh birlashadi. Uyushgan jinoiy guruh jinoiy uyushmaning tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi.

Jinoiy uyushma faoliyatida qator jinoiy guruhlarning ishtirok etishi, uning o'ziga xos xususiyatidir. Ushbu guruhlar guruh tashkilotchisi (rahbari)ga bevosita bo'ysunadi yoki ularning nazorati ostida yoxud ta'sirida bo'ladi.

Jinoiy uyushma **tashkil etish**:

1) jinoiy uyushma tashkil etish yoki unga yoxud uning bo'linmalariga rahbarlik qilish;

2) jinoiy uyushma yoki uning bo'linmalari mavjud bo'lishi va ishlab turishini ta'minlashga qaratilgan faoliyatda namoyon bo'ladi.

Jinoiy uyushmani tuzish deyilganda, ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhlarning yagona rahbarlik ostida birlashishi, uyushmaning jinoiy faoliyati rejasi tuzilishi, vazifalarning uyushgan guruhlar yoki ularning tarkibiy bo'linmalari o'rtasida taqsimlanishi, muayyan jinoyat tayyorlanib amalga oshirilishini va h.k.larni tushunish zarur.

Jinoiy uyushmaning mavjud bo'lishi va ishlab turishini ta'minlashga qaratilgan faoliyat jinoiy uyushma a'zolarini moddiy ta'minlashda, jinoiy uyushmani har qanday yo'l bilan qo'llab-quvvatlashda, masalan, transport vositalarini, qalbaki hujjatlarni berish, texnika vositalari bilan ta'minlash, jinoiy faoliyat natijasida qo'lga kiritilgan pullarni oshkoralashtirish va h.k.larda ifodalanishi mumkin.

Jinoiy uyushma yoki uning bo'linmalariga **rahbarlik qilish** jinoiy faoliyat rejalarini ishlab chiqish, uyushma a'zolari orasida vazifalarning taqsimlanishi, jinoiy tajovuz obyektlarining tanlanishi, uyushmaning boshqa a'zolariga ko'rsatma va topshiriqlar berishda ifodalanadi.

Jinoiy uyushma yoki uning bo'linmalarining **mavjud bo'lishi yoki o'z vazifalarini bajarishiga qaratilgan faoliyat** deganda, jinoiy uyushma a'zolarini moddiy jihatdan rag'batlantirish, jinoiy uyushmaga har qanday transport vositalari, soxta hujjatlar, qurol-yarog', aloqa vositalari, ichki ishlar organlari xodimlari formasi bilan ta'minlash, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni oshkoralashtirish va h.k. yordam ko'rsatish tushuniladi.

JK 242-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat jinoiy uyushma yoxud uning bo‘linmalari tuzilgan yoki ularga rahbarlik qilingan paytdan e’tiboran **tugallangan** deb hisoblanadi.

JK 242-moddasi 1-qismida javobgarlik belgilangan jinoyat **subyektiv tomondan to‘g‘ri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor jinoiy uyushma mavjud bo‘lishi va o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni bajarish maqsadida jinoiy uyushma tuzgan yoki rahbarlik qilayotganligini anglaydi.

Jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanish jinoiy uyushma tashkil etishning **maqsadi** hisoblanadi.

Jinoiy uyushma yoki uning bo‘linmalariga rahbarlik qilishning maqsadi jinoiy uyushmaning barqarorligi va jipsligini ta‘minlash, uning a‘zolari orasida vazifalarni aniq taqsimlash va h.k.da ifodalanadi. Jinoiy uyushma mavjudligi va o‘z vazifalarini bajarishning maqsadi ushbu uyushmaga jinoiy faoliyat yuritishi uchun yordam berish, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishdan iborat.

Jinoyatning **motivlari** turlicha bo‘lib, ko‘pincha moddiy manfaat ko‘rishga qaratiladi. Qilmishning motivi va maqsadi uning kvalifikatsiyasiga ta‘sir qilmaydi.

JK 242-moddasi 1-qismida javobgarlik belgilangan jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to‘lgan, aqli raso shaxs bo‘ladi.

Qilmishning subyeksi jinoiy uyushma tashkilotchisi, jinoiy uyushma bo‘linmalari rahbarlari yoki uning mavjudligini yoki vazifalarining bajarilishini ta‘minlashga qaratilgan faoliyat bilan shug‘ullanayotgan boshqa shaxslar hisoblanadi.

Jinoiy uyushma tashkilotchisi ushbu uyushma a‘zolari tomonidan sodir etilgan boshqa jinoyatlar uchun ham javobgardir, bajaruvchining eksessi bundan mustasno. Jinoiy uyushma oddiy ishtirokchilari esa sodir etgan konkret jinoyatlari uchun javobgar qilinadilar.

Agar 14 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan shaxs jinoiy uyushmani tashkil qilish yoki uning faoliyatida ishtirok etishda qatnashgan bo‘lsa, agar ularning qilmishida muayyan jinoyat tarkibining alomatlari bo‘lsa, ularning qilmishini JK tegishli moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

JK 242-moddasi 2-qismidagi qilmishning **obyektiv tomoni** uyushgan qurolli jinoiy guruhni tuzish, shuningdek, bunday guruhga rahbarlik qilish yoki unda ishtirok etishda ifodalanadi.

JK 29-moddasi to'rtinchi qismiga muvofiq, ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikda jinoiy faoliyat olib borish uchun oldindan til birlashtirib, bir guruhga birlashishi uyushgan guruh, deb topiladi.

Uyushgan jinoiy guruhning o'ziga xos belgilaridan biri ana shunday guruhlarning barqarorligidir.

Guruhning barqarorligi deganda, guruh a'zolari o'rtasida mustahkam, doimiy aloqalar mavjudligi, guruh a'zolari zimmasiga muayyan vazifalar yuklatilganligi, ular o'rtasida rollarning taqsimlanganligini tushunish zarur.

Tarkibining doimiyligi, uning a'zolari o'rtasida mustahkam aloqaning mavjudligi, harakatlarining avvaldan kelishilganligi, jinoiy faoliyat ko'rinishi va usullarning bir xilligi, uzoq vaqt ish ko'rishi, sodir etilgan jinoyatlarning miqdori kabi belgilar guruhning turg'unligidan dalolat beradi.

Jinoiy guruhning barqarorligi, shak-shubhasiz, uning yuqori darajada uyushganligidan dalolat beradi. Bunday jihat barcha jinoiy ishlarning rejalashtirilishida, mustahkam intizomda, martaba darajasiga muvofiq mutlaq tobelikda va h.k.larda namoyon bo'ladi.

Jinoiy faoliyat amalga oshirilganida guruh tomonidan bir qator jinoyatlarning sodir etilishi rejalashtiriladi.

Guruhning qurollanganligi deganda, muayyan jinoyat sodir etilgunga qadar uyushgan guruh a'zolarida hech bo'lmaganida bir dona o'qotar, sovuq yoki gaz quroli, shuningdek, turli portlatuvchi moslamalarning borligi tushuniladi.

«O'qotar quroli», «portlatish vositasi» va h.k.ga JK 247-moddasi tahlilida alohida to'xtalamiz.

Jinoyat predmetini sovuq qurol, deb topish uchun asosiy mezon bo'lib, uning tirik nishonga zarar yetkazishga mo'ljallanganligi hisoblanadi. Ko'p hollarda, ushbu mezon mazkur predmetlar sifatida faqat

jangovar qurol, ya'ni xanjar, nayza, qilich va h.k.ning ishlatilishiga asoslanadi.

Sanab o'tilgan predmetlar o'z tabiatiga ko'ra faqat shaxsning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazish uchun tayyorlanadi.

Sovuq qurol kriminalistika nuqtai nazaridan ahamiyatga ega bo'lgan asoslarga ko'ra tasniflanadi.

Maqsadiga ko'ra, sovuq qurol jangovar (harbiy, politsiya, maxsus), fuqaroviy (sport, ov, milliy libosga taqiladigan) va kriminal qurolga bo'linadi.

Tuzilishining xususiyatga ko'ra esa, sovuq qurol nayzali, urib-maydalovchi, aralash va maskirovka qilingan bo'lishi mumkin.

NOTA BENE !

Sovuq qurol – 1) odamning mushaklari kuchidan foydalanib bevosita jabrlanuvchining tanasiga tegishli kiritish yo'li bilan tirik nishonni yo'q qilish uchun maxsus mo'ljallangan predmetlar bo'lib, ularga sovuq, nayzali qurollar (nayzalar, jangovar pichoqlar, milliy va ov pichoqlari kabi qurollar; nayza-pichoqlar, qilichlar va h.k.); boshqa kesuvchi, teshuvchi, chopuvchi yoki aralash xususiyatga ega bo'lgan (jang boltalari, nayzalar va h.k.); shuningdek, urib sindiruvchi qurollar (kastetlar, nunchaklar va h.k.);

2) nishonga masofadan turib zarar yetkazishga mo'ljallangan odamning mushak kuchi yordamida harakat yo'nalishiga ega bo'ladigan qurollar (nishonga otiladigan pichoqlar, boltalar va h.k.) yoxud mexanik qurilmalar (qamchilar, arbaletlar va h.k.) kiradi.

Sovuq qurol **tayyorlanish usuliga** ko'ra, zavodda, kasanachilik holda ishlab chiqarilgan yoki aybdorning o'zi yasagan bo'lishi mumkin.

Tayyorlangan joyiga ko'ra, sovuq qurol o'z yurtimizda yoki xorijda ishlab chiqariladi.

Muayyan predmetni sovuq qurol deb topish uchun, albatta, sud ekspertizasi tayinlanadi va uning xulosasi asosida mazkur predmet sovuq qurol deb topiladi.

NOTA BENE !

Gaz quroliga gaz pistoletlari, gaz ballonchalari, zaharli moddalar bilan to'ldirilgan, ko'zdan yosh oqizuvchi yoki boshqacha ta'sir ko'rsatuvchi va tirik nishonga vaqtincha zarar yetkazish uchun mo'ljallangan aerosolli va boshqa qurilmalar kiradi.

Shuni ta'kidlash joizki, jinoiy uyushma a'zolari odam hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan biror-bir modda bilan to'ldirilgan gaz qurolidan foydalansalar, bunday jinoiy guruh uyushgan qurolli guruh, deb topilishi kerak. Gaz qurolidagi modda shaxsning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavf tug'dirmasa, qilmishni **JK 242-moddasi 2-qismi** bilan kvalifikatsiya qilish uchun asos ham bo'lmaydi.

Qurol o'qotar yoki sovuq qurol bo'lishi mumkin. Guruh jangovar aslahalar, portlovchi moddalar bilan jihozlangan bo'lsa ham uni qurollangan guruh, deb e'tirof etish zarur. Jinoiy guruhning qurollanganlik alomatini belgilash uchun guruh a'zolaridan birida hech bo'lmaganda bir dona qurol mavjudligi, bundan guruhning boshqa a'zolari xabardor ekanligi aniqlanishi zarur.

Uyushgan qurolli guruh **tuzish** deganda, uyushgan qurolli guruhni tuzish, unga rahbarlik qilishga qaratilgan har qanday harakat (bosqinchi guruh a'zolarini tanlash, ular o'rtasida rollarni taqsimlash, jinoiy faoliyat rejalarini tuzish, jinoiy guruhni qurollantirish va h.k.lar)ni tushunish zarur. Uyushgan qurolli guruhga **rahbarlik qilish** deganda, mavjud uyushgan qurolli guruh faoliyatiga boshchilik qilishga qaratilgan har qanday harakatni tushunish zarur.

Uyushgan qurolli guruhda ishtirok etish nafaqat qurolli guruh tomonidan sodir etiladigan hujumlarda ishtirok etish, balki uyushgan qurolli guruh tarkibida boshqa vazifalarni, shu jumladan moliyalashtirish, qurol bilan ta'minlash, hujum qilish uchun obyektlarni tanlash, transport bilan ta'minlash, huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa organlarning xodimlari bilan aloqalarni o'rnatish kabi harakatlarda o'z ifodasini topadi.

Uyushgan qurolli guruh tomonidan sodir etiladigan **hujumlarda ishtirok etish** deganda, uyushgan guruhning «doimiy» a'zosi bo'lmagan

shaxsning guruh tomonidan sodir etilayotgan jinoyatda ishtirok etishi (ushbu ishtirokni anglagan holda) tushuniladi.

Uyushgan qurolli guruh tuzish yoki unga rahbarlik qilish, guruh tomonidan jinoyat sodir etilgani yoki sodir etilmaganidan qat'i nazar, uyushgan qurolli guruh tuzilgan yoxud uyushgan qurolli guruhga kirishga rozilik bildirilgan paytdan e'tiboran **tugallangan** jinoyat deb e'tirof etiladi.

Uyushgan qurolli guruh tarkibiga kirmagan va ushbu guruh tomonidan sodir etilgan hujumlarda ishtirok etmagan, biroq unga yoki uning ayrim a'zolariga jinoiy faoliyatini amalga oshirishda bir martalik yordam ko'rsatgan shaxslarning harakatlari tegishli jinoyatlarda ishtirokchilik sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Uyushgan qurolli guruhga yordam ko'rsatish qurolni sotishda, transport bilan ta'minlashda, hujum qilish obyektni ko'rsatishda o'z ifodasini topishi mumkin. Mazkur harakatlar bir martalik tusga ega bo'lishlari lozim, chunki ular muttasil ravishda sodir etilayotgan bo'lsa, shaxs jinoiy uyushma a'zosiga aylanadi.

Uyushgan guruh tarkibida qurolli hujum qilishga dalolat qilish uyushgan guruh a'zolarini muayyan muassasa yoki muayyan shaxslarga hujum qilishga qiziqtirishda o'z ifodasini topadi.

Subyektiv tomondan JK 242-moddasi 2-qismida javobgarlik belgilangan jinoyat **qasddan** sodir etiladi. Subyekt uyushgan qurolli guruh tuzayotganligini yoki uning tarkibiga kirayotganligini anglaydi va buni xohlaydi. Jinoyatning sodir etilish motivi va maqsadi har xil bo'lishi mumkin, ammo ular jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir etmaydi.

Jinoyatning **subyekt** 16 yoshga to'lgan, aqli raso uyushgan qurolli guruhni tuzgan, unga rahbarlik qilgan yoki uning a'zosi bo'lgan har qanday shaxs hisoblanadi.

Uyushgan qurolli guruh tarkibiga kiradigan yoki guruh tomonidan sodir etilgan hujumlarda ishtirok etgan 13 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar ular tomonidan aniq sodir etilgan va JK tegishli moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar (masalan, odam o'ldirish, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish, bosqinchilik va hokazolar) uchun javobgar bo'ladilar.

Jinoiy uyushma tarkibida jinoyat sodir etgan, bunday guruh tuzgan, unga rahbarlik qilgan va jinoyat sodir etgan shaxslarning qilmishi ushbu modda bilan qamrab olinadi va JK boshqa moddalari bilan qo‘shimcha ravishda kvalifikatsiya qilinmaydi.

2-§. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (JK 243-moddasi)

Mazkur jinoyatning **bevosita obyekti** respublika iqtisodiy faoliyati sohasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlardir.

Jinoiy faoliyat natijasida aybdor qo‘lga kiritgan daromadlar, ya’ni mulk (pul mablag‘lari yoxud boshqa ashyolar) jinoyatning **predmeti** hisoblanadi.

Odatda mazkur qilmishning predmeti talon-toroj qilish, kontrabanda, tovlamachilik, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish, fohishaxona ochish yoki saqlash, pornografiya materiallarini tayyorlash yoki tarqatish kabi jinoyatlarni sodir etish oqibatida olingan ashyolardir.

Obyektiv tomondan jinoyat jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, ya’ni mulk (pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk) jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo‘lsa, uni o‘tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo‘li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, xuddi shuningdek, bunday pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko‘chirish usulini, pul mablag‘lariga yoki boshqa mol-mulkka bo‘lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashliligini yashirish yoxud sir saqlash kabi harakatlarda ifodalanadi.

NOTA BENE !

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish – mulk (pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk) jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo‘lsa, uni o‘tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo‘li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, xuddi shuningdek, bunday pul

mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashliligini yashirish yoxud sir saqlashdir.

O'tkazish deganda, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlar bilan banklarda bank bilan tuzilgan omonat shartnomasiga ko'ra biron-bir moliyaviy operatsiya o'tkazilishi tushuniladi.

Aylantirish deganda, jinoiy faoliyatdan olingan mol-mulkka qonuniy tus berish maqsadida unga egalik qilish, foydalanish, tasarruf qilish uchun oldi-sotdi, almashtirish, sovg'a qilish va fuqarolik huquqiy bitimlar tuzish, qonuniy tadbirkorlik yoki ishlab chiqarish tuzilmasini tashkil etish yoxud ular faoliyatining ishlab turishini ta'minlashga sarflanishi tushunilishi kerak.

Almashtirish deganda, jinoiy faoliyatdan o'zbek so'mida olingan daromadlarni boshqa chet el valyutasiga konvertatsiya qilish tushuniladi.

JK 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyat shu modda dispozi-tsiyasida sanab o'tilgan harakatlardan birontasi sodir etilgan paytdan e'tiboran **tugallangan** deb e'tirof etiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Jinoyatni sodir etish **motivi** va undan ko'zlangan maqsad jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir etmaydi.

Jinoyatning **maqsadi** jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni oshkorlashtirishdir.

Ushbu jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to'lgan, aqli raso va jinoiy faoliyat natijasida olingan daromadlarni oshkorlashtirishda ishtirok etgan jismoniy shaxs hisoblanadi.

3-§. Ommaviy tartibsizliklar (JK 244-moddasi)

Mazkur qilmishning **bevosita asosiy obyeksi** jamoat xavfsizligi, jamoat tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir. **Qo'shimcha bevosita obyeksi** esa, fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va o'zgarlar mulkini muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat qurol yoki qurol sifatida foydalaniladigan boshqa narsalarni ishlatib yoxud ishlatish bilan qo‘rqitib shaxsga nisbatan zo‘rlik ishlatish, qirg‘in solish, o‘tqo‘yish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish, hokimiyat vakiliga qarshilik ko‘rsatish orqali ommaviy tartibsizliklarni tashkil etish, ommaviy tartibsizliklarda faol qatnashishda ifodalanadi.

NOTA BENE !

Ommaviy tartibsizliklar – jamoat joylarida belgilangan tartib va xavfsizlik choralari buzishda ifodalanuvchi ko‘plab odamlar (to‘da)ning boshqarish qiyin bo‘lgan, stixiyali harakatlari.

Ommaviy tartibsizliklarni **tashkil etish** deganda, ommaviy tartibsizliklarni tayyorlashga qaratilgan har qanday harakat, masalan, ommaviy tartibsizliklar faol ishtirokchilarini tayyorlash, rahbarlar o‘zagini tashkil etish, reja tuzish, ommaviy tartibsizliklar uyushtiriladigan joy va vaqtni tanlash, plakatlar, shiorlar, varaqalar tayyorlash va h.k. tushunilishi zarur.

Ko‘rib chiqilayotgan moddaning dispozitsiyasiga muvofiq, ommaviy tartibsizliklar shaxsga nisbatan zo‘rlik ishlatish, qirg‘in solish, o‘t qo‘yish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish, qurol yoki qurol sifatida foydalaniladigan boshqa narsalarni ishlatib yoxud ishlatish bilan qo‘rqitib, hokimiyat vakiliga qarshilik ko‘rsatish bilan birgalikda sodir etilgan bo‘lishi lozim.

Ushbu jinoyatni sodir etishda **shaxsga nisbatan zo‘rlik ishlatish** deganda, jabrlanuvchiga nisbatan ham ruhiy, ham jismoniy ta‘sir ko‘rsatish tushunilishi zarur.

Ruhiy zo‘rlik ishlatish o‘ldirish, badanga shikast yetkazish, mulkni nobud qilish yoki unga zarar yetkazish bilan qo‘rqitishda ifodalanishi mumkin. Ommaviy tartibsizliklar vaqtida ruhiy zo‘rlik ishlatishda aybdor bo‘lgan shaxslarning harakati faqat ko‘rib chiqilayotgan modda bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi, o‘ldirish yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitganlik

uchun javobgarlik nazarda tutilgan modda bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiya qilinmaydi.

Jismoniy zo'rlik ishlatish deganda, kaltaklash, do'pposlash, badanga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish tushunilishi zarur.

Ommaviy tartibsizliklarni sodir etish vaqtida odam o'ldirilganida, qilmish jinoyatlar jami bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi zarur.

Qirg'in solish deganda, fuqarolarga nisbatan zo'rlik ishlatilishi, moddiy boyliklar (transport, uylar, inshootlar va h.k.)ning yakson qilinishi tushunilishi kerak.

O't qo'yish – biron-bir mulk, inshoot, transport yoki boshqa narsalarning yoqib yuborilishi.

Mulkka shikast yetkazish – qisman yaroqsiz holga keltirilgan mulkni muayyan sarf-xarajatlar evaziga tiklash imkoniyatining mavjudligi.

Mulkni nobud qilish deganda, uni batamom yaroqsiz holga, ya'ni mulkdan ko'zlangan maqsadda foydalanib bo'lmaydigan holga keltirishini tushunish zarur.

Qurol ishlatish deganda, bevosita vazifasidan kelib chiqib, quroldan (jonli nishonni nobud qilish maqsadida o'q otish, inshootlar, uylar, transportni yakson qilishda) foydalanish tushunilishi zarur. Qurollar o'q otuvchi yoki sovuq qurol bo'lishi mumkin.

Qurol sifatida foydalaniladigan boshqa narsalar deganda, fizikaviy xususiyatlariga ko'ra, ulardan foydalanilganida shaxsga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday jism tushunilishi kerak.

Ommaviy tartibsizliklarda **faol qatnashish** deganda, aybdorning shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatishi, qirg'in solishi, o't qo'yishi, mulkka shikast yetkazishi yoki uni nobud qilishi, qurol yoki qurol sifatida foydalaniladigan boshqa narsalarni ishlatib, hokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatishda bevosita ishtirokini tushunish zarur.

Tahlil etilayotgan modda dispozitsiyada nazarda tutilgan harakat sodir etilgan paytdan e'tiboran qilmish **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi, qilmishning **motivi** va undan ko'zlangan **maqsad** uning kvalifikatsiyasiga ta'sir etmaydi.

Jinoyatning **motivi** millatchilik, hokimiyatni egallashga intilish, g'araz, bezorilik va h.k. bo'lishi mumkin.

Jinoyatning **subyekti** 16 yoshga to'lgan ommaviy tartibsizliklarning tashkilotchilari va faol qatnashchilari bo'lgan aqli raso jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Ommaviy tartibsizliklarning boshqa ishtirokchilari ommaviy tartibsizliklar jarayonida sodir etgan muayyan jinoyatlari uchun javobgar bo'ladilar.

Agar ommaviy tartibsizliklarning tashkilotchilari yoki faol qatnashchilari 16 yoshga to'lmagan bo'lsa, u holda ular ommaviy tartibsizliklar vaqtida faqat o'zi sodir etgan muayyan jinoyatlari uchun, masalan, qasddan odam o'ldirish, o'zgarar mulkini nobud qilish, zo'rlab nomusga tekkanlik uchun javobgar qilinadilar.

4-§. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish (JK 244¹-moddasi)

Jinoyatning bevosita obyekti jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Mazkur qilmishning **predmeti** diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan, qirg'in solish yoki fuqarolarni zo'rlab ko'chirish yoxud aholi orasida vahima tarqatishga da'vat etuvchi materiallar hisoblanadi.

Materiallar deganda, varaqalar, plakatlar, adabiyotlar, video-kassetalar va h.k. tushuniladi.

NOTA BENE !

Diniy ekstremizm – qat'iy diniy nuqtai nazarga ega ekanlik, dinga oid siyosat va mafkurada ashaddiy, favqulodda usullar yo'l tutishga, keskin choralar ko'rishga tarafdorlik.

NOTA BENE !

Separatizm – lotincha «separatus» (alohida) soʻzidan olingan boʻlib, alohidalikka intilish, davlatning bir qismini ajratib olish va yangi davlat tuzish yoki mamlakatning bir qismiga avtonomiya berilishiga erishishga harakat qilish.

NOTA BENE !

Diniy aqidaparastlik – lotincha «qatʼiy» soʻzidan olingan, mavjud dinlar paydo boʻlgan davrdagi shart-sharoitlarga qaytishga intilish.

Obyektiv tomondan JK 244¹-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat, birinchidan, diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik gʻoyalari bilan yoʻgʻrilgan, qirgʻin solishga yoki fuqarolarni zoʻrluk bilan koʻchirib yuborishga daʼvat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallarni tayyorlash, ikkinchidan, shu xildagi materiallarni tarqatish maqsadida saqlashda ifodalanadi.

Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni **tayyorlash** deganda, har qanday koʻrinishdagi shunday materiallarning yaratilishi tushuniladi.

Jamoat xavfsizligiga va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash shu xildagi materiallarning bir nusxasi tayyorlangan paytdan eʼtiboran, bu material tarqatilgani yoxud tarqatish maqsadida saqlanganidan qatʼi nazar **tugallangan** deb eʼtirof etiladi.

Koʻrib chiqilayotgan modda nuqtai nazaridan **saqlash** deganda, yuqorida koʻrsatilgan materiallar ularni tarqatish maqsadida aybdorning faktik egaligida (oʻzi bilan, uy-joyida, pana joyda va boshqa joylarda) boʻlishi bilan bogʻliq boʻlgan har qanday harakatlar tushuniladi.

Diniy mazmundagi materiallarni saqlash yagona uzoqqa choʻzilgan jinoyatdir, uning oʻziga xos xususiyati quyidagilardan iborat. Mazkur qilmish uzoq vaqt davomida jinoiy-huquqiy muhofaza obyektiga tajovuz qiladigan bir-biriga oʻxshash bir necha gʻayriqonuniy qilmishlardan iborat boʻladi va jinoyat toʻxtatilgan yoki aybdor oʻz aybini boʻyniga olib arz qilgan va unda yuqorida koʻrsatilgan jinoyat predmetlarini tarqatish

maqsadi aniqlangan paytdan e'tiboran **tugallangan** deb hisoblanadi. Agarda aybdor unda saqlanayotgan diniy mazmundagi materiallarni uchinchi shaxs foydasiga musodara qilsa, saqlash ko'rib chiqilayotgan jinoyat obyektiv tomonining ikkinchi shakli – tarqatishga o'tadi.

JK 244¹-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan qilmish **obyektiv tomondan** diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan, qirg'in solishga yoki fuqarolarni zo'rlik bilan ko'chirib yuborishga da'vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan ma'lumotlar va materiallarni har qanday shaklda tarqatish, shuningdek, fuqarolarning totuvligini buzish, vaziyatni beqarorlashtiruvchi tuhmatona uydirmalar tarqatish hamda jamiyatda qaror topgan axloq qoidalariga va jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan boshqa qilmishlarni sodir etish maqsadida dindan foydalanishdan, shuningdek diniy-ekstremistik, terrorchilik tashkilotlarining atributlarini yoki ramziy belgilarini tarqatish yoxud namoyish etishdan iboratdir.

Aytib o'tilgan materiallarni **tarqatish** deganda, ularni osib qo'yish, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish, ko'pchilik oldida, televideniye, radio va h.k. orqali aytish, ya'ni shu materiallarning og'zaki yoki yozma shaklda hech bo'lmaganda bir shaxsga oshkor etilishini tushunish zarur.

Tuhmatona uydirmalar deganda, yolg'onligi oldindan ma'lum bo'lgan, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarning tarqatilishini tushunish zarur.

Vaziyatni beqarorlashtiruvchi uydirmalar deganda, jamoat tartibining buzilishiga, korxonalar, muassasa, tashkilotlar faoliyatining vaqtincha to'xtab qolishiga, qo'rquv, vahima, ishonchsizlik va h.k.larning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yolg'on dalillar, axborotlar tushuniladi.

JK 244¹-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlar yoki materiallar tarqatilgan paytdan e'tiboran, oqibati ro'y bergan yoki bermaganligidan qat'i nazar **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan ushbu qilmish **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi.

Jinoyatni sodir etishdan ko'zlangan **maqsad** – diniy ekstremizm, separatizm, aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan materiallarni

tarqatish, qirg'in solish, fuqarolarni zo'rlik bilan ko'chirib yuborish, aholi orasida vahima tug'dirish, fuqarolar totuvligini buzish, tuhmatona, vaziyatni beqarorlashtiruvchi uydirmalar tarqatish jinoyatning zaruriy belgisi hisoblanadi.

Jinoyatning **subyekti** 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

JK 244¹-moddasi 3-qismida:

a) oldindan til biriktirib yoki bir guruh shaxslar tomonidan;

b) xizmat mavqeidan foydalanib;

v) diniy tashkilotlardan, shuningdek, chet el davlatlari, tashkilotlari va fuqarolaridan olingan moliyaviy yoki boshqa moddiy yordamdan foydalanib;

g) ommaviy axborot vositalaridan yoxud telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanib sodir etilganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Oldindan til biriktirish qilmishda avvaldan kelishib olgan bir necha shaxsning jinoyatni sodir etishda ishtirok etishi hisoblanadi.

JK 244¹-moddasi 3-qismi «a» bandini qo'llash uchun jinoyat tarkibi obyektiv tomoniga kiruvchi harakatlarning birortasi sodir etilgunga qadar hech bo'lmaganida ikki kishining avvaldan til biriktirganligi aniqlanishi darkor. Bunda jinoyatning birgalikda bajarilganligi (oddiy ishtirokchilik) yoki vazifalarning taqsimlanganligi (murakkab ishtirokchilik) ahamiyatga ega emas. Ishtirokchilarning jinoiy harakatlarni birgalikda amalga oshirishni avvaldan kelishib olgani muhimdir.

Qilmishni **JK 244¹-moddasi 3-qismi «a» bandi bilan bir guruh shaxslar** tomonidan sodir etilgan, deb kvalifikatsiya qilish uchun, haqiqatdan ham ikki yoki undan ortiq shaxsning avvaldan til biriktirmay (oddiy ishtirokchilik) jinoyat obyektiv tomoniga kiruvchi harakatlarni qisman yoki to'liq bajarganligi aniqlanishi kerak.

Xizmat mavqeidan foydalanish, keng ma'noda shaxsning o'z xizmat vazifasiga kiruvchi vakolatlari, majburiyatlarini buzishda ifodalanadi. **JK 244¹-moddasi 3-qismi «b» bandida** nazarda tutilgan qilmishni xizmat mavqeidan foydalanib sodir etish, masalan, nashriyot xodimi

tomonidan jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soluvchi materiallarni o‘z xodimlari va h.k. orasida tarqatishida ifodalanadi.

Jinoyat subyekti mansabdor shaxs bo‘lsa, ish holatlaridan kelib chiqqan holda qilmish jinoyatlar jami tariqasida JK 244¹-moddasi va 205- (Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste‘mol qilish) yoki 206- (Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish) moddalari bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Jinoyatni **JK 244¹-moddasi 3-qismi «v» bandi** bilan kvalifikatsiya qilish uchun chet el davlatlari, diniy tashkilotlar, fuqarolardan olingan moliyaviy yoki boshqa moddiy yordamning qanday usulda olinganligi ahamiyat kasb etmaydi, bunday homiylikning muayyan jinoiy maqsadni ko‘zlab amalga oshirilganligi yetarlidir.

**5-§. Diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik
yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish,
ularda ishtirok etish (JK 244²-moddasi)**

Jinoyatning **obyekti** jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzishda, ularga rahbarlik qilishda, ularda ishtirok etishda ifodalanadi.

Diniy ekstremistik, separatistik, fundametalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar **tuzish** deganda, ana shunday tashkilotlarga a‘zolarining tanlanishi va joy-joyiga qo‘yilib chiqilishi va h.k.larni tushunish zarur.

NOTA BENE !

Yuqoridagi tashkilotlarga rahbarlik qilish deganda, shunday xususiyatdagi tashkilotlar faoliyatini ta‘minlash, tashkilot a‘zolari o‘rtasida xizmat vazifalarini taqsimlash, ularga tavsiyanomalar, ko‘rsatmalar berish, ulardan hisobot talab qilish va h.k.ga qaratilgan har qanday harakatning bajarilishini tushunish zarur.

Ishtirok etish deganda, bunday tashkilotlarning mavjudligi qonunga xilof ekanligini anglab turib, ushbu tashkilotlar doirasida hamkorlik qilish haqida har qanday ko‘rinishda (yozma yoki og‘zaki) rozilik berilishini tushunish zarur.

Jinoyat diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot tuzilgan yoki ularga rahbarlik qilingan yoxud ularda ishtirok etilgan paytdan e‘tiboran **tugallangan** deb e‘tirof etiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat **qasddan** sodir etiladi. Aybdor diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzayotganligi, ularga rahbarlik qilayotganligi yoxud ularda ishtirok etishga rozilik berayotganligini angelaydi va shuni xohlaydi. Jinoyatning sodir etilish **motivi** va **maqsadi** uni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to‘lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin.

JKning 244²-moddasi 2-qismida og‘ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo‘lsa yoki voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan holda sodir etilgan bo‘lsa, javobgarlik kelib chiqishi nazarda tutilgan.

Odamlar o‘limi, ko‘p kishilarning badaniga og‘ir shikast yetkazilishi **og‘ir oqibatlar** deb hisoblanishi mumkin.

JK 244²-moddasi3-qismida basharti shaxs taqiqlangan tashkilotlar mavjudligi to‘g‘risida o‘z ixtiyori bilan xabar qilgan, jinoyatni ochishga yordam bergan bo‘lsa, shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etilishini nazarda tutuvchi rag‘batlantiruvchi norma mavjud.

Aybdor tomonidan har ikki shartning bajarilishi javobgarlikdan ozod qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

6-§. Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish (JK 244³-moddasi)

Ushbu jinoyatning **ijtimoiy xavfliligi** shundaki, diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash va ularning nazorat qilinmaydigan muomalasi davlatdagi ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqarishi, xususan, davlatning

diniy mazmundagi va dinga oid boshqa axborotlarni ishlab chiqarish va tarqatish, xorijda chop etilgan diniy adabiyotlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tarqatish (sotish), shuningdek, diniy tashkilotlar markaziy organlarining o‘z vakolatlarini amalga oshirishi ustidan nazoratni ham susaytiradi. Undan tashqari, diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, tarqatish maqsadida O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish nolegal diniy faoliyat (prozelitizm, ya’ni bir konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga yoki boshqa missionerlik faoliyatiga jalb etish) kabi real xavfni vujudga keltiradi. Bu esa, o‘z navbatida, diniy ekstremizm, aqidaparastlik va separatizmning yangi shakllari paydo bo‘lishi xavfini tug‘diradi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda bunday hollarning ko‘payganligi qayd etilmoqda.

Jinoyatning **turdosh (maxsus) obykti** jamoat xavfsizligini tartibga soluvchi, ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlardir.

Bevosita asosiy obykti O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, saqlash, mamlakat hududiga olib kirish yoki tarqatish tartibiga rioya qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. **Bevosita qo‘shimcha obykti** esa, jamiyatdagi normal axloqiy muhit, fuqarolarning axloqiy va jismoniy sog‘lig‘idir.

Bundan kelib chiqib, jinoyatning **predmeti** diniy mazmundagi materiallar, ya’ni diniy maqsadga qaratilgan buyumlar, diniy adabiyotlar va axborot beruvchi boshqa materiallardir.

NOTA BENE !

Diniy mazmundagi predmetlar – ibodat uchun mo‘ljallangan bino va inshootlar (masjid, cherkov, sinagog, monastir, ibodat uylari va h.k.) va maxsus diniy ta’limot berish, ibodat qilish va boshqa udumlar (cho‘qintirish, nikohlash, janoza o‘qish va h.k.)ni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ashyolardir.

Diniy adabiyotlarga diniy mazmundagi kitoblar, jurnal, risola va bosma ravishda chop etilgan boshqa materiallar kiradi.

Diniy mazmundagi axborot beruvchi boshqa materiallar deganda, varaqalar, plakatlar, maxsus kalendarlar, diniy nashrlarning kseronusxalari, kino, foto, audio, video mahsulotlar, Internetdagi diniy saytlar va h.k. tushunilishi kerak.

JK 244³-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning predmetlarida diniy ekstremizm, separatizm, aqidaparastlik g'oyalari bo'lmashligi kerak, aks holda qilmish ushbu modda bilan kvalifikatsiya qilinmaydi.

Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan asarlar, kino, foto, audio, video mahsulotlar va boshqa materiallarni tayyorlash, saqlash, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish aybdorda ularni keyinchalik tarqatish maqsadining bor yoki yo'qligidan qat'i nazar, shuningdek, ularni tarqatish JK244¹-moddasi (Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash yoki tarqatish) yoki JK 246-moddasi (Kontrabanda) sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

Jinoyatning **obyektiv tomoni** g'ayriqonuniy ravishda diniy mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki tarqatishda ifodalanadi. **JK 244³-moddasining** tuzilishi ma'muriy preyditsiyaga ega bo'lib, aybdor shunday harakatlari uchun shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilganidan keyin bir yil ichida yana shunday qilmishni sodir etsa, jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Diniy mazmundagi materiallarni **qonunga xilof ravishda tayyorlash** deganda, bunday faoliyat yuritishga huquqi bo'lmagan shaxs tomonidan keyinchalik tarqatish maqsadida shunday materiallarni yaratish bo'yicha maqsadga muvofiq harakat qilinishi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, diniy mazmundagi materiallarni ishlab chiqarish, eksport qilish, import qilish va tarqatish vakolati diniy tashkilotlarni boshqarish bo'yicha markaziy idoralarga berilgan, xususan, ushbu faoliyat yuritishga litsenziyasi bo'lgan idoralar diniy udumlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan predmetlarni chop etish va tarqatish huquqiga egadirlar.

Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash ushbu materiallarning bir donasi tayyorlangan vaqtdan **tugallangan** deb hisoblanadi.

Diniy mazmundagi materiallarni **qonunga xilof ravishda saqlash** deganda, yuqorida ko'rsatilgan materiallar aybdorning egaligida bo'lishi (cho'ntagida, binoda, xufiya va boshqa joyda) va tarqatish maqsadida saqlanishi tushuniladi.

Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda saqlash uzoqqa cho'zilgan jinoyat hisoblanadi va qilmish to'xtatilganda yoki aybdor aybini bo'yniga olib kelganida **tugallangan** hisoblanadi. Agar aybdor bunday materiallarni uchinchi shaxslarga bersa, qilmish tahlil etilayotgan jinoyat obyektiv tomonining boshqa shakli – g'ayriqonuniy ravishda tarqatish, deb topiladi.

Diniy mazmundagi materiallarni **qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasiga olib kirish** ushbu materiallarni xorijdan mamlakatimiz hududiga qonunda belgilangan tartibni buzib, tarqatish maqsadida olib kirilishida ifodalanadi.

Xorijda chop etilgan diniy mazmundagi materiallarni olib kelish va tarqatish huquqiga ularning mazmuni qonunda belgilangan tartibda ekspertiza qilinganidan keyin faqat diniy tashkilotlarni boshqarish bo'yicha markaziy idoralar egadir (O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonuni, 19-modda).

Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasiga olib kirish jinoyatning mazkur predmetlari respublika davlat chegarasidan o'tkazilgan va aybdorda ularni tarqatish maqsadi aniqlangan paytdan boshlab **tugallangan** jinoyat sifatida e'tirof etiladi.

Diniy mazmundagi materiallarni **qonunga xilof ravishda tarqatish** ularni uchinchi shaxslar foydasiga har qanday shaklda (sotish, uylarning eshigi tagiga tashlab ketish, ko'chada tarqatish va h.k.) berish yoki ularning mazmunini yetkazish (varaqlar osish, ommaviy axborot vositalarida chop etish, auditoriyalarda chiqishlar qilish, elektron pochtdan foydalanish va boshq.)da ifodalanadi.

Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tarqatish ushbu materiallar yoki ularning mazmuni bir shaxsga oshkor qilingan paytdan **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan JK 244³-moddasida nazarda tutilgan jinoyat **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi, shaxs ushbu modda dispozitsiyasida nazarda tutilgan g'ayriqonuniy harakatlarni sodir etayotganini anglaydi va diniy mazmundagi materiallarni tarqatishni xohlaydi.

Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish hollarida tahlil etilayotgan jinoyat subyektiv tomonining zaruriy belgisi tarqatish **maqsadining** mavjudligi hisoblanadi.

Aybdorda bunday maqsadning bo'lganligidan bir qator obyektiv omillar, xususan, tayyorlanayotgan, saqlanayotgan yoki olib kirilayotgan diniy mazmundagi materiallarning miqdori, shuningdek, tayyorlash usuli va h.k.lar dalolat beradi. Shaxsda diniy adabiyot muayyan bir turining ancha ko'p miqdorda va hralgan holda saqlanishi shaxsda mazkur adabiyotni tarqatish maqsadi mavjudligidan dalolat beradi. Shaxsda diniy mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadi yo'qligi ko'rsatilgan materiallarni tayyorlash, saqlash yoki respublika hududiga olib kirish uchun **JK 244³-moddasi** bo'yicha javobgarlikni istisno qiladi.

Qilmishning **motivlari** turlicha bo'lishi mumkin va ular jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Ushbu jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxs bo'ladi.

Agarda mansabdor shaxs o'zining xizmat vakolatlaridan foydalanib, diniy mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida qonunga xilof ravishda tayyorlagan, saqlagan, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirgan bo'lsa, qilmish holatlaridan kelib chiqib, JK 205- (Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish) yoki 206- (Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish) moddasi bilan javobgarlikka tortiladi.

7-§. Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish (JK 245-moddasi)

Ushbu jinoyatning **bevosita obyekti** jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, fuqarolarning erkin harakat qilishi, hayoti yoki sog'lig'ini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat terrorizm yoki tovlamachilik alomatlari bo'lmagan holda garov sifatida tutqunlikka olingan shaxsni ozod qilish sharti bilan davlat, xalqaro tashkilot, jismoniy yoki yuridik shaxsdan biron-bir harakat sodir etish yoki biron-bir harakatni sodir etishdan o'zini tiyib turishni talab qilish maqsadida shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish yoki tutqunlikda ushlab turishda ifodalanadi.

NOTA BENE !

Garovga olingan shaxs – o'z xohish-irodasiga zid ravishda harakat qilish erkinligidan mahrum etilgan shaxs.

NOTA BENE !

Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish deganda, g'ayriqonuniy ravishda zo'rlik ishlatib, oshkora yoki yashirin ravishda shaxsni harakat qilish erkinligidan mahrum qilishni tushunish zarur.

NOTA BENE !

Shaxsni garov tariqasida tutqunlikda ushlab turish deganda, g'ayriqonuniy ravishda tutqunlikka olingan shaxsning xohlagan joyiga ketishiga zo'rlik ishlatib to'sqinlik qilishni tushunish zarur.

Aksariyat hollarda, shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish vaqtida aybdorlar jismoniy yoki ruhiy zo'rlik ishlatadilar.

Ruhiy zo'rlik ishlatish o'ldirish, badanga shikast yetkazish, mulkini nobud qilish yoki unga zarar yetkazish bilan qo'rqitishda ifodalanishi mumkin.

Jismoniy zo'rlik ishlatish deganda, tutqunning kaltaklanishi, do'pposlanishi, badaniga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazilishi tushunilishi zarur.

Tutqunlikka olish vaqtida garovga olinayotgan shaxsning badaniga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazilganida aybdorning qilmishi **JK 245-moddasi 1-qismi** bilan qamrab olinadi va qo'shimcha JK tegishli moddalari bilan kvalifikatsiya qilinmaydi.

Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish – muayyan maqsadga erishish yo'lidagi, ya'ni davlat, xalqaro tashkilotlar, jismoniy yoki yuridik shaxslarni biror-bir harakatni sodir etishga majbur qilish yoki sodir etishdan tiyib turishga qaratilgan jinoiy harakatning oraliq bosqichidir.

Garovga olingan shaxslarni ozod qilish shartlari turlicha bo'lishi mumkin. Dunyo miqyosida garovga olinganlar bilan bog'liq sud-tergov amaliyotini o'rganish shundan dalolat beradiki, aybdorlar ko'pincha o'zlari turgan mamlakatdan chiqib ketish imkonini berish, hukumat qarorining bekor qilinishiga erishish, mahkumlarni ozod qilish, pul, qurol, giyohvandlik moddalarining berilishi va h.k. talablarni qo'yganlar. Mazkur talablar har qanday davlat (jinoiyatchi fuqarosi bo'lgan yoxud boshqa bir davlat) oldiga qo'yilishi mumkin.

NOTA BENE !

Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish – jinoiyatchilarning o'z maqsadiga erishish uchun davlat, xalqaro tashkilot, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakat sodir etish yoki biron-bir harakat sodir etishdan o'zini tiyib turishga majbur qilishi.

Mazkur talablarning adresati jinoiyatchi fuqarosi bo'lgan davlat ham, boshqa biron davlat ham bo'lishi mumkin. Subyekt tomonidan qo'yiladigan talablarning mazmuni, shuningdek, garovga olingan shaxslar tomonidan ular garov sifatida tutqunlikka olinganligini yoki tutqunlikda ushlab turilganligini tushunishlari jinoiyatning ko'rib chiqilayotgan modda bo'yicha kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi.

Jinoyat shaxs garovga olingan paytdan e'tiboran, uning ozod etilish shartlari qanday bo'lganligi va qancha vaqt ushlab turilganidan qat'i nazar, **tugallangan** deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi, **maxsus maqsadning** mavjudligi uning o'ziga xos xususiyati, ya'ni garovga olingan shaxsni ozod qilish uchun muayyan shart (masalan, muayyan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortmaslik, yerdan dasturda ko'rsatilgan maqsadlarda foydalanmaslik, bino yoki ma'lum inshootni buzmaslik va boshq.)larni qo'yib, davlat, xalqaro tashkilot, jismoniy yoki yuridik shaxsdan biror-bir harakatni sodir etishni yoki biror-bir harakat sodir etishdan o'zini tiyishni talab qilinadi.

Jinoyatni sodir etish **motivlari** turlicha (masalan, o'ch olish, hasadgo'ylik, moddiy manfaatdorlik, javobgarlikdan qutulib qolish va boshq.) bo'lishi mumkin va ular jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

JK 245-moddasi 2-qismida:

- a) voyaga yetmagan shaxsga nisbatan;
- b) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan;
- v) og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish uchun javobgarlik belgilangan.

Qilmishni **JK 245-moddasi 2-qismi «a» bandi** bilan kvalifikatsiya qilish uchun jabrlanuvchining jinoyat sodir etish vaqtida 18 yoshga to'lmaganligi aniqlanishi zarur.

Ikki yoki undan ortiq shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishda aybdorning ikki yoki undan ortiq shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishi yagona qasd bilan qamrab olingan bo'ladi va odatda, qisqa muddat ichida sodir etiladi.

Garovga olinganlarning badaniga og'ir shikast yetkazilishi, ularning o'z joniga qasd qilishi, garovga olingan ko'pchilikka azob berilishi, ularning qiynoqqa solinishi garovga olish yoki tutqunlikda saqlashning **og'ir oqibatlari** hisoblanadi.

Garovga olingan shaxs o'ldirilsa, aybdorning qilmishi O'zbekiston Respublikasi JK 97- va 245-moddalari bilan jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilinadi.

8-§. Kontrabanda (JK 246-moddasi)

Mazkur jinoyatning **bevosita obykti** qonunda belgilangan tartibda fuqarolik muomalasidan chiqarilgan, O'zbekiston Respublikasi bojxona chegaralaridan o'tkazish taqiqlangan tovarlarni olib o'tishni tartibga soluvchi, davlat, yuridik va jismoniy shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlarni muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Qattiq ta'sir qiluvchi, zaharli, zaharlovchi, radioaktiv, portlovchi moddalar, portlatish qurilmalari, qurol-yarog', o'qotar qurollar, o'q-dorilar, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, diniy ekstremizm, separatizm, aqidaparastlikni targ'ib qiluvchi materiallar, yadroviy, kimyoviy, biologik va ommaviy qirg'in qurollarining boshqa turlari, ommaviy qirg'in qurollarini yaratishda foydalanilishi mumkin bo'lgan material va moslamalar kontrabanda jinoyatining **predmeti** bo'lishi mumkin.

(Ushbu predmetlarning tushunchalari JK 247, 251, 252, 270, 271-moddalarining tahlilida to'liq beriladi.)

Qurol-yarog'lar ro'yxatiga: turli ko'rinishdagi qurollarning komplekslari va ularni jangda qo'llashda foydalanadigan vositalar, mo'ljalga olish, boshqarish va h.k. tizimlar; qurolli kuchlarni ta'minlashga mo'ljallangan maxsus texnik vositalar; o'q-dorilar va ularning komponentlari, ehtiyot qismlar, o'quv qurollari (maketlar, trenajyorlar va turli qurollar harbiy texnikaning imitatorlari); jangovar raketalar uchun raketa yonilg'isi, ularni ishlab chiqish uchun moslamalar; aloqa tizimi va h.k. kiradi.

Diniy ekstremizm, separatizm, fundametalizm g'oyalarini targ'ib qiluvchi materiallar deganda, shunday informatsiyani o'zida aks ettirgan kitoblar, videoyozuvlar, varaqalar, plakatlar, shiorlar va h.k.larni tushunish zarur.

(«Diniy ekstremizm», «diniy separatizm», «diniy aqidaparastlik» tushunchalari to‘g‘risida JK 244²-moddasining tahliliga qarang.)

JK 246-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan kontrabanda **predmeti** yadroviy, kimyoviy, biologik va ommaviy qirg‘in qurolining boshqa turlari, shunday qurollarni yaratishda foydalanilishi ayon bo‘lgan material va moslamalar, shuningdek, ko‘p miqdordagi giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalardir.(Yadroviy, kimyoviy, biologik va ommaviy qirg‘in quroli tushunchasi JK 255¹-moddasining tahlilida berilgan.)

Ommaviy qirg‘in qurollarini yaratishda foydalanilishi ayon bo‘lgan material va moslamalar deganda, o‘z xususiyatiga ko‘ra, ommaviy qirg‘in qurollarini yaratishda ishlatiladigan xomashyo, materiallar, moslamalar, ikki xil maqsadda yadroviy maqsadlarda qo‘llaniladigan, eksporti nazorat qilinadigan xomashyo, materiallar, moslamalar tushuniladi. Bunday predmetlar sirasiga Kimyoviy qurolni ishlab chiqish, ishlab chiqarish, to‘plash va qo‘llashni taqiqlash hamda uni yo‘q qilish haqidagi Konvensiya ning ilovasidagi 1-, 2-, 3-ro‘yxatga kiruvchi kimyoviy moddalar kiradi. Ushbu jinoyatning predmetiga inson, hayvonlar, hsimliklar kasalliklarini qo‘zg‘atuvchi genetik o‘zgartirilgan mikroorganizmlar, toksinlar, shuningdek, ommaviy qirg‘in qurolini yaratish, ishlab chiqarishga imkon beruvchi moslamalar ham kiradi.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning kontrabandasida har bir muayyan holatda **ko‘p miqdor** tegishli davlat organining xulosasi asosida aniqlanadi.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarining ko‘p miqdoriga JK 271-moddasi tahlilida batafsil to‘xtalamiz.

Obyektiv tomondan kontrabanda yuqorida nomlari keltirilgan predmetlarni bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari vositalariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan foydalanib, deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o‘tkazishda ifodalanadi.

Kontrabanda uchun jinoiy javobgarlik Jinoyat kodeksi 246-moddasi dispozitsiyasida ko‘rsatilgan ashyolar O‘zbekiston Respublikasining

bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o'tkazilgan taqdirda, bu ashyolar o'zga MDH mamlakatlariga yoki MDHga kirmagan mamlakatlarga o'tkazilganligidan qat'i nazar vujudga keladi.

Kontrabanda predmetlarini bojxona nazoratini chetlab O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o'tkazish deganda, ularni bojxona organi bo'lmagan joydan yoki bojxona rasmiylashtiruvi va nazorati amalga oshiriladigan vaqtdan tashqari vaqtda o'tkazishni tushunmoq lozim.

Respublika hududida erkin bojxona zonalari va erkin omborxonalar joylashgan bo'lishi mumkin, ularning hududi agar qonunlarda boshqa holat nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqarida joylashgan, deb hisoblanadi.

Bojxona hududining sarhadlari, shuningdek, erkin bojxona zonalari va erkin omborxonalar chegaralari O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi hisoblanadi.

Bojxona kodeksining 7-moddasiga muvofiq, bojxona chegarasidan olib o'tish deganda, tovar yoki transport vositalarini har qanday usul bilan bojxona hududiga olib kirish yoxud olib chiqish, shu jumladan xalqaro pochta yo'llanmalari orqali jo'natish, quvur o'tkazgich transporti yoki elektr uzatish liniyalaridan foydalanishga qaratilgan harakatlarning sodir etilishi tushuniladi.

Bu harakatlar jumlasiga:

tovarlar yoki transport vositalari bojxona hududiga olib kirilganda, shu jumladan erkin bojxona zonalari va erkin omborlar hududidan olib kirilganda – bojxona chegarasidan amalda o'tish;

tovarlar yoki transport vositalari bojxona hududidan olib chiqilganda, shu jumladan, erkin bojxona zonalari va erkin omborlar hududidan olib chiqilganda – bojxona deklaratsiyasini taqdim etish yoki tovar yoxud transport vositalarini olib chiqish maqsadini amalga oshirishga bevosita qaratilgan o'zga harakatni bajarish kiradi.

Bojxona nazorati deganda, qonun hujjatlari va xalqaro shart-nomalarga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar majmui tushuniladi.

Kontrabanda predmetlarini bojxona nazoratini chetlab o'tkazish deganda, kontrabanda predmetlari ularning o'tkazilishi uchun zarur bo'lgan tegishli hujjatlarni bojxona organlari xodimlariga tekshirtirmasdan yoxud bojxona organlari belgilamagan boshqa joylardan o'tkazilishini anglatadi.

Bojxona nazoratidan yashirish deganda, kontrabanda predmetlarini o'tkazishda turli xufiya joylardan, ularning topilishini qiyinlashtiradigan boshqa usullardan foydalanilishi va h.k.larni tushunish zarur.

Maxsus saqlash joylari deb, xufiya joylarni, shuningdek, kontrabanda maqsadlarida transport vositalariga oldindan qayta ishlanib, yig'ilib va shunga o'xshash yo'llar bilan jihozlangan va moslashtirilgan konstruktiv sig'imli idishlarni va boshqa ashyolarni hisoblamq kerak.

NOTA BENE !

Hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanish deganda, ashyolarni, tovar va boshqa qimmatliklarni bojxona chegarasidan o'tkazish uchun asos tariqasida qalbaki hujjatlarni, qonunga xilof yo'llar bilan olingan hujjatlarni yoxud yolg'on ma'lumotlar yozilgan hujjatlarni bojxona nazoratiga taqdim etishni tushunmoq lozim.

Bila turib qalbaki hujjat tuzgan yoki hujjatga yoxud bila turib olgan qalbaki hujjatiga soxta ma'lumotlar kiritgan va uni bojxona organlariga haqiqiy hujjat sifatida taqdim etgan shaxs jinoyatlar majmui bo'yicha O'zbekiston Respublikasi JK 209- (Mansab soxtakorligi) yoki 228-moddasi (Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish) bilan jinoiy javobgarlikka tortiladi.

NOTA BENE !

«Bojxona identifikatsiya vositalaridan aldash yo'li bilan foydalanish deganda, shaxslarning O'zbekiston Respublikasi yoki o'zga davlatlar bojxona organlari tomonidan tatbiq etilgan identifikatsiya

vositalarini o'zgartirishi, yo'q qilishi, buzishi yoxud yo'qotishi bilan bog'liq harakatlari tushunilmog'i lozim».

Bunda **bojxona identifikatsiya vositalari** deganda, so'rg'ichlash, muhrlash, raqamli, harfli va boshqacha tamg'alar, identifikatsiya belgilarini qo'yish, shtamplash, namuna va nusxalar olish, tovarlarni, boshqa qimmatliklarni xatlash, chizmalar tuzish, miqyosni tasvirlash, fotosuratlar, rasmlar tayyorlash, tovarlar bilan birga yuboriladigan va boshqa hujjatlardan foydalanish va hokazolar tushuniladi.

Deklaratsiyalash tovar yoki boshqa qimmatliklar, ularga qo'yilishi lozim bo'lgan bojxona rejimlari to'g'risida, shuningdek, bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan boshqa aniq ma'lumotlarni arz qilishni nazarda tutadi. Bojxona deklaratsiyasi, o'z navbatida, ushbu deklaratsiyaning bojxona organi tomonidan olinganligi rasmiylashtirilgan vaqtdan boshlab yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlardan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi JK 246-moddasida qayd qilingan kontrabanda ashyolarini **deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanish** deganda, shaxslarning chegaradan o'tkazilishi lozim bo'lgan kontrabanda ashyolarini yoxud tovar yoki boshqa qimmatliklarni deklaratsiya qilish tartibini buzishi bilan bog'liq harakatlari, ya'ni bojxona qonunlari tomonidan hrnatilgan deklaratsiya qilish formasi va joyi to'g'risidagi, uni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi, deklaratsiya va boshqa qo'shimcha hujjatlar taqdim etish muddatlari to'g'risidagi talablarga rioya etmaslik, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan yoki uning hududidan olib chiqilayotgan kontrabanda ashyolari, tovar yoki boshqa qimmatliklarning turi, soni xususida deklaratsiyaga soxta ma'lumotlar kiritish tushuniladi.

Kontrabanda predmetlari O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali haqiqatda qonunga xilof ravishda o'tkazilgan paytdan e'tiboran kontrabanda **tugallangan** jinoyat deb e'tirof etiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi. Jinoyatni kvalifikatsiya qilishda uning sodir etilish **motivi** va ko'zlangan **maqsad** ahamiyatga ega emas.

Jinoyatning **subyekt**i 16 yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

9-§. O'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash (JK 247-moddasi)

Mazkur jinoyatning **bevosita asosiy obyekt**i o'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini ishlab chiqarish, sotish, sotib olish, saqlash, foydalanish tartibini belgilovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Agar g'ayriqonuniy ravishda egallash zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish orqali amalga oshirilgan bo'lsa, ushbu jinoyatning **bevosita qo'shimcha obyekt**i fuqarolarning hayoti va sog'lig'i daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlardir.

O'qotar qurollar, o'q-dorilar, portlovchi moddalar va portlatish qurilmalari esa jinoyatning **predmet**i hisoblanadi.

O'qotar qurollar deganda, xo'jalik-maishiy maqsadlarda qo'llanilmaydigan snaryad yoki o'qni otish uchun mo'ljallangan, faqat jonli nishonni mahv etish yoxud sport tadbirlarini o'tkazishda porox gazidan foydalaniladigan qurollarning barcha turlarini tushunish lozim.

Ayni vaqtda, porox yoki boshqa portlovchi moddaning alanga olishi vositasida o'q otishni amalga oshiradigan yana bir qancha turli moslamalar mavjuddir. Masalan, signal raketnitsalari, musobaqalarda va qurilishda qo'llaniladigan pistoletlar va h.k.lar shular jumlasidan bo'lib, ularni o'qotar qurollar sirasiga kiritib bo'lmaydi, chunki ular xo'jalik-maishiy yoxud ishlab chiqarish maqsadlari uchun mo'ljallangandir.

Snaryad (o'q)ning porox gazi energiyasi vositasida otilishi, ya'ni o'q uzilishi o'qotar qurolning o'ziga xos belgilaridan biri hisoblanadi. Mazkur belgi keng bo'lib, mavjud o'qotar qurollarning barcha turlari va tizimlarini qamrab oladi. Qurol hisoblanmaydigan boshqa otuvchi moslamalar (qurilish, start, gaz pistoletlari, ballonchalar, pnevmatik qurollar) da aynan mana shu belgi mavjud emas.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996 yil 27 fevraldagi «Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida»gi 3-sonli qarori 2-bandida: «Pnevmatik miltiq, signal, start, gaz pistoletlari yoki gaz ballonlari, raketnitsalar va boshqa imitatsiya-pirotexnik va yoritgich vositalari qurol jumlasiga kirmaydi»¹, deb ta’kidlanadi.

Bundan tashqari, o‘qotar qurolning muhim belgilari soniga quyidagilar kiradi: snaryadga yo‘nalgan harakatni berish uchun stvolning mavjudligi; stvolni qulflaydigan qurilmaning hamda zaryadni alanga oldirish uchun mo‘ljallangan qurilmaning (termik, uchqun, mexanik yoki elektr) mavjudligi; snaryadning shikastlaydigan yetarli kuchi (mazkur mezon faqat boshqa tipik bo‘lmagan quroldan qaytadan qilingan yasama qurol uchun zarur); tuzilishning mustahkamligi, ya’ni bitta bo‘lsa ham o‘q otishni amalga oshirish imkoniyati borligi.

Predmetni o‘qotar qurol, deb e’tirof etish uchun uning qanday usulda (zavodda yoki qo‘lda) yasalganligi ahamiyatga ega emas. O‘qotar qurollar o‘zining vazifasi, xususiyatlari, tuzilishi, kalibri va boshqa sifatlariga ko‘ra nihoyatda rang-barangdir.

O‘qotar qurolning e’tirof etilgan belgilari o‘qotar qurol mavjud bo‘lgan yoki uning qo‘llanilishi zaruriy belgi hisoblangan yoxud javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlar sifatida ko‘rsatilgan jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi qonunlarda bir xilda bo‘lishi lozim.

NOTA BENE !

O‘q-dorilar deganda, qurol uchun lozim bo‘lgan o‘qlar, artilleriya snaryadlari, bombalar, minalar, granatalar, raketalarning jangovar qismlari, shuningdek, o‘qotar quroldan otish uchun mo‘ljallangan ashyolar tushuniladi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 27 февралдаги «Қонунга хилоф равишда қуролга эғалик қилиш тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти хақида» 3-сонли қарори, 2-банд.

Umuman olganda, o‘q-dorilarda o‘qotar qurollarga xos bo‘lgan belgilar yig‘indisi mavjuddir. Bu, birinchidan, ularning faqat jonli nishonni mahv etish, vayron qilish va h.k. lar uchun mo‘ljallanganligi bo‘lsa, ikkinchidan, ruxsatnoma olish zarurligi to‘g‘risidagi qoidalarning ularga ham taalluqli ekanligidir.

O‘q-dorilarning: artilneriya zambaraklari va o‘qotar qurollar uchun o‘q-dorilar (snaryadlar, o‘qlar); kichik kalibrli, o‘yma va silliq stvolli ov qurollari, qo‘lda yasalgan qurollar uchun o‘qlar; portlash xususiyatiga ega o‘q-dorilar (minalar, bombalar, granatalar va h.k.lar) kabi turlari mavjuddir.

Mashq granatalari yoki minalari portlovchi moddasi yo‘qligi, jonli nishonni mahv etish va vayron qilish uchun emas, faqat o‘quv maqsadlari uchun mo‘ljallanganligi sababli ularga egalik qilish jamoat xavfsizligiga xavf tug‘dirmasligi munosabati bilan, ular o‘q-dori sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorida: «O‘q-dorining bo‘lagi (masalan, granataning zapali), agar uning o‘zi o‘q-dorining barcha xususiyatlariga ega bo‘lsa, mustaqil ravishda o‘q-dori, deb tan olinishi mumkin»¹ deb qayd etiladi.

NOTA BENE !

Portlovchi moddalar deganda, porox, dinamit, trotil, nitroglitserin va kislorodli havo yetishmagan vaziyatda portlash xususiyatiga ega bo‘lgan kimyoviy moddalar va aralashmalar tushuniladi.

Tashqi omillar ta‘siri ostida portlash xususiyatiga ega va ruxsatnoma olinishi zarur bo‘lgan tabiiy va sun‘iy moddalar portlovchi moddalar hisoblanadi. Yondirish, zarba, detonatsiya, qizish, havo bilan birikish va h.k.lar natijasida portlash xususiyatiga ega bo‘lgan tabiiy va sun‘iy birikmalar, aralashmalar ham shular jumlasidandir.

Kimyo sanoatining jadal rivojlanganligi munosabati bilan portlovchi moddalarning minglab turlari kashf etilgan va mavjuddir. Masalan, porox,

¹Ўша жойда, 5-банд.

trotill, piroksilin, natriglikol, nitroglitserin, dinamit, ammonal, ammonit va h.k.lar shular jumlasiga kiradi.

Qonun chiqaruvchi tomonidan ana shu moddalarning o'ta xavfli xususiyatga ega ekanligini inobatga olinib, ularni qo'lga kiritish, saqlash, ulardan foydalanish, tashishning maxsus tartibi joriy etilib, ruxsatnoma olinishi zarur bo'lgan vositalar qatoriga kiritilgan.

Portlovchi moddalar mustaqil tarzda, shuningdek, o'q-dorilarda, ularning tarkibiy qismlarida, portlatish vositalarida zaryadlar sifatida ishlatilishi mumkin. Shunga ko'ra, tashabbuskor, parchalovchi (yanchadigan), otish (porox) va pirotexnika tarkiblari farqlanadi.

NOTA BENE !

Portlatish qurilmalari – konstruksiyasi tuzilishiga ko'ra portlovchi moddani o'zida saqlaydigan va portlashni amalga oshirish uchun mo'ljallangan sanoatda ishlab chiqarilgan yoki qo'lbola ishlangan (zapal, portlatgich, detonator va h.k.lar) maxsus moslamalar.

Imitatsiya-pirotexnik va yoritgich vositalari portlovchi moddalar va portlatish qurilmalari jumlasiga kirmaydi.

O'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalari g'ayriqonuniy ravishda egallangan vaqtda ularning obyektiv jihatdan yaroqli ekanligi shaxsni mazkur modda bilan jinoiy javobgarlikka tortishning zaruriy sharti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining tushuntirishiga ko'ra, «Sudlar Jinoyat kodeksining 247-, 248-moddalari bo'yicha javobgarlik ishlatishga yaroqli bo'lgan o'qotar qurol, o'q-dorilarni, portlovchi moddalarni yoki portlatish qurilmalarini yoxud aybdor yaroqli holatga keltirish uchun aniq imkoniyatlarga ega bo'lsa, buzuq qurolni yoki o'quv qurolini qonunga xilof ravishda egallaganda, olganda, olib yurganda, saqlaganda yoki o'tkazganda yuzaga kelishini e'tiborga olishlari shart»¹.

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 27 февралдаги «Қонунга хилоф равишда қуролга эгалик қилиш тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида» 3-сонли қарори, 5-банд.

Yaroqli qurol deganda, detallari, mexanizmlarining ballistik sifati va texnik tavsifi davlat standartlariga mos keladigan qurollar tushuniladi. Quroldan foydalanishga imkon bermaydigan nuqsonlari bo'lgan qurol **yaroqsiz qurol** hisoblanadi. Qurolida undan foydalanishga xalaqit bermaydigan kichik nuqsonlarning borligi uni JK 247–249-moddalarida nazarda tutilgan jinoyat predmeti, deb topish uchun to'sqinlik qilmaydi.

Basharti shaxs yaroqsiz o'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini yaroqli deb o'ylab harakat qilgan bo'lsa, uning qilmishi jinoyatga suiqasd sifatida JK 25-moddasi 2-qismi va **247-moddasi** bilan kvalifikatsiya qilinadi. Aybdor tomonidan bilmagan holda o'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalari deb o'ylab buyumlarni qonunga xilof ravishda egallash o'xshash holda kvalifikatsiya qilinadi. Shu bilan birga, agar shaxs aslida o'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalari bo'lgan buyumlarni qonunga xilof ravishda egallagan bo'lsa, biroq ularga boshqa (masalan, xo'jalik-maishiy) ma'no berib, ularning haqiqiy xususiyatini bilmagan bo'lsa, uning qilmishi **JK 247-moddasida** nazarda tutilgan jinoyat tarkibini tashkil qilmaydi va ish holatlariga qarab o'zgalar mulkiga qarshi jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

Boshqa hollarda, ishlatishga yaroqsiz bo'lgan qurolni yoki uning tarkibiy qismlarini qonunga xilof ravishda egallash (uni yaroqli holatga keltirish uchun imkoniyat yo'qligida) ish holatlariga qarab o'zgalar mulkini talon-toroj qilish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi JK moddalari bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim. «O'qotar qurolning tarkibiy bo'laklari va qismlari ishlatishga yaroqli bo'lgan qurolni yig'ish uchun but bo'lgan hollarda, sodir etilgan qilmish Jinoyat kodeksining 247-yoki 248-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinmog'i kerak.

O'qotar qurolning tarkibiy bo'laklari va ayrim qismlarini qonunga xilof ravishda egallash keyinchalik otishga yaroqli bo'lgan qurolni yig'ish uchun zarur bo'lgan etishmaydigan qismlarini tayyorlash bilan bog'liq

bo‘lgan taqdirda, o‘zganing mulkini talon-toroj etish va o‘qotar qurol tayyorlash majmui bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim»¹.

Obyektiv tomondan JK 247-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat o‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar, portlatish qurilmalarini o‘g‘rilik yoki firibgarlik yo‘li bilan qonunga xilof ravishda egallashdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorida «O‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda har qanday usulda egallash, aybdorning ulardan o‘z xohishi bo‘yicha foydalanish yoki tasarruf etish imkoniyatlari bor-yo‘qligidan qat’i nazar, ular olingan vaqtdan boshlab **tugallangan** jinoyat hisoblanishi kerak», deyilgan.

Talon-toroj qilingan quroldan g‘ayriqonuniy harakatlarni amalga oshirishda foydalangandan so‘ng uni yo‘q qilish, jinoyat joyida qoldirish yoki qaytarib berish shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun asos bo‘lmaydi.

O‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarining tasodifan (masalan, tabiiy ofat natijasida) shaxsning egaligiga tushib qolishi ushbu modda bilan kvalifikatsiya qilinmaydi, mazkur qilmish JK 248-moddasi bilan baholanadi. Shu bilan birga egasi qarovsiz qoldirgan qurolni olish subyektiv tomon belgilar mavjud bo‘lsa, talon-toroj tarkibini tashkil etadi.

O‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini ularga qonuniy yoki qonunga xilof ravishda egalik qilayotgan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, shuningdek, fuqarolardan olib qo‘yish ham ushbu moddada nazarda tutilgan javobgarlikni keltirib chiqaradi.

JK 247-moddasida javobgarlik belgilangan qilmish **subyektiv tomondan** o‘g‘ri qasd bilan sodir qilinadi. Aybdor o‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 27 февралдаги «Қонунга хилоф равишда қуролга эгалик қилиш тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида» 3-сонли қарори, 5-банд.

ravishda egallayotganligini biladi, talon-toroj qilingan predmetlarni o'z xohishiga ko'ra tasarruf etishni xohlaydi.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyatning **motiv** va **maqsadi** turlicha: g'araz, egallangan narsalardan boshqa jinoyatni sodir etishda, ovda, o'zini mudofaa qilishda foydalanish va h.k. lar bo'lishi mumkin.

Jinoyaning **subyekt**i 14 yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxs bo'ladi.

JK 247-moddasi 2-qismida:

- a) takroran;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) o'zlashtirish, rastrata qilish yoxud mansab mavqeini suiiste'mol qilish yo'li bilan;
- g) talonchilik yo'li bilan;
- d) tamagirlik yo'li bilan o'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qo'lga kiritish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Aybdor turli vaqtda yagona qasd bilan qamrab olinmagan ikki yoki undan ortiq o'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar, portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallashni sodir etgan va oldingi jinoyat uchun jinoiy javobgarlikka tortilmagan hollarda jinoyat **JK 247-moddasi 2-qismi «a» bandi** bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi. Qoida tariqasida, **takroran jinoyat sodir etilishida** jinoyatlar sodir etilishi o'rtasida ancha katta vaqt o'tadi.

Jinoyatni sodir etishda birgalashib qatnashishni oldindan til biriktirgan ikki yoki undan ortiq shaxslar ko'rib chiqilayotgan jinoyat sodir etilishida qatnashgan, shu bilan birga, ularning har biri mazkur jinoyatning obyektiv tomonini to'liq yoki qisman bajargan bo'lsa (ishtirokchilik) **JK 247-moddasi 2-qismi «b» bandi** qo'llaniladi. Rollar taqsimlangan hollarda ijrochi (ijrochilar) harakatlari JK 247-moddasining tegishli qismi bo'yicha, boshqa ishtirokchilar harakatlari esa, ijrochi harakatlari bilan bir xil tarzda JK 28-moddasining tegishli qismiga havola qilingan holda kvalifikatsiya qilinishi kerak.

JK 247-moddasi 3-qismida ko'rsatilgan predmetlarga:

- a) bosqinchilik yo'li bilan;

b) o'ta xavfli retsivist tomonidan;

v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab egalik qilganlik uchun javobgarlik belgilangan.

O'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalariga o'g'irlik, firibgarlik, o'zlashtirish yoki rastrata qilish, hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish, talonchilik, tovlamachilik, bosqinchilik yo'li bilan egalik qilish **JK 247-moddasi** va o'zgarar mulkini talon-toroj qilganlik uchun javobgarlik belgilangan jinoyat qonunining tegishli moddalari bo'yicha jinoyatlar jami sifatida kvalifikatsiya qilinishi zarur.

JK 247-moddasi 3-qismi «b» bandini qo'llash uchun aybdor ushbu jinoyatni sodir qilgunga qadar sudning qonuniy kuchga kirgan hukmiga ko'ra o'ta xavfli retsivist, deb topilgan bo'lishi kerak.

Ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikda jinoiy faoliyat olib borishi uchun oldindan bir guruhga birlashib jinoyat sodir etishi qilmish **uyushgan guruh** tomondan amalga oshirilgan deyish uchun asos bo'ladi (JK 29-moddasi 2-qismi).

Ishtirokchilikning xavfli shakli bo'lgan **uyushgan guruhning** quyidagi xususiyatlari mavjud:

- jinoyatni sodir etish uchun avvaldan birlashish;
- yuqori darajada uyushganlik;
- barqarorlik va boshq.

Qilmishni **JK 247-moddasi 3-qismi «v» bandiga** ko'ra, **uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab** sodir etilgan, deb kvalifikatsiya qilish uchun jinoyat oqibatida uyushgan guruh a'zolari o'zlarining qandaydir manfaatlariga erishganligini aniqlash zarur, jinoyatning bajaruvchisi uyushgan guruh a'zosi bo'lmasligi ham mumkin. Aybdorda uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab o'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini egallash qasdining mavjudligini aniqlash muhimdir.

10-§. Qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalariga qonunga xilof ravishda egalik qilish (JK 248-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekt**i qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar va portlatish qurilmalarini saqlash va ular bilan muomala qilish xavfsizligini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Mazkur jinoyatning **predmeti** JK 247-moddasida nazarda tutilgan qilmishning predmeti bilan bir xildir.

JK 248-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** tegishli ruxsatnomasiz o‘qotar qurol, shuningdek, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini tayyorlash, olish, olib yurish, saqlash, olib o‘tish yoki jo‘natishdan iboratdir.

«Jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladigan o‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini **tayyorlash** deganda, – deb tushuntiriladi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996 yil 27 fevraldagi qarorida, – ularni yasash yoki shikast yetkazish xususiyatlarini tiklash, shuningdek, qandaydir ashyo (masalan, raketnitsa, start va qurilish pistoletlari)ni qayta ishlash natijasida ularni o‘qotar qurol xususiyatiga keltirish tushunilishi lozim. Ashyoga shikast yetkazish xususiyatlarini berishga qaratilgan harakatlar aybdorga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra oxirigacha yetkazilmagan bo‘lsa, o‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda tayyorlashga suiqasd qilish tariqasida kvalifikatsiya qilinmog‘i lozim».¹

Qurol vazifasiga ko‘ra, bevosita foydalanish imkonini beradigan darajada tayyor holga kelgan paytdan e‘tiboran jinoyat **tugallangan** hisoblanadi.

O‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini **olish** deganda, ularning har qanday usul bilan olinishini

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 27 февралдаги «Қонунга хилоф равишда қуролга эғалик қилиш тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида» 3-сонли қарори, 8-банд.

tushunmoq lozim. JK 247-moddasida ko'zda tutilgan usullar bundan mustasnodir.

Qonunga xilof ravishda olish quyidagilar orqali amalga oshirilishi mumkin: sotib olish, hadya sifatida, boshqa narsalarga almashtirib olish, qarz evaziga olish, vaqtincha foydalanishga olish, topib olish. Qurolga egalik boshlangan paytdan e'tiboran jinoyat **tugallangan** deb e'tirof etiladi.

Aytib o'tilgan ashyolarni **olib yurish** deganda, aybdorning ana shu ashyolarning sohibi ekanligi va bu ashyolarning uning yonida bo'lishini tushunmoq lozim.

Aybdorning ana shu ashyolarni o'zi bilan yoki biror narsaning ichida (chemodanda, qutida, portfelda, xaltada, avtomashina saloni yoki uning yukxonasida) yashirib yoki ularni yashirish choralarini ko'rmay olib yurganligi ahamiyatga ega emas, muhimi ana shu ashyolar har qanday vaziyatda aybdorning «qo'l ostida» bo'lganligidir.

Saqlash deganda, aytib o'tilgan ashyolar, aybdorning bevosita yonida emas, balki uning kvartirasida, hovlisida, omborida yoki boshqa joyda saqlanganligini tushunish lozim. Sud amaliyotida aytib o'tilgan ashyolar aybdorning uyida yoki unga ma'lum bo'lgan boshqa yerda saqlangan, yashirib qo'yilgan yoki oshkora saqlangan, ulardan xo'jalik-ro'zg'or buyumi sifatida foydalanilganligidan qat'i nazar, ular qonunga xilof ravishda saqlangan, deb hisoblanadi.

Subyektning mazkur ashyolarni tanishlarinikida saqlagani saqlaganlik uchun javobgarlikni istisno qilmaydi, chunki aybdor saqlash joyi va usulini tanlaydi xolos, ammo qurol unga ma'lum, o'zi tanlagan yerda saqlanaveradi va uning ixtiyorida qolaveradi.

Qayd qilingan ashyolar shaxs tomonidan tegishli ruxsatnoma bo'lgani holda, ammo bu ruxsatnomaning muddati o'tgan yoki o'qotar qurolni hisobga qo'yish qoidalari buzilgan vaziyatda saqlanayotgan bo'lsa, aybdor ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilishi lozim.

Qurolni qonunga xilof ravishda saqlash jinoyatning uzluksiz tarkibini bajarish bilan ta'riflanadigan uzoqqa cho'zilgan jinoyatdir. Mazkur jinoyat ko'rsatilgan obyektlar shaxsning g'ayriqonuniy egaligiga tushgan paytdan

boshlanadi va jinoyat sodir etilishi to'xtatilgan paytdan, ya'ni qurol huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan topilgan, talon-toroj qilingan, yo'qotib qo'yilgan, aybdor tomonidan o'z ixtiyori bilan topshirilgan paytdan e'tiboran **tugallangan** deb e'tirof etiladi.

Olib o'tish deganda, har qanday transportdan foydalanib, aytib o'tilgan ashyolarning bir yerdan boshqa yerga tashilishi, olib o'tilishi va hamisha aybdorning yonida bo'lishini tushunish lozim.

Jo'natish deganda, qurolni konteyner, posilka va boshqa moslash-tirilgan predmetlarda boshqa joyga ko'chirishni tushunish lozim.

Qayd etilgan ashyolarni olib o'tish va jo'natish shunday harakat sodir etilgan paytdan e'tiboran **tugallangan** deb e'tirof etiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat **to'g'ri qasddan** va g'araz niyat bilan sodir etiladi. Ayni vaqtda aybdor o'zi olib yurgan, saqlayotgan, qo'lga kiritayotgan, olib o'tayotgan, o'tkazayotgan ashyolari o'qotar qurol, o'q-dori, portlovchi modda va portlatish qurilmasi ekanligini bilishi, aytib o'tilgan harakatlarni bunga ruxsatnomasi bo'lmagani holda sodir etilayotganini anglashi lozim. Aybdorning g'arazli niyati tegishli ashyolarning soz, qo'llash uchun yarog'li holatda ekanligini yoki foydalanish uchun yarog'li holga keltirish mumkin bo'lgan darajadiligini qamrab olishi kerak.

Jinoyatning **subyektiv** jinoyat sodir etilgan vaqtda 16 yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin.

JK 248-moddasi 2-qismida o'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini tayyorlash, olish, olib yurish, saqlash, olib o'tish yoki jo'natish takroran yoki xavfli retsivist tomonidan javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etilganligi uchun javobgarlik nazarda tutiladi.

(Jinoyat takroran sodir etilishining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida JK 247-moddasining tahliliga qarang.)

Aybdor ilgari qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalariga qonunga xilof ravishda egalik qilish uchun hukm qilingan bo'lsa va ilgari sodir etilgan jinoyat uchun sudlanganlik tugallanmagan yoki qonunda belgilangan tartibda olib tashlanmagan bo'lsa, jinoyat **JK**

248-moddasi 2-qismi – xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

Bunda qilmishni **JK 248-moddasi 2-qismining** mazkur belgisi bo'yicha kvalifikatsiya qilish uchun aybdor ilgari tamom bo'lgan qotillik jinoyati yoki jinoyatga suiqasd sodir etganligining, jinoyatning bajaruvchisi yoki boshqa ishtirokchisi bo'lganligining ahamiyati yo'q.

JK 248-moddasi 3-qismida o'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini tarqatganlik uchun javobgarlik nazarda tutiladi.

Qayd etilgan ashyolarni **o'tkazish** har qanday ko'rinishda, ularni doimiy egalik qilish uchun boshqa shaxslarga tarqatilishi, masalan, sotilishi, sovg'a qilinishi, almashinishini, qarz evaziga berilishi, qarzga berib turilishi va h.k.larni anglatadi.

Qayd etilgan ashyolarni o'tkazish qo'lga kirituvchi tegishli ashyolarni o'z egaligiga qabul qilib olgan paytdan e'tiboran, ularga qancha vaqt egalik qilganidan qat'i nazar, **tugallangan** deb e'tirof etiladi.

JK 248-moddasi 4-qismida «ushbu moddada nazarda tutilgan ashyolarni o'z ixtiyori bilan topshirgan shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi», deb belgilab qo'yilgan.

Shaxsning, birinchidan, qurol topshirilgunga qadar undan jinoyat sodir etishda foydalanmaganligi; ikkinchidan, qonunga xilof ravishda saqlanayotgan hamma o'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar, portlatish qurilmalarini topshirganligi; uchinchidan, qonunga xilof ravishda saqlanayotgan ashyolarni huquqni muhofaza qilish organlarining biron-bir talabisiz o'z ixtiyori bilan topshirganligi uni jinoiy javobgarlikdan **ozod qilishning** shartlari hisoblanadi.

Shu munosabat bilan o'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorida «Shaxs Jinoyat kodeksi 248-moddasida qayd etilgan ashyolarni erkin tarzda o'z ixtiyori bilan topshirish to'g'risida qarorga kelsa va uning o'zi bu ashyolarni topshirish haqida tegishli organlarga yozma yoki og'zaki ravishda murojaat qilsa, u ashyolarni o'z ixtiyori bilan topshirgan hisoblanadi.

Shaxs tintuv jarayonida yoki unda qurol borligi haqida dalillar keltirilishi natijasida qurolni topshirish to'g'risidagi xulosaga kelsa, u

qurolni o‘z ixtiyori bilan topshirgan hisoblanmaydi»¹ deb tushuntirish berilgan.

11-§. O‘qotar qurol yoki o‘q-dorilarni beparvolik bilan saqlash (JK 249-moddasi)

Mazkur jinoyatning **bevosita asosiy obyekti** o‘qotar qurol yoki o‘q-dorilardan begonalar foydalana olmaydigan sharoitlarda saqlash tartibini belgilovchi ijtimoiy munosabatlardir. Jinoyatning **bevosita qo‘shimcha obyekti** odamlarning hayoti yoki sog‘lig‘i, mulkiy munosabatlar hisoblanadi.

Jinoyatning **predmeti** o‘qotar qurol yoki o‘q-dorilardir.

(«O‘qotar qurol», «o‘q-dorilar» tushunchalari to‘g‘risida JK 247-moddasining tahliliga qarang.)

Qayd etilgan predmetlar g‘ayriqonuniy ravishda aybdor ixtiyorida bo‘lgan va ularni saqlash qoidalarining buzilishi tufayli odam o‘lishiga yoki boshqa og‘ir oqibatlar ro‘y bergan hollarda aybdorning qilmishi jinoyatlar majmui bo‘yicha JK 248-moddasi va **JK 249-moddasi** bilan kvalifikatsiya qilinishi zarur.

Ko‘rib chiqilayotgan jinoyatning **obyektiv tomoni** o‘qotar qurol yoki unga mo‘ljallangan o‘q-dorilarni beparvolik bilan saqlash odam o‘lishiga yoki boshqa og‘ir oqibatlar sabab bo‘lishida ifodalanadi.

O‘qotar qurol yoki unga mo‘ljallangan o‘q-dorilarga egalik qilish huquqining mavjudligi shaxsni **JK 249-moddasi** bo‘yicha javobgarlikka tortishning zaruriy belgisi hisoblanadi.

Shaxsning qonuniy egaligida bo‘lgan o‘qotar qurol yoki o‘q-dorilar ularning butunligini, saqlash xavfsizligini ta‘minlaydigan va ulardan begona shaxslar foydalanish imkoniyatini istisno qiladigan sharoitlarda saqlanishi shart (qulflanadigan seyf yoki metall shkaflarda, mustahkam materiallardan qilingan tortma yoki temir bilan qoplangan yog‘och tortmalarda).

¹ Ўша жойда.

NOTA BENE !

Qayd etilgan predmetlarni **beparvolik bilan saqlash** deganda, begona shaxslarga hech qanday to'siqsiz qayd etilgan ashyolarni qo'lga kiritish imkonini beradigan saqlash sharoitlarining yaratilishini tushunish zarur.

Masalan, o'qlangan qurolni boshqa shaxslar uchun ochiq bo'lgan umumiy foydalanish joylarida, saqlash uchun mo'ljallanmagan joylarda saqlash va h.k.

O'qotar qurol va o'q-dorilarni beparvolik bilan saqlash ko'pincha ana shu ashyolar butligini ta'minlash uchun zarur chora-tadbirlarni ko'rmagan aybdorlarning jinoyatkorona loqaydligida ifodalanadi. Ammo ba'zan bunday qilmish faol harakat qilish yo'li bilan ham sodir etilishi mumkin. Aybdorlar ana shu ashyolarni saqlash uchun zarur sharoitlarni ta'minlash maqsadida ma'lum chora-tadbirlarni ko'rgan, ammo bu chora-tadbirlar yetarli bo'lmaganligi sababli qurol yoki o'q-dorilarni begona shaxslar egallab olgan va bu odam o'lishiga yoki boshqa og'ir oqibatlariga olib kelgan hollar shular jumlasidandir.

Tahlil qilinayotgan jinoyat moddiy tarkibli jinoyatlar sirasiga kiradi.

Jinoyat qonunida ko'zda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar: odam o'lishi yoki boshqa og'ir oqibatlar kelib chiqqan paytdan e'tiboran **tugallangan** hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorida «boshqa og'ir oqibatlar» alomati har bir muayyan holatda ishning tafsilotlari majmuidan (imoratning portlashi, katta miqdordagi zararli moddalarning atmosferaga tarqalishi va shu kabilar) kelib chiqqan holda tergov va sud tomonidan hal qilinadi»,¹ deb qayd etilgan.

Bir necha kishiga o'rtacha og'ir va og'ir shikast yetkazilishi, o'z joniga qasd qilish va h.k.lar ham **boshqa og'ir oqibatlar** sirasiga kiritilishi lozim.

O'qotar qurol yoki o'q-dorilarni beparvolik bilan saqlash **subyektiv tomondan** ehtiyotsizlik bilan tavsiflanadi, u esa **jinoiy o'z-o'ziga ishonish**

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 27 февралдаги «Қонунга хилоф равишда қуролга эгалик қилиш тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида» 3-сонли қарори, 11-банд.

yoki **jinoiy beparvolikda** ifodalanadi. Agar shaxs o‘qotar qurol yoki o‘q-dorilarni beparvolik bilan saqlash odam o‘lishi yoxud boshqa og‘ir oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkinligiga ko‘zi yetib, bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qilgan bo‘lsa, jinoyat o‘z-o‘ziga ishonish oqibatida sodir etilgan deb topiladi.

Agar shaxs o‘qotar qurol yoki o‘q-dorilarni beparvolik bilan saqlash odam o‘lishi yoxud boshqa og‘ir oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkinligiga ko‘zi yetmasa-da, lekin zarur sinchkovlik va ehtiyotkorlikda ko‘zi yetishi lozim va mumkin bo‘lsa, jinoyat beparvolik orqasida sodir etilgan deb topiladi.

Aybdorning egaligida bo‘lgan o‘qotar qurol va unga mo‘ljallangan o‘q-dorilarni beparvolik bilan saqlash tufayli undan o‘zga shaxs foydalanishi natijasida odam o‘lsa yoxud boshqa og‘ir oqibatlar ro‘y bersa, qilmish JK 249-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinib, jinoyat qonunining boshqa moddalarini qo‘llash talab etilmaydi.

Jinoyatning **subyekt** o‘qotar qurol yoki o‘q-dorilarga qonuniy ravishda egalik qilayotgan 16 yoshga to‘lgan aqli raso jismoniy shaxs hisoblanadi.

12-§. Portlash xavfi bo‘lgan moddalar yoki pirotexnika buyumlaridan foydalanish qoidalarini buzish (JK 250-moddasi)

Bu jinoyatning **bevosita asosiy obyekt** portlash xavfi bo‘lgan moddalarni yoki pirotexnika buyumlarini hisobga olish, saqlash, tashish, jo‘natish, foydalanish qoidalariga rioya qilish orqali ta‘minlanadigan ijtimoiy munosabatlardir. **Bevosita qo‘shimcha obyekt** fuqarolarning hayoti yoki sog‘lig‘i yoxud o‘zgalar mulkining daxlsizligini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlardir.

Portlovchi, tez alanganuvchi, o‘yuvchi moddalar yoki pirotexnika buyumlari jinoyatning **predmeti** hisoblanadi.

Portlovchi moddalar deganda, kislrorod, havo bo‘lmasa ham tezda va o‘z-o‘zidan parchalanib o‘zgarish (portlash) xususiyatiga ega bo‘lgan va ruxsatnoma talab etiladigan tabiiy yoki sun‘iy moddalar, kimyoviy

birikmalar va aralashmalar tushunilishi lozim. Masalan, porox, dinamit, trotil, nitroglitserin, vodorod va kislorod aralashmasi, piroksilin va h.k.lar.

Qonun chiqaruvchi tomonidan portlovchi moddalarning xavfli xususiyatlarini inobatga olinib, ularni qo‘lga kiritish, saqlash, foydalanish, tashish va h.k.larning maxsus tartibi joriy etilgan, boshqacha qilib aytganda, ular ruxsatnoma olinishi zarur bo‘lgan faoliyat doirasiga kiradi.

NOTA BENE !

Tez alanganuvchi moddalar – qurol sifatida foydalanish uchun mo‘ljallangan yoki shu maqsadga moslashtirilgan, kelib chiqishi tabiiy yoxud sun‘iy bo‘lgan, sintez qilingan, qattiq, suyuq, gazsimon materiallar va yonuvchi aralashmalardir.

Shuni nazarda tutish kerakki, tergov yoki sud muhokamasi vaqtida u yoki bu moddaning tez alanganuvchi moddalar sirasiga kirishiga shubha tug‘ilsa, ish bo‘yicha sud yong‘in-texnika ekspertizasini o‘tkazishi zarur.

NOTA BENE !

O‘yuvchi moddalar deganda, yemiruvchi ta’sir ko‘rsatadigan kimyoviy moddalarni tushunish lozim.

Masalan, karbol, oltingugurt, azot, sirka kislotasi, nashatir spirti, formalin, ishqorlar, o‘yuvchi natriy va h.k.lar.

NOTA BENE !

Pirotexnika buyumlari deganda, jangovar va tinch maqsadlar uchun mo‘ljallangan, tarkibida portlovchi va tez yonuvchi moddalar bo‘lgan yoritish, tutun chiqarish, alanga oldirish vositalarini tushunish zarur. Masalan, signal moslamalari, mushakbozlikda ishlatiladigan turli illyuminatsiyalar va h.k.

Obyektiv tomondan JK 250-moddasida nazarda tutilgan jinoyat portlovchi, tez alanganuvchi, o'yuvchi moddalarni yoxud pirotexnika buyumlarini saqlash, hisobga olish, foydalanish, tashish, jo'natish qoidalarini buzish natijasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishidan iboratdir.

Mazkur jinoyatning obyektiv tomoni badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga yoki odam o'lishiga sabab bo'lgan portlash xavfi bo'lgan moddalar yoki pirotexnika buyumlaridan foydalanish qoidalarini buzish bilan bog'liq **faol harakatlarda** ham (xususan, ehtiyot choralariga beparvo qarab, pirotexnika buyumlaridan foydalanish va boshqalar); portlovchi, tez alanganuvchi, o'yuvchi moddalarni yoxud pirotexnika buyumlarini xavfsiz saqlash, hisobga olish, ulardan foydalanish, ularni tashish, jo'natishni ta'minlovchi tegishli qoidalarining ko'rsatmasiga muvofiq, shaxs amalga oshirishi shart bo'lgan harakatni amalga oshirmaslik bilan bog'liq bo'lgan **harakatsizlikda** ham (masalan, tez alanganuvchi moddalarni o'z-o'zidan yonishi mumkin bo'lgan yonuvchi materiallar bilan birga moslashtirilmagan joyga joylash) o'z ifodasini topadi.

JK 250-moddasi blanket xususiyatga ega, chunki qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun boshqa qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar qoidalariga murojaat qilish lozim. JK 250-moddasi bo'yicha javobgarlikka tortish uchun portlash xavfi bo'lgan moddalar yoki pirotexnika buyumlaridan foydalanish qoidalarining qaysi bandi buzilganligini aniqlash zarur.

Ko'rib chiqilayotgan modda nuqtai nazaridan, **saqlash** deganda, portlash xavfi bo'lgan moddalar yoki pirotexnika buyumlarining aniq bir shaxsga tegishli bo'lgan omborxonada bevosita to'planishi tushuniladi.

Portlovchi, tez alanganuvchi, o'yuvchi moddalarni yoxud pirotexnika buyumlarini **hisobga olish** – bu normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan modda va buyumlarning miqdori, harakati ustidan tegishli jurnallar, reestrlar va boshqa hisobga oluvchi hujjatlar orqali nazorat qilish tartibi.

Portlovchi, tez alanganuvchi, o'yuvchi moddalardan yoxud pirotexnika buyumlaridan **foydalanish** – bu ko'rsatilgan modda va buyumlarni bevosita qo'llashdir (qonuniy va g'ayriqonuniy bo'lishi mumkin).

Qayd etilgan modda va buyumlarni **tashish** deganda, ularni bir joydan boshqa joyga har qanday transport vositalari orqali ko'chirish tushuniladi.

Ko'rib chiqilayotgan modda nuqtai nazaridan, **jo'natish** – bu portlovchi, tez alanganuvchi, o'yuvchi moddalarni yoxud pirotexnika buyumlarini pochtaga yoki boshqa transport tashkilotiga jo'natish uchun topshirish va ularning bevosita jo'natilishidir.

Tahlil qilinayotgan jinoyat ijtimoiy xavfli qilmish natijasida qonunda belgilangan jinoiy oqibatlar yuz bergan paytdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi. Jinoyatni **JK 250-moddasi** bo'yicha to'g'ri kvalifikatsiya qilishning shartlaridan biri portlovchi, tez alanganuvchi, o'yuvchi moddalarni yoxud pirotexnika buyumlarini saqlash, hisobga olish, ulardan foydalanish, ularni tashish, jo'natish aniq qoidalarini buzish hamda ushbu buzilish natijasida ehtiyotsizlik oqibatida tegishli oqibatlar yuz berishi o'rtasida sababiy bog'lanishni aniqlashdir.

Subyektiv tomondan jinoyat **ehtiyotsizlik** orqasida sodir etiladi.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilishda uning sodir etilish **motivlari** va ko'zlangan **maqsad** ahamiyat kasb etmaydi.

Shaxsni JK 250-moddasi bo'yicha javobgarlikka tortish uchun portlovchi moddalar yoki pirotexnika buyumlari bilan muomalada bo'lish qoidalarining qaysi bandi buzilganligini aniqlash zarur.

Jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to'lgan aqli raso har qanday shaxs bo'lishi mumkin.

JK 250-moddasi 2-qismida portlovchi moddalar yoki pirotexnika buyumlari bilan muomala qilish qoidalarining buzilishi odam o'lishiga, boshqa og'ir oqibatlarga olib kelganligi uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Boshqa og'ir oqibatlar deganda, ikki yoki undan ortiq shaxslarning badaniga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishini, ekologik halokat ro'y berishi va h.k.larni tushunish zarur.

13-§. Pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi (JK 250¹-moddasi)

Jinoyatning **asosiy bevosita obyekti** sifatida pirotexnika buyumlarini ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, jo‘natish, ulardan foydalanish, ularni O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish (O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqish) yoki o‘tkazish tartibini ta‘minlaydigan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. **Qo‘shimcha bevosita obyekti** fuqarolarning hayoti yoki sog‘lig‘i yoxud o‘zgarar mulkining daxlsizligini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlardir.

Pirotexnika buyumlarini ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, jo‘natish, ulardan foydalanish, ularni O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish (O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqish) yoki o‘tkazishga oid huquqiy masalalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 6 maydagi «Portlovchi moddalar va portlatish vositalarini O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish, transportda tashish, saqlash va ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 213-son hamda 2009 yil 10 dekabrda «O‘zbekiston Respublikasi hududida pirotexnika vositalari aylanishini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 309-son qarorlari, Portlovchi moddalarni ishlab chiqarish, sotib olish, saqlash, transportda tashish, ulardan foydalanish va ularni hisobga olish to‘g‘risidagi yo‘riqnoma (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2005 yil 8 iyulda 1491-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan), O‘zbekiston Respublikasi hududida portlovchi materiallarni avtomobil transportida tashish qoidalarini (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2005 yil 8 iyulda 1492-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi) hamda ko‘plab boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

JK 250¹-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **predmeti** pirotexnika buyumlaridir. («Pirotexnika buyumlari» umumiy tushunchasi haqida JK 250-moddasi tahliliga qarang. Shu bilan birga, qonun hujjatlarida «pirotexnika buyumlari» tushunchasining boshqa, yanada maxsus ta‘riflari ham berilgan.)

NOTA BENE !

Pirotexnika buyumlari deganda, tarkibiy jihatdan pirotexnika moddalaridan iborat bo‘lgan hamda detonatsiya qilinmaydigan ekzotermiya reaksiyalar natijasida tashqi effektlarni (o‘t, ovoz, gaz yoki tutun yoxud ularning kombinatsiyalari) vujudga keltirish uchun mo‘ljallangan vositalar tushunilishi lozim¹.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi hududida portlovchi materiallarni avtomobil transportida tashish qoidalarida pirotexnika buyumlari tegishli toifalari ko‘zda tutilgan. Xususan, xavflilik darajasiga ko‘ra pirotexnika buyumlarining quyidagi toifalari ajratiladi: butun massasi bilan portlashi mumkin bo‘lgan; butun massasi bilan portlamaydigan, biroq portlashda tartibsiz sochilishi mumkin bo‘lgan hamda atrofdagi predmetlarga jiddiy ziyon yetkazish xavfini tug‘diradigan; yonganida katta hajmda issiqlik energiyasini ajratadigan yoxud katta portlash effektini vujudga keltirmagan holda ketma-ket portlaydigan; alanganish yoki boshqa tashabbuskor holatlardagina portlashning katta bo‘lmagan xavfini vujudga keltiradigan.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 10 dekabrda «O‘zbekiston Respublikasi hududida pirotexnika vositalari aylanishini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 309-son qarorining 1-bandi bilan O‘zbekiston Respublikasi hududida pirotexnika vositalarini olib kirish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash, sotish va ulardan foydalanish vaqtincha taqiqlangan. Qarorning 3-bandida barcha pirotexnika vositalari olib qo‘yilishi va keyinchalik belgilangan tartibda yo‘q qilinishi kerakligi belgilangan.

Obyektiv tomondan tahlil qilinayotgan jinoyat ancha miqdorda yoxud shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, jo‘natish, ulardan foydalanish,

¹Қаранг.: Ўзбекистон Республикаси ҳудудида портловчи материалларни автомобиль транспортида ташиш қоидалари (Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2005 йил 8 июлда 1492-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган), 2-банд. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2005 йил, 27-сон, 200-модда.

xuddi shuningdek ularni qonunga xilof ravishda O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish (O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqish) yoki o‘tkazishdan iborat.

NOTA BENE !

Ishlab chiqarish pirotexnika buyumlarini kelgusida iste'molga chiqarish uchun ularni to'liq texnologik turkum yoki uning ayrim bosqichlari bo'yicha bevosita ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirishda namoyon bo'ladi.

Qayd etish lozimki, pirotexnika buyumlarini (harbiy maqsaddagi mahsulotlardan tashqari) yaratish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash, realizatsiya qilish, ulardan foydalanish, ularni yo'q qilish va utilizatsiya qilish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001 yil 12 maydagi 222-II-son qarori¹ bilan tasdiqlangan Amalga oshirilishi uchun litsenziyalar talab qilinadigan faoliyat turlarining ro'yxatiga kiritilgan. Shu tufayli, turli korxonalar tomonidan tegishli litsenziyasiz pirotexnika buyumlarini ishlab chiqarish holatlari pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish sifatida e'tirof etilishi lozim.

Pirotexnika buyumlarini ishlab chiqarishda ishlab chiqaruvchilar pirotexnika buyumlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 6 iyuldagi 318-son qarori bilan tasdiqlangan Majburiy tartibda sertifikatlanadigan mahsulot turlari ro'yxatiga kiritilganligini inobatga olishlari kerak.

NOTA BENE !

Ko‘rib chiqilayotgan modda nuqtai nazaridan **tayyorlash** deganda, pirotexnika buyumlarini pirotexnika moddalaridan va turli yordamchi vositalaridan tayyorlashga yo'naltirilgan aybdor shaxsning barcha xatti-harakatlari tushuniladi.

¹Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2002 йил, 2-сон, 14-модда.

Ixtisoslashmagan korxonalar (maishiy yoki kichik sexlar sharoitida) tomonidan qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tmasdan pirotexnika buyumlarini tayyorlash mazkur buyumlarni qonunga xilof ravishda tayyorlashga misol bo‘ladi. Bundan tashqari, pirotexnika buyumlarini tayyorlashda tegishli shaxslar pirotexnika vositalari aylanishiga oid faoliyat bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning talablari va shartlarini, shuningdek pirotexnika vositalarini yaratishda majburiy bo‘lgan xavfsizlikning umumiy talablarini belgilaydigan davlat standartlarini bajarishlari shart.

NOTA BENE !

Saqlash deganda, pirotexnika buyumlarining maxsus mo‘ljallangan joyda (tayyor mahsulot ombori va boshqalar) vaqtincha joylashtirilishiga qaratilgan aybdor shaxsning har qanday qasddan sodir etilgan harakatlari tushunilishi lozim.

Ko‘plab hollarda pirotexnika buyumlari qonunga xilof ravishda bozorlar va savdo komplekslarining tegishli omborxonalarida saqlanadi. Shuning uchun, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 10 dekabrda «O‘zbekiston Respublikasi hududida pirotexnika vositalari aylanishini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 309-son qarorining 4-bandi bilan bozorlar, savdo komplekslari va korxonalarining rahbarlari o‘z hududlarida pirotexnika vositalari saqlanishi holatlariga yo‘l qo‘yilganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortishgacha shaxsan javob berishi to‘g‘risida qat’iy ogohlantirilganlar.

NOTA BENE !

Tashish – pirotexnika buyumlarini har qanday usulda bir joydan ikkinchi joyga (masalan, ishlab chiqaruvchi korxonadan bozorga) transportda tashishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 6 maydagi «Portlovchi moddalar va portlatish vositalarini O‘zbekiston

Respublikasiga olib kirish, transportda tashish, saqlash va ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 213-son qarorining 2-bandiga muvofiq portlovchi moddalar (shu jumladan, signal raketalar, yomg'ir yog'diriladigan raketalar, tumanga qarshi signallar va boshqa pirotexnika buyumlari) maxsus jihozlangan avtotransport vositalari va temir yo'l vagonlarida faqat O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining qurollangan bo'linmalari soqchiligi ostida tashiladi.

Shu bilan birga, portlovchi moddalarni (shu jumladan, pirotexnika buyumlari) O'zbekiston Respublikasi havo kengligida fuqaro aviatsiyasining havo kemalari bilan tashish qat'iyon taqiqlanadi. Istisno hollarda bunday tashish fuqaro aviatsiyasining havo kemalari bilan xavfsizlikning zarur chora-tadbirlariga rioya qilingan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining alohida qarori bo'yicha amalga oshirilishi mumkin.

NOTA BENE !

Jo'natish deganda, pirotexnika buyumlarini konteyner, posilka va boshqa moslashtirilgan predmetlarda boshqa joyga ko'chirishni tushunish lozim.

Pirotexnika buyumlarini pochtaga yoki boshqa transport tashkilotiga jo'natish uchun topshirish ham jo'natish sifatida e'tirof etilishi lozim.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, **pirotexnika buyumlaridan foydalanish** bilan bog'liq faoliyat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001 yil 12 maydagi 222-II-son qarori bilan tasdiqlangan Amalga oshirilishi uchun litsenziyalar talab qilinadigan faoliyat turlarining ro'yxatiga kiritilgan. Pirotexnika buyumlaridan foydalanish – bu mazkur buyumlarni bevosita qo'llashdir. Ta'kidlab o'tishimiz lozim, JK 250-moddasida nazarda tutilgan jinoyatdan farqli o'laroq, mazkur holda pirotexnika buyumlaridan aynan qonunga xilof ravishda foydalaniladi. Aksariyat hollarda ushbu buyumlardan turli ommaviy tadbirlarni o'tkazishda, har xil sanoat ishlarini bajarishda foydalaniladi.

Pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish ushbu buyumlarni xorijdan mamlakatimiz hududiga qonunda belgilangan tartibni buzib olib kirilishida ifodalanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 6 maydagi 213-son qarori bilan tasdiqlangan Sanoat maqsadidagi portlovchi materiallarni O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga asosan portlovchi materiallarni (shu jumladan, signal raketalar, yomg‘ir yog‘diriladigan raketalar, tumanga qarshi signallar va boshqa pirotexnika buyumlarini) O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan beriladigan ruxsatnomalar asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasiga portlovchi materiallar jismoniy shaxslar tomonidan olib kirilishi, shu jumladan kuzatib borilmaydigan bagajda olib kirilishi taqiqlanadi. Portlovchi materiallarni tashiyotgan transport vositalari (olib kirishga ruxsatnoma mavjud bo‘lgan taqdirda) O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasidan o‘tkazish manzillari orqali ustuvor tartibda o‘tkazib yuboriladi. Portlovchi materiallarning bojxona tekshiruvi faqat maxsus jihozlangan joylarda (portlovchi materiallar saqlanadigan omborlarda) amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 6 iyuldagi «Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 318-son qaroriga binoan pirotexnika buyumlari Majburiy tartibda sertifikatlanadigan mahsulot turlari ro‘yxatiga kiritilganligi sababli, ularni O‘zbekiston Respublikasiga olib kirishda tegishli sertifikatlar taqdim qilinishi shart.

Pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqish deganda, mazkur buyumlarning mamlakatimiz hududidan xorijiy davlatlarga qonunda belgilangan tartibni buzib olib chiqilishi tushuniladi. Inobatga olish lozimki, pirotexnika buyumlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 21 fevraldagi 62-son qarori¹ bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali faqat maxsus ruxsatnoma mavjud bo‘lgan taqdirda tranzit qilinadigan

¹Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2002 йил, 3–4-сон, 34-модда.

qurol-yarog', harbiy texnika va harbiy mol-mulk ro'yxatiga kiritilgan. Ko'rsatilgan qarorga asosan, Davlat bojxona qo'mitasi maxsus yuklar sifatida e'tirof etilgan pirotexnika buyumlari O'zbekiston hududidan amalda olib chiqib ketilishi va belgilangan tartibda bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Pirotexnika buyumlarini o'tkazish ularni tovar bozoriga chiqarish yoki iste'molchilarga bevosita realizatsiya qilish (sotish) orqali amalga oshiriladi. Pirotexnika buyumlarini o'tkazish faqat mazkur buyumlarni realizatsiya qilish bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan shaxslar tomonidagina amalga oshirilishi mumkin. Aks holda mazkur faoliyat g'ayriqonuniy deb e'tirof etiladi.

JK 250¹-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat mazkur moddaning dispozitsiyasida nazarda tutilgan harakatlardan biri sodir etilgan vaqtdan boshlab, ijtimoiy oqibatlar ro'y berishidan qat'i nazar, **tugallangan** deb topiladi.

Jinoyat qonunining talablariga asosan aybdor shaxsning yuqorida tahlil qilingan harakatlari ancha miqdorda yoki mazkur shaxsga shunday harakatlari uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, u jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Subyektiv tomondan jinoyat **to'g'ri qasddan** sodir etiladi. Aybdor pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarishini, tayyorlashini, saqlashini, tashishini, jo'natishini, ulardan foydalanishini, ularni qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasiga olib kirishini (O'zbekiston Respublikasidan olib chiqishini) yoki o'tkazishini anglaydi va mazkur harakatlarni sodir etishni istaydi.

Jinoyatning **subyektiv** pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, jo'natish, ulardan foydalanish, ularni qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasiga olib kirish (O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish) yoki o'tkazish bilan shug'ullanadigan 16 yoshga to'lgan shaxs hisoblanadi.

Pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, jo'natish, ulardan foydalanish, xuddi shuningdek ularni qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasiga olib kirish (O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish) yoki o'tkazish:

a) ko'p miqdorda;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
v) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
g) mansab mavqeini suiiste'mol qilish yo'li bilan sodir etilgan bo'lsa;
d) badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa, shaxsning harakatlari **JK 250¹-moddasi 2-qismi** bo'yicha kvalifikatsiyaqilinadi.

Pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, jo'natish, ulardan foydalanish, xuddi shuningdek ularni qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasiga olib kirish (O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish) yoki o'tkazish:

a) juda ko'p miqdorda;

b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa;

v) odam o'lishiga sabab bo'lsa, shaxsning harakatlari **JK 250¹-moddasi 3-qismi** bo'yichakvalifikatsiyaqilinadi.

Pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, jo'natish, ulardan foydalanish, xuddi shuningdek ularni qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasiga olib kirish (O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish) yoki o'tkazish:

a) odamlar o'limiga;

b) boshqacha og'ir oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo'lsa, shaxsning harakatlari **JK250¹-moddasi 4-qismi** bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Mazkur kvalifikatsiyalovchi (alohida kvalifikatsiyalovchi) belgilar o'z mazmuni bo'yicha yuqorida boshqa jinoyatlarning tahlili doirasida ko'rib chiqilgan belgilardan farq qilmaydi.

14-§. Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda egallash (JK 251-moddasi)

Jinoyatning **bevosita asosiy obyekti** kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni ishlab chiqish, sotish, olish, saqlash, tashish, foydalanish qoidalariga rioya qilish orqali ta'minlanadigan ijtimoiy munosabatlardir.

Jinoyatning **bevosita qo‘shimcha** obyekti odamlarning hayoti va sog‘lig‘i hisoblanadi.

Kuchli ta‘sir qiluvchi yoki zaharli moddalar jinoyatning **predmeti** hisoblanadi.

NOTA BENE !

Kuchli ta‘sir qiluvchi moddalar –ko‘proq dozada qabul qilinganida odamlar hayoti va sog‘lig‘iga xavfli ta‘sir ko‘rsatadigan, iste‘mol qilinganida salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi ehtimoli bor moddalardir.

Tibbiy nuqtai nazardan, bu odam sog‘lig‘iga katta zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan moddalardir. Kuchli ta‘sir qiluvchi moddalar giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar sifatida rasmiy e‘tirof etilmaganligi va o‘zbekiston Respublikasida nazorat qilinishi lozim bo‘lgan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar ro‘yxatlariga kiritilmaganligi kuchli ta‘sir qiluvchi moddalarning yuridik belgisidir (qarang: JK 270-moddasining tahlili).

NOTA BENE !

Odam organizmiga toksikologik (zaharlovchi) ta‘sir ko‘rsatuvchi moddalar **zaharli** moddalar hisoblanadi.

Tibbiy nuqtai nazardan, zaharli moddalarning hatto kichkina dozalarda iste‘mol qilinishi odam o‘lishiga yoki uning sog‘lig‘iga og‘ir oqibatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Moddaning kuchli ta‘sir etuvchi yoki zaharli ekanligini aniqlash uchun ekspert xulosasi talab qilinadi.

Obyektiv tomondan JK 251-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat kuchli ta‘sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni o‘g‘rilik yoki firibgarlik yo‘li bilan qonunga xilof ravishda egallashdan iboratdir.

JK 251-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **tugallanganligi** kuchli ta‘sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni egallash va aybdorda uning egaligiga tushgan moddalardan o‘zining ixtiyoriga ko‘ra foydalanish uchun haqiqiy imkoniyat paydo bo‘lgan vaqtga to‘g‘ri keladi.

Subyektiv tomondan JK 251-moddasida nazarda tutilgan jinoyat **to'g'riqasddan** sodir etiladi. Aybdor shaxs kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda egallashini anglaydi (aybdor shaxs ushbu moddalarga nisbatan, ularning xavfliligidan kelib chiqib, hisobga olish, ro'yxatdan o'tkazish, saqlashning maxsus qoidalari amal qilishini anglaydi) va shunday qilmishni sodir etishni istaydi.

Jinoyatning sodir etilish **motivlari** va ko'zlangan **maqsad** har xil bo'lishi mumkin, ammo ular jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir etmaydi.

Jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

JK 251-moddasi 2-qismida kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddani qonunga xilof ravishda egallash:

- a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) o'zlashtirish, rastrata qilish yoki mansab mavqeini suiiste'mol qilish yo'li bilan;
- g) talonchilik yo'li bilan;
- d) tamagirlik yo'li bilan sodir etilganligi uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

JK 251-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **tugallangan vaqti** differentsiatsiyalangan holda aniqlanadi. Jinoyatni «a», «b» va «g» bandlarining belgilari bo'yicha sodir etishda jinoyatning tugallangan vaqti kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni egallash va aybdorda ulardan o'zining ixtiyoriga ko'ra foydalanish uchun haqiqiy imkoniyat paydo bo'lgan vaqtga to'g'ri keladi.

O'zlashtirish, rastrata qilish yoki mansab mavqeini suiiste'mol qilish hollarida esa tugallangan vaqti egallash vaqtiga to'g'ri kelmaydi, chunki mazkur moddalar, qoida tariqasida, aybdor shaxslarning egaligida bo'ladi. Ko'rsatilgan hollarda **tugallangan** vaqti mansab mavqeini suiiste'mol qilib yoki suiiste'mol qilmasdan ushbu moddalarni o'zlashtirish yoki rastrata qilish bo'yicha aniq amalga oshirilgan harakatlardan kelib chiqib aniqlanadi.

Talonchilikda jinoyatning **tugallangan** vaqti sifatida ayrim harakatlarni amalga oshirish bilan qo'rqitib mulk topshirishni talab qilish vaqti e'tirof etiladi.

JK 251-moddasi 3-qismida kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni:

a) bosqinchilik yo'li bilan;

b) ko'p miqdorda;

v) uyushgan guruh yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgani uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Mazkur holda **ko'p miqdor** ishning aniq holatlaridan kelib chiqib, kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarning miqdorini, uning odam organizmiga ta'sir qilish darajasini va hokazolarni inobatga olib aniqlanadi. Ayrim holatlarda giyohvandlik vositalari ustidan nazorat qilish qo'mitasi tomonidan bu holat bo'yicha tavsiyalar beriladi.

JK 251-moddasi 3-qismi «a» bandida nazarda tutilgan jinoyat ko'rsatilgan moddalarni egallash maqsadida hujum qilingan vaqtdan e'tiboran tugallangan deb e'tirof etiladi.

Yuqorida aytib o'tilgan og'irlashtiruvchi holatlarning barchasini JK 247-moddasi tahlil qilinganida ko'rib chiqqan edik.

15-§. Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish (JK 251¹-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekti** kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalar muomalasining normativ hujjatlarda belgilangan tartibiga rioya etilishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir.

Ushbu jinoyatning **predmeti** giyohvandlik vositasi va psixotrop moddalar hisoblanmaydigan, shuningdek, ushbu moddalarni tayyorlash yoki qayta ishlashda ishlatilmaydigan kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalar hisoblanadi.

(«Kuchli ta'sir qiluvchi moddalar» va «zaharli moddalar» tushunchalarining to'liq tahlili JK 251-moddasida keltirilgan.)

Kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarni **tayyorlash va qayta ishlab chiqarishga mo'ljallangan moslama** deyilganda, ushbu moddalarni tayyorlash, qayta ishlab chiqarish maqsadida foydalanilgan asboblari, priborlari, mexanizmlarni tushunish kerak.

JK 251¹-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar hisoblanmaydigan kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni o'tkazish maqsadida qonunga xilof ravishda tayyorlash, qayta ishlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish, shuningdek, ularni qonunga xilof ravishda o'tkazish kabi harakatlarda ifodalanadi.

Ko'rib chiqilayotgan moddaning dispozitsiyasida nazarda tutilgan harakatlar, belgilangan qoidalarni buzib yoki ilmiy, tibbiy va boshqa maqsadlarda yuqoridagi moddalarni ishlab chiqishni davlat organlari tomonidan beriladigan ruxsatnomasiz amalga oshirish **g'ayriqonuniy** hisoblanadi.

NOTA BENE !

Ushbu moddalarni **tayyorlash** deganda, aybdor shaxsning kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni tabiiy xomashyo yoki oddiy, zarar yetkazmaydigan moddalardan kimyoviy tajribalar o'tkazish yo'li bilan yoxud ushbu moddalarni tayyorlash uchun mavjud apparatlar, agregatlarni qayta ishlash, yangi apparatlar yaratishga qaratilgan harakatlari tushuniladi.

Tayyorlash joyi (kvartira, fabrika, kimyoviy laboratoriya), shuningdek, aybdor shaxsining malakasi (tajribasi, bilimi) qilmishning kvalifikatsiya qilinishida ahamiyat kasb etmaydi, lekin aybdorga jazo tayinlayotgan vaqtda e'tiborga olinishi kerak.

Ushbu jinoyat konsentratsiyasi, miqdori va tarkibiga ko'ra, inson hayoti va sog'lig'i uchun xavf tug'diradigan kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalar tayyorlangan (ishlab chiqarilgan) yoki ularni tayyorlash va qayta ishlab chiqarish uchun moslama tayyorlangan vaqtdan **tugallangan** hisoblanadi. Kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarni tayyorlashga qaratilgan harakatlar amalga oshirilgan, ammo tayyor preparat olinmagan holatlar jinoyatga suiqasd sifatida JK 25-moddasi 2-qismi va **251¹-moddasi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Qayta ishlash – kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarning konsentratsiyasini oshirish maqsadida ularning birlamchi tarkibi va tavsifini o'zgartirish, shuningdek, ularni boshqa qo'shimchalardan tozalash.

Kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarning tegishli tarkibi qo'lga kiritilgan vaqtdan qayta ishlash **tugallangan** deb hisoblanadi.

Kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarni **olish** – aybdorning ushbu moddalarni yoki ularni tayyorlash yoki qayta ishlash uchun mo'ljallangan moslamalarga haqiqatan o'z egaligiga olishga qaratilgan har qanday harakatlaridir. Bunday harakatlar sotib olish, boshqa ashyolarga almashtirish, qarzga yoki mukofot sifatida olish, topib olingan narsani o'zlashtirish va boshqa ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarni talon-toroj (qonunga xilof ravishda egallash) qilish JK 251-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Ushbu jinoiy harakat jinoyat predmeti egallangan va shaxsda undan real foydalanish imkoniyati vujudga kelgan vaqtdan **tugallangan** hisoblanadi.

Kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarni tayyorlash jarayoni uchun alohida komponentlarini yoki ularni tayyorlash va qayta ishlab chiqarish uchun moslamaning alohida detallarini qonunga xilof ravishda olish ushbu jinoyatga tayyorgarlik ko'rish deb hisoblanadi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan jinoyat predmetini **saqlash** deganda, g'ayriqonuniy ravishda egallangan kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarni yoki ularni tayyorlash yoki qayta ishlash uchun mo'ljallangan moslamalarni xufiya yoki qiyin topiladigan joylarda saqlashga qaratilgan har qanday qasddan sodir etilgan harakatlar tushuniladi.

Ko'rsatilgan predmetlarni saqlash uzoqqa cho'zilgan jinoyat bo'lib, kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni yoxud ularni tayyorlash yoki qayta ishlash uchun mo'ljallangan uskunalarni saqlashga qaratilgan harakatlarning amalga oshirilishi boshlangan vaqtdan **tugallangan** hisoblanadi.

Kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarni yoki ularni tayyorlash yoki qayta ishlash uchun mo'ljallangan moslamalarni **tashish** – shaxsning qasddan ushbu moddalarni bir joydan ikkinchi joyga olib o'tishiga qaratilgan harakatlar. Transport va tashish vositasi jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi, ko'pincha ushbu predmetlar maxsus moslamalarda tashiladi.

Tashish ushbu moddalarning egasi yoki boshqa shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Agar shaxs (tashuvchi) tashilayotgan narsaning nima ekanligini bilmagan bo'lsa, u jinoiy javobgarlikka tortilmaydi, shaxs ish holatlaridan kelib chiqib, bu haqida bilishi mumkin bo'lgan holatlar bundan mustasno.

Transportirovka boshlangan paytdan bu qilmish **tugallangan** hisoblanadi.

Yuqoridagi moddalarni pochta, bagaj ko'rinishidagi jo'natmalar yoki boshqa yo'l bilan **jo'natish** deganda, jo'natuvchining ishtirokisiz ularni ko'rsatilgan manzilga transportirovka qilish va olib borish tushuniladi.

Qilmish posilka, banderol, bagaj, konteyner va h.k. lar jo'natish uchun topshirilgan vaqtdan **tugallangan** hisoblanadi.

Kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarni yoki ularni tayyorlash yoki qayta ishlash uchun mo'ljallangan moslamalarni **o'tkazish** –ularni tarqatishga qaratilgan har qanday harakat. Bunda ushbu moddalar boshqa shaxsning egaligiga o'tadi. Iste'molchi (oluvchi)lar bilan kelishilganlik, moddalar miqdorining ancha ekanligi, tegishli moslamalar, xomashyo va boshqa o'tkazish maqsadining borligidan dalolat beradi.

O'tkazish jinoyatning predmeti bir kishiga berilgan vaqtdan **tugallangan** hisoblanadi.

JK 251¹-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan qilmishning **subyektiv tomoni to'g'ri qasd** bo'lib, aybdor kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarni o'tkazish maqsadida qonunga xilof ravishda harakat qilayotganini biladi va uni xohlaydi.

Bunda qilmishni kvalifikatsiya qilishning zaruriy sharti kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarning g'ayriqonuniy muomalasi **o'tkazish maqsadini** ko'zlab amalga oshirilishidir. Agar ko'rsatilgan moddalar

shaxsiy iste'mol uchun tayyorlangan, saqlanayotgan, jo'natilayotgan, sotib olingan bo'lsa, jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydi.

Qilmishning **motivi** jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir etmaydi.

Jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

JK 251¹-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan qilmish **obyektiv tomondan** takroran yoki bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib yuqoridagi harakatlarni sodir etishda ifodalanadi.

Jinoyatning takroran yoki bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilishiga JK 247-moddasi tahlil qilinganda alohida to'xtalganmiz.

JK 251¹-moddasi 3-qismida ushbu moddaning 1-qismida nazarda tutilgan harakatlarning uyushgan guruh tomonidan yoki ko'p miqdorda sodir etish uchun javobgarlik belgilangan.

Kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarning **ko'p miqdori** muayyan normalarda belgilanmagan, ushbu miqdor kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddaning miqdori uning inson organizmiga ta'siridan kelib chiqib, ekspert xulosasi asosida aniqlanadi.

JK 251¹-moddasi 4-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarni ishlab chiqarish, olish, saqlash, hisobga olish, berish, tashish yoxud jo'natish qoidalarini buzish, ehtiyotsizlik orqasida ularning o'g'irlanishiga yoki jiddiy zarar yetkazilishiga olib kelgan harakatlarda ifodalanadi.

Ushbu norma dispozitsiyasining blanket xususiyatga ega ekanligini e'tiborga olib, shaxsning aybdorligini va konkret jinoyatning sodir etilganligi faktini aniqlash uchun belgilangan qoidalarga murojaat qilish kerak bo'ladi.

Ushbu holatda **qoidalarni buzish** deganda, kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalar bilan muomala qilishga oid bo'lishning belgilangan qoidalarini bajarmaslik yoki ularga rioya qilmaslik tushuniladi. Bunda jinoiy javobgarlik ishlab chiqarish, saqlash va h.k. qoidalarni buzganlik uchun emas, balki uning oqibatlari, ya'ni kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli

moddalarni talon-toraj qilganlik tufayli jiddiy zarar yetkazganlik uchun vujudga keladi.

Qilmishni kvalifikatsiya qilish uchun aynan ushbu moddalarni ishlab chiqarish, saqlash, hisobga olish va h.k. qoidalarni buzganlik tufayli turli usullarda talon-toraj qilish imkoniyati tug'ilganligini aniqlash zarur.

Yuqoridagi qoidalarni buzish oqibatida odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, atrof-tabiiy muhitning ifloslanishi, kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalar, mulk obyektlarining yo'q qilinishi va h.k.lar **jiddiy zarar**, deb hisoblanishi mumkin. Har qanday zarar yetkazilganida qoidalarni buzish va ro'y bergan oqibat o'rtasida sababiy bog'lanishning mavjudligi aniqlanishi zarur.

JK 251¹-moddasi 4-qismida nazarda tutilgan qilmish ushbu norma dispozitsiyasida ko'rsatilgan oqibatlar ro'y bergan paytdan **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan mazkur qilmish aybning murakkab shakli, ya'ni kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalar bilan muomala qilish qoidalarini buzish **qasddan** va uning natijasida ro'y bergan oqibatga nisbatan **ehtiyotsizlik** orqasida sodir etiladi.

Mazkur qilmishning **subyeksi** maxsus subyekt bo'lib, kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalar ishlab chiqarish, olish, saqlash, hisobga olish, berish, tashish yoxud jo'natish qoidalarini buzgan mansabdor shaxs yoki xizmat vazifasiga ko'ra ularga rioya qilishi lozim bo'lgan boshqa shaxslar javobgar bo'ladi. 16 yoshga to'lgan shaxs jinoyatning subyeksi bo'ladi.

16-§. Radioaktiv materiallarni qonunga xilof ravishda egallash (JK 252-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekti** radioaktiv materiallarning muomalasini belgilovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. **Bevosita qo'shimcha obyekt** – o'zgarar mulki fuqarolarning hayoti va sog'lig'i daxlsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar.

Fuqarolarning radiatsiyaviy xavfsizligini tartibga soluvchi asosiy normativ aktlarga O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 31 avgustdagi «Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida»gi 120-II-son, 1992 yil 9 dekabrda

«Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi 754-XII-son Qonunlari va boshqa qonun aktlari kiradi.

Radioaktiv materiallar, ya’ni ion nurlari chiqaruvchi (radiatsiya manbalari) chiqindilar, shuningdek, issiqlik chiqaruvchi yadroviy reaktorlarining qurilmalari, radioaktiv manbalar, yadro materiallari, radioaktiv moddalar, radioaktiv chiqindilar jinoyatning **predmeti** hisoblanadi.

Radioaktiv materiallar tushunchasi qonunda berilmagan bo‘lsa-da, «Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida»gi Qonunning 2-moddasi mazmuniga ko‘ra, radioaktiv materiallar ion nurlarining manbalari bilan bir xildir. Ushbu qonunda mohiyatan ion nurlarining manbalari radioaktiv materiallar va radioaktiv moddalar tushunchasini birlashtiradi. Yadro qurilmalari ham ion nurlari manbai hisoblanadi, shuning uchun ham yadro qurilmalaridan qonunga xilof ravishda foydalanish (ekspluatatsiya qilish) ham JK 255-modasida nazarda tutilgan javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Ion nurlari tarqatuvchi manba (radioaktiv manba) – ion nurlari chiqaruvchi yoki chiqarishi mumkin bo‘lgan qurilma va (yoxud) radioaktiv modda.

Ion nurlarining manbalari yadro qurilmalariga kirmaydigan qurilmalar, apparatlar, moslama va buyumlar bo‘lib, ularda radioaktiv moddalar mavjud bo‘ladi yoki ion nurlari yig‘iladi.

Yadro materiallari– tarkibida bo‘linuvchi (parchalanuvchi) yadro moddalari bo‘lgan yoki shunday moddalarni hosil qilish xususiyatiga ega materiallardir. Masalan, seziiy – 137, uran – 233, uran – 235, plutoniy – 238 va h.k.

Radioaktiv moddalar – yadro materiallariga aloqasi bo‘lmagan, ion nurlarini tarqatuvchi moddalar (radiy – 236, poloniy – 210, kobalt – 60 va boshq.).

Radioaktiv chiqindilar – keyinchalik foydalanilishi nazarda tutilmagan, bir marotaba ishlatilgan yadro materiallari va radioaktiv moddalar.

Issiqlik chiqaruvchi yadro reaktorlarining qurilmalari – yadro reaktorida nazorat qilinadigan yadroviy reaksiya hisobiga issiqlik

energiyasini olish uchun mo'ljallangan yadro materiallari bo'lgan mashinasozlik mahsulotlari.

Nurlangan issiqlik chiqaruvchi yadro reaktorlarining qurilmalari – tarkibida ishlatilgan yadro yoqilg'isi bo'lgan yadro reaktorida nurlangan va undan olingan issiqlik chiqaruvchi qurilmalar.

Obyektiv tomondan JK 252-moddasida nazarda tutilgan jinoyat radioaktiv materiallarni qonunga xilof ravishda egallashdan iboratdir.

Qonunga xilof ravishda egallash deganda, har qanday ko'rinishdagi radioaktiv materiallarning turli g'ayriqonuniy usullar orqali qo'lga kiritilishini tushunish zarur.

Radioaktiv materiallar bosqinchilik, tovlamachilik va h.k. yo'llar bilan egallangan hamda ana shu jinoyatlar uchun **JK 252-moddasi 1-qismida** nazarda tutilgan jazodan og'irroq bo'lgan jazo nazarda tutilgan bo'lsa, aybdorning qilmishi jinoyatlar jami bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi zarur.

Jinoyat egallash usulidan qat'i nazar, radioaktiv materiallar qo'lga kiritilgan paytdan e'tiboran **tugallangan** deb e'tirof etiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat **qasddan** sodir etiladi. Jinoyatning sodir etilish **motivi** va undan ko'zlangan **maqsad** qilmishni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Jinoyatning **subyeksi** 14 yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

JK 252-moddasi 2-qismida radioaktiv materiallarni:

- a) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) mansab mavqeidan foydalangan holda egallaganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

JK 252-moddasi 3-qismida radioaktiv materiallar:

- a) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab;
- b) o'ta xavfli retsidivist tomonidan;
- v) tamagirlik yo'li bilan;
- g) bosqinchilik yo'li bilan;

d) ushbu Kodeksning 155 va 161-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni amalga oshirish maqsadida sodir etilganlik uchun javobgarlik belgilangan.

JK 252-moddasi 2-qismi «v» bandi nuqtai nazaridan **mansab mavqeidan foydalangan** holda egallaganlik deganda, shaxsning radioaktiv materiallarni g'ayriqonuniy ravishda egallash uchun o'zining hokimiyat yoki boshqa vakolatlaridan foydalanishi tushuniladi. Ushbu normaning tuzilishi va mazmunidan kelib chiqib, aytish mumkinki uning subyekti faqat mansabdor, ya'ni tashkiliy-boshqaruv yoki ma'muriy-xo'jalik vakolatlari berilgan shaxs bo'la oladi. Mazkur holda, qilmish JK 205-moddasi (Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish) yoki 206-moddasi (Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish) bilan qo'shimcha ravishda kvalifikatsiya qilinmaydi.

(Ko'rib chiqilayotgan moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan boshqa belgilar bo'yicha radioaktiv materiallarni qonunga xilof ravishda egallashni kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida JK 247-moddasining tahliliga qarang.)

17-§. Radioaktiv materiallardan foydalanish qoidalarini buzish (JK 253-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekti** radioaktiv materiallar bilan muomalada bo'lish tartibini belgilovchi jamoat xavfsizligi hisoblanadi. **Bevosita qo'shimcha obyekti** o'zgalar mulki, fuqarolarning hayoti va sog'lig'ining daxlsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir.

Jinoyatning **predmeti** radioaktiv materiallar hisoblanadi.

(«Radioaktiv materiallar» tushunchasi to'g'risida JK 252-moddasining tahliliga qarang.)

Obyektiv tomondan jinoyat radioaktiv materiallarni saqlash, hisobga olish, foydalanish, tashish, jo'natish va ular bilan muomalada bo'lishning boshqa qoidalarini buzish natijasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishidan iboratdir.

Ushbu modda blanket dispozitsiyali bo'lib, har bir alohida holda radioaktiv materiallar bilan muomalada bo'lish qoidalarining qaysi bandi buzilganligini aniqlash zarur.

Radioaktiv moddalar bilan muomala qilishning asosiy qoidalari «Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida»gi Qonunning II bo'limida, shuningdek, radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasida nazorat, kontrol va litsenziyalash faoliyatini amalga oshiruvchi davlat organlarining idoraviy aktlari bilan tartibga solinadi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 21 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi hududi orqali maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning tranzitini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish to'g'risida»gi 62-sonli qarorida¹ radioaktiv materiallarni olib o'tishning alohida tartibi belgilangan. Shuningdek, ushbu qarorda O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 11 maydagi «Maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning tranziti to'g'risida»gi 213-II-son Qonuniga² havola qilinadi. Ushbu qonun aktlarida alohida yuk sifatida radioaktiv materiallarni olib o'tish va Bojxona kodeksida alohida yuklarni bojxonada rasmiylashtirishning tartibi belgilangan.

NOTA BENE !

Mazkur materiallarni **saqlash** deganda, tahlil qilinayotgan modda mazmunidan kelib chiqib, radioaktiv materiallar bevosita aniq shaxsga tegishli bo'lgan omborlarda saqlanishi tushuniladi.

NOTA BENE !

Radioaktiv moddalarni **hisobga olish** deganda, radioaktiv materiallarning miqdor va sifat tarkibining hisob-kitobi olib borilishini tushunish lozim.

¹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2002., 3-4-сон, 34-модда; 2004., 28-сон, 321-модда; 30-сон, 345-модда; 2005., 8-9-сон, 67-модда.

² Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси, 2001 й., 5-сон, 82-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004., 25-сон, 287-модда.

NOTA BENE !

Radioaktiv moddalarni **hisobga olish** deganda, radioaktiv materiallarning miqdor va sifat tarkibining hisob-kitobi olib borilishini tushunish lozim.

NOTA BENE !

Hisobga olishni buzish – radioaktiv materiallarni boshqa joyga o'tkazilganligi, ularning ro'yxatdan chiqarilganligi, ko'milganligi to'g'risida o'z vaqtida ma'lumot bermaslik, noto'g'ri axborotni tarqatish, mavjud axborotni yashirish yoki buzib taqdim etish.

Radioaktiv materiallardan **foydalanish** deganda, qanday maqsadga mo'ljallanganligi (ion nurlarining manbai sifatidagi)ni inobatga olib, ularning qo'llanilishini tushunish zarur.

Radioaktiv materiallarni **tashish** deganda, ularning har qanday transport vositasida bir joydan ikkinchi joyga o'tkazilishi tushuniladi. **Tashish qoidalarini buzishga** transport hodisalari, avariyaalarning oldini olish, ushbu materiallarni joylashtirish, markirovkalash va boshqa xavfsizlik choralarini ko'rmaslik kiradi.

NOTA BENE !

Jo'natish deganda, radioaktiv materiallarning qandaydir aloqa kanallari (posilkalar, banderollar, konteynerlar va h.k.) vositasida bir joydan boshqa joyga o'tkazilishini tushunish kerak.

Radioaktiv materiallar bilan **muomalada bo'lishning boshqa qoidalari** tarkibiga ushbu materiallarni birovga o'tkazish yoki buzishni kiritish mumkin. Masalan, radioaktiv materiallarni **birovga o'tkazish** – ushbu materiallarni ularga mulk huquqiga asosan egalik qilgan shaxs tomonidan musodara qilish yoki ushbu materiallarning birovning egaligiga mulk huquqsiz o'tishi (hadya, vaqtincha foydalanish uchun topshirish va boshqalar).

NOTA BENE !

Radioaktiv materiallarni **buzish** deganda, ruxsatsiz jismoniy ta'sir oqibatida ularning o'zgarishi, ularga shikast yetkazilishi yoki nobud qilinishi tushuniladi.

Mazkur jinoyat moddiy tarkibli bo'lib, badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilgan paytdan e'tiboran **tugallangan** deb e'tirof etiladi.

Subyektiv tomondan ushbu normada nazarda tutilgan jinoyat **aybning murakkab shakli** bilan tavsiflanadi, ya'ni aybdor radioaktiv materiallar bilan muomalada bo'lish qoidalarini qasddan buzadi, ro'y bergan oqibatga nisbatan esa ehtiyotsiz bo'ladi.

Jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin, shuningdek, radioaktiv materiallar bilan muomalada bo'lish bo'yicha muayyan majburiyatlar zimmasiga yuklatilgan mansabdor yoki boshqa shaxslar ham bo'lishi mumkin.

JK 253-moddasi 2-qismida radioaktiv moddalar bilan muomalada bo'lish qoidalarining buzilishi:

- a) odam o'limiga;
- b) boshqa og'ir oqibatlarga olib kelganligi uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Ushbu holatda **boshqa og'ir oqibatlar** deganda, ko'plab kishilarning sog'lig'iga zarar yetishi, ekologik vaziyatning yomonlashuvi, juda ko'p miqdorda moddiy zarar yetkazilishi va h.k. tushunilishi kerak.

18-§. Radioaktiv materiallardan qonunga xilof ravishda foydalanish (JK 254-moddasi)

Jinoyatning **bevosita asosiy obyeksi** radioaktiv materiallar bilan muomalada bo'lish tartibini belgilovchi jamoat xavfsizligi hisoblanadi. **Bevosita qo'shimcha obyeksi** ekologik xavfsizlik, fuqarolarning hayoti va sog'lig'i, o'zgarar mulkining daxlsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir.

Radioaktiv materiallar – ion nurlari tarqatuvchi manbalar, turli fizikaviy holatda, har qanday qurilma yoki buyum ko'rinishidagi

radioaktiv moddalar yoki yadro materiallar jinoyatning **predmeti** hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat radioaktiv materiallar bilan qonunga xilof ravishda muomalada bo‘lish, ya’ni radioaktiv materiallar (qurilmada yoki buyum tarkibida har qanday fizik holatda yoinki boshqa ko‘rinishda turgan ion nurlari tarqatuvchi manbalar)ga, radioaktiv modda yoki yadro materiallariga qonunga xilof ravishda ega bo‘lish, ularni saqlash, ulardan foydalanish, ularni birovga o‘tkazish, ularni buzish natijasida badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishida ifodalanadi.

Ushbu jinoyatning obyektiv tomoni radioaktiv materiallar bilan muomalada bo‘lish qoidalariga zid bo‘lgan harakat yoki harkatsizlikda ifodalanadi.

Ushbu norma blanket dispozitsiyali bo‘lib, qilmishni **JK 254-moddasi** bilan kvalifikatsiya qilish uchun tegishli qonunlar va normativ aktlarga murojaat qilish kerak bo‘ladi. Shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun radioaktiv materiallar bilan g‘ayriqonuniy muomala qilishning aniq usuli aniqlanishi shart. **JK 254-moddasi 1-qismi** dispozitsiyasiga muvofiq, bunday harakatlar sirasiga radioaktiv materiallarni qonunga xilof ravishda olish, saqlash, foydalanish, birovga o‘tkazish yoki buzish kiradi.

Ko‘rsatilgan harakatlarning **g‘ayriqonuniyligi** ularning o‘zboshimchalik bilan qonunda belgilangan tartibni buzib, tegishli ruxsatnomasiz egallanishini bildiradi.

NOTA BENE !

Ega bo‘lish deganda, egallash uchun qo‘llanilgan har qanday usulni (JK 252-moddasida nazarda tutilgan qonunga xilof ravishda egallash bundan istisno) tushunish zarur, bu – sotib olish, almashish, qarz evaziga hisob-kitob qilish, tortiq etish va h.k.lar bo‘lishi mumkin.

NOTA BENE !

Saqlash deganda, radioaktiv materiallarning aniq bir shaxsga tegishli bo‘lgan omborxonada bevosita to‘planishi tushuniladi.

NOTA BENE !

Foydalanish – bu radioaktiv materiallarni ularning foydali xususiyatlarini chiqarish maqsadida qo‘llash.

NOTA BENE !

Birovga o‘tkazish deganda, radioaktiv materiallarning boshqa shaxsga sotilishini, sovg‘a qilinishini va h.k. usullar orqali ikkinchi shaxsga o‘tkazilishini tushunish zarur.

Radioaktiv materiallarni **buzish** deganda, ularning nobud qilinishi (tarkibida radioaktiv materiallar bo‘lgan dastgohlarga, asbob-uskunalarga, moslamalarga shikast yetkazish)ni tushunish zarur.

Radioaktiv materiallar bilan qonunga xilof ravishda muomalada bo‘lishning boshqa ko‘rinishlari (qonunga xilof ravishda saqlash, foydalanish), radioaktiv materiallar bilan muomala qilish qoidalarining buzilishi JK 252-moddasi tahlil etilganida ko‘rib chiqilganligi sababli ularga to‘xtalmaymiz.

Ushbu qilmish badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazish tarzidagi oqibatlar kelib chiqqan paytdan e‘tiboran **tugallangan** (JK 254-moddasi 1-qismi) deb hisoblanadi.

Jinoyat **subyektiv tomondan** murakkab aybli bo‘lib, radioaktiv materiallardan foydalanish, ularni saqlash qoidalarini buzishga nisbatan qasddan, ro‘y bergan oqibatlarga nisbatan esa ehtiyotsizlik shaklida bo‘ladi. Jinoyatning sodir etilish **motivi** va undan ko‘zlangan **maqsad** qilmishni kvalifikatsiya qilishda ahamiyat kasb etmaydi.

Jinoyatning **subyektiv** 16 yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin.

JK 254-moddasi 2-qismida radioaktiv moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomalada bo‘lish:

- 1) odam o‘lishiga;
- 2) boshqa og‘ir oqibatlarga olib kelganligi uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Boshqaog'ir oqibatlar deganda, ikki yoki undan ortiq shaxsning badaniga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishi, atrof muhitga zarar yetkazilishi, ekologik falokat va h.k.larni tushunish zarur.

Alohida olingan har bir holda sud sodir etilgan jinoyatdagi ish holatlarini inobatga olib, badanga yetkazilgan boshqa og'ir shikastni aniqlaydi.

19-§. Yadro qurilmalaridan foydalanish qoidalarini buzish (JK 255-moddasi)

Jinoyatning **bevosita asosiy obyekti** yadro energiyasidan foydalanish bilan bog'liq obyektlarni ekspluatatsiya qilish xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishini tartibga soluvchi va ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. **Bevosita qo'shimcha obyekti** ekologik xavfsizlik, fuqarolarning hayoti va sog'lig'i, o'zgarar mulkining daxlsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir.

Jinoyatning **predmeti** yadro energiyasidan foydalanish bilan bog'liq obyektlar hisoblanadi. Ular jumlasiga yadro qurilmalari, radiatsiya manbalari, shuningdek, yadro materiallari va radioaktiv moddalarni saqlash punktlari, radioaktiv chiqindilarning omborlari kiradi.

Yadro qurilmalari – yadro reaktorlari bo'lgan qurilma va komplekslar, shuningdek, atom stansiyalari, paroxodlari va boshqa suzuvchi vositalar, kosmik va uchish apparatlari boshqa transport vositalari, yadro reaktorlariga ega bo'lgan sanoat, eksperimental va ilmiy tekshirish komplekslari; tinch maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan yadroviy zaryadli moslamalar va h.k.

Radiatsiya manbalari –radioaktiv moddalari bo'lgan yoki radioaktiv nurlar to'planadigan yadroviy qurilmalari bo'lmagan komplekslar, qurilmalar, apparatlar, moslama va buyumlar.

NOTA BENE !

Yadro materiallarini va radioaktiv moddalarni saqlash punktlari, radioaktiv chiqindilarning omborlari – yadro qurilmalari va radiatsiya manbalari bo'lmagan hamda yadro materiallarini va radioaktiv moddalarni

saqlash, radioaktiv chiqindilarni saqlash va ko‘mish uchun mo‘ljallangan stasionar obyekt va inshootlar.

Obyektiv tomondan JK 255-moddasida nazarda tutilgan jinoyat yadro energiyasi bilan bog‘liq obyektlardan foydalanish qoidalarining buzilishi natijasida badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishida ifodalanadi.

Ushbu modda ham blanket dispozitsiyali bo‘lib, har bir alohida holda yadro energiyasi bilan bog‘liq obyektlardan foydalanish qoidalarining aynan qaysi bandi buzilganligini aniqlash zarurdir.

Badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishi ko‘rinishidagi oqibatning kelib chiqqanligi mazkur jinoyatning zaruriy belgisi hisoblanadi.

Obyektiv tomondan ushbu jinoyat faol **harakat** bilan, shuningdek, **harakatsizlik** bilan ham sodir etilishi mumkin. Yadro energiyasi bilan bog‘liq obyektlarni ekspluatatsiya qilish deganda, ulardan aniq maqsadga erishish uchun foydalanish tushuniladi.

Yadro energiyasidan foydalanish bilan bog‘liq obyektlarni ekspluatatsiya qilishning xavfsizlik choralari bunday obyektlarni qurish va foydalanishda yadro materiallari, obyektlari va radioaktiv moddalarning buzilishiga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan choralardir.

Yadro qurilmalaridan foydalanish qoidalarini buzish badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilgan vaqtdan boshlab **tugallangan** (JK 255-moddasi 1-qismi) hisoblanadi.

Subyektiv tomondan ushbu normada nazarda tutilgan jinoyat **aybning murakkab shakli** bilan tavsiflanadi. Jinoyatning sodir etilish **motiv** va **maqsadlari** qilmishni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Jinoyatning **subyekt**i yadro energiyasidan foydalanish, obyektlarni ekspluatatsiya qilish vaqtida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish mas‘uliyati yuklatilgan 16 yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin. Bularga xavfsizlik qoidalariga rioya qilishga mas‘ul bo‘lgan mansabdor shaxslar, xizmatchi xodimlar va boshqalar kiradi.

JK 255-moddasi 2-qismida yadro qurilmalaridan foydalanish qoidalarini buzganlik:

a) odam o‘lishiga;

b) boshqa og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lgan holatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Boshqa **og‘ir oqibatlar** deyilganida, ikki yoki undan ortiq shaxsning badaniga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishi, ekologik falokat, jiddiy moddiy zarar yetkazish va h.k.larni tushunish zarur.

Alohida olingan har bir holda sud sodir etilgan jinoyatdagi ish holatlarini inobatga olib, badanga boshqa og‘ir shikast yetkazilganligi tarzidagi oqibatning ro‘y bergan yoki ro‘y bermaganligini aniqlaydi.

20-§. Bakteriologik, kimyoviy va boshqa xil yalpi qirg‘in qurollari turlarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, to‘plash, olish, bironvga o‘tkazish, saqlash, qonunga xilof ravishda egallash va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etish (JK 255¹-moddasi)

Jinoyatning **bevosita asosiy obyekti** jamoat xavfsizligi va insoniyat xavfsizligini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. **Bevosita qo‘shimcha obyekti** ekologik xavfsizlik va fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘i daxlsizligini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlardir.

O‘zbekiston Respublikasida ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalarda taqiqlangan, bakteriologik (biologik), kimyoviy va boshqa xil yalpi qirg‘in qurollari jinoyatning **predmeti** hisoblanadi.

NOTA BENE !

Yalpi qirg‘in quroli – atom bombasi yoki boshqa shunga o‘xshash qurol xususiyatiga ega bo‘lgan portlatish yoki radioaktiv materiallar, o‘limga sabab bo‘luvchi bakteriologik va kimyoviy yoki boshqa turdagi qurollar.

Bakteriologik (biologik) yalpi qirg‘in qurollari – mikrobiologik yoki boshqa biologik agentlar yoxud zaharlardan qurolli konfliktlar yoki

boshqa dushmanlik maqsadida foydalanish uchun mo'ljallangan qurollar¹. Boshqacha qilib aytganda, bakteriologik (biologik) vositalarga ega bo'lgan jangovar zaxiralar va jangovar qurilmalardir.

Bakteriologik (biologik) vositalar, ya'ni **mikrobiologik** yoki boshqa **biologik agentlar** yoki **toksinlar** tirik organizmlar, mikroorganizmlar, viruslar bo'lib, insoniyat yoki boshqa tirik organizmning ishlab turishi, kasallanishi, atrof muhit, suv, oziq-ovqat va boshqa moddiy obyektlarning zararlanishiga sabab bo'ladi. Bunday agentlar yoki zaharlar sirasiga vabo, xolera, moxov, chechak, ensefalit va boshqa kasalliklarning qo'zg'atuvchilari kiradi. Tinch maqsadlarda yoki profilaktika, himoyaga mo'ljallangan mikrobiologik yoki boshqa agentlar yoxud toksinlar kelib chiqishi yoki ishlab chiqarish usuli, turi, miqdoridan qat'i nazar ushbu jinoyatning predmeti bo'lmaydi.

Kimyoviy yalpi qirg'in quroli – zaharli ximikatlari va ularning prekursorlari; ximikatlarning zaharli xususiyatlari hisobiga o'ldirish yoki zarar yetkazishga maxsus mo'ljallangan o'q-dorilar va qurilmalar; ko'rsatilgan o'q-dorilar va qurilmalardan foydalanish uchun maxsus mo'ljallangan har qanday moslama². Boshqacha qilib aytganda, ushbu qurollar ayrim kimyoviy moddalarning zaharli xususiyatlariga asoslanib ishlab chiqiladi. Kimyoviy qurol deganda, jangovar zaharlovchi moddalar (asabni falajlovchi, teriga zarar yetkazuvchi, umuman zaharli va bo'g'uvchi) psixotrop moddalar (inkapasitantlar) va qo'zg'atuvchi moddalar (irritantlar), ularni qo'llash vositalari (kimyoviy o'q-dorilar), kimyoviy qurolni nishonga yetkazishda qo'llaniladigan boshqaruv moslamalari tushuniladi.

Zaharli deyilganida, o'zining kimyoviy xususiyatlariga ko'ra hayotiy jarayonlarni to'xtatadigan (o'lim), vaqtincha buzadigan, odam yoxud hayvonlarga doimiy zarar yetkazadigan har qanday ximikat tushuniladi. Ular sirasiga, zarin, zoman, tabun, tiofosfonat va boshqalar kiradi.

¹Қаранг: Бактериологик (биологик) ва токсик қурол-яроғларни ишлаб чиқиш, тайёрлаш ва тўплашни ман этиш ҳамда уларни тугатиш тўғрисидаги Конвенция (Лондон, Вашингтон, Москва, 1972 й. 10 апрель, Ўзбекистон Республикасининг қўшилиши Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси 1995 й. 22 декабрдаги 185-1 сон қарорига мувофиқ, Ўзбекистон Республикаси учун 1996 й. 26 январда кучга кирган), 1-модда.

²Қаранг: Химиявий қуролни ишлаб чиқиш, ишлаб чиқариш, тўплаш ва қўллашни таққлаш ҳамда уни йўқ қилиш ҳақидаги Конвенция (Париж, 1993 й. 13 январь, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси 1996 й. 6 апрелдаги 236-1 сон қарорига мувофиқ ратификация қилинган, Ўзбекистон Республикаси учун 1997 й. 29 апрелда кучга кирган), 2-модда.

(1993 yilgi Kimyoviy qurolni ishlab chiqish, ishlab chiqarish, to‘plash va qo‘llashni taqiqlash hamda uni yo‘q qilish haqidagi Konvensiyaning birinchi ilovasidagi ro‘yxatga qarang.)

NOTA BENE !

Prekursorlar – zaharli ximikatni ishlab chiqishning har qanday bosqichida, har qanday usulda qo‘llaniladigan turli kimyoviy reagent. Bular sirasiga yaratilgan mahsulotning zaharli xususiyatlarini belgilovchi, muhim rol o‘ynovchi har qanday asosiy komponent kiradi.

Masalan, xlorzarin, xlorzoman, metilfosfonit va Konvensiyaning ilovasiga kiritilgan boshqa reagentlar prekursorlar hisoblanadi. Ushbu ro‘yxatga kiritilmagan, ammo inson organizmida turli buzilishlarni vujudga keltiruvchi ximikatlar mazkur jinoyat tarkibining predmeti hisoblanmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida taqiqlangan **yalpi qirg’in quollarining boshqa turlariga** yadroviy va yalpi qirish xususiyatiga ega bo‘lgan barcha turdagi (zaharli, nur, infratovush, irsiy, psixotrop va boshqa) quollar kiradi.

NOTA BENE !

Yadroviy yalpi qirg’in quoli – nazorat qilinmaydigan bo‘linish yoki sintez zanjir reaksiyasi jarayonida ajralib chiqadigan yadro ichidagi energiyadan foydalanishga asoslangan qurol.

Yadro quroliga turli yadroviy o‘q-dorilar (raketa va torpedalar, chuqur kiradigan bombalarning jangovar qismlari, yadro zaryadli artilleriya snaryadlari va fugaslari) kiradi. Foydalanilayotgan zaryadning tipidan kelib chiqqan holda termoyadroviy, neytron, vodorod quoli degan atamalar ishlatiladi.

Obyektiv tomondan JK 255¹-moddasida javobgarlik belgilangan jinoyat bakteriologik, kimyoviy va boshqa xil yalpi qirg’in quollari ishlab

chiqish, ishlab chiqarish, to‘plash, olish, birovga o‘tkazish, saqlash, qonunga xilof ravishda egallash va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etishdan iboratdir.

NOTA BENE !

Ishlab chiqish deganda, yalpi qirg‘in quollarini yaratishga qaratilgan har qanday xatti-harakatning sodir etilishini tushunish lozim.

Ishlab chiqarish deganda, yalpi qirg‘in quollarining yasalishi yoki ishlab chiqarilishi tushuniladi.

NOTA BENE !

To‘plash ma‘lum bir hududda har qanday yalpi qirg‘in quollarining jamlanishini anglatadi.

NOTA BENE !

Yalpi qirg‘in quolini **olish** deganda, ularning sotib olinishi, almashish yo‘li bilan qo‘lga kiritilishi va shunday boshqa xatti-harakatlar tushuniladi.

NOTA BENE !

Birovga o‘tkazish deganda, yalpi qirg‘in quolining boshqa shaxs ixtiyoriga berilishi tushuniladi.

NOTA BENE !

Yalpi qirg‘in quolini **saqlash** yalpi qirg‘in quollarining maxsus xonalarda, xilvat joylarda hamda ularning butligini ta‘minlovchi boshqa joylarda saqlanishidan iboratdir.

NOTA BENE !

Qonunga xilof ravishda egallash o'qirlash, o'zlashtirish, mansab mavqeini suiiste'mol qilish yo'li bilan yalpi qirg'in qurolini egallashning har qanday usulini anglatadi.

Talon-toroj usullaridan birini qo'llab, qonunga xilof ravishda qo'lga kiritish sodir etilganligi qilmishni tahlil etilayotgan modda bilan kvalifikatsiya qilish uchun yetarlidir.

Yalpi qirg'in qurollarini ishlatishga harbiy tayyorgarlik ko'rish va ularni ishlatish tahlil qilinayotgan jinoyat tarkibini tashkil qilmaydi. Mazkur harakatlar bosqinchilik urushiga tayyorgarlik ko'rish (JK 151-moddasi 1-qismi), xalqaro huquq bilan taqiqlangan urush olib borish vositalarini qo'llash (JK 152-moddasi) sifatida kvalifikatsiya qilinishi kerak.

JK 255¹-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat har qanday harakat sodir etilgan paytdan e'tiboran **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan JK 255¹-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan qilmish **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Uni kvalifikatsiya qilishda jinoyatning sodir etilish motivi va undan ko'zlangan maqsad ahamiyatga ega emas.

16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso shaxs jinoyatning **subyekt** bo'lishi mumkin.

JK 255¹-moddasi 2-qismida:

a) odam o'lishiga;

b) boshqa og'ir oqibatlariga sabab bo'lgan og'irlashtiruvchi holatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Ko'p miqdordagi odamlarning halok bo'lishi, bir necha shaxslarga og'ir yoki o'rtacha og'ir tan jarohati, juda ko'p miqdorda moddiy zarar yetkazilishi, ekologik halokat va h.k.lar **boshqa og'ir oqibatlar** sifatida baholanishi mumkin.

Subyektiv tomondan ushbu normada nazarda tutilgan jinoyat **aybning murakkab shakli** bilan tavsiflanadi, ya'ni jinoiy qilmish qasddan sodir etiladi, oqibatga nisbatan ehtiyotsizlik shaklida bo'ladi.

21-§. Neft quvurlarini, gaz quvurlarini, neft va gaz mahsulotlari quvurlarini yaroqsiz holatga keltirish (JK 255²-moddasi)

Sharhlanayotgan jinoyatning **bevosita obyekti** neft quvurlarini, gaz quvurlarini, neft va gaz mahsulotlari quvurlarini, shuningdek texnologik jihatdan ular bilan bog'liq bo'lgan obyektlarni, inshootlarni, aloqa, avtomatika, signalizatsiya vositalarining bir me'yorda ishlashini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat neft quvurlarini, gaz quvurlarini, neft va gaz mahsulotlari quvurlarini, shuningdek texnologik jihatdan ular bilan bog'liq bo'lgan obyektlarni, inshootlarni, aloqa, avtomatika, signalizatsiya vositalarini buzish, ularga shikast yetkazish yoki boshqa usul bilan ularni foydalanish uchun yaroqsiz holatga keltirishda namoyon bo'ladi.

NOTA BENE !

Neft quvurlari – Magistral neft quvurlari va neft mahsulotlarini oqizma holda yetkazib beradigan quvurlar.

NOTA BENE !

Gaz quvurlari deyilganda– kirish gaz quvuri, kiruvchi gaz quvuri, qishloqlararo gaz quvuri, maydoncha ichidagi gaz quvuri, maydoncha tashqarisidan o'tkazilgan gaz quvuri, taqsimlovchi gaz quvuri, shuningdek, tashqi gaz quvurlari tushuniladi.

NOTA BENE !

Kirish gaz quvuri – taqsimlovchi gaz tarmog'iga ulanish joyidagi kiruvchi gaz quvuridan o'chiruvchi moslamagacha yoki binoning kirish joyidagi yer ostidan o'tkazilgan g'ilofgacha bo'lgan gaz quvuri.

NOTA BENE !

Kiruvchi gaz quvuri – binoning kirish joyidagi o‘chirish moslamasining tashqarisida, shu jumladan, ichki gaz quvurigacha, bino devori orqali tashqaridan g‘ilofda o‘rnatiladigan gaz quvuri bo‘lagi.

NOTA BENE !

Qishloqlararo gaz quvuri – gaz tarmoqlarining aholi yashash joylaridan tashqarida o‘tkazilgan gaz quvuri.

NOTA BENE !

Maydoncha ichidagi gaz quvuri – korxonaning ishlab chiqarish hududi ichkarisidagi sanoat iste‘molchisiga gaz ta‘minoti manбайдan gaz uzatishni ta‘minlaydigan taqsimlovchi gaz quvuri bo‘lagi (kirish qismi).

NOTA BENE !

Maydoncha tashqarisidan o‘tkazilgan gaz quvuri – korxonaning ishlab chiqarish hududidan tashqaridagi sanoat iste‘molchisiga gaz ta‘minoti manбайдan gaz uzatishni ta‘minlaydigan taqsimlovchi gaz quvuri.

NOTA BENE !

Taqsimlovchi gaz quvuri – gaz taqsimlash tarmog‘idagi gaz manбайдan kiruvchi gaz quvurigacha gaz iste‘molchilariga gaz yetkazib beruvchi gaz quvuri.

NOTA BENE !

Tashqi gaz quvuri – kiruvchi gaz quvuridan oldinda o‘rnatilgan o‘chiruvchi moslamagacha bo‘lgan yer osti va yer ustidan yoki binoning kirish joyidagi g‘ilofgacha bo‘lgan yer ostidan o‘tkazilgan gaz quvuri¹.

¹Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ер қазрини геологик ўрганиш, саноатда, кончиликда ва коммунал-маиший секторда ишларнинг беҳатар олиб борилишини назорат

NOTA BENE !

Neft va gaz mahsulotlari quvurlari – magistral neft quvurlari va gaz quvurlari, neft mahsulotlarini oqizma holda yetkazib beradigan quvurlar.

Ushbu jinoyat moddiy tarkibli bo‘lib, yuqorida ko‘rsatilgan harakatlar natijasida neft quvurlari, gaz quvurlari, neft va gaz mahsulotlari quvurlari, shuningdek texnologik jihatdan ular bilan bog‘liq bo‘lgan obyektlar, inshootlar, aloqa, avtomatika, signalizatsiya vositalarining ishlashi, ularga shikast yetkazish yoki boshqa usul bilan ularni foydalanish uchun yaroqsiz holatga keltirish ularning normal ishlashi buzilishiga olib kelsa yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlarda JKning 255²-moddasi 1-qismi bo‘yicha javobgarlik kelib chiqadi.

JKning 255²-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat aybdor tomonidan mazkur norma dispozitsiyasida qamrab olingan harakatlarning loaqal bittasining sodir etilishi va uning natijasida moddada ko‘rsatilgan oqibatlar kelib chiqishi bilan **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi. Aybdor o‘z harakatlarining ijtimoiy xavfliligini anglaydi hamda bu harakatlarni sodir etishni xohlaydi. Mazkur holatda jinoyatning maqsad va motivi turli bo‘lishi mumkin, lekin u jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta’sir qilmaydi.

Jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin.

JKning 255²-moddasi 2-qismi bo‘yicha javobgarlik mazkur moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar takroran, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib, magistral quvurlarga nisbatan sodir etilgan bo‘lsa, ko‘p miqdorda zarar yetkazilishiga, badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa, kelib chiqadi.

JKning 255²-moddasi 1-qismidagi harakatlar odam o‘lishiga yoki juda ko‘p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo‘lsa, javobgarlik **JKning 255²-moddasi 3-qismi** bo‘yicha kelib chiqadi.

қилиш давлат инспекцияси бошлиғининг 2011 йил 10 августдаги 181-сон буйруғига ИЛОВА. [Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги билан келишилган ҳолда техник ҳужжат деб топилган. 2011 йил 16 август, 6-24/13-8885/6-сон].

JKning 255²-moddasi 1-qismidagi harakatlar odamlar o‘limiga yoki boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa, javobgarlik **JKning 255²-moddasi 4-qismi** bo‘yicha kelib chiqadi.

22-§. Tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda xavfsizlik qoidalarini buzish (JK 256-moddasi)

Ushbu jinoyatning **bevosita asosiy obyekt** xavfsizlik talablariga javob beradigan sharoitlarda tadqiqot faoliyatini amalga oshirish huquqini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlardir. Jinoyatning **bevosita qo‘shimcha obyekt** odamlarning hayoti va sog‘lig‘ini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

JK 256-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** ilmiy tadqiqot yoki sinov tajriba faoliyatini amalga oshirish vaqtida xavfsizlik qoidalarini buzish natijasida badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishida ifodalanadi.

JK 256-moddasi blanket dispozitsiyali bo‘lib, shaxsni mazkur modda bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortish uchun mazkur turdagi faoliyatning xavfsizlik texnikasi bo‘yicha maxsus normativ qoidalariga rioya etish lozim. Odatda, ushbu qoidalar ijro etuvchi hokimiyatning huquqiy hujjatlarida, mahalliy davlat hokimiyati organlarining hujjatlarida, idoralararo tusga ega bo‘lgan normativ hujjatlarda, shuningdek, lokal hujjatlarda va vazirlik, qo‘mita, idora, korxonalar rahbarlarining tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda xavfsizlik qoidalariga rioya etilishini ta‘minlash bo‘yicha majburiyatlarni aniq shaxslarga yuklatish to‘g‘risidagi individual huquqiy hujjatlarda o‘z ifodasini topadi. Lokal hujjatlar tadqiqot faoliyatining ayrim sohalarida hamda yuqoriroq xavfsizlik choralarini taqozo etgan ilmiy tadqiqot yoki sinov-tajriba faoliyatining ayrim turlarini amalga oshirishda xavfsizlik qoidalariga rioya etilishi uchun shaxsiy mas‘ul bo‘lgan shaxslarning nomlarini va ro‘yxatini belgilaydi.

Ko‘rib chiqilayotgan jinoyatning obyektiv tomoni harakat orqali ham, ya‘ni xavfsizlik choralarini ongli ravishda buzish, harakatsizlik orqali ham, ya‘ni ushbu qoidalar talablarini subyekt ongli ravishda bajarmaydi yoki u tomonidan ularga rioya etish bo‘yicha choralar ko‘rilmaydi.

Ushbu qilmish moddiy tarkibli jinoyat bo'lib, badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish tarzidagi oqibat yuz bergan paytdan e'tiboran **tugallangan** deb hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish vaqtida xavfsizlik qoidalarining buzilishi tufayli ro'y bergan oqibat va badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishi o'rtasida **sababiy bog'lanishning** mavjudligi jinoyatni kvalifikatsiya qilishning zaruriy belgisi hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat **qasddan** yoki ilmiy tadqiqot yoxud sinov tajriba faoliyatini amalga oshirish vaqtida xavfsizlik qoidalarini buzishga nisbatan **ehtiyotsizlik** orqasida hamda yuzaga kelgan oqibatlarga nisbatan o'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik shaklidagi **ehtiyotsizlik** orqasida sodir etiladi. Subyekt normativ ko'rsatmalarni buzgan paytda ijtimoiy xavfli oqibatlar yuzaga kelishi mumkinligiga ko'zi yeta turib, biroq bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qiladigan hollarda **o'z-o'ziga ishonish** o'z ifodasini topadi. Shaxs ko'rsatilgan talablarni bajarmasdan, ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko'zi yetmasa-da, lekin ko'zi yetishi lozim va mumkin bo'lsa, jinoyat **beparvolik** orqasida sodir etilgan deb topiladi.

Jinoyatning **motivi** va undan ko'zlangan **maqsad** qilmishning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi.

Jinoyatning **subyeksi** maxsus subyekt bo'lib, zimmasiga ilmiy-tadqiqot yoki eksperimental faoliyat olib borishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish majburiyati yuklatilgan 16 yoshga to'lgan, aqli raso shaxs bo'lishi mumkin. Bunday majburiyatlar xizmat vakolati yoki maxsus farmoyish asosida vujudga keladi.

JK 256-moddasi 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilish uchun ilmiy tadqiqot olib borilayotgan vaqtda xavfsizlik qoidalarining buzilishi:

a) xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi uchun mas'ul shaxs tomonidan sodir etilgan;

b) ko'p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan bo'lishi kerak.

JK 256-moddasi 2-qismi «a» bandida nazarda tutilgan qilmishning **subyeksi** xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi uchun javobgar bo'lgan shaxs, ya'ni egallab turgan lavozimi, mavqeiga ko'ra (xavfsizlik bo'yicha

muhandis) yoxud buyruqqa muvofiq ilmiy tadqiqot yoki sinov tajribalarini amalga oshirish vaqtida xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishiga mas'ul bo'lgan shaxs hisoblanadi.

JK «Atamalarning huquqiy ma'nosi» berilgan 8-bo'limiga muvofiq, **ko'p miqdordagi zarar** deganda, eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha bo'lgan miqdordagi zarar tushuniladi.

JK 256-moddasi 3-qismida ilmiy tadqiqot faoliyatini amalga oshirish vaqtida xavfsizlik qoidalarining buzilishi:

a) odam o'lishiga;

b) boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lganligi javobgarlikning og'irlashtiruvchi holati sifatida ko'rsatilgan va ularni sodir etganlik uchun jazo belgilangan.

Ikki yoki undan ortiq shaxsning halok bo'lishi, ularga og'ir yoki o'rtacha og'ir tan jarohati, juda ko'p miqdorda moddiy zarar yetkazilishi va h.k.lar **boshqa og'ir oqibatlar** sifatida baholanishi mumkin.

23-§. Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish (JK 257-moddasi)

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida: «Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanih huquqiga egadir»¹, deb mustahkamlab qo'yilgan.

¹Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чакириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартиришлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартиришлар

Ushbu jinoyatning **bevosita asosiy obykti** mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda ishlayotgan shaxslarning mehnat sharoitlarini tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. **Bevosita qo'shimcha obykti** odamlarning hayoti va sog'lig'ini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir.

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda nafaqat doimiy ishlayotgan shaxslar, balki vaqtincha ishlayotgan shaxslar ham **jabrlanuvchi** bo'lishlari mumkin.

Obyektiv tomondan JK 257-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan qilmish o'rtacha og'ir yoki og'ir tan jarohati yetkazilishiga sabab bo'lgan texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi, mehnatni muhofaza qiluvchi boshqa qoidalarining buzilishidan iboratdir.

NOTA BENE !

Mehnatni muhofaza qilish – mehnat faoliyati jarayonida ishchilarning hayoti va sog'lig'ini saqlash tizimi. Bu tizimga huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy-profilaktik, rehabilitatsion va boshqa choralar kiradi.

Ushbu modda blanket dispozitsiyali bo'lib, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun aybdor shaxs tomonidan mehnatni muhofaza qilish qoidalarining qaysi bandi buzilganligini aniqlash zarur. Umuman olganda, qonun hujjatlari tomonidan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha majburiyatlar ish beruvchiga yuklatiladi, u esa mehnatni muhofaza qilish chora-tadbirlaridan tashqari, unga bo'ysunadigan shaxslar sonidan aniq uchastkalarda shaxsiy mas'uliyatni ta'minlashi shart. Shuning uchun bunda vazirlik, qo'mita, idora, korxonalar rahbarlarining texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi yoki mehnatni muhofaza qilishning boshqa qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha majburiyatlarni aniq shaxslarga yuklatish to'g'risida individual huquqiy hujjatlar, shuningdek, ishlab chiqarishning ayrim sohalarida va ishlarning aniq uchastkalarida,

киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 15 б.

shu jumladan yuqoriroq xavfsizlik choralarini taqozo etadigan ayrim ishlar turlarini bajarishda texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi yoki mehnatni muhofaza qilishning boshqa qoidalariga rioya etilishini ta'minlash uchun shaxsiy mas'ul bo'lgan shaxslarning nomlarini va ro'yxatlarini belgilaydigan lokal huquqiy hujjatlar katta ahamiyatga ega.

Jinoyatning obyektiv tomoni faol harakat, ya'ni qasddan xavfsizlik qoidalarini buzish, shuningdek, shaxs ushbu qoidalarga rioya qilish choralarini qo'llamaganligi – harakatsizlikda ifodalanadi.

Qonunda ko'rsatilgan badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir tan jarohati yetkazilishi ko'rinishidagi ijtimoiy xavfli oqibatlar ro'y bergan vaqtdan mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish jinoyati **tugallangan** deb hisoblanadi.

Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish to'g'risidagi har bir jinoyat ishini ko'rishda ushbu buzilishlar va yuzaga kelgan ijtimoiy xavfli oqibatlar o'rtasida **sababiy bog'lanishni** puxta va har tomonlama ko'rib chiqishga alohida e'tibor qaratish lozim, ushbu bog'lanish hukmda asoslantirilishi kerak.

Subyektiv tomondan jinoyat **qasddan** yoki mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzishga nisbatan **ehtiyotsizlik** bilan hamda yuzaga kelgan oqibatlarga nisbatan o'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik shaklidagi **ehtiyotsizlik** bilan sodir etiladi. Subyekt normativ ko'rsatmalarni buzgan paytda ijtimoiy xavfli oqibatlar yuzaga kelishi mumkinligiga ko'zi yeta turib, biroq bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qiladigan hollarda **o'z-o'ziga ishonish** o'zifodasini topadi. Shaxs ko'rsatilgan talablarni bajarmasdan, ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko'zi yetmasa-da, lekin ko'zi yetishi lozim va mumkin bo'lsa, jinoyat **beparvolik** orqasida sodir etilgan deb topiladi.

Jinoyatning sodir etilish **motivi** va undan ko'zlangan **maqsad** jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir etmaydi.

Jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to'lgan, **JK 257-moddasi 1-qismi** dispozitsiyasida nazarda tutilgan texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi yoki mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etish zimmasiga yuklatilgan yoxud maxsus farmoyish bilan ma'lum ish uchastkasida

mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi yoki shu qoidalarining ijrosi bo'yicha mas'uliyat yuklangan jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

Mehnatni muhofaza qilish qoidalari mazkur jinoyat subyekti bo'lmagan shaxs tomonidan buzilgan va ushbu modda dispozitsiyasida ko'rsatib o'tilgan oqibatlar kelib chiqqan hollarda aybdor ehtiyotsizlik natijasida zarar yetkazganlik uchun javobgar bo'ladi.

JK 257-moddasi 2-qismida mehnatni muhofaza qilish qoidalarining buzilishi natijasida

a) odam o'lishi;

b) boshqa og'ir oqibatlar ro'y berishi kabi javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar uchun javobgarlik nazarda tutiladi.

Bir necha shaxslarga o'rtacha og'ir yoki og'ir tan jarohati, juda ko'p miqdorda zarar yetkazilishi va h.k.larni **boshqa og'ir oqibatlar** sifatida tushunish mumkin.

24-§. Sanitariyaga oid qonun hujjatlarini yoki epidemiyaga qarshi kurash qoidalarini buzish (JK 257¹-moddasi)

Jinoyatning **bevosita asosiy obyekt** sanitariyaga oid qonun hujjatlari va epidemiyaga qarshi kurash qoidalari bilan qo'riqlanadigan jamoat xavfsizligi hisoblanadi. **Qo'shimcha bevosita obyekt** odamlar hayoti va sog'lig'ini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir.

Obyektiv tomondan jinoyat odamlarning ommaviy kasallanishiga yoki zaharlanishiga olib kelgan sanitariyaga oid qonun hujjatlari, epidemiyaga qarshi kurash qoidalarining buzilishida ifodalanadi.

Ushbu modda blanket dispozitsiyali bo'lib, har bir holda aybdor tomonidan sanitariyaga oid qonun hujjatlari yoki epidemiyaga qarshi kurash qoidalarining qaysi bandi buzilganligi aniqlanishi lozim.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyatning obyektiv tomoni mamlakatning sanitariyaga oid qonun hujjatlariga yoki ko'rsatilgan qoidalariga zid bo'lgan **harakatlardan**, shuningdek, tegishli qonun hujjatlariga yoki tegishli qoidalarga asosan bajarish lozim bo'lgan harakatlarni bajarmaslikda o'z ifodasini topgan **harakatsizlikdan** iboratdir.

Ushbu modda dispozitsiyasida keltirib o‘tilgan, insonlarning ommaviy kasallanishi yoki zaharlanishi kabi oqibatlar kelib chiqqan vaqtdan jinoyat **tugallangan** hisoblanadi (**JK257¹-moddasi 1-qismi**).

NOTA BENE !

Ommaviy kasallanish yoki zaharlanish deganda, ma’lum bir hudud-dagi ko‘pchilik kishilarning bir vaqtning o‘zida yoxud qisqa vaqt ichida kasallanishini tushunish zarur.

Subyektiv tomondan jinoyat **qasddan** yoki sanitariyaga oid qonun hujjatlarini yoki epidemiyaga qarshi kurash qoidalarini buzishga nisbatan **ehtiyotsizlik** bilan hamda yuzaga kelgan oqibatlarga nisbatan o‘z-o‘ziga ishonish yoki beparvolik shaklidagi **ehtiyotsizlik** bilan sodir etiladi. Subyekt tegishli qonun hujjatlarini yoki tegishli qoidalarni qasddan buzgan paytda ijtimoiy xavfli oqibatlar yuzaga kelishi mumkinligiga ko‘zi yeta turib, biroq bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qiladigan hollarda **o‘z-o‘ziga ishonish** o‘zifodasini topadi. Shaxs ko‘rsatilgan talablarni bajarmasdan, ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko‘zi yetmasa-da, lekin ko‘zi yetishi lozim va mumkin bo‘lsa, jinoyat **beparvolik** orqasida sodir etilgan deb topiladi.

Jinoyatning **motivi** va **maqsadi** uning kvalifikatsiyasiga ta’sir ko‘rsatmaydi.

Aybdor odamlarning ommaviy kasallanishiga yoki zaharlanishiga olib keluvchi harakatlarni davlat idoralari faoliyatini yoki ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish yoxud O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini izdan chiqarish maqsadida sodir etgan hollarda, JK 161-moddasi (Qo‘poruvchilik) bo‘yicha javobgarlikka tortiladi.

Jinoyatning **subyeksi** sanitariyaga oid qonun hujjatlari va epidemiyaga qarshi kurash qoidalari normalariga rioya qilishga mas’ul bo‘lgan, 16 yoshga to‘lgan aqli raso jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin.

Sanitariyaga oid qonun hujjatlarining yoki epidemiyaga qarshi kurash qoidalarining buzilishi odam o‘lishiga sabab bo‘lgan hollarda,

aybdorning harakatlari **JK 257¹- moddasi 2-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Xuddi shunday qilmishlar odamlarning o‘limiga sabab bo‘lsa, aybdor **JK 257¹-moddasi 3-qismi** bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortiladi.

25-§. Tog’-kon, qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalarini buzish (JK 258-moddasi)

Jinoyatning **bevosita asosiy obyekti** jamoat xavfsizligi, tog’-kon, qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalarini belgilash orqali muhofaza qilinadigan jamoat xavfsizligidir. Odamlarning hayoti va sog‘lig‘i, o‘zganing mulki jinoyatning **qo‘shimcha bevosita obyekti** hisoblanadi.

Ushbu jinoyatning **jabrlanuvchisi** tog’-kon, qurilish yoki portlatish ishlarini bajarayotgan, shuningdek, ushbu ishlarni bajarmayotgan shaxslar (masalan, qurilish obyektni ajratib turuvchi panjara bo‘lmaganligi sababli tasodifan ushbu hududga kirib qolgan bola) ham bo‘lishi mumkin.

Obyektiv tomondan jinoyat badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lgan tog’-kon, qurilish yoki portlatish ishlarida xavfsizlik qoidalarining buzilishidan iborat.

Ushbu modda blanket dispozitsiyali bo‘lib, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun tog’-kon, qurilish yoki portlatish ishlari olib borish qoidalarining qaysi bandi buzilganligini aniqlash zarur.

NOTA BENE !

Tog’-kon ishlari deganda, kon boyitish sanoatida olib boriladigan ishlar tushuniladi. Bu ishlarga parmalovchi qurilmalarni, shaxtalarni, yer osti qurilmalarini qurish, rekonstruksiya, ekspluatatsiya qilish va ta‘mirlash kiradi.

NOTA BENE !

Qurilish ishlari deganda, sanoat korxonalari, omborlar, maishiy, jamoat, ma‘muriy, turar joy va boshqa binolarni bunyod etish yoxud

ta'mirlash, buzish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni tushunish zarur.

Masalan, qurilish maydonchasida amalga oshiriladigan yer kovlash, beton quyish, tosh tashlash, montaj, demontaj qilish, pardoqlash va boshqalar shular jumlasidandir.

NOTA BENE !

Portlash xavfi bo'lgan ishlar deganda, portlatish jarayonida yonuvchi gaz yoki bug'larning havo yoxud kislorod yoki boshqa moddalar bilan aralashishi natijasida portlash xavfining mavjudligi tushuniladi.

Badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishi tarzidagi oqibatlarining kelib chiqishi mazkur jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi hisoblanadi.

Ushbu qilmish **harakat** (ko'rsatilgan qoidalarga zid bo'lgan harakatlarni sodir etish) yoki **harakatsizlik** (tegishli qoidalarining ko'rsatmalariga muvofiq bajarishi lozim bo'lgan harakatni bajarmaslik) bilan sodir etilishi mumkin.

Badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishidan iborat bo'lgan qonunda ko'rsatilgan oqibatlar yuzaga kelgan paytdan boshlab jinoyat tugallangan hisoblanadi (**JK 258-moddasi 1-qismi**).

Subyektiv tomondan jinoyat **qasddan** yoki tegishli ishlar xavfsizligi qoidalarini buzishga nisbatan **ehtiyotsizlik** bilan hamda yuzaga kelgan oqibatlarga nisbatan o'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik shaklidagi **ehtiyotsizlik** bilan sodir etiladi. Subyekt normativ talablarni qasddan buzgan paytda ijtimoiy xavfli oqibatlar yuzaga kelishi mumkinligiga ko'zi yeta turib, biroq bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qiladigan hollarda **o'z-o'ziga ishonish** o'zifodasini topadi. Shaxs ko'rsatilgan talablarni bajarmasdan, ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko'zi yetmasa-da, lekin ko'zi yetishi lozim va mumkin bo'lsa, jinoyat **beparvolik** orqasida sodir etilgan deb topiladi.

Jinoyatning **motivi** va **maqsadi** qilmishning kvalifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Jinoyatning **subyekt** tog'-kon, qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalariga rioya qilish zimmasiga yuklatilgan 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

JK 258-moddasi 2-qismida tog'-kon, qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalarining buzilishi:

a) odam o'lishiga;

b) boshqa og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan hollar uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Mazkur holda **boshqa og'ir oqibatlar** deganda, ikki yoki undan ortiq shaxslarning o'lishi, juda ko'p miqdorda zarar yetkazilishi va hokazolar tushuniladi.

26-§. Yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish (JK 259-moddasi)

Jinoyatning **bevosita asosiy obyekt** yong'in xavfsizligini, ya'ni odamlar, jamoat va davlat mulkini yong'indan muhofaza qilishni ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. **Bevosita qo'shimcha obyekt** esa, shaxsning hayoti, sog'lig'i va mulkidir.

Obyektiv tomondan jinoyat yong'in xavfsizligi qoidalarining ushbu qoidalar bajarilishi uchun mas'ul bo'lgan shaxs tomonidan buzilishi oqibatida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishida ifodalanadi.

NOTA BENE !

Yong'in xavfsizligi qoidalari – yong'inning oldini olish, uni o'chirish va yong'in ro'y bergan hollarda odamlar va obyektlar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan talablar, me'yorlar va standartlarga rioya qilish tartibini belgilovchi muayyan qoidalar majmui.

Tahlil qilinayotgan modda ham blanket dispozitsiyali bo'lib, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun, tegishli qoidalarning aynan qaysi bandi

buzilganligini aniqlash maqsadida, tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga, xususan, yong'in xavfsizligining standartlariga, normalariga va sohaviy qoidalariga, yong'inlarga yo'l qo'ymaslikka va yong'in chiqishida odamlar va obyektlarning xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan yo'riqnoma va boshqa hujjatlarga murojaat qilish lozim.

Yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish – bu tegishli normativ hujjatda ko'rsatilgan ko'plab normalardan birini bajarmaslikdir. Yong'in xavfsizligi qoidalari soniga yong'in xavfi bo'lgan moddalarning yonib ketishiga yo'l qo'ymaslikka yo'naltirilgan normalar (nitro asosda, benzin va boshqa tez alanganuvchi suyuqliklar asosida qoplamalarni qo'llab bo'yolarni ishlab chiqishda yoki detallarni loklashda bir vaqtning o'zida ochiq olov manbasidan foydalanishning taqiqlanishi va h.k.), shuningdek, mumkin bo'lgan yong'inlar oqibatida yuzaga keladigan zararli oqibatlarning og'irligini pasaytirishga qaratilgan normalar (olov tarqalishining oldini olish, yong'in xavfli faktorlarining ta'sir zonasidan odamlarni evakuatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha talablar va boshqalar) kiradi.

Mazkur jinoyat **harakat** orqali ham (yong'in xavfsizligi qoidalarini buzadigan og'zaki buyruqlar va yozma farmoyishlar), **harakatsizlik** orqali ham (payvandlash ishlarini amalga oshirishning yong'inga qarshi rejimini ta'minlash, elektr simlar tarmog'ini ta'mirlash, yong'inga qarshi uzilishlarni jihozlash bo'yicha zarur choralarni ko'rmaslik va boshqalar) sodir etilishi mumkin.

Agarda yong'in atom energetika obyektlarida, portlatish obyektlarida, tog'-kon, qurilish yoki portlatish ishlarini amalga oshirishda yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish yoki portlovchi, tez alanganuvchi, pirotexnika buyumlarini saqlash, hisobga olish, ulardan foydalanish, ularni jo'natish qoidalarini buzish tufayli kelib chiqsa, qilmish JK maxsus moddalari bilan qamrab olinadi va uning **JK 259-moddasi** bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiya qilinishi taqozo qilinmaydi.

Yong'in xavfsizligi qoidalarini (1-qism) buzish badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishi shaklidagi qonunda ko'rsatilgan oqibatlar yuzaga kelgan paytdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan JK 259-moddasida nazarda tutilgan jinoyat **ehtiyotsizlik** bilan o'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik shaklida sodir etiladi.

Jinoyatning **subyeksi** egallab turgan lavozimiga ko'ra yong'in xavfsizligi qoidalarining bajarilishi uchun mas'ul bo'lgan yoxud ana shu qoidalarining bajarilishi uchun mas'ul etib tayinlangan shaxslar bo'lishi mumkin. Masalan, korxonalar, muassasalarning va ularning tarkibiy bo'linmalarining rahbarlari, bosh mutaxassislar va yong'in xavfsizligi qoidalari ishlarning aniq uchastkalarida bajarilishi uchun mas'ul bo'lgan boshqa mansabdor shaxslar.

Agarda jinoyat subyeksi mansabdor shaxs bo'lsa, qilmish mansab jinoyatlari uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi JK tegishli moddalari bilan birga jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

JK 259-moddasi 2-qismida yong'in xavfsizligi qoidalarining buzilishi:

a) odam o'lishiga;

b) boshqa og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan hollar uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Boshqa og'ir oqibatlar deganda, ikki yoki undan ortiq shaxslarning o'limiga sabab bo'lish, ikki yoki undan ortiq shaxslarning badaniga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish, juda ko'p miqdorda ziyon yetkazish kabilar tan olinishi mumkin.

27-§. O'ta muhim va toifalangan obyektlarning qo'riq-lanishini ta'minlashga doir majburiyatlarni bajarmaslik (JK 259¹-moddasi)

Uyushgan jinoyatchilikning tobora ortib borishi, zamonaviy dunyoda ko'plab terroristik hurujlarning sodir etilishi, xalqaro munosabatlar keskinlashib borishi, shak-shubhasiz, O'zbekiston milliy xavfsizligiga

ma'lum tahdidlarni vujudga keltiradi. O'zbekiston hududida kuchaytirilgan tartibda qo'riqlanishi lozim bo'lgan 300 ta o'ta muhim va toifalangan obyektlar mavjud. Hozirga kelib shakllangan sharoitlarda o'ta muhim va toifalangan obyektlarga nisbatan tajovuzlar milliy xavfsizlikka tahdid qilishi mumkin, diversiya va terroristik xurujlar xavfi ortib bormoqda.

Hozirgi vaqtda o'ta muhim va toifalangan obyektlar qo'riqlanishi DXX, IIV va VOXR bo'linmalari kuchlari tomonidan zamonaviy nazorat-kiritish, muhandislik texnika vositalari va uskunalardan foydalangan holda ta'minlanadi.

Ushbu vazifani bajarishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 7 apreldagi «O'zbekiston Respublikasining alohida muhim kategoriyalangan obyektlari xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish choralari to'g'risida»gi PQ-47-sonli Qarori hamda O'zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi Qonuni muhim rol o'ynadi.

Jinoyatning **obyekti** – korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning o'ta muhim va toifalangan obyektlarning qo'riqlanishini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslari tomonidan ushbu vazifalarning ijrosini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlardir.

Obyektiv tomondan jinoyat o'ta muhim va toifalangan obyektlarning ishonchli qo'riqlanishini ta'minlashga doir majburiyatlarni korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ularni bajarishga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslari tomonidan bajarilmasligi orqali sodir etiladi.

Majburiyatlarni bajarishga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan ularning bajarilmasligi deganda, obyektlarni ishonchli muhandislik texnika qo'riqlash vositalari bilan jihozlash, rejim chora-tadbirlari (kirish-chiqish tizimi)ni ta'minlash bo'yicha o'z vaqtida tegishli choralar ko'rmaslik va shu kabilarni tushunish lozim.

Jinoyat formal tarkibga ega bo'lib, mansabdor shaxs tomonidan o'ta muhim va toifalangan obyektlarning qo'riqlanishi yuzasidan o'z majburiyatlarini bajarmagan vaqtdan boshlab **tamomlangan** deb tan olinadi. Qonun jinoyatni tamomlangan deb topish uchun biror oqibat vujudga kelishini talab qilmaydi.

Mansabdor shaxsni JKning 259¹-moddasi bo'yicha javobgarlikka tortish uchun mansabdor shaxsga nisbatan avval xuddi shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilgan bo'lishi zarur.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etilishi mumkin.

Jinoyatning **subyeksi** korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning tegishli majburiyatlarni bajarishga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxsi hisoblanadi.

Har bir holatda mansabdor shaxs o'ta muhim va toifalangan obyektlarning ishonchli qo'riqlanishini ta'minlashga mas'ul bo'lgani yoki bo'lmaganligini aniqlash shart.

«Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar

1. Jinoiy uyushma nima?
2. Qurollangan jinoiy uyushmaning qanday belgilari mavjud?
3. Qurollangan jinoiy uyushma tashkil qilganlik uchun javobgarlikka tortishning qanday zaruriy shartlari mavjud?
4. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni oshkorlashtirish nimada ifodalanadi? Bunday jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos qanday xususiyatlari bor?
5. Ommaviy tartibsizliklar deganda nima tushuniladi?
6. Ommaviy tartibsizliklarni uyushtirish va ularda faol ishtirok etish nimada ifodalanadi?
7. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallar nima?
8. Diniy, fundamentalistik yoki o'zbekiston Respublikasida faoliyati taqiqlangan tashkilotlarni tuzish, ularga rahbarlik qilish va a'zosi bo'lganlik uchun jinoiy javobgarlikning vujudga kelish asoslari qanday?
9. Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishning qanday belgilari bor?
10. Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishning odam o'g'irlash yoki shaxsni g'ayriqonuniy ozodlikdan mahrum qilishdan qanday farqi bor?
11. Kontrabanda jinoyatini yuridik tahlil qilib bering. Uni sodir etishning va jinoiy javobgarlikning vujudga kelishining qanday usullari bor?

12. Qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalariga qonunga xilof tarzda egalik qilishning qanday shakllari bor?

13. O‘qotar qurol yoki o‘q-dorilarni portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash shakllari qanday harakatlarda ifodalanadi?

14. O‘qotar qurol yoki o‘q-dorilarni portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallashning portlash xavfi bo‘lgan moddalar yoki pirotexnika buyumlaridan foydalanish qoidalarini buzishdan qanday farqi bor? Ushbu jinoyatlar predmetlarining o‘ziga xos xususiyatlari va qilmishning kvalifikatsiyasiga ko‘rsatadigan ta’siri?

15. O‘qotar qurol yoki o‘q-dorilarni beparvolik bilan saqlash nimalarda ifodalanadi? Mazkur qilmish sodir etilishi natijasida qanday oqibatlar kelib chiqishi mumkin?

16. Portlatish xavfi bo‘lgan moddalar yoki pirotexnika buyumlaridan foydalanish qoidalarini buzish qanday harakatlarda ifodalanadi? Portlash xavfi bo‘lgan moddalarga nimalar kiradi?

17. Kuchli ta’sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof tarzda egallash qanday usulda amalga oshiriladi? Bunday buyumlar sirasiga nimalar kiradi?

18. Radioaktiv materiallar nima?

19. Radioaktiv materiallardan foydalanish qoidalarini buzish nimalarda ifodalanadi? Ushbu jinoyat uchun javobgarlik vujudga kelishining zaruriy shartini ayting.

20. Yadro qurilmalaridan foydalanish qoidalarini buzishni kvalifikatsiya qilishning o‘ziga xos xususiyati nimada? Ushbu jinoyat uchun javobgarlik vujudga kelishining zaruriy shartini ko‘rsating.

21. Ommaviy qirg’in quroliga nimalar kiradi? Uning qanday turlari mavjud?

22. Tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda xavfsizlik qoidalarini buzish uchun jinoiy javobgarlik vujudga kelishining zaruriy shartini aniqlang.

23. JK 256-moddasida (Tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda xavfsizlik qoidalarini buzish) nazarda tutilgan jinoyatning maxsus subyektini aniqlang.

24. Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish nimada ifodalanadi? Ushbu jinoyatning subyektini aniqlang.

25. Sanitariyaga oid qonun hujjatlarini yoki epidemiyaga qarshi kurash qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik vujudga kelishi shartlarini aniqlang.

26. Tog'-kon, qurilish yoki portlatish ishlari deganda nimani tushunmoq lozim? Qaysi hollarda ushbu ishlarni o'tkazish qoidalarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik vujudga keladi?

27. Yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish nimalarda ifodalanadi?

Qo'shimcha adabiyotlar

Rahbariy adabiyotlar

Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2016.– 48 б.

Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.

Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.– 32 б.

Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104

Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг қабул қилинган куннинг 25-йиллиги муносабати билан бўлиб ўтган тантанали маросимдаги “Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир” номли нутқидан // Халқ сўзи. 2017 йил 7 декабр. 247 (6741)-сон.

Президент Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. 2017 йил 23 декабр. 258 (6952)-сон.

O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar

Белозеров Ю.Н., Нагаев Е.А. Незаконный оборот огнестрельного оружия, боеприпасов, взрывчатых веществ и взрывных устройств. Научно-практическое пособие. – М.: 2000.

Бойко А.И., Родина Л.Ю. Контрабанда. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 297 Б.

Гаухман Л.Д., Максимов С.В. Уголовная ответственность за организацию преступного сообщества (преступной организации). Комментарий. – М.: Учебно-консультационный центр «ЮрИнфоР», 1997. – 32 Б.

Ефимов М.А. Борьба с преступлениями против общественного порядка, общественной безопасности и здоровья населения. – Минск: Высшая этнографическая школа, 1971.

Каплунов А.И., Милюков С.Ф. Применение и использование огнестрельного оружия. – СПб.: «Юридический центр Пресс». 2003. – 363 Б.

Комиссаров В.С. Терроризм, бандитизм, захват заложника. – М.: 1997.

Корецкий Д.А., Землянухина Л.М. Личность вооруженного преступника и предупреждение вооруженных преступлений. – СПб.: «Юридический центр Пресс». 2003. – 189 Б.

Михайлов В.И. Противодействие легализации доходов от преступной деятельности. – СПб.: «Юридический центр Пресс». 2002. – 427 Б.

Овчинникова Г.В., Павлик М.Ю., Коршунова О.Н. Захват заложника (уголовно-правовые, криминологические и криминалистические аспекты) . – СПб.: «Юридический центр Пресс». 2001. – 259 Б.

Овчинникова Г.В. Расследование захвата заложников. Уголовно-правовые и криминалистические вопросы. Учебное пособие. – СПб, 1997.

Рустамбаев М.Х. Закон и общественная безопасность. – Т.: «Ўзбекистон», 1989.

Рустамбаев М.Х. Законодательство УзССР об ответственности за незаконное владение оружием и его применение. – Нукус, 1991. – 114 Б.

Рустамбаев М.Х., Коняев В. Квалификации преступлений, предметом которых являются оружие, боеприпасы, взрывчатые, легковоспламеняющиеся вещества и горючие смеси. – Т.: ВШМ МВД, 1993.

Тихий В.П. Ответственность за преступления против общественной безопасности. – Харьков: Хар ЮИ, 1984.

Ilmiy maqolalar

Абдурасулова Қ.Р. Диний экстремизмнинг моҳияти ва унга қарши кураш // Инсон ва қонун. 2007 й. 23 июнь.

Беляева Н., Орешкина Т., Мурадов Э. Квалификация захвата заложников // Ж. Законность. 1994. № 7.

Быков В. Признаки организованной преступной группы // Ж. Законность. 1998. № 9.

Кабулов Р. Уголовная ответственность за нарушение санитарного законодательства или правил борьбы с эпидемиями // Ж. Ҳуқуқ-Право-LAW. 2000. № 4. – 67–68-б.

Кабулов Р. ўқотар қуролларни Ғайриқонуний эгаллашга қарши жиноий-ҳуқуқий курашиш чоралари // Ж. Ҳуқуқ-Право-LAW. 2000. 4-сон. – 58–60-б.

Махкамов О.М. Жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришнинг жиноят-ҳуқуқий ва криминологик жиҳатлари // Ўзбекистон Республикаси Бош Прокуратурасининг Олий ўқув курслари Ахборотномаси. – 2016. №3. – Б. 25-29

Ниёзова С. Жиноий йўл билан олинган даромадларни ошқоралаштириш // Қонун ҳимоясида. 2002. № 4. – 35-б.

Ниёзова С., Раҳмонов Ж. Контрабанда жинояти қандай жиноят?
// Инсон ва қонун. 2004 й. 25 май.

Рустамбаев А.М. Анализ состояния групповой и организованной преступности в Узбекистане и некоторые меры по совершенствованию борьбы с ней. Тез. докл. научно-практ. конференции. – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2005. – 190–192-б.

Рустамбаев А.М. Криминологическая характеристика личности преступника, совершающего преступления в группе // Ж. Адвокат. 2006. № 2. – 46–47-б.

Рустамбаев А.М. Общие черты и различия уголовно-правовых признаков групповой и организованной преступности // Ж. Давлат ва ҳуқуқ. 2005. № 5 (27). – 39–43-б.

Рустамбаев А.М. Типичные недостатки практики привлечения к уголовной ответственности лидеров, организаторов преступных группировок // Ж. Вестник ТГЮИ, 2-вып., 2006. – 55–58-б.

Рустамбаев М.Х. Значение последствий для квалификации нарушений правил безопасного движения и эксплуатации транспортных средств // Совершенствование мер борьбы с преступностью и ее профилактика. Сборник научных трудов ТашГУ – Т.: Изд-во ТашГУ, 1988. – 73–75-б.


Рустамбаев М.Х. Некоторые вопросы квалификации хищения огнестрельного оружия, боевых припасов или взрывчатых веществ. «Криминалистика и вопросы борьбы с преступностью». Сборник научных трудов ТашГУ. – Т., 1985.

Соттиев И.А. ўзбекистон Республикасининг янги Жиноят кодекси бўйича жиноий уюшма ташкил этганлик учун жавобгарлик // ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 2000. 1-сон. – 60–62-б.

Щелковникова Е.Д. Проблемы усиления борьбы с незаконным оборотом оружия // Ж. Государство и право. 1999. № 7.

II BOB. TRANSPORT HARAKATI VA UN DAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGIGA QARSHI JINOYATLAR

3-sxema



1-§. Temir yo'l, dengiz, daryo yoki havo transportining harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish (JK 260-moddasi)

Ushbu jinoyatning **bevosita asosiy obyekti** temir yo'l, dengiz, daryo yoki havo transportining harakatlanishi va ekspluatatsiya qilish xavfsizligi shartlarini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. **Bevosita qo'shimcha obyekti** odamlarning hayoti, sog'lig'i, o'zgar mulkining xavfsizligi va saqlanishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir.

JK 260-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **predmeti** temir yo‘l, suv (dengiz va daryo) yoki havo transportiga oid o‘zi harakatlanuvchi texnik vositalardir.

NOTA BENE !

Temir yo‘l transporti – magistral temir yo‘llar, kirish yo‘llari va metropolitenda foydalaniladigan, po‘lat izlar bo‘ylab qatnaydigan transport vositalari (tramvay bundan mustasno)dir.

Agar kirish yo‘llari umumiy temir yo‘llar tarmog‘i bilan bog‘lanmagan bo‘lsa, ular temir yo‘l transporti ixtiyorida bo‘lmay, mahkamalarga qarashli bo‘ladi.

Shaxtalar, sex ichida foydalaniladigan transport vositalari (elektrovozlar, vagonetkalar va boshqalar) texnologik jarayon bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish funksiyasini bajarishi tufayli ko‘rib chiqilayotgan transport turiga kirmaydi.

Ushbu transport vositalarida belgilangan mehnatni muhofaza qilish, muayyan ishlarni bajarish, texnika xavfsizligi qoidalari buzilishi tufayli jinoyat sodir etilgan bo‘lsa, aybdorning qilmishi JK 257-moddasi (Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish) bilan kvalifikatsiya qilinadi.

NOTA BENE !

Suv (dengiz va daryo) transportiga kimning ixtiyorida bo‘lishidan qat‘i nazar, havza suv transporti inspeksiyalari reestrada ro‘yxatga olinishi lozim bo‘lgan barcha kemalar, ya‘ni o‘zi harakatlanuvchi suzish vositalari (yo‘lovchilar tashiydigan, transport kemalari, qazib oluvchi, qayta ishlovchi, sport kemalari va h.k.) kiradi.

Idoraviy normativ hujjatlarga ko‘ra suv transporti hisoblanadigan, o‘zi yurmaydigan transport vositalari mazkur jinoyatning predmeti bo‘la olmaydi. Ushbu suzuvchi vositalar (o‘z aksariyatida barja, plashkoutlar) mustaqil transport ahamiyatiga ega emas, o‘ziyurar transport vositalari

bilan birgalikdagina qo'llanilishi mumkin. O'zi yura olmaydigan suzuvchi vositalar qo'llanilishidan zararli oqibatlar faqatgina o'ziyurar kemadan foydalanish qoidalarini buzish natijasidagina yuzaga kelishi mumkin.

NOTA BENE !

Havo transporti – bu havoda harakatlanish uchun foydalaniladigan uchuvchi apparatlar, ya'ni fuqaro aviatsiyasi va fuqarolik parvoz vositalari: samolyotlar, vertolyotlar, planerlar, aerostatlar, dirijabllar va h.k.

Yurish uchun emas, balki faqat ko'tarilish uchun mo'ljallangan havo vositalari (masalan, havo zondlari) mazkur jinoyatning predmetiga kirmaydi.

Aviatsiya texnikasi sohasida sinov tajriba yoki ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan havo kemalari – sinov tajribali havo kemalari – ko'rib chiqilayotgan jinoyatning predmetiga kirmaydi. Mazkur kemalardan foydalanishda xavfsizlik qoidalarini buzish hollarida shaxs JK 256-moddasi bo'yicha (Tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda xavfsizlik qoidalarini buzish) javobgarlikka tortilishi lozim.

Havo transporti vositalaridan, masalan, osmono'par imoratlarni qurishda va hokazolarda foydalanish mumkin. Maxsus ishlarni (masalan, qurish ishlarini) amalga oshirishda tegishli qoidalarni buzish **JK 260-moddasida** nazarda tutilgan jinoyat tarkibi bilan qamrab olinmaydi.

Ko'rib chiqilayotgan modda doirasida transport vositasi sifatida mexanik bo'lmagan transport vositasi e'tirof etilmaydi. Xususan, mazkur vositalar soniga avtodrezina va avtomotrislar, ot-ulov transporti kirmaydi. Bundan tashqari, havo yoki suv kemasining yoxud temir yo'l transportining belgilariga ega bo'lgan, biroq o'zining xususiyatlari bo'yicha yuk yoki yo'lovchilarni tashishga loyiq bo'lmagan vositalarni, masalan, havo zondini, avtomatlashtirilgan batiskafni va h.k. larni transport sifatida e'tirof etish mumkin emas. Tegishli belgilar mavjudligida mazkur predmetlardan foydalanish uchun aybdor shaxs JK 256-moddasi bo'yicha javobgarlikka tortilishi mumkin.

Ta'kidlab o'tish lozim, **JK 260-moddasi** nuqtai nazaridan, harbiy havo kemalari, shuningdek, fuqarolarga shaxsiy mulk huquqiga asosan tegishli bo'lgan kam hajmli kemalar transport vositalari soniga kirmaydi.

JK 260-moddasida nazarda tutilgan jinoyat **obyektiv tomondan** badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lgan transport vositasining harakat qilishi yoki undan foydalanish xavfsizligi qoidalarining temir yo'l, dengiz, daryo yoki havo transportini boshqaruvchi shaxs tomonidan buzilishida ifodalanadi.

Mazkur moddaning dispozitsiyasi blanket xususiyatga ega bo'lib, uni qo'llash uchun nafaqat qonunlarga, balki idoraviy normativ hujjatlarga ham murojaat qilish lozim bo'ladi.

Tahlil qilinayotgan jinoyatning tarkibini tashkil qiluvchi normativ hujjatlarning buzilishlariga nafaqat transport harakati va undan foydalanish xavfsizligining qoidalari (yo'riqnomalari) deb nomlanadigan normalarning buzilishi kiradi. Normativ hujjatning nomi – bu faqatgina formal belgi. Tegishli norma transport harakati va undan foydalanish xavfsizligi qoidasining belgilanganligi yoki belgilanmaganligini aniqlash uchun uning mazmunidan kelib chiqish lozim.

Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligining qoidalari idoraviy normativ hujjatlarda har xil tarzda belgilangan. Ayrimlari qat'iy ko'rsatmalardan, ayrimlari qat'iy taqiqlardan iborat. Ularning buzilishi shaxsni ko'rib chiqilayotgan modda bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'lishi mumkin. Ayrim normativ hujjatlarda ko'rsatma va taqiqlar bilan bir qatorda tavsiyalar ham mavjud. Ular majburiy tusga ega emas, ularni aslida qoida sifatida hisoblash mumkin emas, shuning uchun mazkur tavsiyalarni bajarmaslik ushbu jinoyatning tarkibini tashkil qilmaydi.

Faqatgina huquqiy normalarda belgilangan qoidalarni buzishdan iborat qilmish jinoyat tarkibini tashkil qilishi mumkin. «Hamma qabul qilgan ehtiyot choralari» ular soniga kirmaydi va ularning buzilishi, yuridik adabiyotda mavjud bo'lgan ayrim tavsiyalarga qaramasdan, shaxsni mazkur modda bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'lmaydi. Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligi qoidalarini

buzish holatlari bo'yicha tergov organlari va sud jinoyatning mavjudligini shaxs tomonidan «ehtiyot choralari ko'rilmaganligi» bilan asoslantirishlari mumkin emas. Har bir ish bo'yicha quyidagi holatlar aniqlanishi lozim: a) transport harakati va undan foydalanish xavfsizligi qoidalarining qaysi bandi buzilgan; b) tegishli qoidani buzish nimada o'zining aniq ifodasini topgan.

Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligi qoidalarining ayrimlari umumiyroq tusga, ayrimlari esa aniqroq tusga ega. Dastlabki tergov organlari va sud ularning ikkalasiga ham havola qilishlari lozim.

Ta'kidlab o'tish lozim, transport harakati va undan foydalanish xavfsizligi qoidalari doimiy rivojlanish va o'zgarish jarayonida bo'ladi. Shuning uchun xavfsizlik qoidalarini buzish faktini aniqlash uchun tergov va sud organlari shaxs buzilishida ayblanayotgan xavfsizlik qoidalari kuchda bo'lishini yoki o'z kuchini yo'qotganligini tekshirishlari shart.

Transport harakatixavfsizligi qoidalarini buzish – bu transport vositasini boshqarishning o'rnatilgan tartibidan turli chetga chiqishlar.

Transport harakati qoidalarini buzish quyidagilarda o'z ifodasini topishi mumkin:

temir yo'l transportida – yo'l bo'sh yoki band bo'lishini kuzatmaslik, tezlikni oshirib yuborish, pereganni o'zboshimchalik bilan egallash, semaforning taqiqlovchi signalida o'tib ketish va h.k.;

havo transportida – uchish sxemalarini bajarmaslik, uchish va ekipaj ishiga qo'yiladigan talablarni mensimaslik, samolyotni boshqarish texnikasiga va qoidalariga rioya qilmaslik va h.k.;

suv transportida – qoniqarsiz kuzatib borish va shu bilan bog'liq bo'lgan kemaning yoki boshqa to'siqning kechikkan aniqlanishi, tezlikni oshirib yuborish yoki munosib bo'lmagan sharoitlarda quvib o'tish, kemani boshqaruvchi shaxsning asossiz taxminlari va u tomonidan vaziyatga noto'g'ri baho berish, xavfli yaqinlashishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha tegishli choralarni ko'rishda kechikish va h.k.

Qonunda ko'rsatilgan buzilishlar harakat shaklida ham, harakatsizlik shaklida ham o'z ifodasini topishi mumkin. Harakatsizlik uchun shaxs uning zimmasiga muayyan harakatlarni bajarish majburiyati yuklatilgan

holdagina javobgar bo‘ladi. Ushbu majburiyat qonunosti normativ hujjatlar bilan hrnatilgan. Chunki harakatsizlik uchun jinoiy javobgarlikka tortishda mazkur jinoyatning subyekti transport harakati va undan foydalanish xavfsizligi qoidalari bilan tartibga solingan munosabatlarning qismi sifatida ko‘riladi, chunki uning faoliyati temir yo‘l transporti, flot va fuqarolik aviatsiyasining ishlashida xavfsizlikni ta‘minlashga qaratilgan.

Temir yo‘l, daryo yoki havo transportidan **foydalanish qoidalarini buzish** transport vositasidan belgilangan maqsadlardan tashqari foydalanishni ko‘zda tutadi. Foydalanish qoidalarini buzish temir yo‘l, daryo yoki havo transportining avariyasiz ishlab turishini ta‘minlovchi tizim va agregatlardan belgilangan maqsadlardan tashqari foydalanishni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu qilmish transport vositasi harakatining xavfsizligini ta‘minlovchi uzal va mexanizmlarga texnik jihatdan xizmat ko‘rsatish talablaridan chetga chiqishda, qo‘nishda va tushirishda, yuklarni joylashda va tushirishda yo‘lovchilarning xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha zarur choralarni ko‘rmaslik va transport vositalaridan foydalanishning xavfsiz sharoitlarni ta‘minlovchi transport vositalaridan foydalanish belgilangan tartibining boshqa buzilishlarida o‘z ifodasini topadi.

Transportdan foydalanish transportning harakatiga qaraganda kengroq tushunchadir. Agarda harakat jarayoni foydalanish bilan chambarchas bo‘lsa-da, foydalanish harakat sohasida ham, undan tashqarida ham amalga oshirilishi mumkin (masalan, kemaning reydda to‘xtashida, portda, havo kemasini uchishdan oldin tayyorlashda va h.k.). Transportning avariyasiz ishlashi bilan bog‘liq bo‘lmagan undan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish tahlil qilinayotgan jinoyatni tashkil qilmaydi.

Transportning harakati yoki undan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish **harakat** orqali ham, **harakatsizlik** orqali ham sodir etilishi mumkin.

JK 260-moddasida nazarda tutilgan jinoyat (1-qism) badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishi shaklidagi qonunda belgilangan oqibatlar yuzaga kelgan paytdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

Qoida tariqasida, temir yo‘l, dengiz, daryo yoki havo transportining harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish ko‘rsatilgan oqibatlar bilan bir qatorda o‘zining ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasi bo‘yicha qonunda mustahkamlangan darajasiga etmaydigan fakultativ oqibatlarga sabab bo‘ladi. Masalan, badanga yengil shikast yetkazilishi hamda ko‘p miqdorda bo‘lmagan moddiy zarar yetkazilishi va h.k. fakultativ oqibat hisoblanadi. Ular yuzaga kelgan holda jinoyatlar majmui bo‘yicha kvalifikatsiya qilish zarur emas, chunki ular tahlil qilinayotgan tajovuz tarkibi bilan qamrab olinadi. Mazkur oqibatlar jazoni tayinlashda inobatga olinishi lozim.

Tahlil qilinayotgan qilmish va yuzaga kelgan oqibatlar o‘rtasida sababiy bog‘lanishni aniqlash kerak. Bunda sababiy bog‘lanish oddiy harakat yoki harakatsizlik bilan emas, balki ijtimoiy xavfli oqibatlar yuzaga kelishining bevosita sababi bo‘lgan xavfsizlikning tegishli qoidalarini buzish bilan aniqlanishi zarur.

Oqibatlar bitta harakat yoki harakatsizlik natijasida emas, balki bir necha qilmishlar (ularning har biri o‘zi yoki boshqalar bilan bir qatorda og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lishi mumkin) natijasida yuzaga kelgan hollarda ham sababiy bog‘lanish mavjud. Amaliyotda quyidagi holatlar ham uchraydi: bir shaxs harakatlari natijasida xavfli vaziyat yuzaga keladi, ikkinchi shaxs esa ushbu vaziyatga noto‘g‘ri baho berib, o‘zi transport xavfsizligiga qarshi qilmishni sodir etadi. Mazkur vaziyatda yuzaga kelgan zararli oqibatlar transport xodimlarining ikkalasi tomonidan yo‘l qo‘yilgan buzilishlarning obyektiv natijasidir.

Subyektiv tomondan jinoyat aybning murakkab shakli bilan sodir etiladi. Ya‘ni, transportni harakatga keltirish yoki ekspluatatsiya qilish xavfsizligi qoidalari qasddan buziladi, uning oqibatlariga nisbatan ehtiyotsizlikning jinoiy o‘z-o‘ziga ishonish yoki jinoiy beparvolik shaklidagi ayb mavjud bo‘ladi. Aybdor transportning harakati yoki undan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish muayyan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko‘zi yeta turib, bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qiladi yoxud ijtimoiy

xavfli oqibatlar yuzaga kelishiga aybdorning ko‘zi yetmaydi, lekin ko‘zi yetishi lozim va mumkin bo‘ladi.

Agar badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast to‘g‘ri yoki egri qasd bilan yetkazilgan bo‘lsa, ish holatlariga qarab aybdor shaxs JK 104-moddasi (Qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish) yoki 105-moddasi (Qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish) bo‘yicha javobgarlikka tortilishi mumkin.

JK 260-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **subyekt** 16 yoshga to‘lgan, «faoliyati transportni xavfsiz harakatlanishini tashkillashtirish bilan bog‘liq xodimlar (masalan, havo transportida tashkilotning harakat xizmati, havo harakatini boshqarish markazi, ishlab chiqarish dispetcherlik xizmati, katta dispetcher va dispetcherlari, aeroport shturmani, katta shturmani, uchish rahbari) va uning harakati yoki foydalanishi bilan bog‘liq xodimlar (uchuvchi kapitan, shturman, mashinist va uning yordamchisi, mexanik va uning yordamchisi, radiooperator, radist, shkiper va hokazo)» hisoblanadi¹.

Agarda aybdor transport vositasini boshqarish imkoniyatini boshqa jinoyat sodir etilishi, masalan, havo kemasini olib qochish natijasida olgan bo‘lsa qilmishni jinoyatlar majmui bo‘yicha kvalifikatsiya qilish lozim.

JK 260-moddasi 2-qismida odam o‘limiga sabab bo‘lgan temir yo‘l, dengiz, daryo yoki havo transportining harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish uchun javobgarlik belgilangan.

JK 260-moddasi 3-qismida:

a) odamlar o‘limiga;

b) halokatga;

v) boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lgan temir yo‘l, dengiz, daryo, havo transportidan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

JK 260-moddasi 3-qismi «a» bandi nuqtai nazaridan, **odamlar o‘limi** deganda, transport tegishli turlarining harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish sababli yuzaga kelgan transport

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2000 йил 22 декабрдаги “Транспорт ҳаракати ёки ундан фойдаланиш хавфсизлигига қарши жиноятларга оид ишлар юзасидан суд амалиёти”.

hodisasi natijasida ro‘y bergan ikki yoki undan ortiq odamlar o‘limi tushuniladi.

NOTA BENE !

Halokat – ko‘p sonli odamlarning halok bo‘lishi, atrof-tabiiy muhitga sezilarli zarar yetkazilishi, mulkni yo‘q qilish yoki unga juda ko‘p miqdordan ham ko‘proq zarar yetkazish va h.k. da ifodalanadigan keng miqyosdagi avariya. Halokat tabiiy yoki texnogen xususiyatga ega bo‘lib, tabiiy kuchlar (masalan, zilzila) yoki inson faoliyatining natijasi bo‘lishi mumkin (masalan, Chernobil AES dagi halokat).

JK 260-moddasi 3-qismi «b» bandi nuqtai nazaridan, «**halokat** deganda, shunday hodisa tufayli atrof muhitga, insonlarning sog‘lig‘i va hayoti uchun xavfli bo‘lgan jiddiy ziyon yetkazilishi, insonlarning halok bo‘lishiga sababchi bo‘lgan temir yo‘l, dengiz, daryo yoki havo transportlarining, shuningdek, ko‘pchilikni tashishga mo‘ljallangan jamoat transportlari (avtobus, trolleybus va shu singarilar)ning avariya bo‘lishi»¹ tushuniladi.

Temir yo‘l, dengiz, daryo yoki havo transportining harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish turli halokatlarga olib kelishi mumkin, ularning har biri ko‘rsatilgan umumiy belgilar bilan bir qatorda o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Xususan, aviahalokatlar ekipaj a‘zolari va yo‘lovchilarning o‘limi, havo kemalarining to‘liq nobud qilinishi yoki ularga og‘ir shikast yetkazilishi bilan ta‘riflanadi hamda qidiruv va avariya-qutqarish ishlarini olib borishni talab qiladi; temir yo‘l transportida halokatlar yong‘in, portlash, harakatdagi sostav buzilishi hamda temir yo‘l personal, yo‘lovchilar va halokat yuz bergan paytida temir yo‘l platformalarida, vokzal va shahar binolarida bo‘lgan odamlarning o‘limi, shuningdek, halokat joyiga yaqin bo‘lgan hududning kuchli ta‘sir qiluvchi zaharli moddalar bilan zaharlanishi bilan ta‘riflanadi; dengiz

¹*Қаранг:* Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2015 йил 26 июндаги «Транспорт ҳаракати ва ундан фойдаланиш хавфсизлигига қарши жиноятлар билан боғлиқ ишлар юзасидан суд амалиётининг айрим масалалари тўғрисида»ги 10-сонли қарори, 11-банд.

yoki daryo transportidan foydalanish bilan bog'liq halokatlar ekipaj a'zolari va yo'lovchilarning o'limi, kemaning nobud qilinishi, shuningdek, halokat joyiga yaqin bo'lgan suv yuzasining kuchli ta'sir qiluvchi zaharli moddalar bilan zaharlanishi bilan ta'riflanadi.

JK 260-moddasi 3-qismi «v» bandi nuqtai nazaridan, **boshqa og'ir oqibatlar** deganda, «yo'l-transport hodisasi natijasida odam o'lishi bilan birgalikda yana bir qancha kishilarning og'ir tan jarohat olishlari, poezd, kema yoki samolyotlar harakati tizimining uzoq muddatga izdan chiqishi, tashiladigan yuklarga juda ko'p miqdorda ziyon yetkazilishi, atrofdagi uy-joy va boshqa inshootlarning buzilishi, (portlashi, yonib ketishi, vayron bo'lishi) bilan bog'liq juda ko'p miqdorda ziyon yetkazilishi kabi holatlar tushuniladi. (Shuningdek, sudlar, har bir aniq ish holati bo'yicha alohida yondashib, muayyan vaziyatni atroflicha o'rganib, sodir etilgan jinoyiy qilmish natijasini og'ir oqibat sifatida huquqiy baholashlari mumkin. Bunda teran mulohaza va keng mushohadaga tayanib ish ko'rmoq zarur)»¹.

Ta'kidlab o'tish lozim, hayoti hodisa natijasida xavf ostida qolgan va o'zini o'zi himoya qilish imkoniyatidan mahrum bo'lgan shaxsga yordam ko'rsatmagan aybdor shaxsning harakatlarini jinoyatlar jami JK 117-moddasining (Xavf ostida qoldirish) tegishli qismi va **JK 260-moddasi** bo'yicha kvalifikatsiya qilish kerak.

«Basharti, yo'l-transport hodisasi ro'y berishi oqibatida jabrlanuvchining hayoti uchun xavfli bo'lmagan sog'lig'ining buzilishiga sababchi bo'lgan yengil tan jarohati yetkazilsa yoki jabrlanuvchining o'limi bevosita yo'l-transport hodisasi ro'y bergan vaqtda yuz berganligi aniq ko'rinib turgan bo'lsa yoxud shaxsning jabrlanuvchiga yordam berishi shart bo'lsa-da, biroq uning o'zining hayoti yoki sog'lig'i uchun ham yaqqol xavf tug'ilgan bo'lsa, ya'ni yordam berish imkoniyatiga mutlaqo ega bo'lmasa, JKning 117-moddasi tatbiq etilmaydi»².

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2015 йил 26 июндаги «Транспорт ҳаракати ва ундан фойдаланиш хавфсизлигига қарши жиноятлар билан боғлиқ ишлар юзасидан суд амалиётининг айрим масалалари тўғрисида»ги 10-сонли қарори, 11-банд.

²Ўша жойда, 18-банд.

Agarda transportning harakati yoki transport vositasidan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish natijasida **JK 260-moddasining** har xil qismlarida nazarda tutilgan oqibatlar yuzaga kelgan bo'lsa, ayb barcha oqibatlar bo'yicha qo'yiladi, harakatlar esa og'irroq oqibatlarni nazarda tutuvchi qism bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Ko'rsatilgan turli oqibatlarga sabab bo'lgan harakatlar turli vaqtda sodir etilgan bo'lsa, oqibatlar esa transportning harakati yoki transport vositasidan foydalanish xavfsizligi qoidalarini bir necha o'zaro bog'liq bo'lmagan buzilishi natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, ushbu harakatlar jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

2-§. O'zbekiston Respublikasining samoviy hududidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish (JK 260¹-moddasi)

O'zbekiston Respublikasi Havo kodeksining 1-moddasiga muvofiq Respublikaning quruqlikdagi yerlari va suv havzalari ustidagi samoviy hududiga O'zbekiston Respublikasi to'la va tanho egalik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Havo kodeksining 6-moddasiga muvofiq havo kemalari va boshqa uchuvchi apparatlarni yerdan uchirilishi O'zbekiston Respublikasining samoviy hududidan foydalanish deb hisoblanadi va ular 7-moddaga muvofiq O'zbekiston Respublikasining samoviy hududidan foydalanuvchilar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Havo kodeksining 11-moddasiga muvofiq zarur xavfsizlik qoidalariga rioya qilingan holda va faqat ushbu Kodeksning 4-moddasida ko'rsatilgan organlardan Samoviy hududdan foydalanish boshqarmasi organlari orqali ruxsat olinganidan keyingina samoviy hududdan foydalanishga ijozat beriladi. Samoviy hududdan foydalanish boshqarmasi organlarining ko'rsatmalari samoviy hududdan foydalanuvchilarning barchasi uchun majburiydir.

Hozirgi vaqtda jahonda uchuvchisiz uchish apparatlari bilan samoviy hududidan ruxsat etilmagan holda foydalanish hollari tez-tez uchramoqda. Ko'pincha mazkur apparatlarning odamlar to'planadigan joylarda qulab tushishi hollari, uchish apparatlaridan aeroportlar hududida foydalanish

hollari uchramoqda, bu esa shubhasiz, havo kemalari bilan to‘qnashish xavfini keltirib chiqaradi va odamlarning qurbon bo‘lishiga olib keladi.

Uchuvchisiz uchish apparatlari milliy xavfsizlikka tahdid soladi, chunki ular qo‘riqlanadigan, toifalangan obyektlarni real vaqt rejimida videokuzatishi, suratga olishi mumkin, ushbu apparatlar xavfli, taqiqlangan yuklarni tashishga, ularni kerakli vaqtda tashlashga qodir, uchish apparatlari fuqarolarning shaxsiy hayotga bo‘lgan konstitutsion huquqlarini buzilishiga olib kelishi mumkin.

Havo kemalarining uchish xavfsizligini ta‘minlash va O‘zbekiston Respublikasining samoviy hududidan uchuvchisiz uchish apparatlari bilan ruxsatsiz foydalanishni bartaraf etish maqsadida 2015 yilning 1 yanvaridan e‘tiboran uchuvchisiz uchish apparatlarini (TNVED kodi 8802 20 000 0) O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, realizatsiya qilish va ulardan foydalanishga taqiq qo‘yilgan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ayrim qarorlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.¹

Jamoat xavfsizligi, odamlar sog‘lig‘i, hayoti **jinoyat obyektidir.**

Obyektiv tomondan olib qaralganda jinoyat O‘zbekiston Respublikasining samoviy hududidan noqonuniy (ruxsatsiz) foydalanish, shu jumladan uchuvchisiz uchish apparatlari bilan foydalanish ko‘rinishida sodir etiladi hamda shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, xuddi shuningdek badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Ushbu Kodeksga va uning asosida ishlab chiqilgan boshqa huquqiy hujjatlarga zid ravishda O‘zbekiston Respublikasi samoviy hududidan foydalanish bilan bog‘liq faoliyat O‘zbekiston Respublikasi samoviy hududidan foydalanish tartibini buzish, ya‘ni noqonuniy (ruxsatsiz) foydalanish deb e‘tirof etiladi (O‘zbekiston Respublikasi Havo kodeksining 14-moddasi).

¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикасининг самовий худудидан учувчисиз учиш аппаратларидан рухсатсиз фойдаланилиши ҳақида огоҳлантириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида»ги 2014 йил 26 ноябрдаги 322-сон Қарори.

Uchuvchisiz uchish apparatlari deb – bortida uchuvchisi bo‘lmagan holda parvozni amalga oshirayotgan yoxud boshqa yerdan masofadan turib to‘liq boshqariladigan yoxud parvozi dasturlangan va to‘liq avtonom tarzda parvoz qiladigan havo kemasi tushuniladi (bundan havo kemalari mustasno). Uchuvchisiz uchish apparati o‘zida uchuvchisiz va masofadan turib boshqarilgan holda parvoz qiladigan havo kemalarini mujassamlashtiradi, ular, qoidaga ko‘ra, yaxlit tizimlar sifatida ekspluatatsiya qilinadi.¹

Aybdor shaxsni Jinoyat kodeksining 260¹-moddasi bo‘yicha javobgarlikka tortish uchun u O‘zbekiston Respublikasi samoviy hududidan noqonuniy (ruxsatsiz) foydalanganligi yoxud O‘zbekiston Respublikasi samoviy hududidan noqonuniy (ruxsatsiz) foydalanish badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilganligi uchun ma‘muriy javobgarlikka tortilgan bo‘lishi zarur.

Jinoyat kodeksining 260¹-moddasida nazarda tutilgan jinoyat agar shaxs tomonidan shunday harakat uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, yoxud O‘zbekiston Respublikasining samoviy hududidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish, shu jumladan uchuvchisiz uchadigan apparatlardan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining samoviy hududidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanilgan, shu jumladan uchuvchisiz uchadigan apparatlardan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanilgan paytdan e‘tiboran tugallangan deb e‘tirof etiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi.

16 yoshga to‘lgan shaxs jinoyat **subyektidir**.

Agar Jinoyat kodeksining 260¹-moddasining birinchi qismida ko‘rsatilgan harakatlar odamlar o‘limiga sabab bo‘lsa, aybdorning harakatlari Jinoyat kodeksining 260¹-moddasining 2-qismi bo‘yicha javobgarlikni keltirib chiqaradi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 31 августдаги 287-сон Қарорига қаранг.

Agar Jinoyat kodeksining 260¹-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan harakatlar

- a) odamlar o'limiga¹;
- b) halokatga²;
- v) boshqa og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa³.

Jinoyat kodeksining 260¹-moddasining 3-qismi bo'yicha javobgarlikni keltirib chiqaradi.

3-§. Mast holdagi shaxsning transport vositasini boshqarishiga yo'l qo'yish (JK 261-moddasi)

Mazkur jinoyatning **bevosita asosiy obykti** temir yo'l, dengiz, daryo, havo, avtomobil va boshqa transport vositalarining xavfsiz harakatlanishi va ekspluatatsiya qilinishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir. **Bevosita qo'shimcha obykti** fuqarolarning hayoti yoki sog'lig'i xavfsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Jinoyatning **predmeti** temir yo'l, dengiz, daryo, havo, avtomobil va boshqa transport vositalaridir.

(«Temir yo'l transporti», «dengiz transporti», «daryo transporti», «havo transporti» tushunchalari JK 260-moddasi tahlilida berilgan.)

Turli (yuk, yengil, passajir, sport va boshq.) avtomobillar, motosikllar, tramvay, trolleybus va traktorlar **avtomobil transporti** hisoblanadi.

Boshqa transport vositalariga o'ziyurar mashinalar va boshqa mexanik transport vositalari kiradi.

Yo'l-harakati qoidalariga binoan, **mexanik transport vositalari** dvigatel yordamida harakatga keltiriladigan transport vositalari (mopeddan tashqari)dir. Boshqa transport vositalari kategoriyasiga faqat ko'cha va yo'llarda harakat qilgan vaqtda transport vositasi hisoblanadigan ekskavatorlar, greyderlar, buldozerlar, avtokranlar, skreperlar, kombaynlar va h.k.lar kiradi.

¹Жиноят кодексининг 260-моддасига шарҳга қаранг.

²Ўша ерда

³Ўша ерда

NOTA BENE !

Transport vositalari deganda, dvigateling ish hajmi 50 sm³ bo‘lgan barcha ko‘rinishdagi yengil, yuk avtomashinalari, avtobuslar, maxsus mashinalar, traktor, trolleybus, tramvay, mototsikllar, yo‘l, qurilish, qishloq xo‘jaligida ishlatiladigan va boshqa o‘zi harakat qiluvchi mashinalar (ekskavator, buldozer, greyder, avtokran, skreperlar va boshq.) tushunilishi kerak¹.

Ish hajmi 50 sm³ bo‘lgan dvigatel bilan harakatga keltiriladigan va maksimal konstruktiv tezligi 50 km/s bo‘lgan transport vositalari (masalan, mopedlar, motiklar va o‘xshash xususiyatlarga ega bo‘lgan transport vositalari) JK 261, 262, 263, 266, 267-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarning predmeti sifatida e‘tirof etilmaydi. Mazkur jinoyatlarning predmetiga dvigatelga ega bo‘lmagan transport vositalari (xususan, velosipedlar va h.k.) ham kirmaydi.

Obyektiv tomondan JK 261-moddasida nazarda tutilgan jinoyat transport vositasidan foydalanish uchun mas’ul shaxsning mast holdagi yoki giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki shaxsning aql-idrokiga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa moddalar ta’siri ostida bo‘lgan shaxsni temir yo‘l, dengiz, daryo, havo, avtomobil transporti yoki boshqa transport vositasini boshqarishiga yo‘lqo‘yishi natijasida badanga og‘ir shikast yetkazilishi yoxud odam o‘lishiga sabab bo‘lishida ifodalanadi.

Transport vositasini boshqarishga **yo‘l qo‘yish** deganda, alkogol ta’siri ostida mast holda bo‘lgan yoki giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki shaxsning aql-idrokiga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa moddalar ta’siri ostida bo‘lgan shaxsning temir yo‘l, dengiz, daryo, havo, avtomobil transporti yoki boshqa transport vositalarini boshqarishiga ruxsat berilishini tushunish zarur.

Yo‘l qo‘yish haydovchiga ushbu moddaning dispozitsiyasida ko‘rsatib o‘tilgan transport vositalarini boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan biron-bir

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2015 йил 26 июндаги «Транспорт ҳаракати ва ундан фойдаланиш хавфсизлигига қарши жиноятлар билан боғлиқ ишлар юзасидан суд амалиётининг айрим масалалари тўғрисида»ги 10-сонли қарори.

harakatni bajarish haqida ko'rsatma berish (odamlarni eltib qo'yish, yuk tashish va h.k.), shuningdek, haydovchining o'z vazifasini bajarishiga to'sqinlik qilmaslik (masalan, yo'lga chiqishiga qarshilik ko'rsatmaslik va h.k.)dan iborat bo'lishi mumkin.

Transport vositalaridan foydalanish uchun mas'ul shaxsning mast holatdagi yoxud giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddalar ta'siri ostida bo'lgan shaxsni bilgani holda temir yo'l, dengiz, daryo, havo, avtomobil yoki boshqa transport vositasini boshqarishga yo'l qo'yishi natijasida JKning 260-, 266-moddalarida nazarda tutilgan oqibatlar ro'y bergan bo'lsa, JKning 261-moddasi bilan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligiga mas'ul shaxslar, shuningdek, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, davlat yoki jamoat tashkilotlariga qarashli transport vositalarining haydovchilari, shaxsiy transport vositalarining egalari va haydovchilari ham javobgar bo'lishlari mumkin¹.

NOTA BENE !

Mast holat yoki giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa moddalar ta'siri ostida bo'lish – oddiy fiziologik spirtli, giyohvandlik yoki boshqa mast holat, unda shaxsning vaziyatni tushunish va o'z xulqini nazorat qilish imkoniyati yo'qotilmaydi, lekin cheklanadi.

Shaxsning aql-idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa moddalar qatoriga ongni zaharlaydigan turli moddalar kiradi. Klofelinning alkogol bilan har qanday foizlarda aralashmasi, xloroform, efir, dimedrolning alkogol bilan aralashmasi, tropan guruhidagi alkaloidlarni o'z ichiga olgan o'simliklarning spirtli ekstraktlari va boshqalar, shuningdek, bug'larini tin olish ongni zaharlashtiruvchi, ya'ni shaxsning aql-idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi atseton, bo'yoqlar, loklar, yelimning ayrim turlari va boshqa maishiy kimyo buyumlari ko'rsatilgan moddalarning jumlasidandir.

¹ Ўша жойда. – 333 Б.

Ushbu qilmish moddiy tarkibli jinoyat bo‘lib, badanga og‘ir shikast yetkazilishi, odam o‘lishi tarzidagi oqibat kelib chiqqan paytdan e‘tiboran **tugallangan** deb e‘tirof etiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat murakkab aybli bo‘lib, qasddan mast holdagi shaxsning transport vositasini boshqarishiga yo‘l qo‘yiladi, oqibatiga nisbatan ehtiyotsizlik bo‘ladi. Jinoyatning sodir etilish **motivi** va ko‘zlangan **maqsad** qilmishni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Aybdor shaxsning haydovchi alkogol ta‘siri ostida mast holda ekanligini yoki giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki shaxsning aqlidrokiga ta‘sir ko‘rsatuvchi boshqa moddalar ta‘siri ostida ekanligini bilishi jinoyatni tahlil qilinayotgan modda bo‘yicha kvalifikatsiya qilishning zaruriy belgisi hisoblanadi.

Jinoyatning subyeksi maxsus hisoblanadi. Ularning soniga 16 yoshga to‘lgan va «transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligiga mas‘ul shaxslar, shuningdek, mulkchilik shaklidan qat‘i nazar, davlat yoki jamoat tashkilotlariga qarashli transport vositalarining haydovchilari, shaxsiy transport vositalarining egalari»¹ kiradi.

Ushbu majburiyat o‘z xizmat mavqei bo‘yicha zimmasiga yuklatilgan korxonalar, muassasa, tashkilotlarning mansabdor shaxslari ko‘rib chiqilayotgan jinoyatning subyektlari bo‘lishi mumkin. Masalan, bosh mexaniklar, foydalanish bo‘limining boshlig‘i, foydalanish bo‘yicha muhandis va boshqalar.

4-§. Transportni ta‘mirlash yoki uni foydalanishga chiqarish qoidalarini buzish (JK 262-moddasi)

Jinoyatning **bevosita asosiy obyekt** temir yo‘l, dengiz, daryo, havo, avtomobil va boshqa transport vositalaridan foydalanish xavfsizligini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlardir. **Bevosita qo‘shimcha obyekt**

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2015 йил 26 июндаги «Транспорт ҳаракати ва ундан фойдаланиш хавфсизлигига қарши жиноятлар билан боғлиқ ишлар юзасидан суд амалиётининг айрим масалалари тўғрисида»ги 10-сонли қарори, 21-банд.

odamlarning hayoti, sog'lig'i va mulkini muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Jinoyatning **predmeti** temir yo'l, dengiz, daryo, havo, avtomobil va boshqa transport qurilmalari, signalizatsiya, aloqa vositalaridir.

(«Temir yo'l transporti», «dengiz transporti», «daryo transporti», «havo transporti» tushunchalari JK 260-moddasi, «avtomobil va boshqa transport vositalari» tushunchalari JK 261-moddasi tahlilida berilgan.)

NOTA BENE !

Temir yo'l **aloqa yo'llari** deganda, temir yo'l (tramvay, metro) harakati amalga oshiriladigan relslar, shpallar, to'shamalar tushuniladi.

Temir yo'lda poezdlar harakati xavfsizligini ta'minlash maqsadida dispetcherlik xizmati, elektruzatgich liniyalari va h.k. moslamalar o'rnatiladi. Harakat xavfsizligini ta'minlamaydigan moslamalar ushbu jinoyatning predmeti bo'lmaydi.

Havo transporti aloqa vositalariga uchish-qo'nish yo'laklari, xavfsizlik yo'laklari va h.k.lar; suv transportida kemaning bir geografik punkt (port)dan okean yoki dengizlar, shuningdek, tabiiy yoki sun'iy suv yo'llari (ko'rfaz, kanal, daryo, ko'llar) orqali boshqasiga o'tishiga mo'ljallangan vositalar kiradi.

NOTA BENE !

Signalizatsiya vositalari – shartli informatsiya: komanda berish, xabar yetkazish, boshqarish va h.k.larni beruvchi vositalar. Signalizatsiya ovozli, vizual (nurli va h.k.) bo'lishi mumkin. Bunday vositalar sirasiga semaforlar, mayoqlar, yo'l va markirovka belgilari va h.k.lar kiradi.

Aloqa vositalariga turli xabarlarini jo'natish va qabul qilishni ta'minlovchi texnik qurilmalar kiradi. Aloqa jo'natish vositasi va muhitiga ko'ra: simli, radioaloqa, radioreleli, simpleks, kosmik, optik, lazer va

h.k.larga bo‘linadi. Harakat uzoqliligiga ko‘ra uzoq va yaqin aloqa mavjud.

NOTA BENE !

Boshqa transport uskunalari deganda, temir yo‘l, aviatsiya, dengiz va daryo floti ekspluatatsiyasining xavfsizligi uchun zarur bo‘lgan signalizatsiya va aloqa vositalaridan tashqari barcha mexanizmlar, texnik qurilmalar – asboblarni tushuniladi.

Boshqa transport qurilmalariga masalan, temir yo‘l va tramvay tupiklaridagi ushlagichlar, daryo formatorini belgilovchi moslamalar va h.k.lar kiradi.

Mazkur transport inshootlar va vositalar, qurilmalar, mexanizmlar va uskunalari o‘zining tuzilishidagi xususiyatlari bo‘yicha farqlanadi, faqat ularga xos bo‘lgan texnik vazifalarni bajaradi, biroq ularning barchasini umumiy belgilar ta’riflaydi:

1) ushbu transport qurilma va elementlarining maxsus vazifalarni bajarishga mo‘ljallanganligi – temir yo‘l, aviatsiya, dengiz va daryo flotining xavfsiz holda ishlab turishini ta’minlash. Ushbu belgilarga ega bo‘lmagan qurilma va elementlar ko‘rib chiqilayotgan jinoyatning predmetiga kirmaydi (masalan, havo yo‘llari agentliklari va kassalar, aeroport ichidagi yo‘llar va h.k. o‘rtasidagi aloqani ta’minlovchi vositalarni ishdan chiqarish);

2) foydalanishga, normal ishlab turishga yaroqlilik, ya’ni ulardan belgilangan maqsadda foydalanish imkoniyati mavjudligi. Shuning uchun yaroqsiz, harakatda bo‘lmagan (konservatsiyalangan, ehtiyot) qurilmalar **JK 262-moddasida** nazarda tutilgan jinoyatning predmetiga kirmaydi;

3) mazkur jinoyatning predmeti oshiqcha xavf manbai hisoblanadi yoki ushbu manbalarning normal ishlab turishini ta’minlovchi tizimga kiradi;

4) qonunda ko‘rsatilgan predmetlarning alohida huquqiy holati, ularning ishlab turishi transportda amal qilgan normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Ushbu barcha belgilar birlikda bo'lishi kerak, bitta belgining yo'qligi **JK 262-moddasida** ko'rsatilgan jinoyatning predmeti sifatida transport qurilmasini, elementini e'tirof etilishini istisno qiladi.

Obyektiv tomondan jinoyat:

1) ta'mirlash ishlarini bajarayotgan yoki transport vositasining texnik holati va undan foydalanish uchun mas'ul bo'lgan shaxsning temir yo'l, dengiz, daryo, havo, avtomobil yoki boshqa transport vositasini, aloqa yo'llari, signalizatsiya, aloqa vositalari yoki boshqa transport uskunalari sifatida sifatsiz ta'mirlashida;

2) transport vositasining texnik jihatdan buzuvchiligi bilan turib, uni yo'lga chiqarilishi natijasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishida ifodalanadi.

Ta'mirlash – belgilangan sifat normativlariga muvofiq buzilgan transport vositalari va qurilmalarining funksional vazifalarini tiklashdir.

Sifatsiz ta'mirlash deganda, ko'rsatib o'tilgan transport vositalari va ulardan foydalanish texnik tizimi qismlarining ish xavfsizligiga kafolat bermaydigan darajada tamirlanishini tushunish zarur.

Transport vositalarining texnik jihatdan buzuvchiligi bilan turib, ularni **foydalanishga chiqarish** deganda, muayyan nosozliklari bo'lgan transport vositalaridan foydalanishga ruxsat berilishi tushuniladi.

Harakat xavfsizligiga va transport vositalaridan foydalanish xavfsizligiga xavf tug'diruvchi **transport vositalari texnik holati jihatdan buzuvchi**, deb e'tirof etiladi.

Badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishi tarzidagi oqibatlar kelib chiqishi ushbu jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi hisoblanadi. Yuqoridagi belgilar bo'lmaganida aybdor intizomiy yoxud ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Sifatsiz ta'mirlanganligi yoki texnik jihatdan buzuvchiligi oldindan ma'lum bo'lgan transport vositasining foydalanishga chiqarilishi va ro'y bergan badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishi tarzidagi oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanishning mavjudligi jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi hisoblanadi.

Qonunda ko'rsatilgan og'ir yoki o'rtacha og'ir tan jarohati yetkazilishi tarzidagi oqibatlar ro'y bergan vaqtdan **JK 262-moddasida** ko'rsatilgan jinoyat **tugallangan** hisoblanadi (1-qismi).

Subyektiv tomondan temir yo‘l, dengiz, daryo, havo, avtomobil yoki boshqa transport vositasi, aloqa yo‘llari, signalizatsiya, aloqa vositalari yoki boshqa transport uskunalarining sifatsiz ta‘mirlanishi **ehtiyotsizlik** orqasida yoki **murakkab aybli** jinoyat tarzida sodir etilishi mumkin.

Transport vositasining texnik jihatdan buzuqligini bila turib uni foydalanishga chiqarish to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi.

Sifatsiz ta‘mirlashning yoki texnika holati jihatidan buzuq bo‘lgan transport vositasini foydalanishga chiqarishning **motivlari** turli bo‘lishi mumkin, ular qilmishning kvalifikatsiyasiga ta‘sir qilmaydi, lekin sud tomonidan jazo tayinlashda inobatga olinadi.

Jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to‘lgan, ta‘mirlash ishlarini bajaruvchi yoxud transport vositalarining texnik holati va ulardan foydalanish uchun javobgar shaxslargina bo‘ladi.

«Sudlar shuni e‘tiborga olishlari lozimki, ta‘mirlash ishlarini bajarayotgan transport vositalarini texnik jihatdan va ulardan foydalanishga mas‘ul shaxslarning temir yo‘l, dengiz, daryo, havo, avtomobil yoki boshqa transport vositasini, aloqa yo‘llari, signalizatsiya, aloqa vositalari yoki boshqa transport uskunalarini sifatsiz ta‘mirlash, shuningdek, transport vositasining texnik holati jihatidan buzuqligini bila turib, uni foydalanishga chiqarishi natijasida JKning 260-, 266-moddalarida nazarda tutilgan oqibatlar yuz bergan taqdirda, mulkchilik shaklidan qat‘i nazar, ta‘mirlash ishlarini bajarayotgan yoki transport vositalarini ta‘mirlash yoxud undan foydalanishga mas‘ul shaxsni JKning 262-moddasi bilan javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi. Bunda texnika vositalari, aloqa yo‘llari, signalizatsiya, aloqa vositalari yoki boshqa transport uskunalari uchun mas‘ul shaxs, ushbu texnik nosozlikni aniq bilgan bo‘lishi shart»¹.

Shaxsni sifatsiz ta‘mirlash yoki texnika holati jihatidan buzuq bo‘lgan transport vositasini foydalanishga chiqarganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortish ko‘rsatilgan transport vositasini boshqaradigan yoki

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2015 йил 26 июндаги «Транспорт ҳаракати ва ундан фойдаланиш хавфсизлигига қарши жиноятлар билан боғлиқ ишлар юзасидан суд амалиётининг айрим масалалари тўғрисида»ги 10-сонли қарори, 23-банд.

sifatsiz ta'mirlangan transportning texnik tizimidan foydalangan shaxsni javobgarlikka tortish masalasining hal qilinishiga bog'liq emas.

JK 262-moddasi 2-qismida odam o'lishiga sabab bo'lgan transportni ta'mirlash yoki uni foydalanishga chiqarish qoidalarini buzish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Agarda transportni ta'mirlash yoki uni foydalanishga chiqarish qoidalarini buzish:

a) odamlar o'limiga;

b) halokatga;

v) boshqa og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, aybdor shaxsning harakatlari **JK 262-moddasi 3-qismi** bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

JK 262-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning mazkur og'irlashtiruvchi holatlari temir yo'l, dengiz, daryo yoki havo transportining harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzishning (JK 260-moddasi) avval tahlil qilingan og'irlashtiruvchi holatlari bilan bir xil. Ular mazkur ijtimoiy xavfli qilmishga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega emas va alohida tahlil qilishni talab qilmaydi.

5-§. Temir yo'l, dengiz, daryo, havo transporti vositasi yoki aloqa yo'llarini yaroqsiz holatga keltirish (JK 263-moddasi)

Jinoyatning **bevosita asosiy obyekti** temir yo'l, suv, havo transportini ekspluatatsiya qilishning xavfsiz shart-sharoitlarini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir. **Qo'shimcha bevosita obyekti** odamlarning hayoti va sog'lig'i, o'zgarar mulkidir.

Temir yo'l, dengiz, daryo, havo transporti vositalari, aloqa yo'llari, ulardagi inshootlar, signalizatsiya qurilmalari, aloqa yoki boshqa transport uskunalari mazkur jinoyatning **predmeti** hisoblanadi.

(Ushbu jinoyatning predmeti JK 260-, 262-moddalari tahlili qilinganida batafsil ko'rib chiqilgan.)

Ko'rsatilgan barcha predmetlarning temir yo'l, dengiz, daryo, havo transporti vositalarini ekspluatatsiya qilishning xavfsizligini ta'minlash uchun mo'ljallanganligi jinoyatning zaruriy belgisi hisoblanadi. Bunday

belgiga ega bo'lmagan qurilmalar mazkur jinoyatning predmeti bo'la olmaydi.

Jinoyatning yana bir zaruriy belgisi qayd etib o'tilgan predmetlarning foydalanish uchun yarog'liligi hisoblanadi. Foydalanishga yaroqsiz qurilmalar ham mazkur jinoyatning predmeti bo'la olmaydi.

Obyektiv tomondan jinoyat temir yo'l, dengiz, daryo, havo transporti vositalarini, aloqa yo'llari, ulardagi inshootlar, signalizatsiya qurilmalari, aloqa yoki boshqa transport uskunalari qasddan buzish, ularga shikast yetkazish, ularni ko'zlangan maqsadlarda foydalanish mumkin bo'lmagan, ya'ni ta'mirlab bo'lmaydigan darajada yaroqsiz holda keltirilishi natijasida badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazishda ifodalanadi.

NOTA BENE !

Buzish deganda, texnik qurilmalarni maqsadli foydalanish imkoniyatini qoldirmagan darajada yaroqsiz ahvolga keltirish tushuniladi. Ularni tiklash mumkin bo'lmaydi yoxud tiklash samarasiz bo'ladi.

NOTA BENE !

Shikast yetkazish deganda, texnik qurilmalar tizimi va shaklidagi shunday o'zgarishlar tushuniladiki, shikast yetkazish oqibatida texnik qurilma o'z vazifalarini bajarish imkoniyatlarini to'liq yoki qisman yo'qotadi, lekin uni maqsadli foydalanish uchun qayta tiklash mumkin bo'ladi.

NOTA BENE !

Boshqa usulda yarog'siz holatga keltirish deganda, shunday sharoitlar yaratish nazarda tutiladiki, bunda texnik qurilmalar buzilmaydi va ularga shikast yetkazilmaydi, ammo qayd etilgan predmetlardan xizmat maqsadlarida foydalanish imkoniyati qoldirilmaydi (masalan, aloqa yo'llarida har xil predmetlardan tshiqqlar tashkil etish, signalizatsiya qurilmalarini almashtirish, signal belgilarini boshqa yerlarga ko'chirish va h.k.).

Bu qilmish moddiy tarkibli jinoyat bo'lib, badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilgan paytdan e'tiboran **tugallangan** deb hisoblanadi.

Temir yo'l, dengiz, havo transporti vositalari, aloqa yo'llari, ulardagi inshootlar, signalizatsiya qurilmalari, aloqa yoki boshqa transport uskunalari buzish, ularga shikast yetkazish yoxud ularni foydalanib bo'lmaydigan darajada yaroqsiz holatga keltirish natijasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilmagan bo'lsa, qilmish mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish uchun javobgarlik belgilangan JK 173-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Subyektiv tomondan jinoyat aybning murakkab shakli bilan sodir etiladi. **JK 263-moddasi** dispozitsiyasiga ko'ra, aybdorning o'zi sodir etayotgan ijtimoiy xavfli qilmishi (temir yo'l, dengiz, daryo, havo transporti vositasi yoki aloqa yo'llarini yaroqsiz holatga keltirish)ga nisbatan ruhiy munosabati to'g'ri qasd shaklida, uning oqibatlariga nisbatan esa, jinoiy o'z-o'ziga ishonish yoki jinoiy beparvolik ko'rinishida bo'ladi.

Bunday holatda jinoyatning sodir etilish **motivi** va **maqsadi** fakultativ belgilar hisoblanadi.

Jinoyatning **subyeksi** 14 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin. Bu holatda aybdorning transport xodimi ekanligi yoki emasligi ahamiyat kasb etmaydi.

JK 263-moddasi 2-qismida shunday harakatlar odam o'lishiga sabab bo'lgani uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

JK 263-moddasi 3-qismida shu harakatlar:

- a) odamlar o'limiga;
- b) halokatga;
- v) boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lganligi uchun javobgarlik belgilangan.

Ushbu og'irlashtiruvchi holatlar JK 260-moddasi tahlilida ko'rib chiqilgani sababli ularga to'xtalmaymiz.

Tahlil etilayotgan jinoyat JK 173-moddasida nazarda tutilgan qilmishdan tajovuzning predmetiga ko'ra farqlanadi. Transport vositasi

hisoblanmaydigan vositalar, uskunalarga shikast yetkazilganida qilmish transport jinoyatlari emas, balki o'zgarar mulkiga tajovuz sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Agarda ko'rib chiqilayotgan jinoyat predmetining foydalanish uchun yaroqsiz holatga keltirilishi muayyan uzal yoki bo'lakni talon-toroj qilish yo'li bilan amalga oshirilgan bo'lsa, qilmishni jinoyatlar majmui JK tegishli moddasi bo'yicha talon-toroj qilish sifatida va **JK 263-moddasi** bo'yicha kvalifikatsiya qilish kerak.

6-§. Havo kemasidan foydalanish vaqtida lazer nurini yo'naltirish orqali xalaqit berish (JK 263¹-moddasi)

Jinoyatning **obyekti** havo kemalaridan foydalanishning belgilangan tartibiga rioya etilishini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar, jamoat xavfsizligi, shuningdek odamlar hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlardir.

Obyektiv tomondan jinoyat: 1) havo kemasidan foydalanish vaqtida havo kemasiga lazer nurini yo'naltirish orqali xalaqit berishdan iborat, basharti bu shunday harakat uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa; 2) basharti, ko'rsatilgan harakatlar badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa.

Havo kemasidan foydalanish vaqtida havo kemasiga xalaqit berish deganda, havo kemasiga lazer nurini yo'naltirish tushunilishi lozim, bunda lazer nuri qanday kuchga ega bo'lgani, qaysi vaqtda u havo kemasiga yo'naltirilgani ahamiyatga ega emas, ammo lazer nuri havo kemasini boshqarishga halaqit bergani, shu tariqa undan foydalanish xavfsizligiga tahdid solgani muhim.

Havo kemasi deganda, tipi va turidan qat'i nazar, har qanday uchish apparati tushunilishi lozim (masalan, noharbiy yoki davlat havo kemasi).

Sharhlanayotgan modda ma'nosida havo kemasidan foydalanish deganda, havo kemasi harakatlana boshlagan paytdan e'tiboran uning uchish, parvoz qilish, qo'nish, havo kemasini to'liq to'xtatish va uning ekipaji a'zolari havo kemasini tark etishi davri tushunilishi lozim.

Jinoyat havo kemasidan foydalanish vaqtida havo kemasiga xalaqit berish amalga oshirilgan paytdan boshlab, oqibatlar yuz berishidan qat'i nazar, **tugallangan** deb e'tirof etiladi, basharti bu shunday harakat uchun aybdorga ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa.

Agar ko'rsatilgan harakatlari badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa, jinoyat shunday harakat uchun aybdorga ilgari ma'muriy jazo qo'llanilgan bo'lmasa ham, **tugallangan** deb e'tirof etiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi. Jinoyatning motivi va maqsadlari qilmishni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas.

O'n to'rt yoshga to'lgan har qanday shaxs jinoyatning **subyektiv** hisoblanadi.

O'sha harakat odam o'lishiga sabab bo'lsa, JK 263¹-moddasining 2-qismi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Agar havo kemasidan foydalanish vaqtida havo kemasiga lazer nurini yo'naltirish orqali xalaqit berish odamlar o'limiga, halokatga yoki boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, aybdorning harakatlari JK 263¹-moddasining 3-qismi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

7-§. Temir yo'lining harakatlanadigan tarkibini, havo, dengiz yoki daryo kemasini olib qochish yoki egallab olish (JK 264-moddasi)

Jinoyatning **bevosita asosiy obyekti** temir yo'lining harakatlanadigan tarkibi, havo, dengiz, daryo kemalaridan foydalanishning belgilangan tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir. Chunki temir yo'lining harakatlanadigan tarkibini, havo, dengiz yoki daryo kemasini olib qochish yoki egallab olish nafaqat transportning normal ishlashini buzadi yoki izdan chiqaradi, balki ekipaj a'zolari va passajirlarning sog'lig'i va hayotini xavf ostiga qo'yadi, jamiyat va davlatga ko'p miqdorda moddiy zarar yetkazadi. **JK 264-moddasi 2-qismida** nazarda tutilgan qilmishning **qo'shimcha bevosita obyekti** odamlarning sog'lig'i, hayoti va mulkni muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Temir yo'lining harakatlanadigan tarkibi, havo, dengiz yoki daryo kemalari jinoyatning **predmeti** hisoblanadi.

Temir yo‘lining harakatlanadigan tarkibiga vagonlar, platformalar, sisternalar, ya’ni relsda harakatlanadigan barcha turdagi lokomotivlar kiradi. (Tramvay bundan mustasno, tramvayni olib qochganlik uchun JK 267-moddasi bo‘yicha javobgarlik vujudga keladi.)

Havo kemasi – dvigatel, yengil gazlar, havo oqimi yordamida harakatlanadigan passajirlar, yuklar tashishga mo‘ljallangan har qanday uchuvchi transport vositasi (vertolyot, planer, dirijabl, havo yostiqchasiga hrnatilgan apparatlar).

Dengiz yoki daryo kemasi – dvigatellar, yelkanlar yordamida harakatlanuvchi, passajirlar va yuklarni suv yo‘li orqali tashishga mo‘ljallangan, shuningdek, maxsus buksirlar, yer qa‘ridan qazib oluvchi, qayta ishlovchi ilmiy, sport va h.k. transport vositalari. Kemaning qaysi idoraga taalluqliligi va mulkchilik shakli qilmishning kvalifikatsiyasiga ta’sir ko‘rsatmaydi. Motorli qayiqlar, baydarkalar, suv hajmi katta bo‘lmagan yaxtalar ushbu jinoyatning predmeti bo‘la olmaydi. Bunday predmetlarni olib qochish transport vositasini olib qochish sifatida JK 267-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Obyektiv tomondan jinoyat temir yo‘lining harakatlanadigan tarkibini, havo, dengiz yoki daryo kemasini olib qochish yoki egallab olishda ifodalanadi.

NOTA BENE !

Olib qochish deganda, temir yo‘lining harakatlanadigan tarkibi, havo, dengiz yoki daryo kemasining bunga huquqi bo‘lmagan shaxs tomonidan, transportning ana shu turlari uchun mas’ul shaxslarning ruxsatisiz, har xil usullar bilan bir yerdan ikkinchi yerga o‘tkazilishi tushuniladi.

Olib qochish ko‘rsatilgan predmetlarning joyini har bir usul bilan fazoda o‘zgartirish paytidan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

Yerda bo‘lgan havo kemasini olib qochish uning uchishi bilan, bundan avval kemani bosib olish amalga oshirilganligi yoki oshirilmaganligidan qat’i nazar, tugallangan hisoblanadi. Havoda kema u uchun belgilangan yo‘nalish jinoyatchilarning talabiga asosan o‘zgargan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

Transport vositasini olib qochish uchun javobgarlik kema jinoyatchilar yoki ekipaj a'zolari tomonidan boshqarilishiga bog'liq emas, aksariyat hollarda, kemani jinoyatchilar nazorati ostida bo'lgan ekipaj boshqaradi.

Qayd etilgan predmetlarni **egallab olish** deganda, ana shu predmetlarni bir joydan ikkinchi joyga o'tkazishni ko'zlab, amalda ularning ustidan nazorat o'rnatilishi tushuniladi.

Egallab olish zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatilmasdan sodir etilishi mumkin.

Ko'rsatilgan turdagi transport vositalarini ekipaj a'zolari, passajirlar, qorovullar va h.k.larga zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatmasdan yoxud ularni aldash yo'li bilan qonunga xilof ravishda egallash **egallab olish** deb tushuniladi. Egallab olish transport vositasining harakatlanishi ustidan faktik nazoratning o'rnatilishidir.

Temir yo'lining harakatlanadigan tarkibini, havo, dengiz yoki daryo kemasini egallab olish qayd etilgan vositalarga amalda ega bo'lish, aybdorning ularni o'z bilganicha idora qilishi boshlangan paytdan **tugallangan** deb hisoblanadi.

Temir yo'lining harakatlanadigan tarkibini, havo, dengiz yoki daryo kemasini olib qochish yoki egallab olish aybdorning o'z xususiy mulki bo'lmagan yoki xizmat vazifasiga ko'ra unga birlashtirilmagan ko'rsatilgan transport vositalarining biriga egalik qilishini bildiradi. Aybdor ushbu transport vositasini tasarruf qilish huquqiga ega bo'lmasligi kerak, aks holda jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydi.

Subyektiv tomondan JK 264-moddasida nazarda tutilgan qilmish faqat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Aybdor temir yo'lining harakatlanadigan tarkibini, havo, dengiz yoki daryo kemasiga g'ayriqonuniy ravishda egalik qilayotganligini anglaydi va qilmishni sodir etishni istaydi.

Jinoyatning **motivi va maqsadi** qilmishni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas.

16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs jinoyat **subyekt** bo'lishi mumkin.

JK 264-moddasi 2-qismida:

a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

b) zoʻrlik ishlatib yoki zoʻrlik ishlatish bilan qoʻrqitib sodir etilgan temir yoʻlning harakatlanadigan tarkibini, havo, dengiz yoki daryo kemasini olib qochish yoki egallab olish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

(Bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan jinoyatni kvalifikatsiya qilish qoidalari haqida JK 247-moddasi tahliliga qarang.)

Transport vositasini **zoʻrlik ishlatgan holda yoki zoʻrlik ishlatish bilan qoʻrqitib** olib qochish yoxud egallab olish transport vositasini boshqarayotgan yoki transport vositasida boʻlgan yoʻlovchilarga nisbatan transport vositasini olib qochish yoki egallab olishga qarshi real hamda yuz berishi mumkin boʻlgan qarshilikni sindirish maqsadida jismoniy yoki ruhiy taʼsir oʻtkazishning har xil usullarini qamrab oladi.

Zoʻrlik ishlatish jismoniy azob yetkazishi va oqibatlar keltirib chiqarmasligi, lekin zoʻrlik ishlatish natijasida badanga ogʻir, oʻrtacha ogʻir yoki yengil shikast yetkazilishi mumkin. Shunday oqibatlar mavjud boʻlsa, aybdorning harakatlari **JK 264-moddasi 2-qismi «b» bandi** bilan qamrab olinadi.

Agar zoʻrlik ishlatish oqibatida oʻlim yuz bergan boʻlsa, qilmish jinoyatlar majmui boʻyicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Zoʻrlik ishlatish olib qochish vositasi boʻlib xizmat qilgan taqdir-dagina aybdorning harakatlari **JK 264-moddasi 2-qismi «b» bandi** bilan kvalifikatsiya qilinadi. Jinoyatchilar tomonidan zoʻrlik ishlatilmagan holda samolyotni egallab olish hamda olib qochish hollari yuz berishi, soʻngra ular yoʻlovchilarni oʻldirishi yoki ularning sogʻligʻiga shikast yetkazishi yoxud ularga qarshi boshqa jinoiy harakatlarni amalga oshirishi mumkin. Bunday harakatlar jinoyatlar majmui **JK 264-moddasi 1-qismida** nazarda tutilgan havo kemasini olib qochish va JK ning shaxsning hayoti va sogʻligʻiga qarshi tegishli jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

Zoʻrlik ishlatish bilan qoʻrqitish olib qochishga qarshilik qilgan shaxslarga ruhiy taʼsir oʻtkazish, ularni zoʻrlik ishlatish, samolyotni yoʻq qilib yuborish bilan, qurol yoki boshqa zarar yetkazuvchi moslamalar bilan

qo'rqitishni nazarda tutadi. Zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish nafaqat olib qochish yoki egallab olishga to'sqinlik qilayotganlarga, balki boshqa shaxslar, masalan, yo'lovchilarga nisbatan bo'lishi mumkin.

Qo'rqitishda jinoyatchi talablarini qondirishdan bosh tortilganida, uni shu zahoti amalga oshirish xavfi bo'lishi kerak. Kelajakda «hisob-kitob qilish» bilan qo'rqitish **JK 264-moddasi 2-qismi «b» bandida** nazarda tutilgan jinoyat sifatida e'tirof etilishi mumkin emas. Agar aybdor o'ldirish bilan qo'rqitgan bo'lsa, uning harakatlari jinoyatlar majmui bo'yicha JK 112-moddasi (o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish) va **JK 264-moddasi 2-qismi «b» bandiga** binoan kvalifikatsiya qilinishi lozim, chunki JK 264-moddasi 2-qismining «b» bandida o'ldirish bilan qo'rqitish nazarda tutilmagan.

Masalan, jinoyatchining garovga olinganlarni o'ldirish bilan qo'rqitib transport vositasi berish to'g'risidagi talabi transport vositasini egallab olish usuli bo'lishi mumkin. Ana shunday yo'l bilan olingan transport vositasi zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib egallab olingan, deb e'tirof etiladi va ushbu harakatlar **JK 264-moddasi 2-qismi «b» bandi** bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi. Keyinchalik uni olib qochish maqsadida transport vositasini berishini talab etib, odamlarni garovga olish JK 25-moddasi 1-qismi, **264-moddasi** va 245-moddasi (Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish)da nazarda tutilgan jinoyatlarga tayyorgarlik ko'rish sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

Zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish transport vositasini olib qochish yoxud uni egallab olish bilan yakunlangan bo'lishi kerak, aks holda jinoyat ko'rib chiqilayotgan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etishga tayyorgarlik ko'rish sifatida baholanishi lozim.

Temir yo'lning harakatlanadigan tarkibini yoki kemani olib qochish maqsadi bilan bog'liq bo'lmagan zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish JK 112-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibini tashkil etadi.

8-§. Xalqaro uchish qoidalarini buzish (JK 265-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekti** havoda harakatlanish, jumladan, xalqaro uchish xavfsizligidir.

NOTA BENE !

Xalqaro uchish – havo kemasining O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy davlat bilan havo chegaralarini kesib o‘tadigan parvozi. Xalqaro parvozlar muntazam (jadval bo‘yicha), qo‘shimcha, maxsus, charter (buyurtma) va bir marotabalik bo‘ladi.

Obyektiv tomondan jinoyat marshrutlar ruxsatnomasida ko‘rsatilgan uchish yo‘nalishiga, qo‘nish joylariga, havo darvozalariga, uchish balandligiga rioya qilmaslik yoki xalqaro uchish qoidalarini boshqacha tarzda buzishda ifodalanadi.

NOTA BENE !

Xalqaro uchish qoidalari – davlatning havo hududidan foydalanish qoidalari bo‘lib, ular xalqaro huquqiy hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi va havo transporti harakatining xavfsizligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Jinoyat qonunida xalqaro parvozlarni amalga oshirish qoidalarini buzishning, ayniqsa, ko‘p uchraydigan usullarining taxminiy ro‘yxati berilgan, xolos.

Uchish yo‘nalishi – bu davlatlar o‘rtasida kelishilgan va tegishli organ tomonidan belgilangan havo kemasi harakatining traektoriyasi bo‘lib, unda kema harakati traektoriyasiga xos bo‘lgan siljish yo‘nalishi, kema tezligi va boshqa elementlar ko‘rsatiladi.

NOTA BENE !

Qo‘nish joyi O‘zbekiston Respublikasi hududining (bunga O‘zbekistonning havo hududidan tashqari barcha hududlari kiradi) muayyan belgilangan qismi bo‘lib, unda O‘zbekistonning amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq havo kemalari qo‘nishiga ruxsat etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Havo kodeksiga binoan xalqaro parvozlarda milliy va xorijiy havo kemalarining qo‘nishi xalqaro parvozlarda uchun ochiq aerodromlarda amalga oshiriladi¹.

Havo darvozalari deganda, vakolatli organlar tomonidan, shuningdek, mansabdor shaxslar tomonidan belgilangan havo kemasi ko‘tarilishi hamda kelib qo‘nishi ruxsat etiladigan muayyan vaqt tushunilishi lozim.

Shunday qilib, **xalqaro uchish qoidalarini buzish** muddati o‘tgan ruxsatnoma bilan uchishdan; O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasini o‘zbekiston tomonga ham, xorijiy davlat tomonga ham qonunga xilof kesib o‘tish; parvoz yo‘laklariga rioya etmaslik; uzoq bilan bog‘lovchi aloqa vositalarini uzib qo‘yish; tanib olish signallarini bermaslik; xalqaro parvozlarda uchun ochiq bo‘lmagan aeroportlarga qo‘nish yoki bunday aeroportlardan parvoz qilish va boshqa shunga o‘xshash harakatlardan iboratdir.

Qoidabuzarning harakatlarida **JK 265-moddasida** nazarda tutilgan jinoyat tarkibi mavjudligi to‘g‘risidagi masalani hal qilish uchun xalqaro uchish qoidalarini belgilovchi normativ hujjatlarga murojaat qilish kerak.

Xalqaro parvozlarni amalga oshirish qoidalari quyidagi hujjatlarda belgilangan:

- 1) Havo kodeksiga asoslangan havo kemalaridan foydalanish va parvozlarni bajarishni tartibga soluvchi umumiy qoidalarda;
- 2) havo hududidan foydalanish to‘g‘risidagi Nizomda;
- 3) parvozni amalga oshirishga oid maxsus ruxsatnoma yoki xalqaro shartnomada².

Xalqaro parvozlarni amalga oshirish qoidalari Fuqaro aviatsiyasi xalqaro tashkiloti (IKAO) tomonidan tasdiqlangan bunday parvozlarni amalga oshirishning xalqaro standartlarida belgilanadi³.

Ko‘rsatilgan qoidalar havo orqali aloqa xavfsizligi va davlat chegaralarining daxlsizligini ta‘minlashga qaratilgan. Ularning buzilishi muayyan sharoitda ko‘rib chiqilayotgan jinoyatning «xalqaro uchish

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Ҳаво кодекси, 76-модда, 2-қисм.

²Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Ҳаво кодекси, 74–76-моддалар, 2-қисм.

³Қаранг: 1944 йил 7 декабрдаги Халқаро фуқаролик авиацияси тўғрисидаги Конвенцияга 2-илова (Ўзбекистон Республикаси мазкур Конвенцияга 1992 йил 3 июлда қўшилган).

qoidalarini boshqacha tarzda buzish» belgisi bo'yicha tarkibini hosil qilishi mumkin.

Xalqaro uchish qoidalarini boshqacha tarzda buzish: muddati o'tib ketgan ruxsatnoma bilan o'zbekiston hududidan uchib ketish yoki O'zbekiston hududiga kirib kelishdan; ruxsatnomada nazarda tutilgandan boshqacha turdagi kemada uchib ketish yoki kirib kelishdan; yerga yuk va parashyutchilarni tashlashdan; O'zbekiston hududida xalqaro shartnoma va maxsus ruxsatnomada nazarda tutilmagan yo'lovchilar, yuk, bagaj va pochtani qabul qilishdan; davlat chegarasini radioaloqasiz kesib o'tish va h.k. harakatlarda ifodalanishi mumkin.

Boshqa qoidalar (yo'lovchilarni xalqaro tashish tariflari, chipta sotish, yuk xatlarini berish qoidalari va h.k.)ga rioya qilmaslik mazkur jinoyat tarkibini tashkil qilmaydi. Muayyan sharoitda ular ma'muriy javobgarlikka sabab bo'lishi mumkin.

Parvozni amalga oshirayotgan shaxslar yuqorida nomi zikr etilgan hujjatlarda belgilangan xalqaro parvozlarni amalga oshirish qoidalari va shartlarini bilishlari shart. Ushbu qoida va shartlarning buzilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar tergov va sudga topshirilishi lozim; zaruriyat bo'lganida ekspertiza o'tkaziladi.

Mazkur jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun xalqaro uchish qoidalarini buzgan havo kemasining turi ahamiyatga ega emas, bu samolyot, vertolyot, dirijabl va boshqa uchish vositalari bo'lishi mumkin.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyat xalqaro uchish qoidalari buzilgan vaqtdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

Xalqaro uchish qoidalari majburan, masalan, mo'ljaldan adashish, texnik nosozlik, yaxshi ko'ra olmaslik, turli to'siqlar ta'siri, yaradorlar va kasallarni yetkazish oqibatida buzilgan bo'lsa, bu harakatda jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydi.

Subyektiv tomondan ko'rib chiqilayotgan jinoyat **qasddan** yoki **ehtiyotsizlik** orqasida sodir etilishi mumkin.

Qilmishni kvalifikatsiya qilish uchun uning **motivi** va **maqsadi** ahamiyatga ega emas.

16 yoshga to'lgan, havo kemasi ekipaji a'zosi va xalqaro uchish qoidalariga rioya qilinishi uchun mas'ul bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, fuqaroligi bo'lmagan shaxs yoki xorijiy davlat fuqarosi ko'rib chiqilayotgan jinoyatning **subyekt** bo'lishi mumkin. Agar mazkur subyekt majburan harakat qilgan (masalan, kema olib qochilishi yoki egallab olinishi oqibatida) bo'lsa, u javobgarlikka tortilmaydi.

Xalqaro uchish qoidalarini buzgan havo kemasining bortida bo'lgan yo'lovchilar bu jinoyat uchun javobgar bo'lishlari mumkin emas. Muayyan sharoitda ular JK 223-moddasi (Qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish)ga binoan ayblanishi mumkin.

Xalqaro uchish qoidalari buzilgan va O'zbekiston Respublikasiga qonunga xilof ravishda kirilgan hollarda aybdorning harakatlari jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Agar xalqaro uchish qoidalarini buzish havo kemasini olib qochish bilan bog'liq bo'lsa, aybdorning harakatlari jinoyatlar majmui bo'yicha JK 264-moddasi va **JK 265-moddasiga** binoan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

9-§. Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish (JK 266-moddasi)

Jinoyatning **asosiy bevosita obyekti** yo'l harakati va transport vositalaridan foydalanish xavfsizligidir. **Qo'shimcha bevosita obyekt** – fuqarolarning hayoti va sog'lig'i hisoblanadi.

NOTA BENE !

Yo'l harakati deganda, odamlar va yuklarning transport vositalari yordamida yoki bunday vositalarsiz yo'llar doirasida harakatlanishi jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlar majmuini tushunish lozim.

U harakati muayyan qoidalarga bo'ysunadigan piyodalar, haydovchilar, yo'lovchilar va transport vositalarini o'z ichiga oluvchi ijtimoiy-texnik tizimdir. Harakat, asosan, yo'llarda va ba'zan yo'lsizlik sharoitida (ko'chada, temir yo'llarni kesib o'tish joylarida, qurilish maydonchalarida,

korxonalarining ishlab chiqarish zonalarida, hovlilarda, dalada va sh.k.) amalga oshiriladi.

NOTA BENE !

Harakat xavfsizligi deganda, faqat yo‘l harakati xavfsizligi, ya’ni yo‘l harakati ishtirokchilarining yo‘l-transport hodisalari va ularning oqibatlaridan himoyalanganlik darajasini aks ettiruvchi yo‘l harakati holati tushuniladi¹.

NOTA BENE !

Foydalanish xavfsizligi – transport vositalaridan yo‘l harakati ishtirokchilarining yo‘l-transport hodisalari va ularning oqibatlaridan himoyalanganligini ta’minlaydigan tarzda foydalanish.

Jinoyatning **predmeti** har qanday transport vositalari – har qanday avtomobillar (yuk, yo‘lovchi tashiydigan, yengil avtomobillar, sport avtomobillari va h.k.), tramvaylar, trolleybuslar, traktorlar va boshqa mexanik transport vositalari bo‘lishi mumkin.

(Mazkur predmet haqida batafsilroq JK 261-moddasi tahliliga qarang.)

Mexanik transport vositalari o‘zi yura oladigan, ya’ni mustaqil dvigatelga ega bo‘lishi lozim. Agar mashina dvigateli ishdan chiqqan bo‘lsa va u qo‘l yordamida (itarib) siljitsa, ko‘rib chiqilayotgan jinoyat predmeti mavjud emas, amalda sodir etilgan qilmish muayyan sharoitda transportning xavfsiz ishlashini ta’minlashga doir qoidalarni buzish (JK 268-moddasi) sifatida baholanishi mumkin. Biroq ana shunday mashina boshqa transport vositasi tomonidan tortib ketilayotgan bo‘lsa, tortib ketilayotgan transport vositasi haydovchisining belgilangan qoidalarni buzishi **JK 266-moddasida** nazarda tutilgan jinoyat tarkibi belgilariga mos keladi.

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 2013 йил 10 апрелдаги «Йўл ҳаракати хавфсизлиги тўғрисида»ги Қонуни (янги таҳрири), 3-модда.

Aybdor harakatlarini kvalifikatsiya qilish uchun transport vositasi foydalanishdagi yoki o'quv mashinasi ekanligi ahamiyatga ega emas, chunki har qanday holda u oshiqcha xavf manbai bo'lib qoladi.

JK 266-moddasida nazarda tutilgan jinoyat **obyektiv tomondan** transport vositasini boshqaruvchi shaxs tomonidan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarining buzilishi va buning oqibatida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishida ifodalanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishiga ko'ra, «transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini jinoiy tarzda buzish deganda, bunday harakatlarni bevosita harakatlanayotgan transport vositasida yo'llarda, ko'chalarda, temir yo'llarni kesib o'tish joylarida sodir etish tushuniladi. Agar transport vositasi yordamida ishlab chiqarish jarayonida, jumladan, transportni yuklash – yuk tushirish, transport vositalarini ta'mirlash, qurilish, qishloq xo'jalik va boshqa turdagi ishlarni bajarish chog'ida xavfsizlik texnikasi qoidalari yoki mehnatni muhofaza qilishning boshqa qoidalari buzilishi natijasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish, odam o'limi yoki boshqa og'ir oqibatlar bilan bog'liq baxtsiz hodisalar yuz bergan bo'lsa, aybdorning harakatlari JK 257-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi, agar shaxsning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga tajovuz qilingan bo'lsa, bunday harakatlar tegishli ravishda inson hayoti va sog'lig'iga yoki uning mol-mulkiga qarshi jinoyatlar sifatida tavsiflanadi»¹.

JK 266-moddasi blanket dispozitsiyalidir. Yo'l xavfsizligi talablari O'zbekiston Respublikasining «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida»gi 1999 yil 19 avgustdagi 818-I-sonli Qonuni (Yangi tahrirda) hamda harakat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini belgilovchi asosiy normativ hujjat – Yo'l harakati qoidalari bilan belgilangan².

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2015 йил 26 июндаги «Транспорт ҳаракати ва ундан фойдаланиш хавфсизлигига қарши жиноятлар билан боғлиқ ишлар юзасидан суд амалиётининг айрим масалалари тўғрисида»ги 10-сонли қарори, 24-банд.

²Ушбу хулоса юқорида кўрсатилган Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми таҳлилидан келиб чиқади

Shaxsni ko‘rib chiqilayotgan modda bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortish uchun har bir muayyan holda u tomonidan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqargan qoidaning u yoki bu bandi buzilganligi aniqlanishi lozim. Tergov organlari shaxsni ishda ayblanuvchi sifatida ishtirok etishga jalb qilish to‘g‘risidagi qarorda, ayblov xulosasida, sudlar esa o‘z hukmida Yo‘l harakati qoidalarining bandlari buzilganiga ishora qilish bilangina cheklanmasliklari, balki bunday qoidabuzarliklar nimadan iborat ekanligini aniq ko‘rsatishlari lozim (masalan, transport vositasini mast holda boshqarish, tezlikni oshirish va h.k.).

NOTA BENE !

Foydalanish qoidalarini buzish, masalan, qo‘pol yuklarni tashish, avtomashinani lozim bo‘lmagan joyga qo‘yish, transport vositasini boshqarishni bunday huquqqa ega bo‘lmagan shaxsga topshirish, mashinani bo‘sh trosda shatakka olish, jihozlanmagan transport mashinasida yo‘lovchi tashishda ifodalanishi mumkin.

Umumiy ehtiyot choralарining buzilishi natijasida yuzaga kelgan, zararli oqibatlar keltirib chiqargan haydovchining noto‘g‘ri harakatlari foydalanish qoidalarini buzish deb e‘tirof etilmaydi. Bunday hollarda aybdorning harakatlari muayyan ishlarni amalga oshirish, xavfsizlik texnikasi, mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish sifatida yoki hayot va sog‘liqqa qarshi jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Masalan, mashinaga benzin quyishda haydovchining ehtiyotsizligi tufayli benzin dvigatel ustiga to‘kiladi va boshqaruv vaqtida, elektr o‘t oldirish tizimi buzuqligi natijasida uchqundan avtomashina alanga ichida qoladi va yo‘lovchi halok bo‘ladi. Bu holda qilmish JK 102-moddasiga binoan ehtiyotsizlik orqasida odam o‘ldirish sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Agar shaxs ixtisoslashgan transport vositasi (avtokran, ekskavator va h.k.)da ishlay turib, mashinadan o‘zga, transportga xos bo‘lmagan maqsadda foydalanganida zarar yetkazgan, masalan, avtokranda elektr

liniyasi ostida yuk tushirish ishlarini belgilanganidan yaqinroq masofada amalga oshirib, natijada ishchilardan biri elektr tokidan halok bo'lgan holda ham **JK 266-moddasida** nazarda tutilgan jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydi.

Bunday xavfsizlik texnikasini buzish hollari mashina yurib ketayotganida ham yuz berishi mumkin, masalan, avtokran haydovchisi ilgakka ilingan yukni bir joydan boshqa joyga ko'chirayotganda uni silkitib yuboradi va ishchining badaniga og'ir shikast yetkazadi. Bunda harakat xavfsizligi va foydalanish xavfsizligi qoidalari buzilmagani sababli **JK 266-moddasi** bo'yicha javobgarlik mavjud bo'lmaydi, aybdorning harakatlari JK 257-moddasi (Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish) deb kvalifikatsiya qilinadi.

Agar transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish sodir etilmagan, lekin badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish sifatidagi oqibatlar yuz bergan bo'lsa, bu baxtsiz hodisa sifatida e'tirof etilishi lozim.

Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish qonunda belgilangan oqibatlar: badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish yuz bergan vaqtdan e'tiboran **tugallangan** deb e'tirof etiladi (JK 266-moddasi 1-qismi).

Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzgan shaxs yetkazilgan zararli oqibatlar uchun qilmish va ro'y bergan oqibatlar o'rtasida sababiy bog'lanish mavjud bo'lgan holdagina javobgar bo'ladi. Qoida umuman buzilmagan taqdirda bunday bog'lanish mavjud bo'lmaydi (masalan, piyoda o'z ehtiyotsizligi tufayli avtomashinaning orqa g'ildiragi ostiga tushib qoladi yoki o'zini o'zi o'ldirish maqsadida ataylab o'zini mashina tagiga tashlaydi). Harakatlanayotgan transport bilan jabrlangan shaxs o'rtasida jismoniy bog'liqlik mavjudligi ko'rib chiqilayotgan jinoyatlar o'rtasida sababiy bog'lanish mavjudligidan dalolat bermaydi.

Sababiy bog'lanish jismoniy bog'liqlik umuman ro'y bermagan hollarda ham mavjud bo'lishi mumkin. Haydovchi o'zining noto'g'ri harakatlari bilan to'g'ri harakatlanishga xalaqit berishi natijasida

harakatning boshqa ishtirokchilari uchinchi shaxslarga zarar yetkazishga majbur bo'lganida u yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi. Masalan, qarama-qarshi yo'nalish qatoriga chiqib olgan haydovchi ro'paradan kelayotgan transport haydovchisi uchun to'siq paydo qiladi, u to'qnashishning oldini olish yoki to'xtash imkoniyatiga ega bo'lmay, yo'l chetidagi piyodani urib yuboradi. Bunda birinchi haydovchi ro'y bergan oqibatlar uchun javob berishi lozim. Bu holda ikkinchi haydovchining harakatlari oxirgi zarurat qoidalariga ko'ra yoki aybsiz holda zarar yetkazish sifatida baholanadi.

Ba'zan haydovchining zararli oqibatlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan harakatlari harakatning boshqa ishtirokchilari qoidabuzarligiga bog'liq bo'lishiga qaramay, ro'y bergan oqibatlarning sababi bo'lishi mumkin. Yo'l harakati qoidalarida, xususan, qoidabuzarliklarning oldini olish talablari mavjud. Masalan, qoidalarda boshqa shaxslar tomonidan yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklar natijasida to'siqlar paydo bo'lsa, haydovchining qanday ish tutishi kerakligi ko'rsatilgan. Bu talablar buzilgan bo'lsa, aybdor yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi. Masalan, qarama-qarshi transport vositasi chirog'idan ko'zi qamashib, piyodani urib yuborgan haydovchi **JK 266-moddasi** bo'yicha javobgarlikka tortilishi kerak.

Sababiy bog'lanishning mavjudligi to'g'risidagi masalani hal qilishda haydovchida zararli oqibat ro'y berishini oldini olishning texnik imkoniyati mavjud yoki mavjud bo'lmagani aniqlanadi. Bunday imkoniyat bo'lmagan va xavfli vaziyatni u emas, balki harakatning boshqa ishtirokchilari keltirib chiqargani aniqlangan bo'lsa, JK 266-moddasi bo'yicha javobgarlik istisno etiladi. Haydovchi ko'zi qamashib piyodani urib yuborgan holda uning harakatlari, agar u mashinani to'xtatish yoki chetga burib yuborish texnik imkoniyatiga ega bo'lmagan bo'lsa, yuz bergan oqibatlarning sababi hisoblanmaydi. Agar xavfli vaziyatni uning o'zi keltirib chiqargan (oshiqcha tezlik bilan, taqiqlovchi belgiga qaramay harakatlangan) bo'lsa, zararli oqibatlarning oldini olish uchun texnik imkoniyat mavjud bo'lmagani yuridik ahamiyatga ega emas.

Ko‘rib chiqilayotgan jinoyat **subyektiv tomondan** yuz bergan oqibatlarga nisbatan aybning **ehtiyotsizlik** shakli bilan tavsiflanadi. Shaxs transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buza turib, bu inson sog‘lig‘iga og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazishi mumkinligini anglaydi, biroq ularning oldini olishiga asossiz ravishda ishonadi (**o‘z-o‘ziga ishonish**); transport vositasini boshqarayotgan shaxs transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzgan ekan, qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar kelib chiqishi mumkinligiga ko‘zi yetmagan, lekin ko‘zi yetishi lozim va mumkin bo‘lgan (**jinoiy beparvolik**). Bunda transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarining o‘zi qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida buzilishi mumkin.

Qasddan zarar yetkazish (masalan, o‘ch olish maqsadida piyodani urib yuborish) shaxsga qarshi jinoyatni tashkil etadi. Agar aybdor transport vositasidan foydalanib jamoat tartibini buzgan bo‘lsa, qilmish qo‘shimcha tarzda bezorilik sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Jinoyatning **motivi** va **maqsadi** qilmishni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas.

Transport vositasini boshqarayotgan va 16 yoshga to‘lgan aqli raso jismoniy shaxs jinoyat **subyektiv** bo‘lishi mumkin. Bunda u transport vositasini o‘zboshimchalik bilan yoki birovning ruxsati bilan boshqargani, unda transport vositasini boshqarish huquqini beradigan guvohnoma bor-yo‘qligi ahamiyatga ega emas¹. Ammo bu holda transportni boshqarishni boshqa shaxslarga berilishiga yo‘lqo‘ygan avtomashina egalari javobgarlikka tortilishi kerak².

Harbiy xizmatchilar ham basharti, ular noharbiy transport vositasi harakati yoki undan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzgan bo‘lsalar, jinoyat subyektiv sifatida e‘tirof etilishi lozim, aks holda ularning

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2015 йил 26 июндаги «Транспорт ҳаракати ва ундан фойдаланиш хавфсизлигига қарши жиноятлар билан боғлиқ ишлар юзасидан суд амалиётининг айрим масалалари тўғрисида»ги 10-сонли қарори.

² Ўша жойда.

harakatlari JK 298-moddasi (Mashinalarni boshqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish) bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim¹.

Sud-tergov amaliyotida haydovchi-instruktor va shogird tomonidan transport vositasi harakati yoki undan foydalanish xavfsizligi qoidalari buzilishi natijasida zararli oqibatlar kelib chiqqan hollarni kvalifikatsiya qilishda muayyan qiyinchiliklar tug'iladi. Umumiy qoidaga binoan amaliyot chog'ida ikki tomonlama boshqariladigan avtomobilda shogird tomonidan sodir etilgan avariya uchun instruktor javobgar bo'ladi. Agar jinoyat shogird tomonidan u instruktor ko'rsatmalarini ongli tarzda bajarmagani va maxsus qoidalarni qhpol ravishda buzgani natijasida sodir etilgani aniqlansa, **JK 266-moddasiga** binoan shogird javobgar bo'ladi.

Jabrlanuvchiga yo'l-transport hodisasi oqibatida hayot uchun xavfli bo'lmagan yengil tan jarohati yetkazilgan yoki u bevosita yo'l-transport hodisasi vaqtida halok bo'lgan yoki aybdor unga yordam berishi shart bo'lgani holda, uning o'zining hayoti yoki sog'lig'i uchun xavf tug'ilgan bo'lsa, ya'ni u yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lmasa, JK 117-moddasida nazarda tutilgan javobgarlik kelib chiqmaydi².

Transport vositasi harakati yoki undan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish, agar u odam o'limiga olib kelgan bo'lsa, aybdor **JK 266-moddasi 2-qismiga** binoan javobgarlikka tortiladi.

Transport vositasi harakati yoki undan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish:

a) odamlar o'limiga;

b) halokatga;

v) boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lgan hollarda jinoyat **JK 266-moddasi 3-qismiga** binoan kvalifikatsiya qilinadi.

JK 266-moddasi 3-qismi «b» bandida nazarda tutilgan **halokat** deganda, atrof muhit, odamlar hayoti va sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan, odamlar halok bo'lishiga sabab bo'lgan temir yo'l, dengiz, daryo, havo, shuningdek, jamoat transporti (avtobus, trolleybus va h.k.) avariyasi tushuniladi³.

¹Ўша жойда.

²Ўша жойда.

³Ўша жойда.

Boshqa og'ir oqibatlar deganda, yo'l-transport hodisasi natijasida odam o'lishi bilan birga yana bir necha kishiga og'ir tan jarohati yetkazilishi, poezd, kema yoki samolyotlarning uzoq muddatga ishdan chiqishi, tashilayotgan yuklarga juda ko'p miqdorda ziyon yetkazilishi, atrofdagi turar joy binolari va boshqa inshootlarning buzilishi (portlashi, yonib ketishi, qulashi), shuningdek, ular bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p miqdorda ziyon yetkazilishi tushuniladi. (Sudlar muayyan ish holatlaridan kelib chiqib, jinoiy natijaga og'ir oqibatlarga olib kelgan deb huquqiy baho berishi mumkin, bunda o'z xulosalarini hukmda asoslantirish talab etiladi)¹.

Shuni e'tiborga olish lozimki, JK bir moddasi turli qismlarida nazarda tutilgan, transport vositasi harakati yoki undan foydalanish xavfsizligi qoidalarining buzilishi natijasida sodir etilgan jinoyat belgilari mavjud bo'lgan taqdirda, aybdorning qilmishi JK 33-moddasining og'irroq jazoni belgilovchi qismi talablariga muvofiq kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Shu bilan bir vaqtda, jinoyat muayyan modda dispozitsiyasida ko'rsatilgan oqibatlar ro'y berganida **tugallangan** deb e'tirof etilishini hisobga olib, turli vaqtda sodir etilgan transport hodisalari alohida-alohida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Transport vositasi harakati yoki undan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzgan, bu hodisa natijasida hayoti xavf ostida qolgan va o'zini o'zi asrash choralari ko'rish imkoniyatidan mahrum bo'lgan jabrlanuvchiga yordam ko'rsatmagan shaxsning harakatlari jinoyatlar majmui bo'yicha JK 117-moddasining tegishli qismiga binoan kvalifikatsiya qilinishi lozim².

Agar shaxs transport vositasi harakati yoki undan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzmagani, lekin jabrlanuvchining hayotini xavf ostida qoldirgan, o'zining haydovchilik vazifalarini bajarmagan va hodisa yuz bergan joyni tark etgan yoki hodisa yuz bergan joyda bo'lgan boshqa shaxslar hayoti xavf ostida qolgan va o'zini o'zi asrash choralari ko'rish

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2015 йил 26 июндаги «Транспорт ҳаракати ва ундан фойдаланиш хавфсизлигига қарши жиноятлар билан боғлиқ ишлар юзасидан суд амалиётининг айрим масалалари тўғрисида»ги 10-сонли қарори, 11-банд.

² Ўша жойда.

imkoniyatidan mahrum bo‘lgan jabrlanuvchiga yordam ko‘rsatishiga umid qilib, unga yordam ko‘rsatmasdan jo‘nab ketgan bo‘lsa, bu holatlar uni JK 117-moddasi (Xavf ostida qoldirish)da nazarda tutilgan javobgarlik va jazodan ozod qilish uchun asos bo‘lmaydi.

Transport vositasi harakati yoki undan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzishni harbiy mashinalarni boshqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzishdan farqlash lozim.

Harbiy-maishiy, maxsus yoki transport mashinasini boshqarish yoki undan foydalanish qoidalari harbiy xizmatchi tomonidan buzilgan taqdirda, qilmish JK 298-moddasiga binoan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Agar harbiy xizmatchi noharbiy transport vositasi harakati yoki undan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzgan bo‘lsa yoki yo‘l-transport hodisasi harbiy bo‘lmagan shaxsning harbiy mashinani boshqarish chog‘ida yo‘l harakati qoidalarini buzishi natijasida yuz bergan bo‘lsa, bu qilmish JK 266-moddasiga binoan kvalifikatsiya qilinishi lozim¹.

10-§. Transport vositasini olib qochish (JK 267-moddasi)

Jinoyatning **asosiy bevosita obyekt** mexanik transport vositalarining yo‘l harakati qoidalari sohasidagi harakat xavfsizligidir. **Qo‘shimcha bevosita obyekt** sifatida o‘zganing mulki, shuningdek, transport vositasini olib qochish chog‘ida zo‘rlik ishlatilgan yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitilgan fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘i xavfsizligini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

JK 264-moddasida nazarda tutilgan transport vositalaridan tashqari, barcha transport vositalari jinoyat **predmeti** hisoblanadi.

(Mazkur jinoyatning predmeti haqida batafsilroq JK 261-moddasining tahliliga qarang.)

JK 267-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** transport vositasini olib qochishdan iborat.

¹ *Қаранг:* Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2015 йил 26 июндаги «Транспорт ҳаракати ва ундан фойдаланиш хавфсизлигига қарши жиноятлар билан боғлиқ ишлар юзасидан суд амалиётининг айрим масалалари тўғрисида»ги 10-сонли қарори, 20-банд.

NOTA BENE !

Olib qochish transport vositasini qonunga xilof ravishda egallab olish, ya'ni o'qirlash maqsadisiz qo'lga kiritish va boshqa joyga yetkazishdir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorida transport vositalarini **haydab qochish** deganda, o'ziga tegishli bo'lmagan transport vositasini o'zlashtirish maqsadisiz uni turgan joyidan boshqa joyga olib qochishni tushunish kerakligi qayd etiladi¹.

Qonunga xiloflik shaxsning transport vositasidan foydalanish, unga egalik qilish va uni tasarruf etishga oid hech qanday vakolati yo'qligidan dalolat beradi. Olib qochishga transport vositasiga qonunga xilof ravishda egallash xos bo'lib, bunda undan mas'ul bo'lmagan subyektlarning foydalanishi imkoniyati tug'iladi.

Egallab olish yashirin yoki ochiqdan-ochiq bo'lishi mumkin. Jinoyatni kvalifikatsiya qilishda egallab olish usuli ahamiyatga ega emas. Olib qochish tushunchasi xususiyati va energiya manbaidan qat'i nazar, transportda yurishni, uni bir joydan boshqa joyga ko'chirishni ham qamrab oladi.

Transport vositalarini olib qochish transport vositasi har qanday usulda (avtomobilni bevosita boshqarish, itarish, shatakka olish yo'li bilan va h.k.) harakatga keltirilgan paytdan e'tiboran **tugallangan** jinoyat deb e'tirof etiladi. Bunda avtomobilni bir joydan boshqa joyga ko'chirish uchun sarflangan vaqt hamda aybdor transport vositasini ko'chirib ulgurgan masofa jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas.

Ayrim harakatlar, masalan, shaxs transport vositasining kabinasiga kirishi, dvigatelni yurg'izishga harakat qilishi transport vositasini olib qochishga qasd qilish sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan amalga oshiriladi. Aybdor avtomobil yoki boshqa transport vositasini qonunga xilof ravishda

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 20 декабрдаги «Транспорт воситаларини олиб қочиш ишлари бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 37-сонли қарори, 1-банд.

egallab olayotganini anglaydi, buning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetadi va uning yuz berishini istaydi.

Transport vositalarini olib qochish bilan bog'liq qilmishlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun jinoyat motivlari va maqsadlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Sudlar bunday jinoyatlarga doir ishlarni ko'rayotib, har bir muayyan holda olib qochish nima maqsadda amalga oshirilganini aniqlashlari lozim. Agar transport vositasini o'g'irlash maqsadi borligi isbotlansa, aybdor shaxsning harakatlari JKning 267-moddasining tegishli qismlariga ko'ra kvalifikatsiya qilinadi. Bunday holatlarda qilmish JKning 164, 166, 169-moddalari majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilish talab etilmaydi.

Transport vositasini olib qochishni uni o'qirlashdan farqlashda bir qancha holatlarni hisobga olish lozim.

Jumladan, transport vositasi olib qochilganda, undan foydalanish imkoniyati bo'la turib, transport vositasi tashlab ketilgani va boshqa shunga o'xshash holatlar uni o'qirlash maqsadi mavjud bo'lmaganidan dalolat beruvchi holatlar deb e'tirof etilishi lozim.

Transport vositasini o'qirlash maqsadi mavjud bo'lganidan quyidagi holatlar darak berishi mumkin: transport vositasining tashqi ko'rinishini o'zgartirish (ustidan bo'yash, raqamini o'zgartirish, qaytadan kuzov qildirish va boshqa o'zgartirishlar), foydalanishga oid qalbaki hujjatlar tayyorlash; transport vositasini sotib yuborish; ba'zi qismlarini sotish, uzoq vaqt foydalanish va h.k.

14 yoshga to'lgan, transport vositasiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish vakolatlariga ega bo'lmagan har qanday aqli raso jismoniy shaxs transport vositasini olib qochishning **subyekt**i bo'lishi mumkin.

JKning 267-moddasi 2-qismida transport vositasini olib qochganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan:

- a) takroran yoki xavfli retsdivist tomonidan;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib;

g) transport vositasini talon-toraj qilish maqsadida o'g'rilik yoki talonchilik yo'li bilan sodir etilgan bo'lsa.

JKning 267-moddasi 3-qismida transport vositasini olib qochganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan:

a) o'ta xavfli retsividivist tomonidan;

b) uyushgan guruh tomonidan;

v) transport vositasini talon-toraj qilish maqsadida bosqinchilik yo'li bilan sodir etilgan bo'lsa.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qaroriga ko'ra, «**uyushgan guruh**» deganda, transport vositalarini olib qochish yoki boshqa jinoyatlarni sodir etish maqsadida ikki yoki undan ko'p shaxslarning barqaror birlashmasi tushunilishi kerak.

Jumladan, jinoiy faoliyatning oldindan rejalashtirilganligi, jinoiy qasdni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vositalarning tayyorlanishi, ishtirokchilarni tanlash, yollash va ular o'rtasida vazifalarning taqsimlanishi, jinoyatni yashirish choralari ta'minlash, guruhda o'rnatilgan intizomga va tashkilotchining ko'rsatmalariga bo'ysunishlik jinoiy guruhning uyushganligidan dalolat beradi.

Ayblov xulosasida va sud hukmida aynan qanday asoslarga ko'ra jinoiy guruh uyushgan deb topilganligi ko'rsatilgan bo'lishi shart.

Uyushgan guruh tarkibida transport vositasini olib qochishda qatnashgan shaxslarning harakatlari, ularning har birining roolidan qat'i nazar, ishtirokchilik deb topilishi lozim».

JK 267-moddasi 2-qismi «v» bandi ma'nosiga ko'ra, **zo'rlik ishlatish** deganda, jabrlanuvchiga har qanday og'irlikda tan jarohati yetkazishni tushunish lozim. Bunda aybdor shaxsning harakatlari shaxsga qarshi tegishli jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan moddalarga binoan qo'shimcha kvalifikatsiya qilishni talab etmaydi.

Zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish deganda, jabrlanuvchiga har qanday og'irlikda tan jarohati yetkazish bilan qo'rqitishni tushunish lozim. Bunda ham qilmishni jinoyatlar majmui bo'yicha JK 112-moddasi (o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish)ga binoan kvalifikatsiya qilish talab etilmaydi.

11-§. Transportning xavfsiz ishlashini ta'minlashga doir qoidalarni buzish (JK 268-moddasi)

Jinoyatning **asosiy bevosita obyekti** temir yo‘l, suv, havo transporti, avtomototransport va shahar elektrotransportining xavfsiz ishlashini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir. Mazkur jinoyatning **qo‘shimcha bevosita obyekti** – fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘i, ularning mol-mulki xavfsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

JK 268-moddasida nazarda tutilgan jinoyat **obyektiv tomondan** JK 261–263-, 265- va 266-moddalarida belgilangan shaxslardan tashqari yo‘lovchilar, piyodalar, velosiped haydovchilari, ot-ulov transporti haydovchilari yoki boshqa turdagi harakat qatnashchilari tomonidan barcha turdagi transport vositalari harakati yoki foydalanish xavfsizligining buzilishi natijasida badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazishdan iborat.

Transportning xavfsiz ishlashini ta'minlashga doir qoidalarga transport vositalarini boshqaruvchi shaxslargina emas, balki yo‘l harakatining boshqa ishtirokchilari ham rioya qilishlari lozim.

JK 268-moddasi blanket dispozitsiyali bo‘lib, jinoyat belgilarini aniqlash uchun transport vositalari harakati yoki shu transport vositalaridan foydalanish joylarida (261–263-, 265- va 266-moddalarida belgilangan shaxslardan tashqari) yo‘lovchilar, piyodalar, harakatning boshqa qatnashchilari harakati qoidalarini belgilovchi maxsus qoidalarga murojaat qilish zarur. Ushbu qoidalar temir yo‘l, suv, avtomobil yoki boshqa turdagi transport vositalarining (quvur yo‘li transportidan tashqari) idoraviy normativ hujjatlarida berilgan.

Xavfsizlik qoidalarining buzilishi harakat qatnashchilariga taqdim etiladigan transport vositalarining harakati va foydalanish xavfsizligini ta'minlovchi talablar bajarilmaganidan dalolat beradi.

NOTA BENE !

JK 268-moddasiga ko‘ra, harakat xavfsizligi yoki barcha turdagi transportdan foydalanish qoidalarining buzilishi temir yo‘l yoki boshqa

yo'llarni belgilanmagan joylarda kesib o'tish, taqiqlovchi signallar ostida yo'lovchining o'zboshimchalik bilan aerodromning uchuv-qo'nuv maydoniga chiqishi, stop-kranni yulib olish va shu tariqa temir yo'lining harakatlanadigan tarkibini to'xtatish, transportda o'zgaralar uchun kirish taqiqlangan joylarga (masalan, pilot kabinasiga) kirishda ifodalanishi mumkin.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyatning aniq ko'rinishlari turlicha bo'lishi mumkin, shu tufayli ularning to'liq ro'yxatini berishning iloji yo'q. Qonunda belgilangan qoidalar ko'pincha yo'llarni belgilanmagan joylarda kesib o'tuvchi, harakatlanayotgan transportga yaqin bo'lgan joylarda birdaniga paydo bo'luvchi piyodalar tomonidan buziladi.

Transportning xavfsiz ishlashini ta'minlashga doir qoidalarni buzishga doir jinoyat ishlarini ko'rib chiqish va tergov qilishda aybdor tomonidan aynan qanday qoidalar buzilganini va bu nimada ifodalanganini aniqlash lozim.

JK 268-moddasida nazarda tutilgan jinoyat qonunda ko'rsatilgan badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish sifatidagi oqibatlar yuz bergan vaqtdan e'tiboran **tugallangan** deb e'tirof etiladi (1-qism).

Yo'lovchi, piyoda, velosipedchi, aravani boshqaruvchi shaxs tomonidan har qanday turdagi transport harakati yoki undan foydalanish xavfsizligining buzilishi bilan ijtimoiy xavfli oqibatlarning yuz berishi o'rtasida sababiy bog'lanish mavjudligi jinoyat obyektiv tomonining muqarrar belgisidir.

Subyektiv tomondan jinoyat **ehtiyotsizlik orqasida** sodir etiladi yoki **aybning murakkab shakli** bilan tavsiflanadi. Shaxs transport vositalari harakati va ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarining buzilishi natijasida ijtimoiy xavfli oqibatlar kelib chiqishi mumkinligini anglaydi, biroq ularning oldini olishiga asossiz ravishda ishonadi (**o'z-o'ziga ishonish**) yoki o'z harakatlari (harakatsizligi) natijasida ijtimoiy xavfli oqibatlar kelib chiqishi mumkinligiga ko'zi yetmasa-da, lekin ko'zi yetishi lozim va mumkin bo'ladi (**jinoiy beparvolik**).

Transportning xavfsiz ishlashini ta'minlashga doir qoidalar **qasddan** yoki **ehtiyotsizlik orqasida** buzilishi mumkin.

Transportning xavfsiz ishlashini ta'minlashga doir qoidalarni buzishning **subyekti**, ushbu modda dispozitsiyasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilganidek, maxsus subyektdir. Mazkur jinoyatning subyekti, JK 261–263-, 265- yoki 266-moddalarida javobgarlik nazarda tutilgan shaxslardan tashqari, piyodalar, arava haydovchilari, velosipedchilar, tirkamali aravachalar, chana, bolalar va nogironlar kajavalarini olib yurgan, 16 yoshga to'lgan shaxslar bo'lishi mumkin¹.

Arava haydovchilarining harakatlari ko'rib chiqilayotgan modda bo'yicha faqat ular tomonidan harakat xavfsizligi qoidalarining buzilishi mexanik transport vositasi bilan yo'l-transport hodisasi yuz berishiga olib kelgandagina kvalifikatsiya qilinishi mumkin. Boshqa barcha hollarda (masalan, piyodani urib ketish) ularning **JK 268-moddasi** bo'yicha javobgarligi istisno etiladi.

Agar transport vositalari harakati va foydalanish xavfsizligi qoidalarining buzilishi bir necha transport vositalari haydovchilari yoki yo'l harakati boshqa qatnashchilarining jinoiy harakatlari bilan sababiy bog'lanishda bo'lsa, ularning barchasi JK tegishli moddalariga binoan javobgarlikka tortilishi lozim.

«Harakat qatnashchisi» atamasini keng talqin qilish mumkin emas. Ularga harakatni nazorat qiluvchi militsiya xodimlarini, «nazorat qiluvchi» tushunchasini o'z ichiga oluvchi boshqa shaxslarni, yo'l qurilishi (o'tish qismini ta'mirlash, belgilar qo'yish, qor tozalash va h.k.) bilan bog'liq bo'lgan shaxslarni kiritish mumkin emas. Bu shaxslarning huquqlari va burchlari tegishli idoraviy yo'riqnomalar bilan belgilanadi. Mazkur yo'riqnomalarning talablari Yo'l harakati qoidalariga asoslangan bo'lib, ularga zid kelishi mumkin bo'lmasa-da, lekin mustaqil xususiyat kasb etadi.

JK 268-moddasi 2-qismida odam o'lishiga sabab bo'lgan transportning xavfsiz ishlashini ta'minlashga doir qoidalarni buzish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

JK 268-moddasi 3-qismida:

a) odamlar o'limiga;

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2015 йил 26 июндаги «Транспорт ҳаракати ва ундан фойдаланиш хавфсизлигига қарши жиноятлар билан боғлиқ ишлар юзасидан суд амалиётининг айрим масалалари тўғрисида»ги 10-сонли қарори.

b) boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lgan transportning xavfsiz ishlashini ta'minlashga doir qoidalarini buzish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Mazkur javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar biz yuqorida transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi boshqa jinoyatlarning tahlili chog'ida ko'rib chiqqan javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar bilan aynan bir xildir.

10-§. Avtomobil yo'llaridan foydalanish va ularni qo'riqlash qoidalarini buzish (JK 269-moddasi)

Jinoyatning **asosiy bevosita obykti** – avtomototransport va shahar elektrotransportining xavfsiz ishlashini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar. Jinoyatning **qo'shimcha bevosita obykti** – fuqarolarning hayoti va sog'lig'i, ularning mol-mulki xavfsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar.

Ko'rib chiqilayotgan moddada nazarda tutilgan jinoyatning **predmeti** avtomobil yo'llaridir.

NOTA BENE !

Avtomobil yo'li – transport vositalari harakatlanishi uchun mo'ljallangan, ularning belgilangan tezlikda, og'irlikda, o'lchamlarda muttasil va xavfsiz harakatlanishini ta'minlaydigan muhandislik inshootlari majmuasi, shuningdek, ushbu majmuani joylashtirish uchun berilgan yer uchastkalari va majmua ustidagi belgilangan doiradagi bo'shliq¹.

Jinoyat **obyektiv tomondan** avtomobil yo'llaridan foydalanish va ularni qo'riqlash qoidalarini buzishda ifodalanadi, ya'ni o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga olib kelgan avtomobil yo'llarida va shu yo'llar uchun ajratilgan mintaqada yer osti va yer usti kommunikatsiyalarini tegishli ruxsatsiz ta'mirlash, bu ishlarni bajarishning belgilangan shartlari

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 2 октябрь кундаги “Автомобиль йўллари тўғрисида”ги 117-сонли қонуни, 3-модда //Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 40-сон, 410-модда.

va muddatlariga rioya qilmaslik, o'zboshimchalik bilan arklar, to'siqlar, shlagbaumlar yoki boshqa inshootlarni o'rnatish, yo'llarga material va boshqa narsalarni uyib qo'yish, yo'l ustini buzish bilan tavsiflanadi.

Shuni e'tiborga olish lozimki, **JK 269-moddasi 1-qismida** keltirilgan avtomobil yo'llaridan foydalanish va ularni qo'riqlash qoidalarini buzishlar ro'yxati uzil-kesil hisoblanadi.

JK 269-moddasida nazarda tutilgan jinoyat qonunda ko'rsatilgan badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish sifatidagi oqibatlar yuz bergan vaqtdan e'tiboran **tugallangan** deb e'tirof etiladi (1-qism).

Ko'rib chiqilayotgan modda dispozitsiyasida nazarda tutilgan biron-bir harakatni amalga oshirish bilan ijtimoiy xavfli oqibatlarning yuz berishi o'rtasida sababiy bog'lanish mavjudligi jinoyatning zaruriy belgisidir.

Subyektiv tomondan jinoyat **ehtiyotsizlik orqasida** sodir etiladi yoki **aybning murakkab shakli** bilan tavsiflanadi. Avtomobil yo'llaridan foydalanish va ularni qo'riqlash qoidalarini buzish qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida buzilishi mumkin. Buning natijasida yuz bergan ijtimoiy xavfli oqibatlarga aybdorning ruhiy munosabati faqat jinoiy **beparvolik** yoki **o'z-o'ziga ishonishda** ifodalanishi mumkin.

16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs jinoyat **subyeksi** bo'lishi mumkin.

JK 269-moddasi 2-qismida odam o'lishiga sabab bo'lgan avtomobil yo'llaridan foydalanish va ularni qo'riqlash qoidalarini buzish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

JK 269-moddasi 3-qismida:

a) odamlar o'limiga;

b) boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lgan avtomobil yo'llaridan foydalanish va ularni qo'riqlash qoidalarini buzish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Ko'rsatilgan javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar biz yuqorida ushbu bobga kiruvchi boshqa jinoyatlarning tahlili chog'ida ko'rib chiqqan javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar bilan aynan bir xildir.

«Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar

1. Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish sifatida tavsiflanadigan jinoiy qilmishning obyektiv tomoni belgilarini aytib bering? Mazkur jinoyat sodir etilishi natijasida yuz bergan og'ir oqibatlariga nimalar kiradi?

2. Kimlar JK 261-moddasi (Mast holdagi shaxsning transport vositasini boshqarishiga yo'l qo'yish)da nazarda tutilgan jinoyatning subyekti bo'ladi?

3. Transportni ta'mirlash yoki uni foydalanishga chiqarish qoidalarini buzish qanday harakatlarda namoyon bo'ladi? Mazkur jinoyat subyekti maxsus subyekt hisoblanadimi?

4. Transport vositasi yoki aloqa yo'llarini yaroqsiz holatga keltirishning qanday usullarini bilasiz?

5. Temir yo'lining harakatlanadigan tarkibini, havo, dengiz yoki daryo kemasini olib qochish yoki egallab olish deganda nima tushuniladi? Mazkur jinoyat qanday og'ir oqibatlariga sabab bo'ladi?

6. Xalqaro uchish qoidalarini buzishning obyektiv tomoni qanday harakatlarda ifodalanadi?

7. Qanday hollarda transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyat qonunida nazarda tutilgan jazoga loyiq qilmish hisoblanadi? Harakat xavfsizligi qoidalarini buzish nimada namoyon bo'ladi?

8. Transport vositasini olib qochish uchun kim jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas?

9. JK 268-moddasi (Transportning xavfsiz ishlashini ta'minlashga doir qoidalarni buzish)da nazarda tutilgan jinoyatning subyekti kimlar bo'la oladi?

10. Avtomobil yo'llaridan foydalanish va ularni qo'riqlash qoidalarini buzish nimadan iborat? Mazkur jinoyat uchun jinoiy javobgarlikning kelib chiqish shartlari qanday?

Qo‘shimcha adabiyotlar

O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar

Глистин В.К. Транспортные преступления. – М.: 1981.

Жулев В.И. Транспортные преступления. Комментарий законодательства. – М.: «Спарк», 2001. – 190 Б.

Квашиц В.Е. Ответственность за правонарушения на автотранспорте. – М.: 1974.

Коняев В.П. Борьба с управлением транспортными средствами в состоянии опьянения. – Т.: 1986.

Коняев В.П. Состояние опьянения – транспортные преступления – уголовная ответственность. – Т.: «Ўзбекистон», 1992.

Коробеев А.И. Транспортные преступления: квалификация, ответственность, предупреждение. – Владивосток: 1992.

Коробеев А.И. Транспортные преступления. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2003. – 406 Б.

Кременев И.Н. Уголовная ответственность за транспортные преступления. – Т.: 1990.

Кузьмина А.С. Борьба с автотранспортными преступлениями. – Омск: 1981.

Куринов Б.Л. Автотранспортные преступления. Квалификация и ответственность. – М.: «Юридическая литература», 1976.

Тяжкова И.М. Неосторожные преступления с использованием источников повышенной опасности / Под ред. д.ю.н., проф., зав. кафедрой уголовного права МГУ В.С. Комисарова. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 360 Б.

Шайбазян Л.Г. Правовые меры борьбы с угоном транспортных средств. – Т.: 1993.

Шайбазян Л.Г. Правовые нормы борьбы с угоном транспортных средств (уголовно-правовой и криминологический аспекты). Автореф. дисс. канд. юрид. наук. – Т.: 1997.

Ilmiy maqolalar

Ахроров Б.Ж. ўзбекистон Республикасининг «Йўл ҳаракати хавфсизлиги тўғрисида»ги Қонунига шарҳ // Ҳуқуқий маърифат ахборотномаси. 2000. 10-сон. – 3–5-б.

Кабулов Р.К. Разграничение хищения транспортного средства от угона // Конституция – ҳуқуқий давлат қуришнинг асоси. Илмий-амалий анжуман материаллари. – Т.: ТДЮИ, 1996. – 54–57-б.

Рустамбаев А.М. Некоторые аспекты деятельности службы безопасности дорожного движения // Ж. Бюллетень Верховного суда РУз. 2004. № 3. – 63–64-б.

Рустамбаев М.Х. Значение последствий для квалификации нарушений правил безопасного движения и эксплуатации транспортных средств. Совершенствование мер борьбы с преступностью и ее профилактика // Сборник научных трудов ТашГУ, 1988. – 73–75-б.


Усмоналиев М. Некоторые вопросы ответственности пешеходов за нарушение правил дорожного движения. Проблемы совершенствования мер борьбы с преступностью // Сборник научных трудов ТашГУ. –Т.: ТашГУ, 1986.

Шайбазян Л.Г. Уголовно-правовое значение мотива и цели угона транспортного средства. Вопросы совершенствования деятельности правоохранительных органов // Сборник научных статей адъюнктов и соискателей ТГЮИ. –Т.: ТГЮИ, 1996. – 53–56-б.

Шайбазян Л.Г. Собственность – объект угона транспортного средства // Мустақиллик ва ўзбекистон Республикасида ҳуқуқий демократик давлатни ва фуқаролар жамиятини шакллантириш муаммолари. Илмий-назарий конференция материаллари. – Т.: ТГЮИ, 1996. – 36–38-б.

III BOB. GIYOHVANDLIK VOSITALARI YOKI PSIXOTROP MODDALAR BILAN QONUNGA XILOF RAVISHDA MUOMALA QILISHDAN IBORAT JINOYATLAR

4-sxema



JK bu bobiga kiritilgan jinoyatlar giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar bilan muomala qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni qo'riqlashga qaratilgan. Bu normalarning maqsadi ular bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi harakat qilish, fuqarolarning sog'lig'ini saqlash va davlat xavfsizligini ta'minlashdan iborat. Shuni qayd etish lozimki, 1999 yil 19 avgustda O'zbekiston Respublikasining «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi 813-I-son Qonuni¹ qabul qilingan. Bu Qonun JK bilan

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси, 1999 й., 9-сон, 210-модда; 2001 й. 1-2-сон, 23-модда.

qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Agar ushbu munosabatlarni buzish jinoiy qilmish (jinoiyat) darajasiga yetgan bo'lsa, aybdor JK tegishli normalariga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortiladi.

1-§. Taqiqlangan ekinlarni yetishtirish (JK 270-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekti** muomalada bo'lishi O'zbekiston Respublikasida taqiqlangan, giyohvandlik vositalari ro'yxati (I ro'yxat)ga¹ kiritilgan, tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklarni yetishtirishga bo'lgan davlat monopoliyasini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Jinoyatning **qo'shimcha obyekti** – aholining salomatligi xavfsizligidir.

Ko'knor yoki moyli ko'knor, kannabis o'simligi yoxud tarkibida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bo'lgan boshqa ekinlar JK 270-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **predmeti** hisoblanadi.

Ko'knorning ikki shakli: urug'larida oson quriydigan moy mavjudligi uchun yetishtiriladigan **moylik ko'knor** va giyohvandlik vositalari bozoriga mahsulot beradigan **ko'knor** farqlanadi.

Kannabis – nashaning alohida gashish olinadigan navi (nashaning Hindiston, Janubiy Chuy, Krasnodar va boshqa turlari) mavjud. Botanika sohasidagi mutaxassislar ko'knor o'simliklari oilasida ko'knorning uch turi: oddiy yoki ekma ko'knor, hind ko'knori yoki nasha va yovvoyi ko'knor mavjud deb hisoblaydilar. Bunda ko'knorning so'nggi ikki turi giyohvandlik vositasi xossalariga ega (ular tarkibida ko'p miqdorda tetragidrokannabinol (TGK) bor)².

Tarkibida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bo'lgan boshqa ekinlar qatoriga koka butasi; koka barglari; kaktus oilasiga mansub bo'lgan, meskalin qabilidagi izoxinolin alkaloidlardan iborat o'simliklar; ergolin guruhiga kiruvchi alkaloidlardan iborat vyunk

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 19 августдаги 813–I-сонли «Гийҳқвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида»ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 йил, 9-сон, 210-модда.

² Қаранг: Головкин Б.Н. Наркотикосодержащие растения: распространение, действие, социальная опасность. – М.: 2000. – 22-б.

oilasiga mansub o‘simliklar; xomashyosi efedrin olish uchun ishlatiladigan efedr oilasiga mansub o‘simliklar, shuningdek, tarkibida psilotsibin va (yoki) psilotsin mavjud bo‘lgan har qanday turdagi zamburug‘lar kiradi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, narkogen faollik bilan tavsiflanuvchi o‘simliklarning jami ikki yuzdan ortiq turi bor¹.

Har bir konkret holatda sudlar tarkibida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar mavjud o‘simliklar ro‘yxatiga kirishini aniqlash uchun narkotiklar ustidan nazorat qilish bo‘yicha Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar ro‘yxati va ekspertiza xulosalariga tayanishi kerak.

«...giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishni nazarda tutgan jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud-kimyoviy ekspertizalarni o‘tkazish aybdorlikni isbotlovchi muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

Jinoyat-protsessual kodeksining 173-moddasiga muvofiq bunday vosita yoki moddani narkotik yoxud psixotrop deb e‘tirof etish uchun bunday ekspertizalar qayd etilgan turkumdagi barcha ishlar bo‘yicha o‘tkazilishi zarur.

Bu turdagi ekspertizalarni hal etish uchun quyidagi savollar qo‘yilishi mumkin:

olingan modda narkotik hisoblanadimi va qaysi turga kiradi, zarur hollarda esa uning ushbu moddadagi tarkibi necha foizni tashkil qiladi va vazni qancha;

narsada (qanday narsa ekanligi ko‘rsatiladi) giyohvandlik vositalarining izlari (mikroskop orqali ko‘rinadigan nishonalari) bormi;

yer maydonida (olingan joy ko‘rsatiladi) o‘sayotgan o‘simliklar qaysi turga mansub va u tarkibida narkotik bo‘lgan o‘simlik hisoblanadimi;

olingan moddalar bir butunni (bir massani) tashkil etganmi;

olingan moddalar tayyorlash usuli (texnologiyasi), saqlash sharoiti, foydalanilgan boshlang‘ich xomashyosi, o‘simlik xomashyosining ko‘karib turgan joyi bo‘yicha kelib chiqishi jihatidan umumiy manbaga egami».

¹Ўша маһба. – 20-24-б.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalari bilan muomala qilishning maxsus huquqiy rejimi belgilangan. Bunday rejim uch mezon: tibbiy, ijtimoiy va normativ mezonlar yig'indisi bilan tavsiflanuvchi vositalar va moddalarga nisbatan amal qilishi lozim.

Tibbiy mezon nuqtai nazaridan giyohvandlik vositalari qatoriga kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy bo'lgan, markaziy nerv sistemasi (MNS)ga ta'sirlantiruvchi yoki gallyutsinogen ta'sir ko'rsatuvchi, shu tufayli notibbiy maqsadlarda iste'mol qilinuvchi va ruhiy va (yoki) jismoniy qaramlik vujudga kelishiga sabab bo'luvchi vositalar kiritiladi.

Muayyan vositani giyohvandlik vositalari qatoriga kiritishda ijtimoiy mezonni ham hisobga olish lozim. Bu mazkur vositalar qatoriga notibbiy maqsadda iste'mol qilish hajmlari ko'payib va yanada keng tus olib borayotgan va uning sog'liq uchun xavfliligi tufayli u bilan muomala qilishning alohida huquqiy rejimini belgilashni taqozo etadigan vosita kiritilishi lozimligini anglatadi. Tibbiy va ijtimoiy mezonlar birgalikda muayyan moddani giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar qatoriga kiritish va buni maxsus normativ hujjatda mustahkamlash uchun asos bo'lishi normativ mezonni tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi Qonuni ana shunday hujjat hisoblanadi. Ushbu Qonunning 3-moddasida «giyohvandlik (narkotik) vositalari», «psixotrop moddalar», shuningdek, «prekursorlar», «giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analoglari», «preparat» kabi tushunchalarga ta'rif berilgan.

NOTA BENE !

Giyohvandlik (narkotik) vositalari – giyohvandlik vositalari ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar, tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan preparatlar va o'simliklar.

JK Maxsus qismi VIII bo'limiga ko'ra, ular qatoriga BMTning 1961 yilda qabul qilingan Giyohvandlik vositalari to'g'risidagi Yagona

Konvensiyasi (unga «1961 yilgi Giyohvandlik vositalari to‘g‘risidagi Yagona Konvensiyaga tuzatishlar kiritish to‘g‘risida» 1972 yil Protokoliga muvofiq tuzatishlar kiritilgan) I va II ro‘yxatlariga kiritilgan moddalar kiradi¹.

NOTA BENE !

Psixotrop moddalar – psixotrop moddalar ro‘yxatiga kiritilgan va o‘zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar.

Psixotrop moddalar patologik ko‘nikish uyg‘otishi va odamning markaziy nerv sistemasiga rag‘batlantiruvchi yoki tushkunlikka tushiruvchi ta‘sir ko‘rsatib, gallyutsinatsiyalar uyg‘otish yoki motor funksiyasi, fikrlash qobiliyati, xulq-atvor, idrok yoki kayfiyatning buzilishiga sabab bo‘lish qobiliyatiga ega. Ularga 1971 yilgi Psixotrop moddalar to‘g‘risidagi BMT Konvensiya sining I, II, III yoki IV ro‘yxatiga kiritilgan moddalar kiradi.

NOTA BENE !

Prekursorlar – prekursorlar ro‘yxatiga kiritilgan va o‘zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar tayyorlash uchun foydalaniladigan moddalar.

Ularga 1988 yilgi BMTning Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomalada bo‘lishga qarshi kurash to‘g‘risidagi Vena Konvensiya sining² I va II jadvaliga kiritilgan moddalar kiradi.

¹Нью-Йорк, 1961 й., 25 март, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси 1995 й. 24 февралдаги 30-И-сон қарорига мувофиқ ратификация қилинган Ўзбекистон Республикаси учун 1995 й. 23 сентябрдан қучга кирган.

²Гиёхвандлик воситалари, психотроп моддаларнинг қонунга хилоф равишда муомалада бўлишига қарши курашиш БМТ Конвенцияси (Вена, 1988 й. 20 декабрь, Ўзбекистон Республикасининг қўшилиши Ўзбекистон Республикаси олий Мажлиси 1995 й. 24 февралдаги 32-И-сон қарорига мувофиқ, Ўзбекистон Республикаси учун 1995 й. 22 ноябрда қучга кирган), Илова.

NOTA BENE !

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analoglari – kimyoviy tuzilishi va xossalari ko‘ra giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga o‘xshash, ular singari ruhiyatga faol ta‘sir etuvchi, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar.

NOTA BENE !

Preparat – moddalarning har qanday fizik holatdagi, tarkibida bitta yoki bir necha giyohvandlik vositalari yoxud psixotrop moddalar bo‘lgan aralashmasi.

Ko‘rsatilgan Qonunning 4-moddasiga binoan, «O‘zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar quyidagi ro‘yxatlarga kiritiladi:

Muomalada bo‘lishi O‘zbekiston Respublikasida taqiqlangan giyohvandlik vositalari ro‘yxati (bundan buyon matnda **I ro‘yxat** deb yuritiladi);

Muomalada bo‘lishi O‘zbekiston Respublikasida cheklangan giyohvandlik vositalari ro‘yxati (bundan buyon matnda **II ro‘yxat** deb yuritiladi);

Muomalada bo‘lishi O‘zbekiston Respublikasida cheklangan psixotrop moddalar ro‘yxati (bundan buyon matnda **III ro‘yxat** deb yuritiladi);

Muomalada bo‘lishi O‘zbekiston Respublikasida cheklangan prekursorlar ro‘yxati (bundan buyon matnda **IV ro‘yxat** deb yuritiladi).

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar ro‘yxatlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanadi va matbuotda e‘lon qilinadi».

Mazkur ro‘yxatlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali olib kirish, olib chiqish va tranzit tarzida o‘tkazish to‘g‘risida»gi 2000 yil 31 iyul 293-son qaroriga¹ 2–5-ilovalarda e‘lon qilingan.

¹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2002 й., 3-4-сон, 34-модда; 2003 й., 14-сон, 114-модда.

Xususan, I ro'yxatga muomalada bo'lishi O'zbekiston Respublikasida taqiqlangan 159 nomdagi giyohvandlik vositalari kiritilgan (2-ilova). II ro'yxat muomalada bo'lishi O'zbekiston Respublikasida cheklangan 61 nomdagi giyohvandlik vositalarini o'z ichiga oladi (3-ilova). III ro'yxatdan muomalada bo'lishi O'zbekiston Respublikasida cheklangan 82 nomdagi psixotrop moddalar o'rin olgan (4-ilova). IV ro'yxatga (5-ilova) muomalada bo'lishi O'zbekiston Respublikasida cheklangan 26 prekursor kiritilgan bo'lib, shulardan 23 tasi – 1988 yilgi BMTning Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishga qarshi kurash to'g'risidagi Vena Konvensiya sining I va II jadvaliga kiritilgan kimyoviy moddalar, qolgan 3 modda (qizil fosfor, propion anhidrid, tarkibida efedrin bo'lgan efedr o'ti) mazkur Ro'yxatga 1988 yilgi BMTning Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyasi 12-moddasi 10-bandining qoidalariga muvofiq qo'shimcha tarzda kiritilgan.

Shuni qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi e'lon qilgan mazkur ro'yxatlardan tashqari, 1995 yil 1 aprelda O'zbekiston Respublikasining Giyohvandlik moddalarini nazorat qilish davlat komissiyasining 13-4-1-sonli qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan «1961, 1971, 1988 yilgi BMT Konvensiya lari tavsiyalariga muvofiq giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar tasnifi (ro'yxatlari)» (Giyohvandlik moddalarini nazorat qilish davlat komissiyasining qaroriga 2-ilova) ma'qullandi. Bu tasnifga quyidagilar kiritilgan: xalqaro ro'yxatdan o'tkazilmagan nomlari yoki amaldagi xalqaro Konvensiya larda foydalaniluvchi nomlari ostidagi moddalar; ularning izomerlari, basharti ular barcha hollarda aniq chiqarilgan bo'lmasa, bunday izomerlar mazkur moddalarning kimyoviy formulasi doirasida mavjud bo'lishi mumkin bo'lsa; bu moddalarning murakkab va sodda efirlari, ular mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan barcha hollarda; bu moddalarning tuzlari, shu jumladan murakkab efirlar, sodda efirlar va izomerlarning tuzlari, bunday tuzlar mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan

barcha hollarda; bu moddalarning preparatlari, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Ro'yxat I, II, III va IV jadvallardan iborat bo'lib:

I jadvalga o'ta xavfli bo'lgan va tibbiy maqsadlarda foydalanilmaydigan (giyohvandlik va psixotrop) o'simliklar va moddalar, masalan, heroin, kannabis, LSD va faqat giyohvandlar ishlatadigan boshqa moddalar kiritilgan.

II jadvalga o'ta xavfli bo'lgan, lekin tibbiy maqsadlarda qo'llaniladigan (giyohvandlik va psixotrop) o'simliklar va moddalar, masalan, rak kasalligiga yo'liqqanlarda og'riqni qoldirish uchun qo'llaniladigan og'riq qoldiruvchi juda kuchli vositalar (morfin, fortal, dolozal, palfium va h.k.) kiritilgan. Ularning qatoriga amfetaminlar va ayrim barbituratlar ham kiradi. Ular kuchli qaramlikni vujudga keltirishi bilan juda xavfli hisoblanadi.

III jadvalga ma'lum darajada xavfli bo'lgan va tibbiy maqsadlarda qo'llaniladigan (faqat psixotrop) o'simliklar va moddalar kiritilgan. Bular trankvilizatorlar, antidepressantlar, tez ta'sir ko'rsatadigan barbituratlar va qaramlikning vujudga kelishi nuqtai nazaridan xavflilik darajasi o'rtacha bo'lgan boshqa keng qo'llaniladigan dorivor moddalardir.

IV jadvalga prekursorlar, ya'ni giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni tayyorlash uchun ishlatiladigan, 1988 yilgi BMTning Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyasida yoki shu Konvensiyaga muvofiq tasniflangan barcha moddalar va giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni tayyorlash jarayonida ishlatiladigan qolgan barcha kimyoviy moddalar kiradi. Masalan: heroin, kokain va LSDni tayyorlash uchun zarur bo'lgan atseton va turli kislotalar kiradi.

JK 270-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomonini** taqiqlangan ekinlarni, ya'ni ko'knor yoki moyli ko'knor, kannabis o'simligi yoxud tarkibida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bo'lgan boshqa ekinlarni qonunga xilof ravishda ekish yoki etishtirish tashkil etadi.

Yetishtirish – tarkibida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bo‘lgan o‘simliklarni ekish va hstirish.

Yetishtirishning **qonunga xilofligi** mazkur turdagi faoliyat bilan litsenziyasiz shug‘ullanishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq tarkibida giyohvandlik moddasi bo‘lgan o‘simliklarni yetishtirish davlat monopoliyasi hisoblanadi (6-modda) va bunga ruxsat maxsus vakolatli organ belgilagan tartibda, davlat korxonalariga ilmiy maqsadlarda mazkur faoliyat turi uchun litsenziyasi bo‘lgan taqdirda beriladi (21-modda).

Agar taqiqlangan ekinlarni ekish yoki yetishtirish maxsus ruxsatnoma (litsenziya)ga binoan amalga oshirilayotgan bo‘lsa, taqiqlangan ekinlarni yetishtirish uchun jinoiy javobgarlik istisno etiladi. Mazkur faoliyat bilan shug‘ullanish uchun litsenziyani Ichki ishlar vazirligi beradi. Bunda litsenziatga faoliyatni litsenziya talablari va shartlariga qat’iy muvofiq ravishda amalga oshirish majburiyati yuklanadi («Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida»gi Qonunning 21-moddasi).

Yetishtirilishi taqiqlangan o‘simliklarni **ekish** deganda, tegishli ruxsatsiz har qanday yer maydoniga, shu jumladan bo‘sh yotgan yerga man etilgan ekin urug‘ini sepish va ko‘chatini o‘tkazishni anglamoq lozim. Ushbu jinoyat o‘simlik unib chiqqan-chiqmaganligi yoki o‘sgan-o‘smaganligidan qat’i nazar, ekin ekilgan paytdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

Urug‘lar sotib olish, ularni yetilish bosqichigacha o‘smaydigan darajada tuproqdan tashqarida yoki kam miqdordagi tuproqda undirish (ko‘chat yetishtirish) taqiqlangan ekinlarni yetishtirishga tayyorgarlik ko‘rish sifatida baholanishi lozim.

Taqiqlangan ekinlarni **yetishtirish** deganda, ekilgan vaqtdan boshlab pishish bosqichigacha bo‘lgan davr ichida ularni parvarish qilish (sug‘orish, chopiq qilish, o‘g‘itlash va h.k.)ni tushunish kerak. Bu harakatlar ham ekinlar pishish bosqichiga eytgan-yetmaganligi, hosil o‘rib

olingan-olinmaganligidan qat'i nazar, **tugallangan** jinoyat tarkibini tashkil etadi.

Taqiqlangan ekinlarni ekish va yetishtirish deganda, tarkibida giyohvandlik moddalari bo'lgan ekinlarni yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish, ularning hosildorligini oshirish, noqulay ob-havo sharoitlariga chidamliligini kuchaytirish, yangi navlarni yaratish, yovvoyi o'simliklarni parvarish qilish (sug'orish, chopiq qilish) kabi harakatlarni ham tushunish lozim.

Shaxs mazkur modda bo'yicha javobgarlikka tortilishi uchun taqiqlangan ekin ekilgan joy (tomorqa, korxon, tashkilot yeri, egasiz yerlar), aybdor bunday ekinlarni o'zi uchun yoki o'zga shaxslar uchun yetishtirgani, shuningdek, ekinlarning keyingi taqdiri (ulardan iste'mol qilishga tayyor giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar tayyorlangani, tola, moy, xo'jalik ehtiyojlari uchun urug'lar olingani va sh.k.) ahamiyatga ega emas.

Aybdorning harakatlari ekin maydoni o'lchamidan kelib chiqqan holda JK 270-moddasining tegishli qismlari bilan kvalifikatsiya qilinadi, bunda ushbu moddaning 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilish uchun ekin maydonining o'lchami 250 kvadrat metrgacha bo'lishi ko'zda tutiladi.

Shaxs yetishtirilishi taqiqlangan o'simliklarni turli maydonlarda o'stirayotgan bo'lsa, uning harakatlarini kvalifikatsiya qilishda jami ekin maydonidan kelib chiqmoq lozim.

Agar yetishtirilishi taqiqlangan o'simliklarni ekish va yetishtirish kelgusida narkotik moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab tayyorlash, saqlash, tashish, jo'natish, shuningdek, o'tkazish bilan bog'liq bo'lsa, bunday harakatlar JK 270-moddasi va tegishli moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar majmui bilan kvalifikatsiya qilinmog'i darkor.

Subyektiv tomondan jinoyat **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor tarkibida giyohvandlik moddalari bo'lgan ekin yoki psixotrop ekinlar yoki o'simliklarni qonunga xilof ravishda yetishtirayotganligini anglaydi va mazkur harakatlarni amalga oshirishni xohlaydi.

Jinoyatni sodir etish **maqsadi** aybdorning harakatlarini kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas. Jinoyatning **motivlari** ham har xil bo‘lishi mumkin va qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta’sir ko‘rsatmaydi.

16 yoshga to‘lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs **JK 270-moddasida** nazarda tutilgan jinoyat **subyeksi** bo‘lishi mumkin. Bu xususiy shaxs bo‘lishi ham, mansabdor shaxs bo‘lishi ham (masalan, qishloq xo‘jalik tashkilotlari, korxonalarining rahbarlari) mumkin.

JK 270-moddasi 2-qismida:

a) ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

v) o‘rtacha kattalikdagi ekin maydonida taqiqlangan ekinlarni yetishtirish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Taqiqlangan ekinlarni yetishtirgan shaxs ilgari JK 127-moddasi (Voyaga yetmagan shaxsni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish) 2-qismida yoki 3-qismi «a», «b», «v» bandlarida, JK 270–276-moddalarida javobgarlik belgilangan jinoyatlardan birini sodir etgan bo‘lsa, uning bu qilmishi sudlanganlik fakti, ilgari sodir etilgan jinoyat muddatining o‘tish vaqti tugamaganligi, qonunda belgilangan tartibda sudlanganlik bekor qilinmagan va olib tashlanmaganligidan qat’i nazar, **JK 270-moddasi 2-qismi «a» bandi** bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Bir guruh shaxslar tomonidan **oldindan til biriktirish** tarkibida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bo‘lgan ekinlarni qonunga xilof ravishda ekish yoki yetishtirishda ikki yoki undan ortiq shaxs qasddan ishtirok etishini anglatadi, bunda til biriktirish jinoiy faoliyatga kirishishdan oldin amalga oshirilgan bo‘lishi lozim.

O‘rtacha kattalikdagi maydonda taqiqlangan ekinlarni yetishtirish deganda, 250 kvadrat metrdan 1000 kvadrat metrgacha maydonda mazkur ekinlarni ekish yoki ularni o‘stirish tushuniladi. Bunda yer maydoni hajmi amalda foydalanilgan maydondan, ya’ni yetishtirilishi taqiqlangan ekinlar amalda o‘sayotgan yoki urug‘i ekilgan maydonning o‘zidan kelib chiqib aniqlanishi kerak. Ekinlar yetishtirilayotgan yer maydoniga giyohvand

o‘simliklar yoki ularning urug‘lari mavjud bo‘lmagan maydonlarni qo‘shish mumkin emas, bu qonunga ziddir. Bunday holda taqiqlangan ekin yetishtirilayotgan umumiy yer maydonini aniqlashda amalda ekilgan jami ekin maydonidan kelib chiqish lozim.

Agar ayblanuvchi taqiqlangan ekinlarni turli maydonlarda yetishtirgan bo‘lsa, tergov va sud organlari tarkibida narkotik modda bo‘lgan o‘simliklarni yetishtirish maqsadini aniqlashi kerak. Agar ayblanuvchi kamida ikki marta shu o‘simliklarni turli vaqt, turli maydonlarda ekan yoki yetishtirgan bo‘lib, yana jinoyat sodir etishga qasd qilgan bo‘lsa, uning qilmishi **JK 270-moddasi 2-qismi «a» bandi** bilan yoki ekin maydoniga qarab shu moddaning tegishli bandi va qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Ekin maydoni hajmini aniqlashda nafaqat oxirgi ekin maydoni hajmi, balki bundan oldingi maydon hajmlarini ham e‘tiborga olish kerak. Agar jinoyat subyekti bir vaqtda ikki yoki undan ortiq maydonlarda taqiqlangan ekinlarni ekib, bular uchun umumiy qasdga ega bo‘lsa, uning qilmishi **JK 270-moddasi 2-qismi «a» bandi** bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilinmaydi, chunki u yagona davomiy jinoyatni tashkil etadi va uning qilmishi ekin maydoni o‘lchamidan kelib chiqib kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Agar ekin maydonining umumiy kattaligi 250 kvadrat metrdan kam bo‘lsa, ayblanuvchining qilmishi tahlil qilinayotgan moddaning birinchi qismi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi.

JK 270-moddasi 3-qismida:

- a) o‘ta xavfli retsivist tomonidan;
- b) uyushgan guruh yoki uning manfaatlarini ko‘zlab;
- v) katta ekin maydonida sodir etilgan taqiqlangan ekinlarni yetishtirish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Uyushgan guruh tomonidan taqiqlangan ekinlarni yetishtirish jamiyat uchun jiddiy xavf tug‘diradi, chunki rejalashtirilgan qilmishni samarali amalga oshirish va ayni vaqtda shaxs, jamiyat va davlatga zarar yetkazish imkoniyatini oshiradi.

«Jinoiy guruhni uyushgan deb kvalifikatsiya qilish uchun asosiy mezon tariqasida, masalan, guruhning barqarorligini, unda tashkilotchining bo‘lishini, odatda, bir necha jinoyatni sodir etish maqsadida tuzilganligini, jinoyatni amalga oshirish rejasi va yo‘l-yo‘rig‘i ishlanganligini, har bir ishtirokchi o‘rtasida vazifalar taqsimlanganligini, texnika bilan ta‘minlanganligini, jinoyatni yashirish choralari ko‘rilganligini, umumiy intizomga va jinoiy guruh tashkilotchisining ko‘rsatmalariga itoat qilinishini va shu kabilarni hisobga olish lozim».

Hukmda jinoiy guruh qaysi belgisiga ko‘ra uyushgan deb topilishi ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Uyushgan guruh ishtirokchilari vazifalarini taqsimlashlari va taqiqlangan ekinlarni yetishtirish bilan har qaysisi bevosita shug‘ullanmasligi, balki bu faoliyat boshqa shaxslar tomonidan bajarilishini ta‘minlashi mumkin (masalan, yer maydonini qo‘riqlash).

Taqiqlangan ekinlarni **katta ekin maydonida** yetishtirish deganda, JK VIII bo‘limiga muvofiq, 1000 kvadrat metr va undan ortiq ekin maydonida ekish tushuniladi.

Ko‘rib chiqilayotgan moddaning qolgan og‘irlashtiruvchi va alohida og‘irlashtiruvchi holatlarining mazmuni boshqa jinoyat tarkiblarini tahlil qilishda yoritilgan.

2-§. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash (JK 271-moddasi)

Ayni holda jinoyatning **bevosita asosiy obyektini** giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lishi sohasidagi ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. **Bevosita qo‘shimcha obyekt** mulkiy manfaatlar, mazkur jinoyat talonchilik yoki bosqinchilik yo‘li bilan sodir etilgan taqdirda esa, jabrlanuvchining jismoniy daxlsizligi, uning sog‘lig‘idir. **Fakultativ obyekt** sifatida aholi sog‘lig‘ining xavfsizligini ta‘minlovchi jamoat munosabatlari tushunilishi lozim.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar jinoyatning **predmeti** hisoblanadi. Mazkur vositalar va moddalar qonuniy muomalada

bo'lishi ham (tarkibida giyohvandlik moddalari bo'lgan dori preparatlari), qo'lbola usulda tayyorlangan va narxi belgilanmagan bo'lishi ham mumkin.

(«Giyohvandlik vositalari» va «psixotrop moddalar» tushunchalari-ning mazmuni haqida batafsilroq JK 270-moddasi ta'limiga qarang.)

JK 271-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomonini** giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda, o'g'rilik yoki firibgarlik yo'li bilan egallash tashkil etadi.

Qonunga xilof ravishda egallash jinoyatning ko'rsatilgan predmetlarini qasddan g'ayriqonuniy ravishda qo'lga kiritish yoki ularni shaxsiy iste'mol yoki o'zgacha tarzda g'ayriqonuniy foydalanish maqsadida olib qo'yishdir.

Jinoyat **JK 271-moddasi** bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi uchun giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar aynan kimga – davlat yoki xususiy korxonalar, muassasalar, tashkilotlar yoki ularga qonuniy yoki qonunga xilof ravishda egalik qiluvchi ayrim fuqarolarga qarashli bo'lgani ahamiyatga ega emas.

Tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklarni yoki bunday o'simliklarning qismlari (ko'knor chanog'i va poyasi, nasha o'simligi poyasi va h.k.)ni qishloq xo'jalik korxonalarining dalalarida yoki fuqarolarning yer maydonlarida ekinlarning haqiqiy egasi roziligisiz terish, bunday o'simliklar qonunga xilof ravishda yetishtirilgan bo'lsa ham, g'ayriqonuniy egalik qilish deb tushunilishi lozim.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'g'rilik yo'li bilan qonunga xilof ravishda egallash giyohvandlik vositasi yoki psixotrop modda qo'lga kiritilgan va aybdor ularni tasarruf etish yoki ulardan o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan paytdan e'tiboran **tugallangan** deb topiladi.

Ko'rsatilgan vositalar va moddalarni firibgarlik bilan qonunga xilof ravishda egallash aybdor aldov yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'z tasarrufiga olgan paytdan e'tiboran **tugallangan** jinoyat hisoblanadi.

Subyektiv tomondan ko‘rib chiqilayotgan jinoyat **to‘g‘ri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallayotganini anglaydi va shu tarzda ish ko‘rishni istaydi.

14 yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxs jinoyat **subyektiv** bo‘lishi mumkin.

JK 271-moddasi 2-qismida:

a) ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

v) o‘zlashtirish yoki rastrata qilish yo‘li bilan;

g) talonchilik yo‘li bilan;

d) mansab mavqeini suiiste‘mol qilib;

e) tamagirlik yo‘li bilan;

j) ko‘p miqdorda sodir etilgan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash uchun javobarlik nazarda tutilgan.

Shaxs giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni so‘nggi egallashidan avval psixotrop modda yoki giyohvandlik vositalarning qonunga xilof ravishda muomalada bo‘lishini tashkil qiluvchi jihatlardan birini sodir etgan bo‘lsa, buning uchun ilgari sudlangan-sudlanmaganligidan qat‘i nazar, aybdorning harakatlari **JK 271-moddasi 2-qismi «a»bandi** bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim. Muhimi ilgari sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlikka tortish muddati o‘tmagan yoki sudlanganlik olib tashlanmagan yoki tugallanmagan bo‘lishi kerak.

Ikki yoki undan ortiq shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash **JK 271-moddasi 2-qismi «b»bandi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o‘zlashtirish yoki rastrata qilish yo‘li bilan qonunga xilof ravishda egallash aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo‘lgan jinoyat predmetlarini aybdor

ularni o'z foydasiga aylantirish maqsadida o'zlashtirgan (qonunga xilof ravishda o'zida olib qolgan) paytdan e'tiboran yoki aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lgan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar rastrata qilingan (sotilgan, iste'mol qilingan, o'zga shaxs foydasiga boshqa har qanday tarzda o'tkazilgan) paytdan e'tiboran **tugallangan** jinoyat deb e'tirof etiladi.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni **talonchilik yo'li bilan** qonunga xilof ravishda egallash jinoyat predmetlarini ochiqdan-ochiq, shu jumladan hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatib yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib, aybdor giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni egallagan va unda mazkur jinoyat predmetlarini o'z ixtiyoriga ko'ra tasarruf etish imkoniyati paydo bo'lgan paytdan e'tiboran **tugallangan** jinoyat deb tushuniladi.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni **mansab mavqeini suiiste'mol qilish yo'li bilan** qonunga xilof ravishda o'z xizmat lavozimidan foydalanib, o'zi yoki boshqalar foydasiga egallashini bildiradi.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni **tovlamachilik yo'li bilan** qonunga xilof ravishda egallash jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zo'rlik ishlatish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish bilan qo'rqitib o'zgan bu vositalarni (moddalarni) topshirishni talab qilish yoxud jabrlanuvchini bu vositalarni (moddalarni) berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo'yish amalga oshirilgan paytdan e'tiboran **tugallangan** jinoyat deb tushuniladi.

Qonunga xilof saqlashdan yoki muomaladan olingan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarining ko'p bo'lmagan, o'rtacha va ko'p miqdorlarga mansubligi ro'yxati Narkotik moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat komissiyasining 1998 yil 22 maydagi 3-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Bu ro'yxatga muvofiq **ko'p miqdorga**, masalan, quyidagilar kiradi: quritilgan marixuana – 5,0 g dan ortiq; quritilmagan marixuana – 50,0 g va undan ortiq; kannabis moyi (har qanday) to'ldirgichlar mavjudligidan qat'i nazar – 0,5 g va undan ortiq; gashish moyi (har qanday) to'ldirgichlar mavjudligidan qat'i nazar – 0,5 g

va undan ortiq; tetragidrokannabinollar (barcha izomerlari) – 0,5 g va undan ortiq; af'yun (shu jumladan tibbiy af'yun) – 1,0 g va undan ortiq yoki 0,01 grammdan 100 ta tabletka (har qanday) to'ldirgichlar mavjudligidan qat'i nazar; ekstrakt ko'rinishidagi af'yun – 1,0 g va undan ortiq; quritilgan ko'knor (har qanday) to'ldirgichlar mavjudligidan qat'i nazar – 10,0 g va undan ortiq, quritilmagan ko'knor – 50,0 g va undan ortiq; heroin – 0,005 g va undan ortiq, yo'ldosh moddalar va (har qanday) to'ldirgichlar mavjudligidan qat'i nazar; kodein (asosi va tuzi) – 1,0 g va undan ortiq (0,015 grammdan 66 ta tabletka); kokain (asosi va tuzi yo'ldosh moddalar va (har qanday) to'ldirgichlar mavjudligidan qat'i nazar) – 0,1 g va undan ortiq va h.k.

JK 271-moddasi 3-qismida:

a) o'ta xavfli retsdivist tomonidan;
b) uyushgan guruh yoki uning manfaatlarini ko'zlab;
v) bosqinchilik yo'li bilan sodir etilgan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlardan dastlabki ikkitasining mazmuni yuqorida yoritilgan shunday belgilar bilan bir xildir.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni bosqinchilik yo'li bilan qonunga xilof ravishda egallash o'zganing giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarini talon-toroj qilish maqsadida hujum qilish, hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatish yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish amalga oshirilgan paytdan e'tiboran **tugallangan** jinoyat deb e'tirof etiladi.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'g'rilik, firibgarlik, o'zlashtirish yoki rastrata qilish, talonchilik, mansab mavqeini suiiste'mol qilish, tovlamachilik, bosqinchilik yo'li bilan egallash (Jinoyat kodeksining 271-moddasi) va o'zgarar mulkini talon-toroj etishni nazarda tutgan tegishli moddalarida ko'rsatilgan jinoyatlar majmui bilan, faqat bu moddalar (moddalar qismlari) sanksiyasi Jinoyat kodeksining 271-moddasidagidan og'irroq jazoni ko'zda tutgan hollardagina kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Tergov organlari va sudlar giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallashdan maqsad nima ekanligini

aniqlashlari zarur. Egallash kelgusida o‘tkazish yoki sotish uchun amalga oshirilganligi aniqlangan taqdirda aybdorning harakatlari qayd etilgan jinoyatlarga tayyorgarlik ko‘rish deb ham kvalifikatsiya qilinishi kerak.

3-§. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek, ularni qonunga xilof ravishda o‘tkazish (JK 273-moddasi)

Jinoyatning **asosiy bevosita obyekti** giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lishini tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlardir. **Qo‘shimcha obyekt** – aholining sog‘lig‘i hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida»gi Qonuni 3-moddasi 7-qismiga binoan, **giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar bilan muomala qilish** deganda, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni olib kirish (olib chiqish), tranzit tarzida o‘tkazish, saqlash, berish, sotish, taqsimlash, olish, tashish, jo‘natish, ishlab chiqish, ishlab chiqarish, tayyorlash, ulardan foydalanish va ularni yo‘q qilish, shuningdek, tarkibida giyohvandlik moddasi bo‘lgan o‘simliklarni yetishtirish tushuniladi.

NOTA BENE !

Giyohvandlik vositalari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish – xalqaro-huquqiy va davlat nazorati ostida bo‘lgan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan bog‘liq ijtimoiy xavfli va g‘ayriqonuniy qilmishlar yig‘indisi.

Jinoyatning **predmeti** giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, shuningdek, prekursorlardir. Mazkur jinoyatning predmeti haqida ma‘lumotlar JK 270-moddasi tahlil qilinganida batafsil berilgan.

JK 273-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomonini** ko‘p bo‘lmagan miqdordagi giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab qonunga xilof ravishda

tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish, shuningdek, ularni qonunga xilof ravishda o'tkazish tashkil etadi.

NOTA BENE !

Tayyorlash deganda, pirovard natijada giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar hosil qilishga qaratilgan har qanday harakat, shuningdek, tegishli ruxsatnomasiz narkotiklarni to'yintirish va narkotik moddaning ta'sir kuchini oshirish maqsadida ularni qayta ishlash va tozalash (begona aralashmalardan xoli qilish) tushunilishi lozim.

Foydalanish uchun tayyor holatdagi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni surunkali ravishda olishga qaratilgan harakatlar ularni ishlab chiqarish hisoblanadi.

Tayyorlash giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning foydalanish uchun tayyor bo'lgan, hech bo'lmasa bitta dozasi yaratilgan paytdan e'tiboran **tugallangan** deb e'tirof etiladi.

JK 273-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni **olish** deganda, ularni sotib olish, boshqa narsa va buyumlarga almashtirish, qarzi evaziga yoki hadyaga olish, qarzga topib olingan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'zlashtirish, aybdor olgan moddalarining narkotik ekanligini bilgan bo'lsa, yovvoyi holda o'sayotgan nasha va ko'knor o'simliklari yoki ularning bo'laklari, shuningdek, tarkibida narkotik moddasi bo'lgan o'simlik ekinlarining qo'riqlanmayotgan qoldiqlarini yig'ib-terib olish tushuniladi.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar aybdorning ixtiyoriga amalda o'tgan paytdan e'tiboran olish jinoyati **tugallangan** deb hisoblanadi.

NOTA BENE !

Saqlash deganda, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni aybdorning egaligida: yonida, binoda, maxfiy yerda va boshqa joylarda bo'lishi bilan bog'liq har qanday qasddan sodir qilingan harakatlar tushunilishi lozim.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda saqlash davomli jinoyat bo‘lgani va qilmish jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan obyektga uzoq vaqt mobaynida uzluksiz tajovuzda ifodalanuvchi bir necha aynan o‘xshash g‘ayriqonuniy harakatlardan iborat bo‘lganligi bois, u jinoiy qilmish to‘xtatilgan yoki aybdor aybiga iqror bo‘lib, arz qilgan paytdan e‘tiboran **tugallangan** deb e‘tirof etiladi.

NOTA BENE !

Tashish deganda, tashish usulidan qat‘i nazar, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni bir joydan ikkinchi joyga olib o‘tish bilan bog‘liq har qanday qasddan qilingan harakatlar tushunilishi lozim.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda tashishni ularni safar chog‘ida qonunga xilof ravishda saqlashdan farqlash uchun aybdorning qasdi nimaga qaratilganligi, transport vositasidan qanday maqsadda foydalanilganligi, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning miqdori va joylangan yeri hisobga olinishi lozim. Jumladan, o‘zining shaxsiy iste‘moli uchun mo‘ljallangan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni safar chog‘ida saqlash qonunga xilof ravishda tashish deb topilishi mumkin emas.

Tashish giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bir joydan boshqa joyga ko‘chirilgan paytdan e‘tiboran **tugallangan** deb e‘tirof etiladi.

NOTA BENE !

Jo‘natish deganda, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni tashish jarayonida jo‘natuvchi ishtirok etmagan vaziyatda, aloqa bo‘limi jo‘natmasi, bagaj tariqasida yoki boshqa usullarda bir joydan ikkinchi joyga qonunga xilof ravishda yuborish tushunilishi lozim.

Jo‘natish giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar har qanday usulda bir joydan ikkinchi joyga yuborilgan paytdan e‘tiboran **tugallangan** deb e‘tirof etiladi.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni **qonunga xilof ravishda o‘tkazish** deganda, ularni turli usulda tarqatish (o‘zgaga berish, hadya etish, boshqa shaxsga ukol qilish, almashtirish, qarzga va qarzi evaziga berish hamda sotish va h.k.lar) tushuniladi.

Aybdorda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda o‘tkazish niyatining mavjudligi haqida uning mijoz bilan kelishganligi; ushbu vosita yoki moddaning ancha miqdorda ekanligi va o‘tkazishga qulay bo‘lgan tarzda qadoqlangani; giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o‘zi iste‘mol qilmaydigan shaxsning olganligi, tayyorlaganligi va h.k.lar dalolat berishi mumkin.

O‘tkazish giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar o‘zga shaxs ixtiyoriga amalda o‘tgan paytdan e‘tiboran **tugallangan** deb e‘tirof etiladi. Bunda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o‘zga shaxsga topshirish shakli qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta‘sir etmaydi.

Aybdorga giyohvandlik vositasi yoki psixotrop modda emasligi ayon bo‘lgan boshqa biron-bir o‘zga moddalar o‘tkazilgan bo‘lsa, bunday harakatlar firibgarlik sifatida JK 168-moddasi bilan, oluvchining harakatlari esa, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda olishga suiqasd qilish sifatida (JK 25-moddasi 2-qismi va **JK 273-moddasi**) kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Agar shaxs o‘tkazilayotgan vositalar yoki moddalar giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar ekanligini bilmagan bo‘lsa, uning harakatlari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazishga suiqasd qilish sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Bu holda xaridorlar qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda olishga suiqasd qilganlik uchun javobgar bo‘lishlari mumkin.

JK 273-moddasi 1-qismi bo‘yicha shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishning zaruriy sharti ko‘rsatilgan moddalarni **ko‘p bo‘lmagan miqdorda** o‘tkazish maqsadini ko‘zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash,

olish, saqlash va boshqa harakatlar qilishdir. Gashishning 0,1 g gacha, ko'knorining 1,0 dan 5,0 g gacha, kokainning 0,01 g gacha bo'lgan miqdori ko'p bo'lmagan miqdor deb e'tirof etiladi.

«Aybdor tomonidan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning faqat bir qismi sotilib, qolgani huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan topilgan va olib qo'yilgan hollarda, bunday vosita yoki moddalarning miqdori ularning umumiy miqdoridan kelib chiqqan holda belgilanadi».

JK 273-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat **subyektiv tomondan to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab qonunga xilof ravishda tayyorlayotgani, olayotgani, saqlayotgani va boshqa harakatlar qilayotgani yoki ularni qonunga xilof ravishda o'tkazayotganini anglaydi va shunday qilishni istaydi.

O'tkazish maqsadi jinoyat tarkibining zaruriy (konstruktiv) belgisi bo'lib, bunday maqsadning mavjudligi isbotlanmasa, qilmish JK 276-moddasi (Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar) bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

«Aybdorda qonunga xilof ravishda tayyorlangan, olingan, saqlanayotgan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadi borligi to'g'risidagi masalani hal etishda (Jinoyat kodeksi 273-moddasi), sudlar, bu vosita yoki moddalar haqiqatan ham o'tkazish uchun tayyorlanganligini namoyon etuvchi dalillar majmuiga asoslanmoqlari lozim. Masalan, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni faqat iste'mol qilinishini istisno etadigan miqdorda topilganligi, narkotiklar yoki psixotrop moddalarning ma'lum o'lchamda qadoqlanganligi, tashish yoki jo'natishda ularni maxsus maxfiy joyga yashirilganligi, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni tayyorlash uchun asbob-uskunalarining mavjudligi, aybdorning o'zi bangi emasligi to'g'risida ekspertiza xulosa berganligi va h.k.lar. Ishning aniqlangan haqiqiy holatlariga qarab aybdorning harakatlari Jinoyat kodeksining 25-, 273-moddasining 5-qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak».

16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs jinoyat **subyekt** bo'lishi mumkin.

JK 273-moddasining 2-qismida birinchi qismda nazarda tutilgan qilmishlar ozginadan ko'proq miqdorda sodir etilgani uchun javobgarlik belgilangan. (*Ozginadan ko'proq miqdorda tushunchasi mazmuni JKning 271-moddasiga sharhning 14-bandida bayon qilingan*).

JK 273-moddasi 3-qismida ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan qilmishlar:

a) ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

v) ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tash joylarida;

g) o'quv yurtlarida yoki o'quvchilar, studentlar o'quv, sport va jamoat tadbirlarini o'tkazadigan boshqa joylarda sodir etilgani uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

(Mazkur javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarning xususiyatlari haqida JK 247, 270 va 271-moddalarining tahliliga qarang.)

JK 273-moddasi 4-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni**:

1) giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni laboratoriyalarda yoxud o'zganing mulki hisoblangan vositalar va asbob-uskunalaridan yoki prekursorlardan foydalangan holda qonunga xilof ravishda tayyorlash yoki qayta ishlashda;

2) bunday vositalarni iste'mol qilish yoki tarqatish uchun bangixonalar tashkil qilish yoki saqlashda;

3) ushbu moddaning ikkinchi yoki uchinchi qismida nazarda tutilgan qilmishlar:

a) o'ta xavfli retsivist tomonidan;

b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan jazoni og'irlashtiruvchi holatlar uchun javobgarlik belgilangan.

Birinchi holda maxsus maxfiy laboratoriyalarda, ilmiy-tekshirish institutlarining laboratoriyalarida, boshqa muassasalarda vositalar, asbob-

uskunalar, prekursorlardan foydalangan holda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni tayyorlash yoki qayta ishlash tushuniladi.

NOTA BENE !

Qayta ishlash deganda, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni tozalash, ya'ni ularni begona aralashmalardan xoli qilish tushunilishi lozim.

Aybdorning foydalanish uchun tayyor bo'lgan bir yoki bir necha giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni olish maqsadida qattiq yoki suyuq qorishmadagi giyohvandlik vositasining miqdorini kamaytirishga qaratilgan harakatlari ham qayta ishlash sifatida baholanishi darkor.

Amalda aksariyat hollarda o'simlik xomashyosi, xususan, ko'knor va nasha qayta ishlanadi. Bunday xomashyoni qayta ishlash elash, quritish, maydalash, presslash, ekstrakt shakliga keltirish, damlash kabi manipulyatsiyalardan iborat bo'lishi mumkin.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni laboratoriyalarda yoxud o'zganing mulki hisoblangan vositalar va asbob-uskunalaridan yoki prekursorlardan foydalangan holda qonunga xilof ravishda tayyorlash yoki qayta ishlash giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning foydalanish uchun tayyor bo'lgan, shuningdek, bitta dozasi yaratilgan paytdan e'tiboran **tugallangan** hisoblanadi.

JK 273-moddasi 4-qismiga ko'ra bangixona deganda, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilish yoki tarqatish uchun foydalanilgan turar joy yoki turar joy bo'lmagan bino yoki xona tushunilishi lozim.

NOTA BENE !

Bangixonalar tashkil qilish – bino yoki xonani giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste'mol qilish yoki tarqatish uchun moslashtirish, bu yerga giyohvandlarni chorlash va boshqa shunga o'xshash harakatlarni o'z ichiga olgan faoliyat.

Shaxsning bangixonani moslashtirishga va uning faoliyatini ta'minlashga qaratilgan harakatlari (ta'mirlash, tozalash, mebel bilan jihozlash va h.k.), agar ular bangixona tashkil qilinganidan keyin amalga oshirilgan bo'lsa, bangixonani tashkil qilish hisoblanmaydi.

Mazkur jinoyat bangixonani tashkil qilishga bevosita qaratilgan harakatlar boshlangan paytdan e'tiboran, uning faoliyat ko'rsata boshlagan-boshlamaganidan qat'i nazar, **tugallangan** deb e'tirof etiladi.

Bangixonalar saqlash giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilish uchun maxsus sharoit yaratilgan xonalarni uchinchi shaxslarga bunday vositalar (moddalar)ni iste'mol qilish yoki tarqatish uchun muntazam ravishda berib turishda namoyon bo'ladi. Masalan, giyohvandlarni qabul qilish, ularni shprislar hamda giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish uchun boshqa moslamalar bilan ta'minlash va sh.k.

Aybdorga hech qanday aloqasi bo'lmagan binolar yoki xonalar (tashlandiq uy, ko'p qavatli uy yerto'lasini yoki chodog'i va sh.k.)da joylarni moslashtirish bangixonani saqlash sifatida qaralishi mumkin emas.

Bangixonani saqlash aybdor bangixonani saqlashga qaratilgan har qanday harakatlarni amalga oshirgan paytdan e'tiboran **tugallangan** deb e'tirof etiladi.

O'ta xavfli retsidivist tomonidan yoki uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish kabi javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar yuqorida, xususan JK 270-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining tahlilida yoritilgan belgilar bilan aynan o'xshashdir.

JK 273-moddasi 4-qismida nazarda tutilgan jinoyat **subyektiv tomondan to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda tayyorlayotgani yoki qayta ishlayotganini yoki bunday vositalarni iste'mol qilish yoki tarqatish uchun bangixonalar tashkil qilayotgani yoki saqlayotganini anglaydi va bunday qilishni istaydi.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilish yoki tarqatish uchun bangixonalar tashkil qilish yoki saqlashning subyektiv tomoni zaruriy belgisi bo'lgan **maqsad** – giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilish uchun xonalarning berib turilishidir. Bunda aybdor o'zining qonunga xilof faoliyatidan moddiy naf ko'rish maqsadini ko'zlaganligi yoki ko'zlamaganligi ahamiyatga ega emas.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni ko'p miqdorda qonunga xilof ravishda sotishdan iborat harakatlar **JK 273-moddasi 5-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

NOTA BENE !

Sotish deganda, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni haq evaziga o'tkazish tushuniladi. JK 273-moddasi 5-qismida nazarda tutilgan jinoyatning tarkibi ko'p miqdordagi giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar qonunga xilof ravishda sotilganida vujudga keladi (jinoyat **tugallangan** deb e'tirof etiladi).

Subyektiv tomondan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni ko'p miqdorda qonunga xilof ravishda sotish ham **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi.

JK 273-moddasi 6-qismida ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan qilmishni sodir etgan shaxs o'z ixtiyori bilan aybini bo'yniga olib, hokimiyat organlariga arz qilsa va giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni topshirsa, uning jazodan ozod qilinishi belgilangan.

Ko'rsatilgan vositalar va moddalarni **o'z ixtiyori bilan topshirish** deganda, shaxsning amalda ularni tasarruf etish imkoniyatiga ega bo'la turib, o'z ixtiyori bilan ushbu moddalarni hokimiyat organlariga topshirishi tushuniladi.

«Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'z ixtiyori bilan topshirgan shaxs topshirilgan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni tayyorlaganligi, olganligi, shuningdek, ularni saqlaganligi, tashiganligi va jo'natganligi uchun jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi.

Shaxsning giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishi munosabati bilan tibbiy yordam ko'rsatishni so'rab tibbiyot muassasalariga o'z ixtiyori bilan murojaat qilganligi, uni ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda olganligi, saqlaganligi, tashiganligi va jo'natganligi, iste'mol qilganligi uchun jinoiy javobgarlikdan ozod qilishga faqat bunday murojaat shaxsning bangilikdan tuzalish niyati bilan qilingan va uni fosh etilishi bilan bog'liq bo'lmagan hollardagina asos bo'lishi mumkin».

4-§. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb etish (JK 274-moddasi)

Giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni har qanday shaklda iste'mol qilishga jalb etish jamiyat uchun o'ta xavflidir, chunki bunday harakatlar ushbu vositalar va moddalarni tarqatishning bir usuli hisoblanib, ko'rsatilgan vositalar va moddalarni notibbiy maqsadlarda iste'mol qilishga ruju qo'ygan shaxslar miqdorining ko'payishiga, giyohvandlik vositalarining qonunga xilof muomalasi bilan bog'liq qilmishlarning o'sishiga sabab bo'ladi.

Jinoyatning **asosiy bevosita obyekti** giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddalar bilan muomalada bo'lishning belgilangan tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. **Qo'shimcha obyekti** – jamoat xavfsizligi, aholining sog'lig'idir.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyatning **predmeti** mavjud emas, chunki jinoyat obyekti bo'lgan ijtimoiy munosabatlar doirasiga giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddalar kirmaydi. Giyohvandlik vositalari va qonunda ko'rsatilgan boshqa moddalar jinoyatni sodir etish vositasi hisoblanadi, shaxs ulardan foydalanib muayyan natija – ularni iste'mol qilishga o'zga shaxslarni jalb etish va shu tariqa ularni ushbu moddalarga qaram qilishga harakat etadi.

JK 274-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni har qanday shaklda iste'mol qilishga jalb etishda ifodalanadi.

Mazkur jinoyatning obyektiv tomoni jinoiy natija – o‘zga shaxsni giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta’sir etuvchi boshqa moddalarni har qanday shaklda iste’mol qilishga jalb etishga qaratilgan faol xulq-atvor (harakat) bilan tavsiflanadi.

Harakat **undashda**, ya’ni subyektning o‘zga shaxsda ko‘rsatilgan vositalar yoki moddalarni iste’mol qilish maylini uyg‘otishga qaratilgan har qanday qasddan qilingan harakatlar (unatish, taklif qilish, maslahat berish va sh.k.)da, shuningdek, ta’sir o‘tkazilayotgan shaxsni giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste’mol qildirish maqsadida aldash, ruhiy yoki jismoniy zo‘rlik ishlatish, ozodligini cheklash va h.k.larda aks etadi.

Undash shaxsni ushbu moddalarni iste’mol qilishga ishontirish va majburlashda ifodalanadi. Undashning ishontirish va majburlash shakli turli usul va harakatlar yig‘indisi bo‘lib, jinoiy qilmish subyektini ularning yordamida o‘z niyati – o‘zga shaxsni giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta’sir etuvchi boshqa moddalarni iste’mol qilishga jalb etishni ro‘yobga chiqarishga harakat qiladi.

NOTA BENE !

Ishontirish yo‘li bilan amalga oshiriladigan undash deganda, o‘zga shaxsda giyohvandlik vositalari yoki boshqa moddalarni unatish, taklif qilish, maslahat berish, qiziqtirish, ustidan kulish, haq berishni va’da qilish (sotib olish) va h.k.lar vositasida iste’mol qilishga maylini uyg‘otishga qaratilgan har qanday ta’sir ko‘rsatish tushuniladi.

NOTA BENE !

Majburlash yo‘li bilan amalga oshiriladigan undash o‘zga shaxsni uning xohish-ixtiyoriga zid ravishda qonunda ko‘rsatilgan qo‘rqitish, aldash, shantaj qilish, ozodlikni cheklash, urib-do‘pposlash, qiynash, azob berish, badanga har xil og‘irlikda shikast yetkazish yoki zo‘rlik ishlatishning boshqa usullari vositasida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste’mol qilishga majbur qilish maqsadida jabrlanuvchini jalb qiluvchining xohish-irodasiga bo‘ysundirishga qaratilgan ruhiy yoki jismoniy tazyiq o‘tkazishida ifodalanadi.

Agar jabrlanuvchiga jismoniy zo'rlik ishlatish yo'li bilan jalb qilish chog'ida uning badaniga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazilgan bo'lsa, aybdorning qilmishi **JK 274-moddasi 1-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinadi. Ammo jabrlanuvchining badaniga og'ir shikast yetkazilgan taqdirda aybdorning qilmishi jinoyatlar majmui bo'yicha JK 104-moddasi (Qasddan badanga og'ir shikast yetkazish) va **JK 274-moddasi** bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishga o'zga shaxsni ishontirish yoki majburlash bilan bevosita bog'liq bo'lmagan harakatlar (masalan, mazkur vositalar yoki moddalarni o'zga shaxslarning oldida tayyorlash, ularni iste'mol qilish, namoyish qilish va h.k.) undash sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas.

Jinoiy undashning davom etish vaqti jalb etuvchi qo'llagan undash shakllari, usullari; undash yuz bergan sharoit; jinoiy qilmish subyekti bilan jabrlanuvchining o'rtasidagi munosabatlar; giyohvandlik vositalari, psixotrop va boshqa moddalarni iste'mol qilishga jabrlanuvchining moyillik darajasi va h.k.larga bog'liq bo'ladi. Shu sababli undash bir martalik va davomli jarayon bo'lishi ham mumkin. Biroq, huquqiy baho berish uchun o'zga shaxsni giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki boshqa moddalarni iste'mol qilishga ishontirish yoki majburlashga bevosita qaratilgan dastlabki harakatlar muhim ekanligi hisobga olinib, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun yetarli asos deb hisoblanadi.

Mazkur jinoyat shaxsda giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishga mayl uyg'otishga yoki shaxsni bunday vositalar yoki moddalarni iste'mol qilishga majburlashga qaratilgan harakatlar boshlangan paytdan e'tiboran **tugallangan** deb e'tirof etiladi. Jalb etish uchun jinoiy javobgarlik hatto bunday harakatlar bir karra amalga oshirilgan holda ham kelib chiqadi va jabrlanuvchi giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni ilgari tibbiy ko'rsatmaga binoan yoki shifokor ko'rsatmasisiz iste'mol qilgani qilmishni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas.

Agar ko'rsatilgan vositalar yoki moddalarni iste'mol qilishga jalb etgan shaxs ayni vaqtda ularni qonunga xilof ravishda o'tkazgan yoki ularni qonunga xilof ravishda egallash yoki tayyorlash, olish, saqlash, tashish, jo'natishga ko'maklashgan bo'lsa, uning harakatlari jinoyatlar majmui bo'yicha **JK 274-moddasi** va ishning holatlariga qarab JK 271-moddasi yoki 273-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Shaxsning giyohvandning iltimosiga ko'ra, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni olishda yordam ko'rsatishi borasidagi harakatlari qo'shimcha kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddalar jinoyatni sodir etish **vositasi** hisoblanadi.

(«Giyohvandlik vositalari» va «psixotrop moddalar» tushunchalarining mazmuni haqida batafsilroq JK 270-moddasi tahliliga qarang.)

NOTA BENE !

Shaxsning aql-idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa moddalar qatoriga ongni zaharlaydigan, maishiy hayotda, ishlab chiqarishda, aholiga tibbiy yordam ko'rsatishda keng qo'llaniladigan, ongni zaharlaydigan, ularning aksariyati bilan muomalada bo'lishning alohida tartibi belgilanmagan bir qancha preparatlar (masalan, bug'laridan nafas olish gangitadigan loklar, bo'yoqlar, ayrim navdagi yelimlar) kiradi.

Vosita va moddalarning bu guruhi uchun normativ belgi yo'qligi tufayli tergov-sud amaliyotida quyidagi metod, ya'ni agar ekspertiza xulosasiga muvofiq iste'mol qilinganda ongni zaharlaydigan va boshqa nojo'ya ta'sirlarga sabab bo'ladigan dori preparatlari yoki boshqa moddalar xalqaro Konvensiya lar va davlat doirasida qabul qilingan normalarga muvofiq giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarga mansub deb topilmagan bo'lsa, ular shaxsning aql-idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa moddalar sifatida qaralishi lozim.

Subyektiv tomondan JK 274-moddasida nazarda tutilgan jinoyat **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor o'zga shaxsni giyohvandlik

vositalari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishga unatish, aldash, ruhiy yoki jismoniy zo'rlik ishlatish yo'li bilan yoki boshqacha usulda jalb etayotganini anglaydi va ushbu shaxs bunday vositalar yoki moddalarni iste'mol qilishini istaydi.

Maqsad va **motivlar** jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas.

16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs jinoyat **subyekt** bo'lishi mumkin.

Voyaga yetgan shaxs giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishga voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan bo'lsa, u holda qilmish JK 127-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

16 yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs boshqa voyaga yetmagan shaxsni giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki aql-idrokka ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishga jalb etishi **JK 274-moddasi** bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb etishni JK 273-moddasida nazarda tutilgan ushbu moddalarni qonunga xilof ravishda o'tkazishdan farqlash lozim. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni tarqatish shakli hisoblangan o'tkazish, ya'ni o'zga shaxslar ixtiyoriga va tasarrufiga berish ko'rsatilgan vositalar yoki moddalarni pulga yoki tekinga sotishning har qanday usullarini nazarda tutadi. Giyohvandlik vositasi yoki psixotrop moddani o'zga shaxsga o'tkazishning oddiy usuli, ya'ni ularni sotish, hadya qilish, qarz evaziga berish, qarzga berish, ayirboshlash va h.k.lar o'z mazmuniga ko'ra, jalb etuvchi mazkur qilmishga o'zga shaxsni og'dirayotganda qo'llaydigan usullar bilan mos kelmaydi, chunki bu doim giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb etish maqsadida ruhiy ta'sir o'tkazishni nazarda tutadi, bu esa o'tkazishga xos emas. Binobarin, agar o'tkazish jabrlanuvchida unga o'tkazilayotgan giyohvandlik vositasini iste'mol qilishga mayl uyg'otish maqsadida unga ruhiy ta'sir o'tkazish bilan birga amalga oshirilgan bo'lmasa, u faqat JK 273-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni tashkil qiladi.

Jalb etishda jalb etuvchining dastlabki tashabbusini mazkur jinoyatning zaruriy sharti deb hisoblash lozim. o'tkazish doim giyohvandlik vositasi yoki psixotrop moddani sotish chog'ida yuz beradi va bunda kim tashabbus ko'rsatgani ahamiyatga ega bo'lmaydi. Agar giyohvandlik vositasi yoki psixotrop modda uni olishni istagan shaxsning iltimosiga, tashabbusiga binoan o'tkazilayotgan bo'lsa, bu moddalarni iste'mol qilishga jalb etish tarkibi mavjud bo'lmaydi, qilmish o'tkazuvchi uchun JK 273-moddasi bilan, oluvchi uchun esa, maqsadga qarab, JK 273-moddasi yoki 276-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Giyohvandlik vositasi yoki psixotrop modda haq evaziga o'tkazilgan bo'lsa, ko'rib chiqilayotgan jinoyatlarning majmui mavjud bo'lmaydi. Bunday o'tkazish harakatlari, odatda, jalb etish bilan bog'liq bo'lmaydi, chunki ularni sodir etishga tamagirlik niyati turtki berib, bundan naf ko'rish maqsadi ko'zlangan bo'ladi.

Motiv va maqsad aybning mazmunini belgilaydi, ya'ni o'tkazuvchi giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'tkazar ekan, shu tariqa ularni iste'mol qilishga o'zga shaxsni jalb etishni emas, balki ko'rsatilgan vositalar yoki moddalarni sotishni va bundan moddiy foyda olishni ko'zlaydi. Ammo jalb etish haq evaziga o'tkazish bilan birga amalga oshirilgan taqdirda jinoyatlar majmui mavjud bo'ladi. Giyohvandlik vositalarini birovga mehmon qilish tariqasida tekinga o'tkazish yuz bergan va bu vaqt jihatidan ularni iste'mol qilishga ishontirish yoki majburlash (jalb etish) bilan mos kelgan taqdirda ham qilmish jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

JK 274-moddasi 2-qismida:

a) ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;

b) ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash joylarida;

v) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan sodir etilgan giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni har qanday shaklda iste'mol qilishga jalb etish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Jinoyat subyektini sifatida ilgari JK Maxsus qismining XIX bobida ko'rsatilgan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlardan birini yoki JK 127-moddasi (Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish) 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan hollarda, u mazkur jinoyat uchun hukm qilingan yoki qilinmaganligidan qat'i nazar, uning harakatlari **JK 274-moddasi 2-qismi «a» bandi** bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Agar giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishga jalb etish ozodlikdan mahrum qilish sifatidagi jazoni ijro etish joylarida (barcha turdagi koloniyalar va turmada) amalga oshirilgan bo'lsa, qilmish **JK 274-moddasi 2-qismi «b» bandi** bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishga ikki yoki undan ortiq shaxsni jalb etish, bu bir vaqtda yoki oldinma-кетин amalga oshirilganligidan qat'i nazar, **JK 274-moddasi 2-qismi «v» bandi** bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. «Aybdorning ikki yoki undan ortiq shaxslarda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilish maylini uyg'otishga qaratilgan harakatlari, bu harakatlar bir necha shaxslarga nisbatan bir vaqtning o'zida yoki ularning har biriga nisbatan turli vaqtda sodir etilganligidan qat'i nazar, JK 274-moddasining 2-qismi «v» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak».

5-§. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar ishlab chiqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish (JK 275-moddasi)

Jinoyatning **bevosita asosiy obyekti** giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni ishlab chiqarish va tarqatish bilan shug'ullanuvchi davlat korxonalarini, tashkilotlar, muassasalarning normal faoliyatini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir. **Qo'shimcha obyekt** – aholi sog'lig'ining xavfsizligi hisoblanadi.

Jinoyatning **predmetini** giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar tashkil etadi.

(Mazkur tushunchalar mazmuni JK 270-moddasi tahlilida batafsil berilgan.)

JK 275-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni ishlab chiqarish, saqlash, hisobga olish, berish, tashish yoki jo‘natishning belgilangan qoidalarini buzish bilan tavsiflanadi.

Ko‘rib chiqilayotgan norma blanket dispozitsiyali bo‘lib, javobgarlik normativ hujjatlarda ifodalangan, ko‘rsatilgan vositalar yoki moddalarni ishlab chiqarish, saqlash, hisobga olish, berish, tashish yoki jo‘natishga taalluqli bo‘lgan qaysi maxsus qoidalar aybdor tomonidan buzilganini va uning qaysi konkret qilmishida bu qoidabuzarlik namoyon bo‘lganini aniqlash zaruriyatini belgilaydi. Ko‘rsatilgan qoidalarni tartibga soluvchi normativ hujjatlar qatoriga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lishi bilan bog‘liq faoliyatni litsenziyalash to‘g‘risida» 2003 yil 16 iyundagi 315-son qarori; Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan ekspertlik faoliyatida foydalanish tartibi to‘g‘risidagi Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 26 iyundagi 288-son qaroriga ilova); O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lish tartibini belgilab beruvchi nizomlarni tasdiqlash to‘g‘risida» 2003 yil 29 oktyabrdagi 472-son qarori; O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi va Ichki ishlar vazirligining «Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash bo‘yicha texnik talablar to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida» 2001 yil 17 iyundagi 2/2-son qarori (Adliya vazirligi tomonidan 2001 yil 11 iyulda 1048-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan); Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan tibbiy maqsadlarda foydalanish tartibi (O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirining 2001 yil 19 yanvardagi 29-son buyrug‘iga 1-ilova); Giyohvand moddalar, psixotrop vositalar va prekur-

sorlarni saqlash, berish, sotish, taqsimlash va hisobga olish shartlari to‘g‘risidagi Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirining 2001 yil 28 noyabrdagi 527-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2001 yil 29 dekabrda 1090-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan) va boshqa hujjatlar kiradi.

«Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida»gi Qonunning 18-moddasiga muvofiq giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarini ishlab chiqish faqat davlat ehtiyojlari uchun buyurtmaga muvofiq mazkur faoliyat turi uchun litsenziyasi bo‘lgan davlat ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan amalga oshiriladi. Tibbiy maqsadlarda foydalaniladigan yangi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Shu Qonunning 19-moddasiga muvofiq II ro‘yxatga kiritilgan giyohvandlik vositalarini Qonunda belgilangan maqsadlarda **ishlab chiqarish** va tayyorlash O‘zbekiston Respublikasining ehtiyojlari doirasida davlat korxonalarini va muassasalari tomonidan, muayyan giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish va tayyorlash uchun litsenziyalari bo‘lgan taqdirda amalga oshiriladi. III ro‘yxatga kiritilgan psixotrop moddalarni qonunda belgilangan maqsadlarda ishlab chiqarish va tayyorlash maxsus vakolatli organ qaroriga muvofiq yuridik shaxslar tomonidan, muayyan psixotrop moddalarni ishlab chiqarish va tayyorlash uchun litsenziyalari bo‘lgan taqdirda amalga oshiriladi. IV ro‘yxatga kiritilgan prekursorlarni qonunda belgilangan maqsadlarda ishlab chiqarish va tayyorlash O‘zbekiston Respublikasining ehtiyojlari doirasida davlat korxonalarini va muassasalari tomonidan, muayyan prekursorlarni ishlab chiqarish va tayyorlash uchun litsenziyalari bo‘lgan taqdirda amalga oshiriladi. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni ishlab chiqarish va tayyorlashni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi.

Ko‘rsatilgan Qonunning 13-moddasiga muvofiq giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni **saqlash** maxsus ajratilgan va jihozlangan joylarda, vakolatli organ tomonidan belgilangan tartibda

mazkur faoliyat turi uchun litsenziyasi bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshirilishi tushuniladi.

Hisobga olish qoidalarini buzish giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning muomalasi bilan bog‘liq operatsiyalarni maxsus ro‘yxatga olish jurnallarini yuritish va saqlash tartibining buzilishidir. Belgilangan qoidalar giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning muomalasi bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga ro‘yxatdan o‘tkazish jurnallarini yuritish majburiyatini yuklaydi. Jurnalda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning miqdori va holati o‘zgarishiga sabab bo‘luvchi faoliyatni amalga oshirish chog‘idagi har qanday operatsiyalar ko‘rsatib o‘tilishi lozim.

Ko‘rsatilgan Qonunning 14-moddasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni **berish**, sotish va taqsimlash maxsus vakolatli organ belgilagan tartibda, yuridik shaxslar tomonidan, mazkur faoliyat turlari uchun litsenziyalari bo‘lgan taqdirda amalga oshirilishi belgilangan.

Qonunning 12-moddasiga muvofiq giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni **olib kirish (olib chiqish)ga** litsenziya, shuningdek, olib kirish (olib chiqish) huquqi to‘g‘risida maxsus vakolatli organ tomonidan beriladigan sertifikat bo‘lgan taqdirda yo‘l qo‘yiladi. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni maxsus vakolatli organ ruxsatisiz O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit tarzida o‘tkazish taqiqlanadi.

Shu Qonunning 16–17-moddalariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni **tashish** maxsus vakolatli organ belgilagan tartibda, yuridik shaxslar tomonidan, mazkur faoliyat turi uchun litsenziyasi bo‘lgan taqdirda amalga oshiriladi. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni pochta jo‘natmalarida, shu jumladan, xalqaro pochta jo‘natmalarida **jo‘natish** taqiqlanadi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Belgilangan qoidalarni buzish yuqorida ko‘rsatilgan normalar va qoidalarga rioya etmaslikda, shuningdek, giyohvandlik vositalari,

psixotrop moddalardan foydalanish va ularni sotish tartibi ustida lozim darajada nazorat qilmaslikda ifodalanadi.

Jinoyat giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni ishlab chiqarish, saqlash, hisobga olish, berish, tashish yoki jo‘natishning belgilangan qoidalari buzilgan paytdan e’tiboran, ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz bergani yoki yuz berish real xavfi yaratilgan (masalan, bu moddalar qonunga xilof muomalaga kiritilgan)ligidan qat’i nazar, **tugallangan** deb e’tirof etiladi.

Subyektiv tomondan bu jinoyat **qasddan** yoki **ehtiyotsizlik** orqasida sodir etilishi mumkin. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni ishlab chiqarish, saqlash, hisobga olish, berish, tashish yoki jo‘natishning belgilangan qoidalarini buzgan shaxs faqat mavjud qoidalar bilan tanish bo‘lgan taqdirdagina javobgarlikka tortiladi.

o‘ziga topshirilgan ish yuzasidan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni ishlab chiqarish, saqlash, hisobga olish, berish, tashish yoki jo‘natishning belgilangan qoidalariga rioya etishga majbur bo‘lgan, 16 yoshga to‘lgan mansabdor va o‘zga shaxslar ko‘rib chiqilayotgan jinoyatning **subyektiv** bo‘ladi.

6-§. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar (JK 276-moddasi)

Jinoyatning **asosiy bevosita obyektiv** giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalasi bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlardir. Qilmishning qo‘shimcha **obyektiv** aholi sog‘lig‘ining xavfsizligidir.

Jinoyatning **predmeti** giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalardir.

(Mazkur tushunchalar mazmuni haqida batafsilroq JK 270-moddasi tahliliga qarang.)

JK 276-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomonini** giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini

ko‘zlamay, qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, egallash, tashish yoki jo‘natish tashkil etadi.

(Bu qilmishlar tushunchasining mazmuni JK 273-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining tahlilida yoritilgan.)

Subyektiv tomondan mazkur jinoyat **to‘g‘ri qasd** bilan sodir etiladi. Shaxs giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda tayyorlayotganligi, saqlayotganligi, egallayotganligi, tashiyotganligi yoki jo‘natayotganligini angelaydi va shunday qilishni istaydi.

Shaxs giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning muomalasi bilan bog‘liq muayyan operatsiyalarni o‘tkazayotganida ularni o‘tkazish maqsadini ko‘zlamaganligi qilmishni mazkur modda bilan kvalifikatsiya qilinishi uchun asos hisoblanadi. Odatda, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni shaxsiy iste‘mol uchun qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, egallash, tashish yoki jo‘natish ushbu moddada nazarda tutilgan jinoyat tarkibini tashkil etadi.

16 yoshga to‘lgan aqli raso jismoniy shaxs jinoyat **subyektiv** bo‘lishi mumkin.

JK 276-moddasi 2-qismida:

a) ko‘p miqdorda;

b) ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan sodir etilgan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay, qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, egallash, tashish yoki jo‘natish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

(«Ko‘p miqdor» (**JK 276-moddasi 2-qismi «a» bandi**) va «ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs (**JK 276-moddasi 2-qismi «b» bandi**) tushunchalarining mazmuni yuqorida JK 270-moddasi va 271-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkiblarining tahlilida yoritilgan.)

JK 276-moddasi 3-qismida «Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan qilmishlarni sodir etgan shaxs o‘z ixtiyori bilan aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida hokimiyat organlariga arz qilsa va giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni topshirsa, jazodan ozod qilinadi», degan rag‘batlantiruvchi norma o‘z aksini topgan.

(«Ixtiyoriy topshirish» tushunchasining mazmuni haqida JK 273-moddasi tahliliga qarang.)

«Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar

1. Taqiqlangan ekinlarni yetishtirish qanday harakatlardan iborat? Bunday ekinlarga nimalar kiradi? JK 270-moddasi (Taqiqlangan ekinlarni yetishtirish)da nazarda tutilgan o‘rtacha kattalikdagi va katta ekin maydoni deganda nima tushuniladi?

2. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash qanday usullar orqali amalga oshiriladi? Mazkur jinoyat qachon tugallangan hisoblanadi?

3. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar sirasiga nimalar kiradi? Prekursorlar nima?

4. Shaxsning aql-idrokiga ta‘sir etuvchi boshqa moddalar sirasiga nimalar kiradi?

5. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish deganda nima tushuniladi? Bu tushuncha qaysi jinoiy qilmishlarni o‘z ichiga oladi?

6. JK 273-moddasi (Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek, ularni qonunga xilof ravishda o‘tkazish) bo‘yicha shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun qanday zaruriy shart mavjud bo‘lishi kerak?

7. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish nima?

8. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilish yoki tarqatish uchun bangixonalar tashkil qilish yoki saqlash nimadan iborat?

9. Giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishga jalb etish deganda nima tushuniladi? Uning qanday turlari, sodir etish usullari bor?

10. JK 274-moddasi (Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb etish) uchun jinoiy javobgarlikka tortishning qanday zaruriy shartlari bor?

11. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar ishlab chiqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish nimalarda ifodalanadi?

12. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar nimalardan iborat?

Qo'shimcha adabiyotlar

O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar

Ахмедов Г., Кадыров М. Наркомания. Преступность. Ответственность. – Т.: 1989.

Гасанов Э.Г. Наркотизм: тенденции и меры преодоления. – М.: Учебно-консультационный центр «ЮрИнфоР», 1997.

Икрамова М.Г. Уголовно-правовая борьба с наркоманией. – Т.: «Фан», 1982.

Икрамова М.Г. Ответственность за организацию и содержание притонов для потребления наркотиков. – Т.: 1994.

Кадыров М.М. Уголовно-правовая борьба с незаконным возделыванием наркотикосодержащих культур. – Т.: 1991.

Кадыров М.М. Проблемы уголовно-правовой борьбы с незаконным оборотом наркотических средств. – Т.: «Ўзбекистон», 1993.

Калачев Б.Ф., Моднов И.С. Незаконное распространение наркотиков как многофакторная угроза национальной безопасности России. – М.: 1998. – 52 Б.

Каракетов Ю.М. О пьянстве, алкоголизме, токсикомании, наркомании, преступности и законе. – Нукус.: «Билим», 1997. – 192 Б.

Курманов К.Ш. Наркомания: уголовно-правовые и криминологические проблемы. – Фрунзе: 1989.

Майоров А.А., Малинин В.Б. Наркотики: преступность и преступления. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002.

Мирошниченко Я.А., Музыка А.А. Уголовно-правовая борьба с наркоманией. – Киев: 1988.

Противодействие незаконному обороту наркотических средств и психотропных веществ. Учебное пособие / Под ред. А.Н. Сергеева. – М.: Центр юридической литературы «Щит», 2001. – 580 Б.

Прохорова М.Л. Наркотизм: уголовно-правовое и криминологическое исследование. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 287 Б.

Романова Л.И. Наркомания и наркотизм. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2003. – 481 Б.

Ўзбекистон Республикасида гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалар ва прекурсорларнинг айланиши бўйича норматив ҳужжатлар тхплами / Тузувчилари: Т.К. Азизов, А.А. Туляганов. – Т.: 2005.

Ткачевский Ю.М. Правовые аспекты борьбы с наркоманией и алкоголизмом. – М.: 1990.

Хоменкер М.Л. Борьба с преступлениями, связанными с наркотическими веществами. – Т.: 1976.

Ilmiy maqolalar

Абдумажидов А., Абдурасулова К.Р. Правовой анализ организованной преступности и наркомании. // Ж. Научные Труды Академии финансовой полиции. Вып. 2. Алматы.: Жеты жаргы. 2001. 144–147-б.

Абдухаликов М.А. Проблемы распространения наркомании и международно-правовой аспект // Гиёҳвандликка қарши кураш: назария ва амалиёт (ижтимоий-ҳуқуқий жиҳатлар). Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Т.: СилМЭГ, 2002. – 48–54-б.

Ахроров Б.Ж., Бакунов П.Б. Гиёҳвандлик ёки психотроп моддалар ишлаб чиқариш ёки улардан фойдаланиш қоидаларини бузиш жиноятларининг субъектлари ва уларни квалификация қилиш муаммолари // Гиёҳвандликка қарши кураш: назария ва амалиёт (ижтимоий-ҳуқуқий жиҳатлар). Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Т.: СилМЭГ, 2002. – 72–74-б.

Икрамова М.Г. Судебная практика по борьбе с наркоманией // Сборник научных трудов ТашГУ, – Т.: ТашГУ, 1980, № 636.

Калачев Б.Ф., Сухачевская М.В., Целинский Б.П. Подпольное производство наркотиков. Теоретические и правовые основы борьбы с незаконным оборотом наркотиков // Сборник научных трудов. – М.: ВНИИ МВД РФ, 1998. – 86–94-б.

Раҳмонқулов А.Х., Қодиров М.М., Айдаров Т.Т. Гиёҳвандлик воситалари ёки психотроп моддалар билан муомала қилганлик учун жавобгарликнинг айрим муаммолари // Ҳуқуқ–Право–Law. 1999. № 2. – 89–93-б.

Сбирунов П.Н. Состояние теоретической разработки проблем борьбы с незаконным оборотом наркотиков и их злоупотреблением. Теоретические и правовые основы борьбы с незаконным оборотом наркотиков. // Сборник научных трудов. – М.: 1998. – 14–31-б.

Тоҳиров Ф. Гиёҳвандлик – хавфли иллат // Инсон ва қонун. 2002. 5-сон. – 28–30-б.

□□□□□□□□□□. *Dynamics and perspectives of drunkenness in the some countries of CIS.*// International Journal of Research in Social Sciences.(2016), Volume 6, Issue 10, USA. P.598-604.

Ўразалиев М.Қ. Гиёҳвандликнинг салбий ижтимоий ходиса сифатидаги оқибатлари.// Ўзбекистон Республикаси Олий суд ахборотномаси. – Тошкент, 2016. №4. – Б. 32-34.

Ўразалиев М.Қ. Гиёҳвандликнинг умумий тавсифи // Суд-ҳуқуқ ислохотларини чуқурлаштириш шароитида жиноят кодексини унификация қилишнинг назарий ва амалий жиҳатлари // Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: ТДЮУ нашриёти, 2015. – Б. 100-105.


Ўразалиев М.Қ. Исторические развитие на алкоголизм и наркоманию как один из факторов преступности // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. Москва. 2015. №10. – С. 179-182.

Ўразалиев М.Қ. Наркомания – один из основных факторов роста преступности несовершеннолетних // Высшая школа-раскрытие научной новизны исследований. Уфа. 2015. № 12. – С. 11-13.

Утениязов М.К. Некоторое вопросы профилактики наркомании несовершеннолетних // Ж. Миллий истиклол Қояси ва мафкуриси фалсафий ва ҳуқуқий жиҳатлар. – Т.: ўзР ФА. Мўминов номидаги Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2001. – 56–58-б.

IV BOB. JAMOAT TARTIBIGA QARSHI JINOYATLAR

5-sxema



1-§. Bezorilik (JK 277-moddasi)

Jinoyatning **asosiy bevosita obyekti** jamoat tartibini ta'minlovchi munosabatlardir. **Qo'shimcha bevosita obyekti** shaxsning sog'lig'i, jismoniy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmatini, shuningdek, o'zganing mulki xavfsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

NOTA BENE !

Jamoat tartibi – xavfsizlik va fuqarolarning tinchligini, o'zgalar mulkini saqlashni, jamoat va davlat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning bir me'yorda ishlab turishini ta'minlashga yo'naltirilgan odamlar o'rtasidagi axloq va huquq normalariga asoslangan munosabatlar tartibidir.

Obyektiv tomondan bezorilik jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish-do'pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o'zganing mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish natijasida ancha miqdorda zarar yetkazishda ifodalanadi.

«Jamiyatda yurish-turish qoidalarini mensimaslik deganda, qonunlarga, axloq-odob normalariga, jamiyatda mavjud bo'lgan urf-odat va an'analarga hurmatsizlik tushuniladi».

Jamiyatda yurish-turish qoidalarini mensimaslik mo'ljallanmagan joylarda alkogolli ichimliklarni ichish, fuqarolarga haqoratomuz muomala va shilqimlik qilish, uyat so'zlar bilan so'kinish, jamoat joylarida

ochiqchasiga hojat chiqarish, yalang'och holda bo'lish, hayvonlar bilan shafqatsiz munosabatda bo'lish, o'simliklarga zarar yetkazish va h.k.larda ifodalanadi.

«Qonun mazmuniga ko'ra, aybdor o'zining harakatlari bilan jamoat tartibini buzayotganligini anglashi lozim. Bunda mazkur xatti-harakatlar bilan jamoat tartibini buzish o'rtasida sababiy bog'lanish bo'lishi shart. Sababiy bog'lanish aniqlanmagan holda qilmish shaxsga yoki mulkka qarshi qaratilgan jinoyat deb baholanishi lozim».

Jamiyatdagi yurish-turish qoidalarining buzilish fakti o'z-o'zidan jinoyat qonuniga muvofiq, jazoga loyiq bo'lgan bezorilik tarkibini tashkil etmaydi, balki ma'muriy huquqbuzarlikni tashkil etadi.

Sudlar bezorilik jinoyati bilan ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanmish mayda bezorilikni bir-biridan farqlashlari zarur. Mayda bezorilik tushunchasi O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 183-moddasida berilgan bo'lib, uning mazmuniga ko'ra, ushbu huquqbuzarlik jamoat joylarida uyatli so'zlar aytish yoki shunday so'zlar bilan so'kinish, behayo qiliqlar ko'rsatish yoxud odamlarga nisbatan haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibi va fuqarolar osoyishtaligini buzish kabi jamiyatda yurish-turish qoidalarini ochiqdan-ochiq mensimaslik harakatlarida ifodalanadi. Bunda **JK 277-moddasi 1-qismida** nazarda tutilgan jinoiy oqibatlar ro'y bermagan bo'lishi kerak. Guruh tomonidan sodir etilgan mayda bezorilikni, basharti, ularning harakatida **JK 277-moddasi 1-qismi** alomatlari bo'lmasa, **JK 277-moddasi 2-qismi «b» bandi** bilan kvalifikatsiya qilish mumkin emas.

Shuningdek, xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan mayda bezorilik ham o'z-o'zidan jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydi.

Agarda mayda bezorilik harakatlari davom ettirilib, aybdorning keyingi harakatlari shaxsni urish-do'pposlash, unga yengil tan jarohati yetkazish yoki mulkka ancha miqdorda shikast yetkazish yoxud nobud qilish bilan sodir etilgan bo'lsa, shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilmasdan, faqat **JK 277-moddasi** bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Jamiyatda yurish-turish qoidalarini buzish bilan urish-do‘pposlash yoki badanga yengil shikast yetkazish yoxud o‘zganing mulkini nobud qilish yoki unga shikast yetkazish o‘rtasida sababiy bog‘liqlikning mavjudligi bezorilik obyektiv tomonining zaruriy belgisi hisoblanadi.

Ko‘rib chiqilayotgan modda ma‘nosida **urish-do‘pposlash** deganda, aybdor tomonidan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan buzib, shaxsning badaniga shikast yetkazmagan holda bir necha zarba berish tushuniladi.

Bezorilikni sodir etish chog‘ida badanga yengil shikast yetkazish sog‘liqning buzilishiga olib kelishi ham, olib kelmasligi ham mumkin.

(«Mulknii nobud qilish», «mulkka shikast yetkazish» tushunchalarining mazmuni haqida JK 244-moddasi tahliliga qarang.)

JK 277-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan va urish-do‘pposlash, badanga yengil shikast yetkazish bilan bog‘liq bo‘lgan bezorilik urish-do‘pposlash yoki badanga yengil shikast yetkazish amalga oshirilgan paytdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi. o‘zganing mulkiga shikast yetkazish yoki nobud qilish bilan bog‘liq bo‘lgan jamiyatda yurish-turish qoidalarini mensimaslik ancha miqdorda zarar yetkazish tarzidagi oqibatlar yuz bergan paytdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan bezorilik to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi. Aybdor jamoat tartibini buzayotgani, do‘pposlayotgani, badanga shikast yetkazayotgani yoki o‘zganing mulkini nobud qilayotgani yoki unga shikast yetkazayotganini angelaydi va bu harakatlarni amalga oshirishni istaydi.

Mazkur jinoyatning **motivi** bezorilik, ya‘ni jamiyatga ochiqdan-ochiq hurmatsizlik motivi bo‘lib, u o‘zini atrofdagilarga g‘ayriqonuniy qarshi qo‘yishda, o‘zining alohida shaxsiyatini namoyon qilishda, dag‘al kuchni namoyish etishda aks etadi. Bunda jinoiy harakat qanday predmetga qaratilganligi va u qaysi ijtimoiy munosabatlar tizimida amalga oshirilayotganligi ahamiyatga ega emas.

Jamiyatga ochiqdan-ochiq hurmatsizlik deganda, umum e‘tirof etilgan, axloq, hukmron odatlar, an‘analar bilan mustahkamlangan xulq-

atvor qoidalari va me'yorlarini namoyishkorona mensimaslikni tushunish lozim.

Bezorilik niyati jinoiy qilmishning o'zi, jamoat tartibini buzish subyektga lazzat baxsh etishini anglatadi.

Bezorilikning **maqsadi** – zo'rlik ishlatish yo'li bilan jabrlanuvchini esankiratib qo'yish, uning irodasini sindirish, uni o'z hukmiga bo'ysundirish.

16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs **JK 277-moddasi 1-qismida** nazarda tutilgan bezorilikning **subyeksi** hisoblanadi, ko'rib chiqilayotgan moddaning **2-** va **3-qismlari** bo'yicha esa 14 yoshga to'lgan shaxslar ham shunday subyekt sifatida e'tirof etilishi mumkin.

JK 277-moddasi 2-qismida:

a) badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazib;

b) bir guruh shaxslar tomonidan;

v) sovuq qurol yoki kishining sog'lig'i uchun amalda shikast yetkazishi mumkin bo'lgan narsalarni (qurol sifatida) namoyish qilib, ularni qo'llash bilan qo'rqitib yoxud qo'llab;

g) o'z mazmuniga ko'ra, umum e'tirof etilgan axloq qoidalarini namoyishkorona mensimaslikda ifodalanuvchi o'taketgan behayolik bilan;

d) yosh bola, qariya, nogiron yoki ojiz ahvoldagi shaxslarni xo'rlab;

e) ko'p miqdorda zarar yetkazib, birovning mulkini nobud qilib yoki unga shikast yetkazib sodir etilgan bezorilik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan.

Bir guruh shaxslar tomonidan sodir etiladigan bezorilik bir guruh shaxslarning ko'rib chiqilayotgan jinoyat obyektiv tomonini bevosita bajarishida ifodalanadi, lekin ishtirokchilar oldindan til biriktirmagan holda harakat qiladilar. Bunday hollarda ishtirokchilar bezorilik sodir etayotgan bajaruvchiga qo'shiladilar.

Agar bezorilik sodir etish chog'ida sovuq qurol yoki shaxsning sog'lig'iga shikast yetkazishi mumkin bo'lgan boshqa narsalar namoyish qilingan (ko'rsatilgan), ularni ishlatish bilan qo'rqitilgan yoki ular ishlatilgan bo'lsa, aybdorning harakatlari **JK 277-moddasi 2-qismi «v» bandi** bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Sovuq qurol yoki shaxsning sog'lig'iga shikast yetkazishi mumkin bo'lgan boshqa narsalarni qo'llash deganda, aybdorning ular vositasida bezorilik harakatlari davomida jabrlanuvchiga tan jarohati yetkazgan yoki yetkazishga harakat qilganligi tushunilishi lozim.

Sovuq qurol deganda, o'z mohiyatiga ko'ra insonning hayoti va sog'lig'iga qarshi ishlatish uchun mo'ljallangan, sud-kriminalistik ekspertizasi xulosasiga muvofiq sovuq qurol deb topilgan narsalar tushuniladi.

(«Sovuq qurol» tushunchasining mazmuni haqida batafsilroq JK 242-moddasi tahliliga qarang.)

«Shaxsning sog'lig'iga amalda shikast yetkazishi mumkin bo'lgan boshqa narsalar turkumiga aybdor tomonidan o'sha maqsadlarda bezorilik harakatlari davomida foydalanilgan har qanday narsalar kiradi».

Sovuq qurol yoki ishlatilishi sog'liqqa amalda shikast yetkazishi mumkin bo'lgan narsani **namoyish qilish** deganda, bezorining o'z ixtiyorida mavjud bo'lgan narsalarni ularni ishlatish bilan qo'rqitmasdan ko'rsatishga qaratilgan har qanday harakatlarini tushunish lozim.

Sovuq qurol yoki ishlatilishi sog'liqqa amalda shikast yetkazishi mumkin bo'lgan narsalarni **qo'llash yoxud qo'llash bilan qo'rqitish** deganda, aybdorning shaxsga shikast yetkazishi yoki shikast yetkazishga harakat qilishidan iborat bo'lgan harakatlarni, shuningdek, mazkur narsalarning ishlatilishi shaxs sog'lig'i yoki hayotiga amalda tahdid uyg'otuvchi harakatlarni tushunmoq darkor.

NOTA BENE !

O'taketgan behayolik – jamiyatda qabul qilingan axloq qoidalarini, umum e'tirof etilgan hurmat, odob qoidalarini mensimaslik, jamoat joylarida shahvoniy tabiatga ega bo'lgan harakatlarni namoyishkorona bajarish, jamoat joyida qip-yalang'och holda paydo bo'lish, qariyalar, nogironlar, ojiz odamlar, ayollarni, tarixiy obidalarni tahqirlash va h.k.

Bezorilik harakatlarini **JK 277-moddasi 2-qismi «g» bandi** bilan kvalifikatsiya qilishda sud aybdorning aynan qaysi harakatlari o'taketgan behayolik deb baholanayotganligini hukmda ko'rsatishi shart.

«Bezorilik harakatlarini o‘taketgan behayolik bilan sodir etilgan deb topish masalasini hal etish chog‘ida sud ishning muayyan holatlari majmuidan kelib chiqishi hamda sodir etilgan jinoyatning xususiyati, vaqti, joyi va shart-sharoitlarini inobatga olishi lozim».

NOTA BENE !

Xo‘rlash – bu jabrlanuvchining sha’ni va qadr-qimmatini tahqirlashga, unga ma’naviy, jismoniy azob berishga qaratilgan har qanday harakatlar.

Qonun mazmuniga ko‘ra, **yosh bola** deganda 14 yoshga to‘lmagan shaxs, **qariya** deganda 55 yoshdan oshgan ayol va 60 yoshdan oshgan erkak, nogiron deganda esa, belgilangan tartibda I, II, III guruh nogironi yoki bolalikdan nogiron sifatida tan olingan shaxs tushuniladi.

Ojiz ahvol jabrlanuvchining jismoniy yoki ruhiy nosog‘lomligi tufayli jinoyatchiga qarshilik ko‘rsata olmasligida, o‘z huquqlari, manfaatlari, sha’ni va qadr-qimmatini himoya qila olmasligida, shuningdek, kutilayotgan xavfdan saqlana olmasligida namoyon bo‘ladi.

Jinoiy harakatni **JK 277-moddasi 2-qismi «d» bandi** bilan kvalifikatsiya qilish uchun aybdor shaxs jabrlanuvchining yosh bolaligi, qariyaligi, nogironligi yoki ojiz ahvolda ekanligini anglab yetgan bo‘lishi talab etiladi.

Ko‘p miqdorda zarar yetkazish, birovning mulkini nobud qilish yoki unga shikast yetkazish bilan bog‘liq holda sodir etilgan bezorilik **JK 277-moddasi 2-qismi «e» bandi** bilan qamrab olinadi va shuning uchun ham ushbu holatni JK 173-moddasi bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilish talab etilmaydi. Xuddi shuningdek, bezorilik oqibatida o‘zganing mulkiga shikast yetkazish yoki nobud qilish ancha miqdorda zarar yetkazish bilan bog‘liq holda sodir etilgan bo‘lsa, qilmishni **JK 277-moddasi 1-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinishining o‘zi kifoyadir.

JK 277-moddasi 3-qismida:

a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

b) o‘qotar qurolni namoyish qilib, uni qo‘llash bilan qo‘rqitib yoki qo‘llab;

v) ommaviy tadbirlar o‘tkazilayotgan vaqtda;

g) jamoat tartibini saqlash vazifasini bajarib turgan hokimiyat vakili yoki jamoatchilik vakiliga yoxud bezorilik harakatlarining oldini olish chorasini ko‘rgan boshqa fuqarolarga qarshilik ko‘rsatib sodir etilgan bezorilik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan.

(Takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan jinoyat sodir etilishi haqida JK 247- va 248-moddasi tahliliga qarang.)

Aybdorning harakatini **JK 277-moddasi 3-qismi «b» bandi** bilan kvalifikatsiya qilish uchun uning bezorilik harakatlari davomida o‘qotar qurolni namoyish qilganligi faktining o‘zi yetarlidir. Ish bo‘yicha aybdor tomonidan o‘qotar qurolni qo‘llashga tahdid qilinganligi yoki qo‘llanilganligi holatlari jazo tayinlashda e‘tiborga olinishi lozim.

(«O‘qotar qurol» tushunchasining mazmuni haqida JK 247-moddasi tahliliga qarang.)

Bunda sudlar shuni e‘tiborga olishlari lozimki, aybdorning harakatini **JK 277-moddasi 3-qismi«b» bandi** bilan kvalifikatsiya qilish uchun qurol jinoyat sodir etish paytida otishga yaroqli deb topilgan bo‘lishi shart. Basharti, yaroqsiz bo‘lsa, bezorilik **JK 277-moddasi 2-qismi «v» bandi** bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Agar bezorilik jinoyatini sodir etishda ishlatilgan yoki namoyish etilgan o‘qotar qurol tegishli ruxsatnomasiz aybdorning egaligida bo‘lgan bo‘lsa, qilmish JK 248-moddasi bilan ham qo‘shimcha kvalifikatsiya qilinadi.

Ommaviy tadbirlar paytidagi bezorilik ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqarish tahdidi bilan xavflidir.

Ommaviy tadbirlar deganda, belgilangan tartibda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek, o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan tashkil etilgan rasmiy tadbir (bayram sayllari, namoyishlar, mitinglar, majlislar, saylovlar, xalq hasharlari va h.k.)lar tushuniladi.

NOTA BENE !

Hokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatish – itarish, kiyimni yirtish, urish-do'pposlash, badanga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish, transport vositalaridan itarib tushirib yuborish, bezorilik harakatlarini to'xtatish talabiga javoban urib-do'pposlash bilan qo'rqitish va h.k.larda aks etuvchi faol harakatlar.

Bezorilik harakatlari davomida aybdor jamoat tartibini saqlash vazifasini bajarib turgan hokimiyat yoki jamoatchilik vakiliga yoxud bezorilik harakatlarining oldini olish (to'xtatish) chorasini ko'rgan boshqa fuqarolarga faol qarshilik ko'rsatsa, shu jumladan ularga nisbatan o'rtacha og'ir shikast yetkazish darajasida zo'rlik ishlatsa, bunday qilmish **JK 277-moddasi 3-qismi «g» bandi** bilan to'liq qamrab olinadi va JK boshqa moddalari bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilishni talab etmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi bu xususda shunday tushuntirish beradi: «Agar bezorilik harakatlarini to'xtatish chorasini ko'rayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatish paytida ishlatilgan zo'rlik natijasida aybdor tomonidan yana boshqa og'ir jinoyat sodir etilgan bo'lsa, bu hol bezorilik jinoyati tarkibi bilan qamrab olinmaydi.

Bezorilik harakatlari tugagandan keyin, shu jumladan aybdor ushlangandan so'ng ko'rsatilgan qarshilik bezorilik jinoyatining alomatlariga xos holat deb hisoblanmasligi va bunday holda qilmish jinoyatlar majmui bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladigan mayda bezorilik davomida jamoat tartibini saqlash vazifasini bajarib turgan hokimiyat yoki jamoatchilik vakiliga yoxud bunday harakatlarni to'xtatish chorasini ko'rgan fuqaroga nisbatan qarshilik ko'rsatilsa, bunday qilmish JK 277-moddasi 3-qismi «g» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas. Bu holda aybdorning harakatlari, ko'rsatilgan qarshilikning xususiyatiga qarab, JK Maxsus qismining tegishli moddalari bilan kvalifikatsiya qilinadi».

Agar jamoat tartibini saqlash vazifasini bajarib turgan hokimiyat vakili yoki jamoatchilik vakiliga yoxud bezorilik harakatlarining oldini

olish chorasini ko'rgan boshqa fuqarolarga qarshilik ko'rsatish bilan bog'liq bezorilikni amalga oshirish jarayonida badanga og'ir shikast yetkazilgan bo'lsa, aybdorning harakatlari jinoyatlar majmui bo'yicha JK 104-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

«Tergov organlari shaxsni ayblanuvchi tariqasida jinoyat ishida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi qarorida, ayblov xulosasida, sud esa hukmda qaysi alomatlarga ko'ra aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksi 277-moddasining tegishli qismi va bandlari bilan kvalifikatsiya qilinganligini aniq ko'rsatishi shart.

Agar sud, ayblanuvchi zimmasiga ilgari qo'yilgan ayblov bilan bog'liq boshqa ayblovni qo'yish uchun yoxud ayblovni og'irroq ayblov bilan yoki haqiqiy holatga ko'ra ayblov xulosasida nazarda tutilganidan jiddiy farq qiladigan ayblov bilan almashtirish uchun asoslar mavjud degan fikrga kelsa, jinoyat ishini qo'shimcha tergov yuritish uchun qaytaradi».

Bu o'rinda shuni nazarda tutish kerakki, sud aybdorning harakatini mazkur moddaning muayyan qismidagi bir banddan o'sha qismdagi boshqa bandga qayta kvalifikatsiya qilishga haqli emas.

Agar JK Maxsus qismining muayyan moddalarida (JK 277-moddasidan boshqa) bezorilik o'sha jinoyatni kvalifikatsiya qiluvchi alohida belgi sifatida nazarda tutilgan bo'lsa, bu holat qilmishni **JK 277-moddasi** bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilishni istisno etadi (masalan, JK 104-moddasi 2-qismi «e» bandi, 97-moddasi 2-qismi «l» bandi).

«Sudlar aybdor qasdining mohiyati va u nimaga qaratilganligidan, sodir etilgan harakatning motivi, maqsadi va muayyan holatlaridan kelib chiqqan holda bezorilikni boshqa jinoyatlardan farqlay olishlari kerak. Jumladan, oilada, uyda qarindosh-urug', tanish-bilishlarga nisbatan sodir etilgan haqoratlash, urish-do'pposlash, badanga yengil shikast yetkazish kabi harakatlar, agar ular shaxsiy kelishmovchilik natijasida kelib chiqqan bo'lsa yoxud jabrlanuvchining nojoiz xatti-harakatlari oqibatida sodir etilgan bo'lsa, shaxsga qarshi jinoyat deb baholanishi va JK Maxsus qismi tegishli moddalari bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Basharti, shaxs o'z xatti-harakatlari bilan ayni vaqtda jamoat tartibini buzayotganligini va

jamiyatga nisbatan ochiqdan-ochiq hurmatsizlik qilayotganligini ham yaqqol anglagan bo'lsa, qilmish bezorilik sifatida kvalifikatsiya qilinadi va shaxsga qarshi jinoyatlarni nazarda tutuvchi moddalar bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilishni talab etmaydi.

Bezorilik jinoyati aksariyat hollarda mastlik holatida yoki giyohvandlik vositalari, psixotrop yoxud kishining aql-idrokiga ta'sir qiluvchi boshqa moddalar ta'siri ostida sodir qilinishini inobatga olgan holda, sudlar, alkogolizmga, giyohvandlikka yoki zaharvandlikka yo'liqqan shaxslarga nisbatan, bu haqda ishda tegishli tibbiy xulosa mavjud bo'lganda, tibbiy yo'sindagi majburlov choralarni qo'llash masalasini hukmda muhokama qilishlari lozim».

2-§. Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish hamda o'tkazish (JK 278-moddasi)

«Ko'rilgan chora-tadbirlarga qaramasdan, milliy urf-odatlarimiz va aholining mentalitetiga yot bo'lgan qimor o'yinlarini g'ayriqonuniy ravishda tashkil etish holatlarining uchrashi davom etmoqda. Huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan o'smirlar va yoshlarni jalb etuvchi yashirin qimorxonalarini tashkil etish faktlari aniqlanmoqda».

Bu jinoyatning **ijtimoiy xavfliligi** shundan iboratki, qimor o'yinlarini tashkil etish hamda o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan qonunga xilof faoliyat naqd pullarning bankdan tashqari muomalasi ko'payishiga, soliqlar va boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlanishiga sharoit yaratadi va shu tariqa mamlakatning iqtisodiy asoslariga putur yetkazadi. Bundan tashqari, qimor o'yinlariga jalb etish fuqarolar, ayniqsa yoshlarning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, jamoat tartibining buzilishiga, spirtli ichimliklar me'yoridan ortiq iste'mol qilinishiga va ijtimoiy xavfli qilmishlar (odatda, shaxsga qarshi jinoyatlar va turli o'g'irliklar), shuningdek, suitsid (o'zini o'zi o'ldirish)ga zamin yaratadi.

JK 278-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **asosiy bevosita obyekti** jamoat tartibi, ya'ni muhim ijtimoiy munosabatlarning normal ishlab turishini, aniqroq aytganda, odamlarning normal ishlashi, o'qishi,

dam olishini ta'minlovchi, shuningdek, qimor o'yinlarini tashkil etish hamda o'tkazish, qimor biznesi rivojlanishi salbiy oqibatlarining oldini olish borasidagi faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish sohasidagi ijtimoiy munosabatlardir. **Qo'shimcha obyekt** O'zbekiston Respublikasi-ning iqtisodiyot asoslari, shuningdek, jamiyatning axloqiy negizlaridir.

JK 278-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat **obyektiv tomondan** qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etish yoki o'tkazish, shu jumladan ana shunday o'yinlar uchun qimorxonalar tashkil etish yoki ularni saqlashda ifodalanadi.

JK VIII bo'limida bayon etilgan qonun chiqaruvchining tushuntirishlariga binoan, **qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yin**– bu «o'yin tashkilotchisi (o'yin muassasasi) tomonidan bir yoki undan ortiq ishtirokchilar bilan tasodifga (voqeaga) va (yoki) o'yin ishtirokchisining qobiliyati, epchilligi va boshqa sifatlariga bog'liq bo'lgan yutuq to'g'risida tuzilgan, tavakkalchilikka asoslangan bitimga muvofiq o'yin tashkilotchilari va ishtirokchilarining xatti-harakatlari majmuini nazarda tutuvchi o'yin, shu jumladan totalizatorlar, kazino, shuningdek o'yin avtomatlaridan foydalaniladigan o'yin»dir.

Bunday o'yinlarni **tashkil etish** bir yoki bir necha shaxslarning ularni o'tkazish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratishga qaratilgan izchil harakatlari (bo'lg'usi qimorxonada xodimlarini tanlash, uning tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqish, qimorxonani belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazish niyati mavjud bo'lgan holda ustav hujjatlarini tayyorlash, moliyaviy masalalarni hal qilish, qimorxonani o'yinlar o'tkazish uchun maxsus jihozlar bilan ta'minlash, xodimlarni o'qitish va h.k.) majmuidir.

Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni o'tkazish yashirin o'yinxona yoki qimorxonadan bevosita ularning vazifasiga ko'ra foydalanish yoki o'ynovchilarning ehtiyojlarini o'zga sharoitda (masalan, Internetda, telekommunikatsiya tarmoqlarida) qondirishdan iborat. Qimor o'yinlarini o'tkazish chiptalarni tarqatish, tikilgan pullarni qabul qilish, yutuqlar o'tkazish, yutuq fondini shakllantirish va taqsimlash, yutuqni to'lash kabi tadbirlar majmuini o'z ichiga olishi mumkin.

Qilmish **JK 278-moddasi 1-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinishi uchun qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish yoki ularni o'tkazish **qonunga xilof** bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 martdagi «Qimor o'yinlarini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq g'ayriqonuniy faoliyatning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, shuningdek, qimor o'yinlarini tashkil etish va o'tkazish faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish, g'ayriqonuniy qimor o'yinlarini tashkil etishga hamda ularga o'smirlar va yoshlarni jalb etishga ko'maklashuvchi shart-sharoitlarga barham berish, qimor biznesining rivojlanishi salbiy oqibatlarining oldini olish, g'ayriqonuniy qimor o'yinlari tashkilotchilari va qatnashchilarining javobgarligini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Qimor o'yinlarini tashkil etish va o'tkazishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi va unga ko'ra 2007 yil 1 sentyabrdan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida qimor o'yinlarini va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni (shu jumladan totalizatorlar) tashkil etish va o'tkazish (tirajli, bir lahzali va raqamli lotereyalardan tashqari) taqiqlandi.

Ya'ni ko'rib chiqilayotgan turdagi o'yinlarni tashkil etish yoki o'tkazishning o'zi qonunga xilofdir, lotereyalar bundan mustasno. Lotereyalarni tashkil etish hamda o'tkazish ular litsenziyalash tartibini buzish bilan bog'liq bo'lgan hollardagina g'ayriqonuniy bo'ladi. Qonun hujjatlariga binoan ruxsat olish tartibiga rioya qilinishi lozim bo'lib, bunda birinchi navbatda, lotereyalar tashkil etishga litsenziya olish talab qilinadi. Ikkinchidan, o'yinlar o'tkazishning litsenziyalovchi organ tomonidan tasdiqlangan shartlariga rioya qilinishi lozim.

NOTA BENE !

Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar uchun qimorxona pul yoki boshqa har qanday boyliklar yoxud mulkiy va boshqa ne'matlar tikib o'ynaladigan har qanday o'yinlarni o'tkazish uchun moslashtirilgan har qanday xonadir.

Qimorxonaning muqarrar belgisi unga nomuayyan doiradagi shaxslar tashrif buyurishi, shuningdek, qimorxonaning muntazam ishlab turishidir.

Qimorxona tashkil etish va uni saqlash deganda, unga mos keladigan xonani topish, uni moliyalashtirish, ta'minlash yoki zarur asbob-uskunalar bilan jihozlash, u uzoq vaqt faoliyat ko'rsatishi uchun maishiy sharoitlarni quvvatlash, xodimlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, sirdan niqoblash va qo'riqlashni ta'minlash, qimorxonaga o'yinchilarni jalb etish, uni reklama qilish va hokazolar tushuniladi.

JK 278-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etish yoki o'tkazish borasidagi har qanday harakatlar amalga oshirilgan paytdan yoki ana shunday o'yinlar uchun qimorxonalar tashkil etilgan yoki ularni saqlashga qaratilgan harakatlar bajarilgan paytdan e'tiboran **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etish yoki o'tkazish, shu jumladan ana shunday o'yinlar uchun qimorxonalar tashkil etish yoki ularni saqlashga qaratilgan harakatlarni amalga oshirayotganini anglaydi va buni istaydi.

Jinoyatni sodir etish **motivi** va **maqsadi** aksariyat hollarda tamagirlik bilan tavsiflanadi, lekin qilmishni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas.

16 yoshga to'lgan o'yinxonalarning tashkilotchilari, qimor o'yinlarini o'tkazish uchun mas'ul shaxslar, shuningdek, qimorxonalarning tashkilotchilari yoki ularni saqlovchilar ushbu jinoyatning **subyekt** bo'lishi mumkin. o'yinchilarning o'zi yoki boshqa tashrif buyuruvchilar, o'yinxonalar, qimorxonalarning xodimlari bu jinoyat subyekt bo'lishi mumkin emas.

JK 278-moddasi 2-qismida:

- a) takroran yoki xavfli retsdivist tomonidan;
- b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etish yoki o'tkazish, shu jumladan ana shunday

o'yinlar uchun qimorxonalar tashkil etish yoki ularni saqlash uchun javobgarlik belgilangan.

JK 278-moddasi 3-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** voyaga yetmagan shaxsni qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarga jalb qilish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan ayni shunday harakatlar bilan tavsiflanadi.

Ayni holda faqat voyaga yetmagan shaxs, ya'ni aybdor qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarga jalb qilgan paytgacha 18 yoshga to'lmagan shaxs jinoyatning **jabrlanuvchisi** bo'lishi mumkin.

JK 278-moddasi 3-qismida nazarda tutilgan **jalb qilish** deganda, aybdorning voyaga yetmagan shaxsni qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarda ishtirok etishga bevosita o'yinchi sifatida jalb qilish borasidagi izchil faol harakatlari tushunilishi lozim. Bunday vaziyatda jalb qilish, odatda, o'smirda o'ynashga mayl, keyinchalik esa, o'yinga ruhiy qaramlik uyg'otishga qaratilgan ishontirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

(Jalb qilish tushunchasining mazmuni va jalb qilish usullari haqida batafsilroq JK 274-moddasi tahliliga qarang.)

Jalb qilish voyaga yetmagan shaxsda o'ynashga mayl uyg'otishga yoki uni bunday harakatlarni o'z xohish-irodasiga zid ravishda bajarishga majburlashga qaratilgan harakatlar boshlangan paytdan e'tiboran **tugallangan** jinoyat deb e'tirof etiladi. Qilmish **JK 278-moddasi 3-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinishi uchun jabrlanuvchi qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarda ilgari ishtirok etgani ahamiyatga ega emas.

Yana shuni ham hisobga olish lozimki, ko'rib chiqilayotgan norma ma'muriy preyditsiyaga ega, ya'ni shaxs **JK 278-moddasi 3-qismi** bo'yicha javobgarlikka tortilishi uchun u yil davomida shunday harakatlar uchun O'zMJTK 191-moddasi (Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar) bo'yicha javobgarlikka tortilgan bo'lishi lozim.

Subyektiv tomondan voyaga yetmagan shaxsni qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarga jalb qilish **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor jabrlanuvchini o'yinga jalb qilayotganini

anglaydi va buni istaydi. Jinoyatni sodir etish **motivi** va **maqsadi** qilmishni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas.

Jinoyat **subyekt**i – voyaga yetmagan shaxsni qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarga jalb qilayotgan 16 yoshga to‘lgan shaxs.

JK 278-moddasi 4-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etish yoki o‘tkazish uchun telekommunikatsiya tarmoqlarida, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog‘i provayderlari tomonidan xizmatlar ko‘rsatish, tegishli dasturiy ta‘minotdan nusxa ko‘paytirish, uni ko‘paytirish, tarqatish uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan ayni shunday harakatlarda aks etadi.

Telekommunikatsiya tarmoqlari aloqa liniyalari orqali axborotni uzatish uchun mo‘ljallangan texnologik tizim bo‘lib, unga kirish hisoblash texnikasi vositalari yordamida amalga oshiriladi.

JK 278-moddasi 4-qismida nazarda tutilgan **telekommunikatsiya tarmoqlarida xizmatlar ko‘rsatish** qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlar haqida axborotni foydalanuvchiga yetkazish borasidagi informatsion faoliyatni (axborot xizmatlari), shuningdek, pochta jo‘natmalari yoki elektroaloqa xabarlarini qabul qilish, qayta ishlash, uzatish va yetkazish borasidagi faoliyatni (aloqa xizmatlari) amalga oshirishdan iborat bo‘lishi mumkin.

Internet tarmog‘i global axborot tarmog‘i bo‘lib, uning qismlari bir-biri bilan yagona adres maydoni vositasida mantiqiy bog‘langan. Internet bir-biri bilan bog‘langan ko‘p sonli kompyuter tarmoqlaridan iborat va kompyuterlar, elektron pochta, e‘lonlar taxtalari, ma‘lumotlar bazalari va munozara guruhlariga masofadan turib ulanishni ta‘minlaydi.

Provayder – axborot texnologiyalari sohasida xizmatlar (masalan, telekommunikatsiya tarmoqlariga ulash) ko‘rsatuvchi shaxs (firma).

Internet butunjahon axborot tarmog‘i provayderlari deb, foydalanuvchilarga Internet tarmog‘iga kirish xizmatlarini, shu jumladan tijorat asosida telekommunikatsiya operatorlari tarmoqlari orqali hamda

serverlarni yaratish va quvvatlash xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar e'tirof etiladi.

Internet jahon axborot tarmog'i provayderlari tomonidan xizmatlar ko'rsatish tarmoq abonentlariga amaliy protokollar: elektron pochta, fayllarni qabul qilish va uzatish, tarmoqda hujjatlarni saqlash hamda qidirish va hokozolar yordamida taqdim etiladigan funksional imkoniyatlar majmuidan iborat.

Dasturiy ta'minot – axborotni qayta ishlash tizimi dasturlari hamda bu dasturlardan foydalanish uchun zarur bo'lgan dasturiy hujjatlar majmui.

(Dasturiy ta'minot haqida batafsilroq JK 278³-moddasi tahliliga qarang.)

Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish yoki o'tkazish uchun dasturiy ta'minotdan nusxa ko'paytirish deganda, dastlab ma'lumotlar blokining bir nusxasida bajarilgan o'zgarishlarni boshqa nusxalarga tatbiq etish texnologiyasini tushunish lozim. Bunda bazaning barcha qismlaridagi ma'lumotlar deyarli bir vaqtda o'zgarishini nazarda tutuvchi sinxron nusxa ko'paytirish va ma'lumotlar navbatma-navbat o'zgarishini nazarda tutuvchi asinxron nusxa ko'paytirish farqlanadi.

Nusxa ko'paytirish qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish yoki o'tkazish uchun dasturiy ta'minotning hech bo'lmasa bitta nusxasi o'zgartirilgan paytdan e'tiboran **tugallangan** deb e'tirof etiladi.

Mazkur dasturiy ta'minotni **ko'paytirish** uning nusxalari sonini ko'paytirishni nazarda tutadi.

Ko'paytirish tegishli dasturiy ta'minotning hech bo'lmasa bitta yangi nusxasi yaratilgan paytdan e'tiboran **tugallangan** deb e'tirof etiladi.

JK 278-moddasi 4-qismi ma'nosida **tarqatish** har qanday moddiy shaklda shakllantirilgan dasturiy ta'minotdan foydalanish imkoniyatini nomuayyan doiradagi shaxslarga berishga qaratilgan harakatlar sodir etilishini anglatadi. Bunda tarqatish usullari turli-tuman (tarmoq usuli, sotish, hadya qilish, ijaraga berish, qarzga berish va boshq.) bo'ladi va qilmishni kvalifikatsiya qilishda ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Dasturiy ta'minotni qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish yoki o'tkazish uchun tarqatish mazkur axborotni hech bo'lmasa bitta shaxs olgan vaqtdan e'tiboran **tugallangan** jinoyat deb e'tirof etiladi.

JK 278-moddasi 4-qismi ham ma'muriy preyuditsiyaga ega.

JK 278-moddasi 4-qismida nazarda tutilgan jinoyat **subyektiv tomondan to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. **Motiv** va **maqsad** jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas.

16 yoshga to'lgan aqli raso shaxs mazkur jinoyat **subyekti** bo'lishi mumkin.

«Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar

1. Bezorilik nima? Jinoyat qonunida nazarda tutilgan jazoga loyiq bo'lgan bezorilikning mayda bezorilikdan farqi nimada?

2. Jamoat tartibi deganda nima tushuniladi?

3. Qanday holatlar bezorilik uchun javobgarlikning og'irlashishini belgilaydi?

4. Sovuq va o'qotar qurollar qatoriga nimalar kiradi?

5. Qimor, shuningdek, tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yin nimani anglatadi? Ularni qonunga xilof ravishda tashkil etish yoki o'tkazish nimadan iborat?

6. Qimorxonani tushunchasiga tavsif bering. Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar uchun qimorxonalar tashkil etish deganda nima tushuniladi? Bunday qimorxonani saqlash deganda nima tushuniladi?

7. Shaxsni qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarga jalb qilish deganda nima tushuniladi? Bunday jalb qilish usullari qanday?

8. JK 278-moddasi (Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish hamda o'tkazish) 4-qismi ma'nosida telekommunikatsiya tarmoqlarida xizmatlar ko'rsatish, shuningdek, tegishli dasturiy ta'minotdan nusxa ko'paytirish, uni ko'paytirish, tarqatish nimadan iborat?

Qo‘shimcha adabiyotlar

O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar

Зокирова О.Г. Предупреждение хулиганства. Учебное пособие. – Т.: «Адолат», 1999. – 86 Б.

Кадыралиева С. Хулиганство: уголовно-правовые и криминологические вопросы. – Фрунзе: «Илим», 1981.

Калмыков В.Т. Хулиганство и меры борьбы с ним. – Минск: «Беларусь», 1979.

Козаченко И.Я. Квалификация хулиганства и отграничение его от смежных составов преступлений. – Свердловск: СВЮИ, 1984.

Нарбутаев Э.Х. Квалификация преступлений против общественного порядка. Автореф. дисс. канд. юрид. наук. – Т.: 1983.

Рустамбаев М.Х. Закон и общественная безопасность. – Т.: «Ўзбекистон», 1989.

Рустамбаев М.Х. Преступления против общественной безопасности и борьба с ними. – Т.: Общество «Знание», 1983.

Тканевский Ю.М. Ответственность за хулиганство. – М.: «Знание», 1983.

Умуров Т. Критерии квалифицирующих признаков хулиганства и применение закона // Эффективность уголовно-правовых мер борьбы с нарушениями общественного порядка. – Т.: 1985.

Утанов М.А. Проблемы борьбы с хулиганством. – Алматы: ТоО «Аяи+дет», 1998. – 224 Б.

Яценко С.С. Уголовно-правовая охрана общественного порядка. Сравнительно-правовой аспект. – Киев: 1986.

Ilmiy maqolalar

Антонян Ю.М., Эминов В.Е., Давитадзе М.Д. Групповое молодежное хулиганство. Современная преступность: новые исследования. // Сборник статей. – М.: 1993.


Иргашев Ю.С. Квалификация насильственных посягательств, совершаемых из хулиганских побуждений // Актуальные проблемы борьбы с преступностью. Сборник научных трудов. – Т.: 1983.

Каракетова Д. Безорилик жиноятини такроран ёки хавфли рецидивист томонидан содир этилгани учун жавобгарлик масалалари (қиёсий таҳлил) // *Жиноят ва жиноят процессуал қонунчилигини такомиллаштириш масалалари: миллий ва хорижий тажриба. Халқаро илмий амалий конференция материаллари тўплами.* – Тошкент, ТДЮУ, 2014. – Б. 183-190.

Сиденко Г.Г. О соотношении понятий общественного порядка и общественной безопасности. – *Вестник МГУ. Право.* 1978. № 6.

V BOB. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI JINOYATLAR

6-sxema



Ilmiy-texnika taraqqiyotining rivojlanishi, xo‘jalik va boshqaruv faoliyati keng miqyosda kompyuterlashtirilishi kompyuter axborotining mavjudligi va amal qilishi, shuningdek, EHMdan foydalanish sohasida turli suiiste‘mollar vujudga kelishi bilan birga yuz berdiki, bu jismoniy va yuridik shaxslar, jamiyat va davlatning ma’lumotlarni avtomatlashtirilgan usulda qayta ishlash borasidagi qonuniy huquqlari va manfaatlarining buzilishiga olib keldi. Ayni hol axborot texnologiyalari sohasida yuz berayotgan jarayonlarni jinoyat-huquqiy tartibga solishni talab qildi. Buning natijasi o‘laroq, JK ga kompyuter jinoyatlari uchun javobgarlikni belgilovchi butunlay yangi bob kiritildi.

1-§. Axborotlashtirish qoidalarini buzish (JK 278¹-moddasi)

NOTA BENE !

Axborotlashtirish – yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot

texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayoni.

Axborotlashtirish qoidalarini buzish jinoyatining **asosiy bevosita obyekt** kompyuter xavfsizligini (kompyuter axborotining daxlsizligini), shuningdek, ma'lumotlarni qayta ishlash avtomatlashtirilgan tizimlaridan foydalanish tartibini ta'minlashga doir ijtimoiy munosabatlardir. **Qo'shimcha bevosita obyekt** sifatida bu yerda fuqarolarning shaxsiy yoki mulkiy manfaatlarini yoxud davlat yoki jamoat manfaatlarini qo'riqlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar amal qiladi.

NOTA BENE !

Kompyuter axboroti – bu EHM, EHM sistemasi yoki ularning tarmog'ida mavjud bo'lgan va EHM yordamida qayta ishlanishi mumkin bo'lgan u yoki bu faktlar, shaxslar, voqealar, jarayonlar haqidagi axborot.

«Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonunda mazkur atama bilan bir xil mazmunda bo'lgan boshqa tushuncha – «**axborot resursi**» tushunchasi qo'llaniladi. U axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma'lumotlar banki, ma'lumotlar bazasini anglatadi.

Axborot (ma'lumotlar) xavfsizligi deganda, quyidagilar tushuniladi:

«1. Axborot (ma'lumotlar)ning axborot egasiga ziyon yetkazuvchi tasodifiy yoki qasddan sodir etilgan ta'sirlarga (tahdidlarga) qarshilik ko'rsatish integral xossasi. Axborot (ma'lumotlar) xavfsizligi maxfiylik, yaxlitlik va ochiqlik darajasi bilan tavsiflanadi.

2. Axborot (ma'lumotlar)ning axborot (ma'lumotlar) chiqib ketishi, soxtalashtirilishi, nusxa ko'chirilishi, modifikatsiyalashtirilishi, oshkor etilishi, buzilishi, to'silishiga olib keluvchi ruxsatsiz tasodifiy yoki qasddan sodir etiladigan harakatlardan himoyalanganligi».

Kompyuter axboroti o'z identifikatsiya atributlariga ega bo'lgan alohida fayl, dastur yoki ma'lumotlar bazasida jamlanadi va EHMda,

undan alohida mashina manbalarda, kompyuter tizimlari yoki tarmoqlar qurilmalarining xotiralarida saqlanishi mumkin.

Mashinadagi axborot jismlari – axborotni elektron-hisoblash texnikasi vositalarida aks ettirish, saqlash va o‘qish imkonini beruvchi fizik xossalarga (shu jumladan fizik maydonlarga) ega bo‘lgan narsalar va qurilmalar (yo EHM tarkibiy qismi, yo uning periferiya qurilmasi elementi hisoblangan magnit disklar, magnit tasmasi, jamg‘aruvchi yumshoq magnit disk (disketa), kompakt-disk va boshq.).

EHM (elektron-hisoblash mashinasi) – bu «simvulli va obrazli axborot ustida dastur va (yoki) foydalanuvchi buyurgan operatsiyalarni (axborotni qayta ishlash va qurilmalarni boshqarish borasidagi harakatlar ketma-ketligini) bajarish, shu jumladan uni kiritish-chiqarish, yo‘q qilish, nusxa ko‘chirish, modifikatsiyalashtirish, EHM tarmog‘ida axborotni uzatish va boshqa axborot jarayonlarini amalga oshirish imkonini beruvchi elektron qurilmalar majmui».

EHM qatoriga integratsiyalashtirilgan tizimlar (noan‘anaviy mazmundagi kompyuterlar – uyali telefon apparatlari, peyjerlar, elektron nazorat-kassa mashinalari, elektron bankomatlar va plastik hisob-kitob kartochokalari bilan ishlovchi terminallar)ni ham kiritish lozim.

Jumladan, uyali telefon tarmog‘i kompyuter tarmog‘i sifatida qaralishi mumkin bo‘lib, uning tarkibiy qismlari sifatida uyali telefon apparatlari, bazaviy stansiyalar, kommutator va kontroler amal qiladi. Bunda mikroprotessorli qurilma hisoblangan uyali telefon apparati simsiz tarmoqning uzoqdagi ish joyi sifatida, markaziy kontroler esa, fayl va kommunikatsion server sifatida amal qiladi. Bunday tarmoqning ish tizimi kompyuter texnikasiga va markaziy kompyuter (kontroler, kommutator) hamda periferiya qurilmalari (uyali telefon apparatlari) o‘rtasida yuzaga keladigan axborot almashinuviga asoslanadi.

Peyjing tizimi ham aynan shunday tarmoq sifatida qaralishi mumkin, farqi shundaki, peyjer uzoqdagi terminal hisoblanadi. Shu sababli uyali aloqa va peyjing tarmoqlaridagi axborotga JK «Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar» deb nomlangan XX¹ bobi moddalari tatbiq etiladi.

EHM tizimi (hisoblash tizimi, axborot-hisoblash tizimi, kompyuter tizimi) – «periferiya qurilmalari va dasturiy ta'minotning predmet yoki funksional belgiga ko'ra hosil bo'ladigan, axborotni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va berish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan va konkret amaliy (tor ixtisoslashtirilgan) vazifalarni yoki vazifalar spektrini mazkur tizim uchun umumiy bo'lgan axborot resurslarida yechish maqsadida yuksak darajada samaradorlikka erishishga yoki hisoblash texnikasi vositalarining ishonchlilik darajasi, quvvati va tez ishlash qobiliyatini oshirishga qaratilgan EHM yoki o'zaro bog'langan va o'zaro ta'sirga kirishuvchi protsessorlar majmui».

EHM tarmog'i (hisoblash tarmog'i, axborot-hisoblash tarmog'i, kompyuter tarmog'i) quyidagilarni anglatadi:

«1. Ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari majmui, u bilan bog'langan EHM va bu bog'lanishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan dasturiy ta'minot va (yoki) texnika vositalarining axborotni taqsimlangan usulda qayta ishlashni tashkil etish uchun mo'ljallangan.

2. Telekommunikatsiya va ma'lumotlarni uzatish vositalari va (yoki) tizimlarining foydalanuvchilarga o'z resurslariga uzoqda turib kirishni va bu resurslardan kollektiv foydalanishni ta'minlovchi o'zaro bog'langan hududiy taqsimlangan ma'lumotlarni qayta ishlash tizimlari majmui».

Axborotlashtirish qoidalarini buzishning **predmeti** axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari va banklari, axborotga ishlov berish hamda uni uzatish tizimlari, belgilangan himoya choralarini ko'rmagan holda axborot tizimlaridan ruxsat bilan foydalanish esa, alohida fayl, dastur, ma'lumotlar bazasida jamlangan, intellektual mulk obyekti sifatida qonun bilan qo'riqlanadigan kompyuter axboroti.

Axborot tizimi – axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari.

Ma'lumotlar bazasi – «obyektiv shaklda ifodalangan hamda elektron hisoblash mashinalari (EHM) yordamida topish va ishlov berish mumkin bo'ladigan tarzda bir tizimga solingan ma'lumotlar (masalan:

maqolalar, hisob-kitoblar) majmui». Masalan, aholi uchun ma'lumotlar bazalari, qonun hujjatlari va normativ hujjatlarning ma'lumotlar bazalari, arxivlar, muzeylar, o'quv yurtlarining ma'lumotlar bazalari va h.k.

Ma'lumotlar banki – ma'lumotlar markazlashtirilgan tartibda saqlanadigan va ulardan kollektiv tarzda foydalaniladigan avtomatlashtirilgan axborot tizimi. Ma'lumotlar banki tarkibiga bir yoki bir necha ma'lumotlar bazalari, ma'lumotlar bazalari ma'lumotnomasi, ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimi, shuningdek, so'rovlar va amaliy dasturlar kutubxonalarini kiradi. Misol tariqasida vazirliklar, idoralar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, kutubxonalarning ma'lumotlar banklarini keltirish mumkin.

Axborotga ishlov berish hamda uni uzatish tizimi – kompyuter axborotiga ishlov berish hamda uni uzatishni ta'minlovchi bir yoki bir necha kompyuterlar, periferiya qurilmasi va dasturiy vositalardan tarkib topgan tizim.

Axborotlashtirish qoidalarini buzish **obyektiv tomondan** belgilangan himoya choralarini ko'rmagan holda axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari va banklarini, axborotga ishlov berish hamda uni uzatish tizimlarini yaratish, joriy etish va ulardan foydalanish hamda axborot tizimlaridan ruxsat bilan foydalanish natijasida fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishida aks etadi.

Axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari va banklarini, axborotga ishlov berish hamda uni uzatish tizimlarini **yaratish** axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari va banklari, axborotga ishlov berish hamda uni uzatish tizimlari yaratuvchi nazarda tutgan maqsadda faoliyat ko'rsatishi uchun dasturiy ta'minotni yozish, apparat vositalarini tanlash va o'rnatishni anglatadi.

Ko'rib chiqilayotgan modda mazmunida **joriy etish** axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari va banklari, axborotga ishlov berish hamda uni uzatish tizimlaridan ularning funksional vazifasiga ko'ra amalda foydalanilishiga erishishni anglatadi.

Axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari va banklari, axborotga ishlov berish hamda uni uzatish tizimlaridan **foydalanish** deganda, ulardan amalda foydalanish jarayoni tushunilishi lozim.

Axborot tizimlaridan foydalanish deganda, shaxs EHM qurilmalari bilan o'zaro aloqaga kirishishi tushuniladi. Bunday o'zaro aloqaga kirishish aksariyat hollarda kompyuter axborotiga kirish maqsadida amalga oshiriladi. Buning natijasida shaxs bu axborotni o'z ixtiyoriga ko'ra tasarruf etish (foydalanish, o'zgartirish, to'sib qo'yish, nusxa ko'chirish, yo'q qilish va sh.k.) imkoniyatini qo'lga kiritadi. Ayni vaqtda axborot tizimlaridan (EHMdand) ruxsat bilan foydalanishni kompyuter axborotidan ruxsat bilan foydalanishdan farqlash lozim. Axborot tizimidan foydalanishga ruxsati bo'lgan shaxsning unda saqlanayotgan muayyan kompyuter axborotini olishga ruxsati bo'lmasligi mumkin.

(Kompyuter axborotidan ruxsat bilan foydalanish haqida batafsilroq 278²-modda tahliliga qarang.)

EHM yoki mashinaning axborot tashuvchi predmet yoki uskunalarni egallash, shuningdek, kompyuter axboroti bilan mashina manbalariga turli nurlanishlar, mexanik ta'sirlar, elektromagnit to'lqinlar va boshqa shunga o'xshash usullar yordamida sirdan ta'sir ko'rsatish yo'li bilan manipulyatsiya qilish axborot tizimlaridan ruxsat bilan foydalanish, xuddi shuningdek kompyuter axborotidan ruxsat bilan foydalanish sifatida e'tirof etilishi mumkin emas.

NOTA BENE !

Axborot tizimlaridan ruxsat bilan foydalanish – axborot tizimi mulkdori yoki qonuniy egasi tomonidan ruxsat etilgan (ma'qullangan) shaxsning EHM qurilmalari bilan o'zaro aloqasi.

O'z navbatida, axborot tizimlaridan ruxsatsiz foydalanish foydalanuvchi bunday harakatlarni bajarish huquqiga ega emasligini anglatadiki, bu foydalanishning qonunga xilofligidan dalolat beradi.

Jumladan, axborot tizimlaridan foydalanish uchun ruxsat (foydalanish huquqi)ga quyidagi shaxslar ega:

– ma'lumotlar bazalaridan foydalanish yoki ularga ishlov berish rejimida bevosita ishlaydigan, kompyuter tizimi yoki tarmog'i qurilmalari bilan o'zaro aloqasi vakolatli shaxs tomonidan tartibga solingan axborotdan foydalanuvchilar (axborot tizimlaridan ruxsat bilan foydalanish foydalanuvchi o'zi ishlashni mo'ljallayotgan axborot maydoni doirasida, albatta, ro'yxatdan o'tishini nazarda tutadi);

– o'z faoliyat turiga ko'ra kompyuter qurilmalariga texnik xizmat ko'rsatish bilan muntazam ravishda shug'ullanadigan shaxslar (qurilmalarni sozlovchilar, ma'lumotlarni kiritish operatorlari, tarmoq ma'murlari, dasturchilar, sistemachi-muhandislar, periferiya qurilmasi va aloqa vositalari mutaxassislari va sh.k.).

Ko'rsatilgan shaxslar faqat o'z vakolatlari yoki vazifalari doirasidan chetga chiqqan va foydalanish o'zlariga ruxsat etilmagan EHM qurilmalari bilan o'zaro aloqaga kirishish imkoniyatini qo'lga kiritgandagina ularning harakatlari axborot tizimlaridan ruxsatsiz (g'ayriqonuniy, qonunga xilof) foydalanish deb topiladi.

Qorovullar, farroshlar, elektriklar, kurerlar va EHM bilan bevosita aloqaga kirishmaydigan, lekin u o'rnatilgan xonaga kirishga ruxsat etilgan boshqa shaxslar EHM, EHM tizimi va tarmog'idan foydalanish huquqiga ega bo'lmaydi.

Axborot tizimlaridan va kompyuter axborotidan ruxsat bilan foydalanish uni muhofaza etish choralariga qat'iy rioya etgan holda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonunining 20-moddasiga binoan: «Axborot resurslari va axborot tizimlari, agar ular bilan g'ayriqonuniy munosabatda bo'lish natijasida axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining mulkdorlariga, egalariga yoxud boshqa yuridik hamda jismoniy shaxslarga zarar yetkazilishi mumkin bo'lsa, muhofaza qilinishi kerak.

Davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar davlat sirlari hamda maxfiy sirlar to'g'risidagi axborotni o'z ichiga olgan axborot resurslari va axborot tizimlarining muhofaza qilinishini ta'minlashlari shart.

Axborot resurslari va axborot tizimlari muhofaza qilinishini tashkil etish tartibi ularning mulkdorlari, egalari tomonidan mustaqil belgilanadi.

Davlat sirlari hamda maxfiy sirlar to'g'risidagi axborotni o'z ichiga olgan axborot resurslari va axborot tizimlarining muhofaza qilinishini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi».

Axborotni (ma'lumotlarni) himoya qilish axborot (ma'lumotlar) mulkdorining manfaatlariga zarar yetkazilishining oldini olish yoki qiyinlashtirishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy va texnik (dasturiy-apparat) tadbirlar majmuidan iborat.

Har qanday turdagi axborotni muhofaza etishning eng umumiy belgilari:

– axborotni muhofaza qilishni axborot mulkdori yoki u vakolat bergan shaxslar tashkil etadi va o'tkazadi;

– axborotni muhofaza qilish orqali uning mulkdori (egasi) o'zining axborotga egalik qilish va uni tasarruf etishga bo'lgan huquqlarini muhofaza qiladi, uni qonunga xilof qo'lga kiritilishiga va undan o'z manfaatlariga zid ravishda foydalanilishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qiladi;

– axborotni muhofaza qilish muhofaza qilinayotgan axborotdan ruxsat bilan foydalanish imkoniyatini cheklash bo'yicha uning tarqatilishini cheklovchi va maxfiylashtirilgan axborot va uning manbalaridan qonunga xilof (ruxsatsiz) foydalanishni istisno etuvchi yoki sezilarli darajada qiyinlashtiruvchi tadbirlar majmuini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Axborot xavfsizligini ta'minlash vositalari majmui (axborotni muhofaza qilish vositalari) quyidagilarni o'z ichiga oladi: axborotni muhofaza qilishning apparat, dasturiy, texnik (apparat-dasturiy), qonun yo'li bilan, tashkiliy, fizik vositalarini; axborotdan ruxsatsiz foydalanilishidan muhofaza qilish vositalarini va h.k. Axborotni muhofaza qilish usullari ham har xil bo'lishi mumkin: kriptografik usul, to'sish, niqoblash, tartibga solish, majburlash, ko'p darajali muhofaza, ruxsatsiz

kirishdan muhofaza qilish, shifrlash, imitomuhofaza, ruxsat bilan foydalanishni boshqarish va h.k.

Axborotni (ma'lumotlarni) himoya qilish tizimi – «axborot (ma'lumotlar)ni tasodifiy yoki qasddan buzish, buzib ko'rsatish yoki foydalanishdan muhofaza qilishni ta'minlovchi apparat, dasturiy va kriptografik vositalar hamda tadbirlar majmui».

Axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari va banklarini, axborotga ishlov berish hamda uni uzatish tizimlarini yaratish, joriy etish va ulardan foydalanish hamda axborot tizimlaridan ruxsat bilan foydalanish chog'ida **belgilangan himoya choralari**ni ko'rmalik foydalanuvchi kompyuter axboroti, EHM, EHM tizimi yoki tarmog'ining muhofazasi (xavfsizligi)ni ta'minlovchi muayyan qoidalarga rioya etmasligi yoki ularni to'g'ridan-to'g'ri chetlab o'tishidan iborat. Jumladan, bu xodim sertifikatlanmagan dasturiy vositalardan foydalanishi; foydalanilayotgan axborot mashina manbalarida zarar keltiradigan dasturlar bor-yo'qligini tekshirish vazifalarini bajarmagani; axborot tizimidan ruxsatsiz foydalanilishidan muhofaza etish tizimini to'sib qo'yishi; hisoblash texnikasining muayyan vositasi bilan ishlov berishni amalga oshirish texnik imkoniyati mavjud bo'lmagan ma'lumotlarni kiritishi; dasturiy vositalar bilan dialog qoidalarini, texnik xizmat ko'rsatish muddatlarini buzishi; parollar o'rnatmaslik va hokazolarda aks etishi mumkin.

Bunda har bir muayyan holda aynan qanday zaruriy muhofaza choralari ko'rilmagani, axborot tizimlaridan ruxsat bilan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxs aynan qaysi xavfsizlik qoidalarini buzgani, shuningdek, bu qoidabuzarliklar bilan ko'rib chiqilayotgan modda birinchi qismining dispozitsiyasida bayon etilgan oqibatlar kelib chiqishi, ya'ni fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishi o'rtasida sababiy bog'lanish mavjudligi aniqlanishi lozim. Mazkur jinoiy oqibatlar yuz bergan vaqtdan e'tiboran axborotlashtirish qoidalarini buzish **tugallangan jinoyat** deb e'tirof etiladi.

JK Maxsus qismi sakkizinchi bo'limi qoidalariga binoan, **ko'p miqdordagi zarar** deganda, «eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan uch

yuz baravarigacha bo‘lgan miqdordagi zarar» tushunilishi lozim. Bunday zarar, xususan, EHM vositalarini qimmatga ta‘mirlash zaruriyati vujudga kelishida namoyon bo‘lishi mumkin.

Axborotlashtirish qoidalarining buzilishi natijasida yetkazilgan zarar miqdorini aniqlashda axborot resursining qiymatigina emas, balki shaxsning jinoiy harakatlari oqibatlarini tugatishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar ham hisobga olinishi lozim. Nima bo‘lganda ham zarar turi va miqdori bunday vaziyatlarda axborotlashtirish, iqtisod va boshqa sohalardagi maxsus bilimlar yordamida o‘tkaziladigan kompleks ekspertiza vositasida aniqlanmog‘i darkor.

Agar axborotlashtirish qoidalarini buzish kompyuter texnikasi jiddiy shikastlanishiga olib kelgan va shu tariqa uning mulkdori yoki egasi ko‘p miqdorda zarar ko‘rishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, aybdorning harakatlari faqat **JK 278¹-moddasi** bilan kvalifikatsiya qilinadi va JK 173-moddasi (Mulknı qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish) bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilish talab etilmaydi.

Axborotlashtirish qoidalarining buzilishi natijasida fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga **jiddiy ziyon yetkazilganligi** yoki **yetkazilmaganligi** har bir muayyan holda tergov va sud organlari tomonidan aniqlanadi. Mazkur tushuncha nisbiy xususiyat kasb etadi, kompyuter axborotining muhimlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi va axborotlashtirish qoidalarining buzilishi natijasida axborot tizimining mulkdori (egasi)ga yetkazilgan ziyon hajmini aniqlash olingan barcha ma‘lumotlar yig‘indisini hisobga olib amalga oshirilishi lozim. Mazkur vaziyatda muhim axborotning yo‘qolishi, korxonada, tashkilot ishi, ishlab chiqarish faoliyati to‘xtab qolishi yoki izdan chiqishi, texnologik jarayonlarning buzilishi, shaxsiy, shifokorlik, advokatlik siriga mansub bo‘lgan maxfiy ma‘lumotlarni oshkor etish yo‘li bilan shaxsga ma‘naviy ziyon yetkazilishi jiddiy ziyon deb e‘tirof etilishi mumkin.

Shaxsning axborotlashtirish qoidalarini buzish bilan bog‘liq bo‘lsa-da, lekin qonunda ko‘rsatilgan oqibatlarga olib kelmagan harakatlari

muayyan holatlarda tugallanmagan jinoyatni tashkil etishi va JK 25-moddasiga havola qilgan holda kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

JK 278¹-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **subyektiv tomoni** quyidagilar bilan ifodalanadi:

– **qasddan**, basharti shaxs axborotlashtirish qoidalarini buzayotganini anglagan, buning natijasida foydalanuvchiga ancha miqdorda zarar yetkazilishi mumkinligi yoki muqarrarligiga ko‘zi yetgan, bu oqibatlarining yuz berishini istagan (**to‘g‘ri qasd**) yoki ularning yuz berishiga ongli ravishda yo‘l qo‘ygan (**egri qasd**) bo‘lsa;

– **ehtiyotsizlik orqasidan**, basharti shaxs axborotlashtirish qoidalarini buzayotganini anglagan, o‘z xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko‘zi yetgan, lekin ehtiyotkorlik chora-tadbirlariga ongli ravishda rioya etmagan holda bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qilgan (**o‘z-o‘ziga ishonish**) yoki o‘z xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko‘zi yetmasa-da, lekin ko‘zi yetishi lozim va mumkin bo‘lgan (**jinoiy beparvolik**) bo‘lsa;

– **murakkab ayb** bilan, basharti jinoiy qilmish, ya’ni axborotlashtirish qoidalarini buzishga nisbatan qasd, qonunda nazarda tutilgan ko‘ngilsiz oqibatlarga nisbatan esa, ehtiyotsizlik mavjud bo‘lsa.

Motiv va **maqсад** ko‘rib chiqilayotgan jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas.

16 yoshga to‘lgan aqli raso jismoniy shaxs **JK 278¹-moddasi 1-qismida** nazarda tutilgan jinoyat **subyektiv** bo‘lishi mumkin. Qonun bu shaxs kompyuter texnologiyalari sohasida mutaxassis bo‘lishi yoki muayyan faoliyat bilan shug‘ullanishini talab qilmaydi, muhimi uning axborot tizimlaridan ruxsat bilan foydalanayotganligi talab etiladi.

Agar axborotlashtirish qoidalarini buzish juda ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo‘lsa, aybdorning harakatlari **JK278¹-moddasi 2-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

JK Maxsus qismining sakkizinchi bo‘limi qoidalariga binoan, **juda ko‘p miqdordagi zarar** deganda, «eng kam oylik ish haqining uch yuz baravari va undan ortiq bo‘lgan miqdordagi zarar» tushuniladi.

2-§. Kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish (JK 278²-moddasi)

Kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanishning **bevosita obyekti** kompyuter axboroti xavfsizligini va EHM, ularning tizimlari yoki tarmog'i normal ishlashini ta'minlashga doir munosabatlardir. **Qo'shimcha obyekt** sifatida bu yerda fuqarolarning shaxsiy yoki mulkiy manfaatlari yoxud davlat yoki jamoat manfaatlari amal qilishi mumkin.

JK 278²-moddasi 1-qismida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilganidek, jinoyatning **predmeti** kompyuter axboroti, ya'ni axborot-hisoblash tizimlari, tarmoqlari va ularning tarkibiy qismlaridagi axborotlardir.

(«Kompyuter axboroti», «axborot-hisoblash tizimi», «axborot-hisoblash tarmog'i» tushunchalarining mazmuni haqida JK 278¹-moddasi tahliliga qarang.)

Axborot-hisoblash tizimlari, tarmoqlari va ularning tarkibiy qismlaridagi axborotlar – bu ichki va tashqi jamg'argichlar, kompyuter xotirasi, periferiya qurilmalari xotirasidagi axborot hamda aloqa kanallari orqali o'tuvchi axborotlardir.

JK 278²-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** axborotning yo'q qilib yuborilishi, to'sib qo'yilishi, modifikatsiyalashtirilishi, undan nusxa ko'chirilishi yoxud uning qo'lga kiritilishiga, elektron hisoblash mashinalari, elektron hisoblash mashinalari tizimi yoki ularning tarmoqlari ishining buzilishiga sabab bo'lgan kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish bilan tavsiflanadi.

NOTA BENE !

Kompyuter axborotidan foydalanish deganda, unga kirishning har qanday shakli, tarmoqdagi, tizimdagi yoki mashina manbalaridagi ma'lumotlar bilan shaxsning tanishishi tushuniladi.

Kompyuter axborotidan qonuniy (ruxsat bilan) foydalanish axborot tizimi mulkdori yoki qonuniy egasi tomonidan ruxsat etilgan

(ma'qullangan) foydalanuvchining mashina manbai, EHM, EHM tizimi yoki tarmog'idagi axborot bilan tanishishidir.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyat-huquqiy normaga binoan aybdor shaxsni javobgarlikka tortish uchun zaruriy asoslardan biri uning harakatlari qonunga xilof ekanligi aniqlanganligidir.

NOTA BENE !

Kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish deb, mashina manbalaridagi yoki EHMdagi ma'lumotlar bilan shaxsning tegishli huquqsiz, ya'ni axborot mulkdori (egasi)ning ruxsatsiz yoki bunday ruxsat mavjud bo'lganda, tizimda belgilangan ruxsatni tartibga solish qoidalarini buzib tanishishi e'tirof etilishi lozim.

Boshqacha aytganda, quyidagi holatlarda axborotdan foydalanish qonunga xilof (ruxsatsiz) deb qaraladi, agar shaxs:

- muayyan axborotdan foydalanish huquqiga ega bo'lmasa;
- bunday huquqqa ega bo'lsa-da, lekin undan belgilangan tartibga zid ravishda foydalansa.

Kompyuter axboroti mulkdori (egasi) foydalanuvchining axborot olish tartibini belgilashi (joyi, vaqtini, mas'ul mansabdor shaxslar, zarur tartib-taomillar va hokazolarni ko'rsatishi) hamda foydalanuvchilar axborot olishi uchun sharoitlarni ta'minlashi shart.

Foydalanishning farqlab qo'yilishi qoidalari «ruxsat subyektlarining ruxsat obyektlaridan foydalanish huquqlarini tartibga soluvchi qoidalar majmui»dir.

«Biron-bir axborotdan ruxsat bilan foydalanishni nazorat qilishning har qanday mexanizmi, bu yerda gap jarayonlar ta'siri ustidan nazorat haqida boradimi yoki jismoniy shaxslarning harakatlari ustidan nazorat haqida boradimi, bundan qat'i nazar, bir qancha vazifalarni yechishni nazarda tutadi:

- ko'rib chiqilayotgan tizim, axborot yoki resurslardan foydalanish huquqiga kim ega;

– mazkur shaxs resursning aynan qaysi elementlariga murojaat etishi mumkin;

– mazkur shaxs o‘zi foydalanishi mumkin bo‘lgan obyektga nisbatan qanday harakatlarni bajarishi mumkin;

– shaxs zaruriy amallarni bajarishi qay tarzda ruxsat etiladi;

– qanday holatlarda foydalanishga ruxsat berilishi mumkin».

O‘zbekiston Respublikasi «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi Qonuni-ning 11-moddasiga binoan: «Axborot resurslari ulardan erkin foydalanish toifalari bo‘yicha hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot resurslariga va erkin foydalanilishi cheklab qo‘yilgan axborot resurslariga bo‘linadi.

Cheklanmagan doiradagi foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan axborot resurslari hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot resurslaridir.

Davlat sirlari to‘g‘risidagi axborotni va maxfiy axborotni yoki erkin foydalanilishi axborot resurslarining mulkdorlari tomonidan cheklab qo‘yilgan axborotni o‘z ichiga olgan axborot resurslari **erkin foydalanilishi cheklab qo‘yilgan axborot resurslariga** kiradi».

Axborot resurslaridan axborot olish tartibini axborot resurslarining mulkdori yoki egasi qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etgan holda aniqlaydi (Qonunning 12-moddasi 5-qismi). Bunda erkin foydalanilishi cheklab qo‘yilgan axborot resurslari uchun axborotni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash, tarqatish va undan foydalanishning maxsus tartibi belgilanadi.

Yuridik va jismoniy shaxslar qonuniy asoslarda axborot resurslaridan o‘zlari olgan axborotdan axborot manbaini, albatta, havola etgan holda hosila axborot yaratish uchun foydalanishlari mumkin (Qonunning 12-moddasi 4-qismi).

Kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish doim aybdor tomonidan faol harakatlar bilan sodir etiladi. Bu jinoyat harakatsizlik yo‘li bilan sodir etilishi mumkin emas. Bunda kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish usullari har xil bo‘lishi mumkin (birovning parolidan foydalanish, texnika

vositalarining fizik adreslarini o'zgartirish, o'zini qonuniy foydalanuvchi qilib ko'rsatish, sistemani muhofaza qilishning zaif bo'qinlarini topish va unga «buzib» kirish, bironing axborot tizimiga «kodni tasmollab aniqlash» yo'li bilan kirish, dasturiy va axborot ta'minotini modifikatsiyalashtirish va h.k.), lekin ular qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta'sir ko'rsatmaydi.

Mazkur jinoyatni sodir etish vositasi sifatida kompyuter texnikasi, ya'ni har xil turdagi EHM, apparat vositalari, periferiya qurilmalari, shuningdek, hisoblash texnikasini axborot tarmoqlariga birlashtirishda foydalaniladigan aloqa liniyalari amal qiladi.

Shuni qayd etish lozimki, kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish natijasida shaxs, avvalo, bu axborot bilan tanishish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Bunday tanishish, odatda, uni amalda chaqirish yoki ko'zdan kechirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda mashina manbada saqlanayotgan kompyuter axborotini qonunga xilof ravishda chaqirish yoki ko'zdan kechirish o'z-o'zidan ko'rib chiqilayotgan jinoyat tarkibini tashkil etmaydi, lekin o'zga qasddan jinoyatni, masalan, josuslik (JK 160-moddasi), tovlamachilik (JK 165-moddasi)ni sodir etishga tayyorgarlik ko'rish yoki suiqasd qilish sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin. Bunday hollarda qilmishni **JK 278²-moddasi** bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiya qilish talab etilmaydi.

JK 278²-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning ikkinchi muqarrar belgisi – axborotning yo'q qilib yuborilishi, to'sib qo'yilishi, modifikatsiyalashtirilishi, undan nusxa ko'chirilishi yoxud uning qo'lga kiritilishi, elektron hisoblash mashinalari, elektron hisoblash mashinalari tizimi yoki ularning tarmoqlari ishining buzilishi tarzidagi ijtimoiy xavfli oqibatlar. Ko'rsatilgan oqibatlarning hech bo'lmasa bittasi yuz bergan paytdan e'tiboran ko'rib chiqilayotgan jinoyat **tugallangan** deb e'tirof etiladi. Bunda **JK 278²-moddasi 1-qismi** dispozitsiyasida sanab o'tilgan oqibatlarning yuz berishi va kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanishni amalga oshirish o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri sababiy bog'lanish aniqlanishi shart.

Axborotning **yo‘q qilib yuborilishi** deganda, axborotning mashina manbalaridan to‘liq yoki qisman chiqarib (o‘chirib) tashlanishi tushuniladi. Bunda mazkur axborot o‘zining asosiy sifat belgilari yo‘qolishi natijasida butunlay yo‘qbo‘lib ketadi, u tiklanishi va vazifasiga ko‘ra qo‘llanilishi mumkin bo‘lmaydi. Bunda qilmish ko‘rib chiqilayotgan norma bilan kvalifikatsiya qilinishi uchun jabrlanuvchida aybdor yo‘q qilib yuborgan axborotning nusxasi borligi yoki yo‘qligi ahamiyatga ega emas. Axborotni boshqa EHM yoki mashina manbasiga ruxsatsiz o‘tkazish ham, agar bu harakatlar natijasida axborot resursi mulkdorning yoki o‘zga qonuniy foydalanuvchining ixtiyoridan chiqqan bo‘lsa, yuqorida bayon etilgan tarzda kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Axborotning **to‘sib qo‘yilishi** mazkur axborot saqlanib qolgani holda mulkdor (axborot egasi) yoki qonuniy foydalanuvchi undan bevosita vazifasiga ko‘ra vaqtinchalik yoki doimiy ravishda foydalana olmasligi (kompyuter axboroti bilan biron-bir amalni bajara olmasligi)dir. **Axborot (ma‘lumotlar) uzatishning to‘sib qo‘yilishi** tushunchasi ham mavjud bo‘lib, u axborot xavfsizligi sohasidagi qoidabuzarliklardan biri hisoblanadi va axborotni uzatishning to‘xtatilishida yoki shunday bir vaqtga kechiktirilishida aks etadiki, bu muddat mobaynida mazkur axborot foydalanuvchi uchun o‘z qimmatini yo‘qotadi.

Axborotning **modifikatsiyalashtirilishi** texnika vositalari bilan ishlov berish chog‘ida uning dastlabki mazmuni yoki manbalardagi hajmi ruxsatsiz o‘zgartirilishida aks etadi (ma‘lumotlar bazasining adaptatsiyasi bilan bog‘liq o‘zgarishlar bundan mustasno). Masalan, ma‘lumotlar bazasi fayllaridagi yozuvlarning o‘chirib tashlanishi yoki ularga yozuvlarning qo‘shilishi, kompyuter axborotining bir tildan boshqa tilga o‘girilishi, ma‘lumotlar bazasining qayta tashkil etilishi va h.k.

(Axborotni modifikatsiyalashtirish haqida batafsilroq JK 278⁴-moddasi tahliliga qarang.)

Ko‘rib chiqilayotgan modda mazmunida **nusxa ko‘chirish** tegishli axborotni yoki uning bir qismini bir moddiy jismdan boshqa moddiy jismga asl nusxasiga shikast yetkazmasdan va undan keyinchalik bevosita

vazifasiga ko'ra foydalanish imkoniyatini saqlagan holda o'tkazishni anglatadi.

Axborotning **qo'lga kiritilishi** – keng tarqatish uchun mo'ljallanmagan axborotni qasddan ruxsatsiz egallab olish bo'lib, u texnika vositalari yordamida bevosita kompyuter tizimidan yoki undan tashqarida, bunday axborot aks ettirilgan elektromagnit nurlanishlarni olish hisobiga amalga oshiriladi.

Zamonaviy texnika vositalari axborotni kompyuter tizimiga bevosita ulanmasdan olish imkonini beradi: uni qo'lga kiritish markaziy protsessor, displey, kommunikatsiya kanallari, printer va hokazolarning nurlanishi hisobiga amalga oshiriladi. Bularning barchasini qo'lga kiritilayotgan obyektдан ancha uzoqda turib amalga oshirish mumkin. Qo'lga kiritish usullari har xil bo'lishi mumkin: bevosita (faol) qo'lga kiritish; tezda qo'lga kiritish; simvollarni qo'lga kiritish; xabarlarini qo'lga kiritish; elektromagnit (passiv) qo'lga kiritish; audio qo'lga kiritish (axborotni vibroakustik kanallar orqali olish); video qo'lga kiritish va h.k. Axborotni qo'lga kiritish yo tizimning tashqi kommunikatsiya kanallari orqali to'g'ri-dan-to'g'ri, yo periferiya qurilmalari liniyalariga bevosita ulanish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda bevosita «eshitib turish» obyektlari kabelli va simli tizimlar, yer ustidagi mikroto'lqinli tizimlar, yo'ldosh aloqa tizimlari, shuningdek, hukumat aloqasi maxsus tizimlari hisoblanadi.

Elektron hisoblash mashinalari, elektron hisoblash mashinalari tizimi yoki ularning tarmoqlari ishining buzilishi EHM yoki uning qurilmalari bilan nostandart vaziyat yuzaga kelishidan iborat bo'lib, bunda ularning normal faoliyat ko'rsatishiga vaqtinchalik yoki turg'un xalaqitlar (ishning sekinlashuvi yoki ishdan chiqarish) yaratiladi, lekin EHM, EHM tizimi yoki ularning tarmoqlarining moddiy yaxlitligiga daxl etilmaydi. Masalan, axborot qurilmasining ishidagi nosozliklar, axborotni berishni rad etish, buzib ko'rsatilgan axborotni berish va h.k. Agar zikr etilgan nosozliklar bilan bir qatorda kompyuter qurilmasining moddiy buyum sifatidagi yaxlitligining buzilishi ham yuz bergan bo'lsa, qilmish jinoyatlar majmui bo'yicha JK 173-moddasi (Mulknı qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish) bilan kvalifikatsiya qilinadi.

JK 278²-moddasi 1-qismi dispozitsiyasida ko'rsatilgan oqibat-larning o'ziga xos xususiyati shu bilan belgilanadiki, shaxs kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanishga doir ayni bir harakatlarni sodir etishi ba'zan turli jinoiy natijalarga olib keladi. Odatda, bu kompyuter axborotining muhofaza qilinishiga, hisoblash tizimining ishonchlilik darajasiga, hisoblash tizimining boshqa tizimlar bilan aloqasiga va boshqa shunga o'xshash omillarga bog'liq bo'ladi. Zanjir reaksiya yuz berishi, ya'ni bir jinoiy natija boshqa jinoiy natija kelib chiqishiga sabab bo'lishi ham mumkin.

Shuni hisobga olish lozimki, kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish boshqa jinoyatni qasddan sodir etish usuli sifatida amal qilgan, EHMDan esa, jinoiy niyatni amalga oshirish quroli sifatida foydalanilgan bo'lsa, qilmish JK tegishli moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim. Masalan, ko'rib chiqilgan oqibatlar kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanishdan keyin amalga oshirilgan mazkur axborotga o'zgacha usulda qasddan ta'sir ko'rsatish natijasida yuz bergan bo'lsa, qilmish qonunda ko'rsatilgan belgilar mavjud bo'lgan taqdirda JK 278⁴-moddasi (Kompyuter axborotini modifikatsiyalashtirish) yoki JK 278⁵-moddasi (Kompyuter sabotaji) bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

JK 278²-moddasida nazarda tutilgan jinoyat subyektiv tomondan **qasddan**, ya'ni **to'g'ri** yoki **egri** qasd bilan sodir etiladi. Aybdor kompyuter axborotidan bu axborot mulkdori (egasi)ning ruxsatisiz yoki ruxsat bilan foydalanishning belgilangan tartibini buzib foydalanayotganini anglaydi, o'z harakatlari natijasida qonunda belgilangan ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz berishiga ko'zi yetadi va ularning yuz berishini istaydi yoki ularning yuz berishiga ongli ravishda yo'l qo'yadi. **Ehtiyotsizlik** ayni holda shaxs kompyuter tizimida saqlanayotgan axborotdan foydalanishning qonuniyligiga bergan bahosida, shuningdek, uning mazkur harakatlar natijasida yuz bergan ijtimoiy xavfli oqibatlarga bo'lgan munosabatida namoyon bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etish niyatisiz kompyuter axborotidan ruxsatsiz foydalanish jinoyat tarkibini tashkil etmaydi. Masalan, bevosita foydalanuvchining xatosi tufayli axborotdan beixtiyor foydalanish va sh.k.

Kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanishning **motivlari** va **maqsadlari** ko‘rib chiqilayotgan jinoyat tarkibining muqarrar belgilari hisoblanmaydi va, binobarin, jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta‘sir ko‘rsatmaydi, lekin aybdorga odilona jazo tayinlash chog‘ida hisobga olinishi mumkin.

16 yoshga to‘lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs JK 278²-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **subyekt**i bo‘lishi mumkin. Bu butunlay begona shaxs bo‘lishi ham, muayyan toifadagi axborot bilan ishlash huquqiga ega bo‘lmagan qonuniy foydalanuvchining o‘zi bo‘lishi ham mumkin.

JK 278²-moddasi 2-qismida kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlar nazarda tutilgan. Bunday holatlar quyidagilardan iborat:

- a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- b) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;
- v) xizmat mavqeidan foydalangan holda;
- g) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish.

Jinoyat **JK 278²-moddasi 2-qismi «a» bandi** bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi uchun jinoyat sodir etgan shaxslar uni birgalikda sodir etish haqida oldindan kelishgan bo‘lishlari lozim. Misol uchun, jinoiy guruhning bir ishtirokchisi muhofaza tizimini buzib kirishi va shu tariqa kompyuter axborotidan foydalanish uchun bevosita imkoniyat yaratishi, guruhning boshqa ishtirokchisi esa bu axborot bilan qonunda ko‘rsatilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz berishiga sabab bo‘lgan tegishli manipulyatsiyalarni bajarishi mumkin.

JK 278²-moddasi 2-qismi «v» bandi mazmunidagi **xizmat mavqeidan foydalanish** deganda, mehnat yoki fuqarolik-huquqiy shartnomasiga binoan bajaruvchi ishiga ko‘ra kompyuter axborotidan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan shaxsning kompyuter axborotidan qonunga xilof

ravishda (ruxsatsiz) foydalanishini yoki o‘z xizmat mavqeiga ko‘ra bunday foydalanish huquqiga ega bo‘lgan boshqa shaxslarga ta‘sir o‘tkazishini tushunish lozim.

Shaxs o‘z xizmat mavqeidan foydalanar ekan, xizmat bo‘yicha o‘ziga berilgan huquqlar va burchlardan amalda foydalanadi, lekin bu huquqlar va burchlarni amalga oshirish tartibini buzadi, ya‘ni o‘zining xizmat vakolatlari doirasidan chetga chiqadi va o‘z huquqlari va burchlari tatbiq etilmaydigan yoki foydalanish uchun o‘zida ruxsat bo‘lmagan kompyuter axborotini tasarruf etish imkoniyatini qo‘lga kiritadi.

(EHM, EHM tizimi yoki ularning tarmoqlaridan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar haqida batafsilroq JK 278¹-moddasi tahliliga qarang.)

Kompyuter tizimidan foydalanuvchi tashkilotlarning xodimlari ham, nazorat qiluvchi tashkilotlarning xodimlari ham **JK 278²-moddasi 2-qismi «v» bandida** nazarda tutilgan jinoyat subyekti bo‘lishi mumkin. Agar jinoyat subyekti mansabdor shaxs bo‘lsa, ishning holatlarini hisobga olib qilmish jinoyatlar jami tariqasida JK 278²-moddasi va 205-moddasi (Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste‘mol qilish) yoki 206-moddasi (Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish) bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Takroran yoki xavfli retsivist tomonidan, shuningdek, **uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab** sodir etilgan kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish jinoyatini kvalifikatsiya qilishning o‘ziga xos xususiyatlari biz yuqorida boshqa jinoyat tarkiblarining tahlilida ko‘rib chiqqan javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlar bilan bir xildir.

3-§. Kompyuter tizimidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus vositalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab tayyorlash yoxud o‘tkazish va tarqatish (JK 278³-moddasi)

Mazkur jinoyatning **bevosita obyekt** kompyuter axborotining xavfsizligini va EHM, EHM tizimi yoki ularning tarmoqlari normal ishlashini ta‘minlashga doir ijtimoiy munosabatlardir. **Qo‘shimcha obyekt**

sifatida bu yerda fuqarolarning shaxsiy yoki mulkiy manfaatlarini yoxud davlat yoki jamoat manfaatlarini amal qilishi mumkin.

Jinoyatning **predmeti** – himoyalangan kompyuter tizimidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus dasturiy yoki apparat vositalari.

Dasturiy va apparat vositalari kompyuter texnikasi vositalariga kiradi.

Dasturiy vosita – bu «axborotga ishlov berish tizimining faoliyat ko‘rsatishiga taalluqli bo‘lgan dasturlar, taomillar, qoidalardan, shuningdek, agar nazarda tutilgan bo‘lsa, ularga yo‘ldosh hujjatlar va ma‘lumotlardan tarkib topgan obyekt».

Dasturiy vositalarga quyidagilar kiradi:

– **dasturiy ta‘minot** – boshqaruvchi va ishlov beruvchi dasturlarning quyidagilardan iborat majmui: sistema dasturlari (operatsion sistemalar, texnik xizmatlar ko‘rsatish dasturlari), amaliy dasturlar (muayyan tipdagi vazifalarni yechish uchun mo‘ljallangan dasturlar, masalan matn muharrirlari, antivirus dasturlari, ma‘lumotlar bazalarini boshqarish tizimlari va sh.k.), shuningdek, instrumental dasturlar (dasturlashtirish tillari – Turbo C, Microsoft Basic va hokazolar hamda translyatorlar – algoritmik va simvolik tillardan mashina kodlariga o‘z-o‘zidan o‘g‘irishni ta‘minlovchi dasturlar majmui)dan;

– **axborot mulkdori, egasi, axborotdan foydalanuvchining mashinadagi axboroti.**

Dasturiy vositalar o‘zlari qanday jismga yozilganligidan qat‘i nazar intellektual mahsulot hisoblanadi.

Himoyalangan kompyuter tizimidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus dasturiy vositalar, asosan, axborotdan ruxsatsiz foydalanish, nusxa ko‘chirish, uni o‘g‘irlash yoki modifikatsiyalashtirishdan muhofaza qiluvchi tizimni buzib kirish uchun mo‘ljallangan dasturlardan iborat.

Apparat vositalari – ma‘lumotlarga ishlov berish uchun qo‘llaniladigan texnika vositalari. Ularga ma‘lumotlarga avtomatlashtirilgan usulda ishlov berish uchun mo‘ljallangan barcha mexanik, elektr va

elektron uskunalari (shaxsiy kompyuter, periferiya qurilmasi va mashina axborotining moddiy manbalari) kiradi.

JK 278³-moddasi mazmunidagi **maxsus apparat vositalari** deganda, axborotdan ruxsatsiz foydalanish, nusxa ko‘chirish, uni o‘g‘irlash yoki modifikatsiyalashtirishdan muhofaza qiluvchi tizimni buzib kirish uchun mo‘ljallangan mexanik, elektromexanik, elektron, optik, lazer, radio, radiotexnik, radiolokatsion va boshqa qurilmalar, tizimlar va inshootlar tushuniladi.

(«Qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish» tushunchasi haqida JK 278²-moddasi tahliliga qarang. «Kompyuter tizimi» tushunchasining mazmuni JK 278¹-moddasi tahlilida yoritilgan.)

Himoyalangan kompyuter tizimi – bu muomalada bo‘lish tartibini mulkdori (egasi) o‘rnatgan axborotdan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanilishiga qarshi turishga qodir bo‘lgan kompyuter tizimi.

Kompyuter tizimini himoyalash, avvalo, undagi axborotni muhofaza qilish maqsadida amalga oshiriladi.

(Axborotni muhofaza qilish haqida batafsilroq JK 278¹-moddasi tahliliga qarang.)

JK 278³-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** himoyalangan kompyuter tizimidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus dasturiy yoki apparat vositalarini o‘tkazish maqsadini ko‘zlab tayyorlash yoxud o‘tkazish va tarqatishda aks etadi.

Himoyalangan kompyuter tizimidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus vositalarni **tayyorlash** shaxs tomonidan bu vositalarni yaratishga qaratilgan har qanday harakatlarning amalga oshirilishini anglatadi. Xususan, maxsus dasturiy vositalarni tayyorlash himoyalangan kompyuter tizimidan qonunga xilof ravishda foydalanish uchun mo‘ljallangan kompyuter dasturlarini yaratishda ifodalanadi. Maxsus apparat vositalarini tayyorlash esa, kompyuter tizimidan qonunga xilof ravishda foydalanish uchun imkoniyat yaratadigan turli texnik tizimlar, asboblari, qurilmalarni yaratishdan iborat.

Shuni qayd etish lozimki, kompyuter nomenklaturasidan kelib chiqib, «tayyorlash» atamasini faqat apparat vositalariga nisbatan qo‘llash

o‘rinli bo‘ladi, dasturiy vositalarga nisbatan «yaratish» atamasi ishlatilsa, maqsadga muvofiqdir.

Himoyalangan kompyuter tizimidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus dasturiy yoki apparat vositalarini tayyorlash (yaratish) ko‘rib chiqilayotgan jinoyat tarkibini faqat aybdor **ularni o‘tkazish maqsadini** ko‘zlagan hollardagina tashkil etadi.

Qonunning mazkur qoidasi ham aniqlik kiritishni talab etadi. «o‘tkazish» atamasini dasturiy vositalarga nisbatan qo‘llash mumkin emas, ularni faqat tarqatish mumkin.

Shu tufayli ham **JK 278³-moddasi** mazmunidagi **o‘tkazish** deganda, maxsus apparat vositalarini nomuayyan doiradagi shaxslar foydasiga (jumladan, sotish, hadya qilish, ijaraga berish, qarzga berish yo‘li bilan) begonalashtirishning har qanday shakli tushunilishi lozim.

Ayni holda **tarqatish** deganda, nomuayyan doiradagi shaxslar ko‘rib chiqilayotgan normaning dispozitsiyasida tavsiflangan maxsus dasturiy vositalardan foydalanish imkoniyatini qo‘lga kiritishi uchun sharoit yaratish tushunilishi lozim. Dasturiy vositalarni tarqatish usullari har xil (elektron pochta orqali birovga o‘tkazish, kompyuter tarmog‘i vositasida aloqa liniyasi orqali birovga o‘tkazish va sh.k.) bo‘lishi mumkin va qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta’sir ko‘rsatmaydi.

Ko‘rib chiqilayotgan moddada qo‘llanilgan atamalar xususida bildirilgan fikr-mulohazalarni hisobga olib, **JK 278³-moddasi 1-qismining** dispozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsa, o‘rinli bo‘lar edi: *«Himoyalangan kompyuter tizimidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus dasturiy yoki apparat vositalarini tarqatish yoki o‘tkazish maqsadini ko‘zlab yaratish yoki tayyorlash, shuningdek, tarqatish yoki o‘tkazish»*. Shunga mos ravishda moddaning nomi ham o‘zgartirilishi lozim.

Ko‘rib chiqilayotgan jinoyat qonunda ko‘rsatilgan, vazifasiga ko‘ra foydalanish uchun tayyor bo‘lgan maxsus vositalarning hech bo‘lmasa bitta nusxasi tayyorlangan (yaratilgan) paytdan yoki bunday vositalardan hech bo‘lmasa bittasi o‘tkazilgan yoki tarqatilgan paytdan e’tiboran **tugallangan** hisoblanadi.

JK 278³-moddasida nazarda tutilgan jinoyat **obyektiv tomondan** faqat **to'g'ri qasd** bilan sodir etilishi mumkin. Aybdor o'zi maxsus vositalarni kompyuter tizimidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun ularni o'tkazish maqsadini ko'zlab tayyorlayotganini anglaydi yoki mazkur vositalarni o'tkazayotgani yoki tarqatayotganini anglaydi va shunday qilishni istaydi. Himoyalangan kompyuter tizimidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus dasturiy yoki apparat vositalari tayyorlanganda maxsus **maqsad** – ko'rsatilgan dasturiy yoki apparat vositalarini o'tkazish ham aniqlanishi lozim.

16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs mazkur jinoyat **subyekt** bo'lishi mumkin.

JK 278³-moddasi 2-qismida:

a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

b) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

v) xizmat mavqeidan foydalangan holda;

g) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan himoyalangan kompyuter tizimidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus dasturiy yoki apparat vositalarini o'tkazish maqsadini ko'zlab tayyorlash yoxud o'tkazish va tarqatish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

(Mazkur belgilarning mazmuni haqida JK 278²-moddasi tahliliga qarang.)

4-§. Kompyuter axborotini modifikatsiyalashtirish

(JK 278⁴-moddasi)

Kompyuter axborotini modifikatsiyalashtirishning **asosiy bevosita obyekt** kompyuter axborotining xavfsizligini va EHM, EHM tizimi yoki ularning tarmoqlari normal ishlashini ta'minlashga doir ijtimoiy munosabatlardir. **Qo'shimcha bevosita obyekt** – fuqarolarning shaxsiy yoki mulkiy huquqlari va manfaatlarini, shuningdek, davlat va jamoat manfaatlarini amalga oshirishni kafolatlovchi ijtimoiy munosabatlar.

(«Kompyuter axboroti», «EHM», «EHM tizimi», «EHM tarmoqlari» tushunchalarining mazmuni haqida JK 278¹-moddasi tahliliga qarang.)

Jinoyatning **obyektiv tomoni** fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo‘lgan kompyuter tizimida saqlanayotgan axborotni qonunga xilof ravishda o‘zgartirish, unga shikast yetkazish, uni o‘chirish, xuddi shuningdek, bila turib unga yolg‘on axborotni kiritishdan iborat.

NOTA BENE !

Kompyuter axborotini **modifikatsiyalashtirish** – mazkur axborotni qayta ishlash, ya‘ni kompyuter tizimida saqlanayotgan axborotga adaptatsiya hisoblanmagan har qanday o‘zgarishlarni kiritish.

Ko‘rib chiqilayotgan modda bo‘yicha jinoiy javobgarlik kelib chiqishi uchun kompyuter axborotini modifikatsiyalashtirish, ya‘ni kompyuter tizimida saqlanayotgan axborotni o‘zgartirish, unga shikast yetkazish, uni o‘chirish, xuddi shuningdek, bila turib unga yolg‘on axborotni kiritish **qonunga xilof ravishda**, ya‘ni shaxs tomonidan qonunda belgilangan huquqsiz yoki bu axborotning mulkdori yoki qonuniy egasining ruxsatisiz amalga oshirilgan bo‘lishi lozim. Kompyuter axborotini qonuniy modifikatsiyalashtirish, tegishli ravishda, faqat bu axborotga qonuniy egalik qiluvchi shaxs tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Jumladan, shaxs dasturlar va ma‘lumotlar bazalarini qonuniy modifikatsiyalashtirishni:

- ochiq-oydin xatolarni tuzatish;
- dasturlar, ma‘lumotlar bazalariga ular foydalanuvchining texnika vositalarida faoliyat ko‘rsatishi uchun tuzatishlar kiritish;
- boshqa dasturlar bilan o‘zaro aloqa qilish qobiliyatiga erishish uchun dasturni qisman dekomplyatsiya qilish tarzida amalga oshirishi mumkin.

Har qanday holda amalga oshirilgan modifikatsiyalashtirishning qonuniyligi to‘g‘risidagi masala O‘zbekiston Respublikasining 2006 yil 20 iyuldagi «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida»gi O‘RQ-42-son Qonuni qoidalarini hisobga olib hal qilinishi lozim.

Axborotni o'zgartirish deganda, kompyuter axborotining dastlabki holatiga uning mazmunini o'zgartirmaydigan har xil tuzatishlarning kiritilishi (masalan, ma'lumotlar bazasini restrukturizatsiya qilish yoki qayta tashkil etish, uning fayllaridagi yozuvlarni qo'shish, EHM yoki ma'lumotlar bazasi uchun dasturni bir tildan boshqa tilga o'girish) tushunilishi lozim.

Axborotga **shikast yetkazish** deb, uni texnika vositalari bilan ishlov berish chog'ida yaroqsiz holatga keltirilishi (agar uni tiklash imkoniyati mavjud bo'lsa) tushunilishi lozim.

Kompyuter tizimida saqlanayotgan axborotni **o'chirish** amalda uni yo'q qilib yuborish hisoblanadi va faylni yoki uning bir qismini mantiqiy va moddiy jihatdan foydalanib bo'lmaydigan holatga keltiruvchi operatsiyadan iborat.

Ko'rib chiqilayotgan norma mazmunidagi **bila turib yolg'on axborotni kiritish** kompyuter tizimida saqlanayotgan axborotga haqiqatga mos kelmaydigan ma'lumotlarni qo'shib qo'yishdan iborat.

Kompyuter axborotini modifikatsiyalashtirishning ko'rsatilgan obyektiv belgilarini sinchiklab tahlil qilish bizga ko'rib chiqilayotgan jinoyat-huquqiy norma dispozitsiyasining qonundagi tuzilishida ayrim jiddiy ziddiyatlarni aniqlash imkonini berdi va ularga o'quvchi e'tiborini qaratmoqchimiz.

Birinchidan, kompyuter axborotini modifikatsiyalashtirish unga shikast yetkazish (axborotni yaroqsiz holatga keltirish) va uni o'chirish (axborotni yo'q qilib yuborish) bilan bog'liq bo'lishi mumkin emas. Modifikatsiyalashtirish axborotni qayta ishlashni, ya'ni uni o'zgartirish, buzib ko'rsatish, soxtalashtirishni anglatadi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida»gi Qonuni 1-moddasi (Asosiy tushunchalar) 7-qismida **EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazasini modifikatsiyalash (qayta ishlash)** tushunchasi belgilangan bo'lib, u ko'rsatilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarini adaptatsiya deb

hisoblanmaydigan va boshlang'ich matn o'zgarishiga olib keladigan har qanday tarzda o'zgartirishni anglatadi.

Tarmoq standartida axborotni modifikatsiyalashtirish «axborot mazmuni yoki hajmini uning manbalarida texnika vositalari bilan ishlov berish chog'ida ruxsatsiz o'zgartirish» sifatida tavsiflanadi (2.7-band). Shuningdek, standartda «axborotni buzib ko'rsatish» va «axborotni soxtalashtirish» tushunchalariga ham ta'rif berilgan bo'lib, ular aynan axborotni ruxsatsiz *modifikatsiyalashtirish* sifatida talqin qilinadi:

«Axborotni buzib ko'rsatish – axborotni unga texnika vositalari bilan ishlov berish (uzatish) chog'ida sirdan ta'sirlar (shovqinlar), apparatura ishidagi nosozliklar yoki xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning yanglish harakatlari natijasida tasodifiy yoki qasddan ruxsatsiz modifikatsiyalashtirish» (2.6-band)».

«Axborotni soxtalashtirish – axborotni unga texnika vositalari bilan ishlov berish chog'ida raqib oldida muayyan qulaylik (ustunlik)larga erishish yoki unga zarar yetkazish maqsadida qasddan ruxsatsiz modifikatsiyalashtirish» (2.8-band).

Ikkinchidan, «axborotga shikast yetkazish» va «axborotni o'chirish» kabi tushunchalar kompyuter sohasidagi norasmiy terminologiyaga kiradi, chunki ular standartlashtirilmagan va axborotlashtirish sohasidagi boshqa normativ hujjatlarda mavjud emas.

«Axborotni o'chirish» tushunchasiga Tarmoq standartida «axborotni yo'q qilib yuborish» tushunchasiga berilgan ta'rifda duch kelish mumkin:

«Axborotni yo'q qilib yuborish – axborotni uning manbalarida texnika vositalari bilan ishlov berish chog'ida tasodifiy yoki qasddan *o'chirish*» (2.9-band). Bu ta'rifdan ko'rinib turganidek, axborotni o'zgartirish, buzib ko'rsatish va uni soxtalashtirishdan farqli o'laroq, axborotni yo'q qilib yuborish (xuddi shuningdek, uni o'chirish) axborotni modifikatsiyalashtirish hisoblanmaydi.

Xuddi shu gapni axborotga shikast yetkazish haqida ham aytish mumkin. Mazkur tushunchaga rasmiy ta'rif berilmagani bois, uni etimologik mazmunidan kelib chiqib, xususan, axborotni buzish, uni foydalanish uchun yaroqsiz holatga keltirish sifatida talqin qilishga to'g'ri

keladiki, bular ham kompyuter axborotini modifikatsiyalashtirishning ma'no va mazmuniga mos kelmaydi.

Mazkur tushunchalar o'z tabiatiga ko'ra ko'proq kompyuter sabotajiga taalluqlidir.

Bundan tashqari, qonun chiqaruvchining o'zi JK 278²-moddasi (Kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish) va 278⁶-moddasi (Zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, ishlatish yoki tarqatish)ni tuzishda yo'q qilib yuborish va modifikatsiyalashtirishni turli jinsli tushunchalar sifatida ishlatgan, ko'rib chiqilayotgan modda dispozitsiyasida esa, «yo'q qilib yuborish» atamasining o'rniga u bilan ayniy bo'lgan «o'chirish» atamasini ishlatib, axborotni yo'q qilib yuborishga uni modifikatsiyalashtirishning tur xili sifatida yondashgan. Ya'ni JK 278⁴-moddasida axborotni modifikatsiyalashtirish amalda axborotni yo'q qilib yuborish (o'chirish)ga nisbatan kengroq tushuncha sifatida namoyon bo'ladi. Bizningcha, bu yondashuv mantiqqa zid va kompyuter terminologiyasini qo'llashda noizchilikni namoyish etadi.

Uchinchidan, JK 278⁴-moddasi 1-qismidagi «bila turib unga yolg'on axborotni kiritish» iborasini ham o'z o'rnida ishlatilgan deb aytish mushkul. Bu yerda muayyan takroriylik kuzatiladi: bila turib unga (ya'ni *axborotga*) yolg'on *axborotni* kiritish. Bundan tashqari, kompyuter axborotiga yolg'on, ya'ni haqiqatga mos kelmaydigan ma'lumotlarni kiritish uni buzib ko'rsatish yoki soxtalashtirishni anglatadi.

Shuni e'tiborga olib ko'rib chiqilayotgan modda birinchi qismining mazmuni quyidagicha ta'riflansa, bizningcha, maqsadga muvofiq bo'lar edi: «*Kompyuter axborotini modifikatsiyalashtirish, ya'ni kompyuter tizimida saqlanayotgan axborotni qonunga xilof ravishda o'zgartirish, buzib ko'rsatish, xuddi shuningdek, uni soxtalashtirish fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo'lsa*».

Bu fikr-mulohazalar milliy jinoyat qonunchiligimizni yanada takomillashtirish chog'ida e'tiborga olinadi deb umid qilamiz.

Kompyuter axborotini qonunga xilof ravishda modifikatsiyalashtirish **JK 278⁴-moddasi 1-qismida** ko'rsatilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz bergan, ya'ni fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilgan vaqtdan e'tiboran **tugallangan** jinoyat deb e'tirof etiladi.

Mazkur jinoyat sodir etilishi natijasida fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga **jiddiy ziyon yetkazilishi** muhim yoki hatto o'ta noyob axborotning yo'qolishidan; muhim texnika vositalari ishdan chiqishidan (jumladan, avianavigatsiya texnikasi ishdan chiqishidan); kompyuter tarmog'iga birlashtirilgan EHM o'rtasida aloqaning qayta sozlash yoki uzoq vaqt ta'mirlashni talab etuvchi uzilishidan va hokazolardan iborat bo'lishi mumkin.

(Ko'rsatilgan ijtimoiy xavfli oqibatlarning tavsifi va ularni kvalifikatsiya qilish xususiyatlari haqida batafsilroq JK 278¹-moddasi tahliliga qarang.)

JK 278⁴-moddasida nazarda tutilgan jinoyat **subyektiv tomondan qasddan** (to'g'ri yoki egri qasd bilan), **ehtiyotsizlik orqasida** yoki **murakkab aybli jinoyat** tarzida sodir etilishi mumkin.

(Mazkur ayb shakllarining aql va idrok omillari mazmuni haqida JK 278¹-moddasi tahlilida aytib o'tilgan.)

Qilmishni kvalifikatsiya qilishda uning **motivi** va **maqsadi** ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

JK 278⁴-moddasi 2-qismida:

a) juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

v) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan kompyuter axborotini qonunga xilof ravishda modifikatsiyalashtirish uchun javobgarlik belgilangan.

(Mazkur javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarni kvalifikatsiya qilish xususiyatlari haqida JK 278¹-moddasi va JK 278²-moddasi tahliliga qarang.)

5-§. Kompyuter sabotaji (JK 278⁵-moddasi)

Mazkur jinoyatning **bevosita obyektini** kompyuter axboroti yoki dasturlarning, shuningdek, kompyuter uskunasining butligini ta'minlashga doir ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. Bu erda **qo'shimcha obyekt** sifatida fuqarolarning shaxsiy yoki mulkiy manfaatlarini yoxud davlat va jamoat manfaatlarini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar amal qilishi mumkin.

S.I.Ojegov izohli lug'atiga ko'ra, **sabotaj** o'zini xuddi ishni lozim darajada bajarayotgandek qilib ko'rsatib, uni qasddan izdan chiqarish yoki barbod qilishni, biron-bir narsani bajarish, amalga oshirishga zimdan qarshi harakat qilishni anglatadi.

Ushbu izoh hamda ko'rib chiqilayotgan modda dispozitsiyasining tahriridan kelib chiqib, **kompyuter sabotaji** deb, kompyuter uskunasi yoki kompyuter tizimining ishiga ular normal faoliyat ko'rsatishiga xalaqit berish niyatida aralashishni e'tirof etish mumkin.

O'zganing kompyuter uskunasi yoki xizmatda foydalaniladigan kompyuter uskunasi, shuningdek, kompyuter tizimi jinoyat **predmeti** hisoblanadi.

Kompyuter uskunasi – axborotni o'zgartirish va saqlash uchun mo'ljallangan uskuna. Bu turdagi uskunaga quyidagilar kiradi: aloqa tizimlari va vositalari uskunasi, o'lchash va boshqarish vositalari, hisoblash texnikasi vositalari (ma'lumotlarga avtomatlashtirilgan usulda ishlov berish uchun analogli va analogli-raqamli mashinalar, elektron hisoblash, elektromexanik va mexanik komplekslari va mashinalari, ma'lumotlarni saqlash, qidirish va ularga ishlov berish uchun mo'ljallangan, turli vazifalarni yechish bilan bog'liq bo'lgan qurilmalar) va tashkiliy texnika vositalari, axborotni vizual va akustik aks ettirish vositalari, axborotni saqlash vositalari, teatr-sahna uskunasi va h.k.

(«Kompyuter tizimi» tushunchasi haqida JK 278¹-moddasi tahliliga qarang.)

Kompyuter sabotajining **obyektiv tomoni** o‘zganing kompyuter uskunasini yoki xizmatda foydalaniladigan kompyuter uskunasini ishdan chiqarish, shuningdek, kompyuter tizimini buzishdan iborat.

Kompyuter uskunasini ishdan chiqarish kompyuter tizimi, tarmog‘i, EHM tarkibidagi ayrim elementlarni ularning vazifasiga muvofiq ishlab turishini jiddiy qiyinlashtiruvchi tarzda yaroqsiz holatga keltirishni anglatadi.

Kompyuter tizimini buzish deganda, tizimning barcha apparat (texnik) komponentlari yoki ularning ayrimlari yo‘q qilib yuborilishi natijasida bu tizim o‘z faoliyatini to‘xtatishi tushunilishi lozim. Bunda qilmishni JK 173-moddasi (Mulknii qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish) bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilish talab etilmaydi.

Kompyuter sabotajini amalga oshirish usuli moddiy (bloklarni yo‘q qilib yuborish, disketalar, magnet barabanlari, disklar, tasmalar va shu kabilarni yaroqsiz holga keltirish) yoki apparat-dasturiy (qurilmalarni mazkur EHM, uning tizimi yoki tarmog‘iga mos kelmaydigan boshqa qurilmalar bilan almashtirish; ma’lumotlar bazasi ustidan o‘yin dasturlarini yozish; fayllarning nomlarini o‘zgartirish va sh.k.) bo‘lishi mumkin, lekin bu aybdorning harakatlariga yuridik baho berishga ta’sir ko‘rsatmaydi.

Kompyuter sabotaji shaxs ko‘rib chiqilayotgan modda dispozitsiyasida ko‘rsatilgan harakatlarni bajargan, ya’ni o‘zganing kompyuter uskunasini yoki xizmatda foydalaniladigan kompyuter uskunasini qasddan ishdan chiqargan yoxud kompyuter tizimini buzgan vaqtdan e’tiboran **tugallangan** jinoyat deb e’tirof etiladi.

Subyektiv tomondan mazkur jinoyat **to‘g‘ri qasd** bilan sodir etilishi mumkin. Aybdor kompyuter uskunasini ishdan chiqarish yoxud kompyuter tizimini buzishga qaratilgan harakatlarni bajarayotganini anglaydi va buni istaydi.

Bizningcha, ko‘rib chiqilayotgan modda birinchi qismining dispozitsiyasi ham takomillashtirishni talab etadi. Uni quyidagi tahrirda bayon etish o‘rinli bo‘ladi deb hylaymiz: «*Kompyuter sabotaji, ya’ni elektron*

hisoblash mashinalari, elektron hisoblash mashinalari tizimi yoki ularning tarmoqlari ishini buzish maqsadida kompyuter axborotini qasddan yo‘q qilib yuborish, unga shikast yetkazish yoki uni to‘sib qo‘yish yoxud o‘zganing kompyuter uskunasini yoki xizmatda foydalaniladigan kompyuter uskunasini qasddan ishdan chiqarish, xuddi shuningdek, kompyuter tizimini buzish».

Jinoiy qilmishning maxsus maqsadi – elektron hisoblash mashinalari, elektron hisoblash mashinalari tizimi yoki ularning tarmoqlari ishini buzishni ko‘rsatish, avvalo, kompyuter sabotajining mohiyatini, uning qilmishni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan muqarrar elementlarini to‘liq aks ettirish va uni turdosh jinoyat tarkibi – mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish (JK 173-moddasi)dan farqlash imkonini beradi.

Masalan, kompyuter uskunasini ishdan chiqarish uni shunday bir holatga keltirishni anglatadiki, bunda mazkur uskunadan uning o‘z funksional vazifasiga ko‘ra foydalanish mumkin bo‘lmaydi. Bu yuqorida qayd etib o‘tilganidek, moddiy buyum sifatidagi kompyuter uskunasining yaxlitligini buzish yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin. Bunday vaziyatlarda aynan aybdor g‘ayriqonuniy xulq-atvorining maxsus maqsadi qilmishga to‘g‘ri yuridik baho berish imkonini beradi.

Kompyuter axborotini yo‘q qilib yuborish, unga shikast yetkazish (xuddi shuningdek, uni to‘sib qo‘yish)ga kelsak, yuqorida qayd etib o‘tganimizdek, mazkur harakatlar qasddan (va ayniqsa, maxsus maqsad bilan) sodir etilganda aynan kompyuter sabotajiga kiritilishi lozim.

(Bu haqda batafsilroq JK 278⁴-moddasi tahliliga qarang.)

JK 278⁵-moddasi 2-qismida:

- a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- b) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan kompyuter sabotaji uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

(Javobgarlikni og‘irlashtiruvchi mazkur holatlarning mazmuni va ularni kvalifikatsiya qilish xususiyatlari haqida JK 278²-moddasi tahliliga qarang.)

6-§. Zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, ishlatish yoki tarqatish (JK 278⁶-moddasi)

Ushbu jinoyatning **bevosita obyekti** kompyuter axboroti xavfsizligini va EHM, EHM tizimi yoki ularning tarmoqlari normal ishlashini ta'minlashga doir ijtimoiy munosabatlardir. Bu yerda **qo'shimcha obyekt** sifatida fuqarolarning shaxsiy yoki mulkiy manfaatlari yoxud davlat va jamoat manfaatlari ham amal qilishi mumkin.

Jinoyatning **predmeti** – zarar keltiruvchi kompyuter dasturlari, shuningdek, maxsus virus dasturlari.

Kompyuter dasturi (EHM uchun dastur) – bu «muayyan natija olish maqsadida EHM, EHM shoxobchalari va boshqa kompyuter vositalarining ishlashi uchun mo'ljallangan ma'lumotlar va ko'rsatmalar majmui». Kompyuter dasturi deb, uni ishlab chiqish chog'ida olingan tayyorgarlik hujjatlari hamda u bilan yaratiladigan audiovizual tasvirlar ham e'tirof etiladi.

Shuni qayd etish lozimki, **JK 278⁶-moddasi** dispozitsiyasida aynan **zarar keltiruvchi** kompyuter dasturi (EHM dasturi) nazarda tutiladi.

NOTA BENE !

Zarar keltiruvchi kompyuter dasturlari – foydalanuvchi ruxsat bermagan harakatlarni bajarishga va shu tariqa kompyuter tizimida saqlanayotgan yoki uzatilayotgan axborot mulkdori (egasi)ga uni yo'q qilib yuborish, to'sib qo'yish, modifikatsiyalashtirish, undan nusxa ko'chirish yoki uni qo'lga kiritish tarzida ziyon yetkazishga, shuningdek, o'zga noxush oqibatlar (EHM, EHM tizimi yoki ularning tarmoqlari ishining buzilishi)ga sabab bo'lishga qodir bo'lgan, maxsus yaratilgan dasturlar.

Dasturning zararliligini aniqlash uchun u kompyuter tizimlarida saqlanayotgan ma'lumotlar yoki dasturlar ruxsatsiz to'sib qo'yilishi, ulardan nusxa ko'chirilishi, ularning modifikatsiyalashtirilishi, yo'q qilib yuborilishiga olib kelishga qodirligi yoki qodir emasligi, ya'ni bu dastur ishining xususiyati haqida axborot mulkdori (egasi) yoki o'zga vakolatli foydalanuvchini oldindan xabardor etish nazarda tutilganligi yoki nazarda tutilmaganligi, shuningdek, dastur o'z funksiyalarini bajarishiga uning

ruxsatini olish nazarda tutilganligi yoki nazarda tutilmaganligi aniqlanishi lozim. Agar bu talablarning hech bo'lmasa bittasi buzilsa ham dastur g'ayriqonuniy (zarar keltiruvchi) deb topilishi lozim.

Zarar keltiruvchi dasturlar toifasiga quyidagilar kiradi: virus dasturlari; elektron kalitlarning dastur-emulyatorlari; parolli muhofazani buzuvchi dasturlar; «mantiqiy bombalar»; «troya oti», «qurt» qabilidagi va boshqa dasturlar.

O'z vaqtida (2001 yil) kompyuter axborotini qo'lga kiritish va o'zganing EHM ustidan nazorat o'rnatishga mo'ljallangan «troya oti» dasturi barcha zarar keltiruvchi dasturlar orasida ayniqsa keng tarqalgan edi. Mazkur dastur dasturiy ta'minot muallifi tomonidan nazarda tutilmagan ko'rsatmalar blokidan iborat bo'lib, ular o'z vazifasini bajarib bo'lganidan so'ng o'z-o'zidan yo'q bo'ladi. Shundan so'ng mazkur dasturiy modullarni topish deyarli mumkin emas. Troya dasturlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular kompyuter tizimiga chuqur kiradi, yaxshilab niqoblanadi, shu bois ularni aniqlash va o'chirib tashlash juda qiyin.

«Mantiqiy bombalar» ham ancha keng tarqalgan zarar keltiruvchi viruslardir. Ular qasddan dastur kodini o'zgartirishdan iborat bo'lib, buning natijasida EHM dasturi yoki tizimi oldindan belgilangan sharoitda, masalan, muayyan vaqtda to'liq yoki qisman ishdan chiqadi.

«Mantiqiy bombalar»ning kompyuter viruslaridan farqi shundaki, ular avval-boshdan dasturning bir qismi hisoblanadi va boshqa dasturlarga o'tmaydi, kompyuter viruslari esa, harakatchan dasturlar bo'lib, hatto kompyuter tarmoqlari bo'ylab tarqalishi ham mumkin.

NOTA BENE !

Virus dasturi – boshqa dasturlarga o'z-o'zidan qo'shilishga (ya'ni ularni «zararlash»ga) va ular ishga tushirilganda vakolatli foydalanuvchi uchun nomaqbul bo'lgan turli amallarni bajarish, chunonchi: fayllar va kataloglarga shikast yetkazish yo'li bilan ulardagi axborotni yo'q qilib yuborish, modifikatsiyalashtirish, to'sib qo'yish; kompyuter xotirasini keraksiz ma'lumotlar bilan to'ldirish yoki o'chirish, uning ishi sekinlashuviga olib kelish va hokazolarga qodir bo'lgan zarar keltiruvchi maxsus dastur.

Virus dasturlar, odatda, ular o‘z-o‘zidan nusxa ko‘chirishi va niqoblanishini ta‘minlovchi ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi. Muayyan davr mobaynida virus o‘zini namoyon etmasligi mumkin, lekin keyinchalik kompyuter «kasallanadi» va sirtdan sababsiz ishdan chiqadi. Aksariyat hollarda kompyuter ishidagi nosozliklar axborot to‘liq yoki qisman yo‘q bo‘lib ketishi bilan birga yuz beradi.

Rasmiy darajada ro‘yxatdan o‘tkazilgan, kompyuterni butunlay yaroqsiz holatga keltirishga qodir bo‘lgan kompyuter viruslari orasida «Pokiston virusi», «Rojdestvo archasi», «Morris virusi», «I love you», «666» viruslarini qayd etish mumkin. Hozirgi vaqtda EHM uchun viruslar soni bir necha o‘n mingtaga yetadi va ularning soni tinimsiz o‘sib bormoqda.

JK 278⁶-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** kompyuter tizimida saqlanayotgan yoki uzatilayotgan axborotni ruxsatsiz yo‘q qilib yuborish, to‘sib qo‘yish, modifikatsiyalashtirish, undan nusxa ko‘chirish yoki uni qo‘lga kiritish maqsadini ko‘zlab kompyuter dasturlarini yaratish yoki mavjud dasturlarga o‘zgartirishlar kiritish, xuddi shuningdek, maxsus virus dasturlarini ishlab chiqish, ulardan qasddan foydalanish yoki ularni qasddan tarqatishda aks etadi.

Zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, xuddi shuningdek, **maxsus virus dasturlarini ishlab chiqish** dasturiy algoritmini yozishni, ya‘ni mantiqiy ko‘rsatmalar ketma-ketligini va keyinchalik uni EHM mashina tiliga o‘tkazishni nazarda tutadi.

Umuman olganda, har qanday kompyuter dasturini yaratish algoritmini yozish tilini tanlash, keyinchalik EHM mashina tiliga o‘tkazish, dasturni rostdash va saqlab qo‘yishni o‘z ichiga oluvchi izchil faoliyatdir. Zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish vazifasi qo‘yilganda bu harakatlar jinoyat qonuniga binoan jazoga loyiq deb topilishi mumkin.

Mavjud dasturlarga o‘zgartirishlar kiritish – bu bezarar bo‘lgan dasturni unga virus kiritish orqali (uning algoritmini o‘zgartirish, uning ayrim qismlarini olib tashlash yoki to‘ldirish, ularni boshqa qismlar bilan almashtirish yo‘li bilan) modifikatsiyalashtirish bo‘lib, buning natijasida dastur yangi funksiyalarni orttiradi va kompyuter tizimida saqlanayotgan

yoki uzatilayotgan axborot ruxsatsiz yo‘q qilib yuborilishi, to‘sib qo‘yilishi, modifikatsiyalashtirilishi, undan nusxa ko‘chirilishi yoki u qo‘lga kiritilishiga olib kelishga qodir bo‘ladi.

(«Axborotni yo‘q qilib yuborish», «axborotning to‘sib qo‘yilishi», «axborotni modifikatsiyalashtirish», «axborotdan nusxa ko‘chirish» va «axborotni qo‘lga kiritish» tushunchalarining mazmuni haqida ushbu bobda ko‘rib chiqilgan oldingi moddalar tahliliga qarang.)

Zarar keltiruvchi dastur yoki maxsus virus dasturidan foydalanish deganda, O‘zbekiston Respublikasining «Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida»gi Qonuni 1-moddasining qoidalarini hisobga olganda, quyidagilar tushunilishi lozim:

– tegishli dasturni bosib chiqarish, ya’ni uning nusxalarini nomuayyan doiradagi shaxslarga berish (shu jumladan, EHM xotirasida yozib qo‘yish va bosma matnni chiqarish yo‘li bilan);

– undan nusxa olish, ya’ni dasturning bir yoki bir necha nusxalarini har qanday moddiy shaklda tayyorlash, shuningdek, ularni EHM xotirasida yozib qo‘yish;

– tarqatish;

– dasturni xo‘jalik muomalasiga (jumladan, modifikatsiyalashtirilgan shaklda) kiritish yuzasidan boshqa harakatlarni amalga oshirish. Bunda bosib chiqarilgan tegishli dastur haqidagi xabarlarini ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish zarar keltiruvchi yoki maxsus virus dasturidan foydalanish deb e’tirof etilmaydi.

Shuni aytib o‘tish lozimki, ayrim hollarda zarar keltiruvchi dasturlardan ruxsat bilan foydalaniladi, ya’ni bunda tegishli zarar keltiruvchi dasturning qo‘llanilishini axborot resursining mulkdori yoki boshqa qonuniy egasi ma’qullaydi (yangi dasturiy ta’minotni ishlab chiqishda, virusga qarshi vositalarni yaratish borasidagi tadqiqot ishlarini o‘tkazishda va sh.k.).

Zarar keltiruvchi yoki maxsus virus dasturini tarqatish deganda, zarar keltiruvchi dasturning har qanday moddiy shaklda, shu jumladan tarmoqlar vositasida va boshqa usullar yordamida, shuningdek, sotish,

prokatga berish, ijaraga topshirish, qarzga berib turish, jumladan ushbu maqsadlarning istalgani uchun import qilish yo‘li bilan olingan nusxalaridan foydalanishni ta‘minlash tushuniladi. Ko‘rib chiqilayotgan turdagi dasturlarni tarqatish bevosita ulardan jabrlanuvchining kompyuterida, masalan, disketadan yoki boshqa manbadan nusxa ko‘chirish yo‘li bilan, shuningdek, bilvosita, qonuniy foydalanuvchining aloqa liniyasi bo‘ylab kompyuter tarmog‘i orqali yoki elektron pochta orqali uzatish yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin.

JK 278⁶-moddasida nazarda tutilgan jinoyat mazkur normaning dispozitsiyasida belgilangan harakatlarning istalgan biri amalga oshirilgan paytdan e‘tiboran, kompyuter tizimida saqlanayotgan yoki uzatilayotgan axborotni ruxsatsiz yo‘q qilib yuborish, to‘sib qo‘yish, modifikatsiyalashtirish, undan nusxa ko‘chirish yoki uni qo‘lga kiritish tarzidagi oqibatlar yuz berganligi yoki bermaganligidan qat‘i nazar, **tugallangan** deb e‘tirof etiladi. Xususan, virus dasturlari birlamchi matnlari mavjudligining o‘ziyoq ko‘rib chiqilayotgan modda bo‘yicha javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi.

Shuni qayd etish lozimki, «zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish yoki mavjud dasturlarga o‘zgartirishlar kiritishda aks etgan qilmish u amalda axborotning ruxsatsiz yo‘q qilib yuborilishi, to‘sib qo‘yilishi, modifikatsiyalashtirilishi, undan nusxa ko‘chirilishi yoki uning qo‘lga kiritilishi xavfini vujudga keltirgan holdagina jinoyat hisoblanadi. Aks holda, shaxsning zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, ulardan foydalanish yoki ularni tarqatish borasidagi harakatlari jinoyat sifatida qaralishi mumkin emas. Masalan, monitor ekranida shtrix hosil qilib, darhol g‘oyib bo‘ladigan ancha zararsiz dastur-virusni yaratgan shaxsning harakatlari jinoiy bo‘lmaydi».

Shu sababli, yaratilgan, tarqatilgan yoki ishlatilgan zarar keltiruvchi dastur amalda axborotning to‘sib qo‘yilishi, modifikatsiyalashtirilishi, undan nusxa ko‘chirilishi yoki uning qo‘lga kiritilishiga olib kelishi va shu tariqa uning egasiga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lmagan hollarda aybdorning harakatlari JK 36-moddasiga binoan kam ahamiyatli deb baholanishi lozim.

Subyektiv tomondan mazkur jinoyat faqat **to‘g‘ri qasd** bilan sodir etilishi mumkin. Shaxs o‘zi yaratayotgan dasturning zarar keltiruvchi xossalarini oldindan biladi, mavjud dasturlarga bunday o‘zgartirishlarni ongli ravishda kiritadi, maxsus virus dasturlarini ishlab chiqadi, ulardan foydalanadi yoki tarqatadi va buni istaydi. Ko‘rsatilgan harakatlarni aybdor **JK 278⁶-moddasi** dispozitsiyasida belgilangan **maqsad** – kompyuter tizimida saqlanayotgan yoki uzatilayotgan axborotni ruxsatsiz yo‘q qilib yuborish, to‘sib qo‘yish, modifikatsiyalashtirish, undan nusxa ko‘chirish yoki uni qo‘lga kiritishni ko‘zlab amalga oshiradi. Bu jinoyatning **motivi** qilmishni kvalifikatsiya qilish uchun ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Subyekt – 16 yoshga to‘lgan aqli raso jismoniy shaxs. Odatda, bu kibernetika va axborot texnologiyalari sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lgan shaxs.

JK 278⁶-moddasi 2-qismida:

- a) juda ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;
- g) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, ishlatish yoki tarqatish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

(Javobgarlikni og‘irlashtiruvchi bu holatlarning mazmuni va ularni kvalifikatsiya qilish xususiyatlari haqida JK 278¹-moddasi va JK 278²-moddasi tahliliga qarang.)

**«Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar»
mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar**

1. Axborotlashtirish qoidalarini buzish nimalarda namoyon bo‘ladi?
2. Axborotlashtirish qoidalarining buzilishi natijasida jiddiy ziyon yetkazish nimadan iborat?
3. Kompyuter axboroti deganda nima tushuniladi?

4. Kompyuter axborotidan ruxsatsiz foydalanishdan kompyuter axborotidan ruxsat bilan foydalanishning farqi nimada? Kompyuter axborotidan foydalanish bilan kompyuter tizimidan foydalanish o'rtasida farq bormi?

5. Axborotdan nusxa ko'chirish, uni to'sib qo'yish, yo'q qilib yuborish va qo'lga kiritish nimani anglatadi?

6. Elektron hisoblash mashinalari, elektron hisoblash mashinalari tizimi yoki ularning tarmoqlari ishining buzilishi nimada aks etishi mumkin?

7. JK 278³-moddasi (Kompyuter tizimidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus vositalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab tayyorlash yoxud o'tkazish va tarqatish)da nazarda tutilgan jinoyatning predmetini nimalar tashkil etadi?

8. Kompyuter axborotini modifikatsiyalashtirish deganda nima tushuniladi? Modifikatsiyalashtirish axborotni yo'q qilib yuborish, to'sib qo'yish, undan nusxa ko'chirish va uni qo'lga kiritishdan nima bilan farq qiladi?

9. Kompyuter sabotaji nima?

10. Zarar keltiruvchi kompyuter dasturi nima?

11. Zarar keltiruvchi kompyuter dasturini yaratish, ishlatish va tarqatish deganda nima tushuniladi?

Qo'shimcha adabiyotlar

O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar

Айков Д., Сейгер К., Фосторх У. Компьютерные преступления. Руководство по борьбе с компьютерными преступлениями. – М.: МИР, 1999.

Батурин Ю.М., Жодзинский А.М. Компьютерная преступность и компьютерная безопасность. – М.: НОРМА, 1991.

Вехов В.В. Компьютерные преступления: способы совершения и раскрытия. – М.: «Право и Закон», 1996.

Гаврилин Ю.В. Преступления в сфере компьютерной информации. Квалификация и доказывание. – М.: «Книжный мир», 2003.

Козлов В.Е. Теория и практика борьбы с компьютерной преступностью. – М.: Горячая линия – Телеком, 2002.

Крылов В.В. Информационные компьютерные преступления. – М.: ИНФРА – М*НОРМА, 1997. – 285 Б.

Куршин В.Д., Минаев В.А. Компьютерные преступления и информационная безопасность. – М.: Новый Юрист, 1998.

Мазуров В.А. Компьютерные преступления: классификация и способы противодействия: Учебно-практическое пособие. – М.: «Палеотип», «Логос», 2002. – 148 Б.

Методика информационной безопасности / Под ред. Ю.С. Уфимцева – М.: «Экзамен», 2004.

Преступления в сфере компьютерной информации: квалификация и доказывание. Учеб. пособие / Под ред. Ю.В. Гаврилина. – М.: ЮИ МВД РФ, 2003.

Расулев А.К. Международное сотрудничество и уголовно-правовые меры борьбы с компьютерными преступлениями. Научно-практическое пособие. – Т.: ВШСАиП, 2006.

Расулев А.К. Некоторые вопросы совершенствования уголовно-правовых и криминологических мер борьбы с преступлениями в сфере информационных технологий и безопасности. Монография. – Т.: ТДЮУ, 2017. 316с.

Стенг Д., Мун С. Секреты безопасных сетей. – Киев: 1995.

Щеглов А.Ю. Защита компьютерной информации от несанкционированного доступа. – СПб.: «Наука и технология», 2004.

Ярочин В.И. Информационная безопасность. – М.: «Академический проект», 2004.

Ilmiy maqolalar

Rasulev A.K. Information security in the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan // The Korea Post. 2016 йил. (Vol. 29. № 2) – P. 36-38.

Арипов К. Компьютерные преступления: сущность, понятие и виды // Ж. Демократизация и права человека. 2004. № 4.

Ляпунов Ю., Максимов В. Ответственность за компьютерные преступления // Ж. Законность. 2001. № 2.

Никифоров И.В. Уголовно-правовые меры борьбы с компьютерной преступностью и обеспечение компьютерной безопасности // Вестник Санкт-Петербургского университета. Сер. 6, вып.4. 1995. № 27.

Расулев А.А. Проблемы определения субъективной стороны квалификации несанкционированного доступа к компьютерной информации // Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили. Uzbek Law Review. Обзор законодательства Узбекистана. – 2015, №1, – Б. 53-56.

Расулев А.К. Determinants of crimes in the sphere of information technologies and safety.// International Journal of Advanced Research. 2016, Volume 4, Issue 4, 150-156 бетлар.

Расулев А.К. The personality of the criminal committing crime computer crimes // Ҳуқуқий тадқиқотлар журнали. Журнал правовых исследований. 2017. №8. –Б. 134-139.

Расулев А.К. Борьба с компьютерными преступлениями. // Ж. Давлат ва ҳуқуқ. 2002. № 1 (9). – 44–46-б.

Расулев А.К. Вина, мотив и цель в компьютерных преступлениях. // Ж. Давлат ва ҳуқуқ. 2005. № 6 (28). – 55–56-б.

Расулев А.К. Детерминанты преступлений в сфере информационных технологий и безопасности. // Правосудие. 2016, 2 (33). –С. 90-96.

Расулев А.К. Замонавий Интернет-кафе ва Интернет клублар фаолиятининг ҳуқуқий асослари // Фуқаролик жамияти – Гражданское общество – Civil society. 2015, – №3 (43). – Б. 56-58.

Расулев А.К. Компьютер фирибгарлиги: уни тўғри квалификация қилиш билан боғлиқ айрим мулоҳазалар // Ҳуқуқ ва бурч. 2016, № 5 (125). –Б. 58-60.

Расулев А.К. Криминологическая характеристика преступлений в сфере информационных (компьютерных) преступлений // Вопросы современной юриспруденции. Сборник статей по материалам LVIII международной научно-практической конференции. № 2 (53), 2016, 28-38 б.

Расулев А.К. Международное сотрудничество и опыт уголовно-правового регулирования противодействия компьютерным преступлениям // Жиноят ҳуқуқининг долзарб масалалари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами (2014 йил 22 февраль). – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. – Б.102-108.

Расулев А.К. Международно-правовые меры совершенствования нормативно-правовых актов по противодействию преступлений в сфере информационной безопасности и киберпреступности // Жиноят ва жиноят процессуал қонунчилигини такомиллаштириш масалалари: миллий ва хорижий тажриба. Халқаро илмий амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент, ТДЮУ, 2014. – Б. 100-107.

Расулев А.К. Меры борьбы с компьютерными преступлениями: национальный и международный опыт // Ж. Общественное мнение. Права человека. 2004. № 2 (26). – 81–87-б.

Расулев А.К. Негативное влияние социальных сетей // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси ахборотномаси. 2017, № 2. –Б. 47-51.

Расулев А.К. Объективная сторона компьютерных преступлений. // Ж. Давлат ва ҳуқуқ. 2004. № 2 (18). – 38–44-б.

Расулев А.К. Родовой объект преступлений в сфере информационных технологий и безопасности // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси ахборотномаси. 2016, № 2. –Б. 87-92.

Расулев А.К. Современные тенденции развития международного сотрудничества по противодействию киберпреступности // Ўзбекистон Республикаси Олий судининг Ахборотномаси. Бюллетень Верховного суда Республики Узбекистан. –2015. №6. – Б. 52-54.

Расулев А.К. Сфера обеспечения информационной безопасности государства, как объект преступных посягательств и их место, роль в системе Особенной части УК Республик Узбекистан. // Суд-ҳуқуқ ислохотларини чуқурлаштириш шароитида Жиноят кодексини унификация қилишнинг назарий ва амалий жиҳатлари. – Т.: ТДЮУ, 2015. – Б.102-109.

Расулев А.К. Уголовно-правовая и криминалистическая характеристика мошенничества, совершенного с использованием информационных технологий. // Роль и значение правосудия в борьбе с коррупцией. Сборник материалов Республиканской научно-практической конференции. –Т.: Lesson Press, 2015. – С. 15-23.

Расулев А.К. Уголовно-правовой и криминологический анализ субъекта преступлений в сфере информационных технологий // Актуальные вопросы совершенствования уголовного судопроизводства: опыт Узбекистана и зарубежная практика. Материалы международной научно-практической конференции. 15-16 сентября 2015 года. – Б. 169-174

Расулев А.К. Уголовно-правовой и криминологический анализ субъекта преступлений в сфере информационных технологий // Актуальные вопросы совершенствования уголовного судопроизводства: опыт Узбекистана и зарубежная практика. Сборник материалов научно-практической конференции (15-16 сентябрь 2015 год). –Т.: Vaktria Press, 2016. – С. 169-174.

Расулев А.К. Уголовно-правовые проблемы борьбы с компьютерными преступлениями // Ж. Общественные науки в Узбекистане. 2002. № 2. – 87–89-б.

Расулев А.К. Юридическая характеристика субъекта, совершающего компьютерные преступления // Ж. Давлат ва ҳуқуқ. 2005. № 4. – 52–54-б.


Расулев А.К., Нейматов Ж.А. Уголовно-правовые и криминологические аспекты определения понятия компьютерной преступности // Ж. Демократизация и права человека. 2005. № 1 (25). – 120–121-б.

Рустамбаев М.Х., Расулев А.К. Ответственность за совершение компьютерных преступлений по законодательству зарубежных стран // Ж. Давлат ва ҳуқуқ. 2001. № 3 (7). – 46–50-б.


Тенденции развития объекта киберпреступлений в англосаксонской правовой системе // Российской следователь. 2016. №21. – С.41-44.

VI BOB. BO‘YSUNISH VA HARBIY SHA‘NGA RIOYA ETISH TARTIBIGA QARSHI JINOYATLAR

7-sxema



8-sxema



O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, boshqa harbiy tuzilmalar davlat suvereniteti va mamlakat hududi butunligi, aholining tinch osuda hayoti va xavfsizligini saqlash uchun tashkil etilgan.

Qurolli Kuchlar va boshqa harbiy tuzilmalarning asosiy faoliyati, shuningdek, ular tomonidan o'z oldilariga qo'yilgan vazifalarni bajarish kafolati bo'lib harbiy xizmatni o'tashga aniq va shartsiz rioya etilishi sanaladi.

Harbiy sudlar, harbiy jinoyatlarning jamoat uchun xavfi, harbiy intizom hamda qo'shinning harbiy tayyorgarligini susaytirib, mamlakatning mudofaa qobiliyatiga zarar yetkazishida ekanligiga e'tibor qaratmoqlari lozim.

Harbiy xizmatdan bo'yin tovlash, harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga oid ustav qoidalarining buzilishi, o'z vakolatlarini suiiste'mol qilish yoki uni oshirib yuborish va h.k.lar harbiy xizmatchilar orasida ancha keng tarqalgan jinoyatlardan hisoblanadi. Bundan tashqari, harbiy xizmatchilar tomonidan umumjinoyat xarakteridagi boshqa bir qator jinoyatlar ham sodir etiladiki, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar shular jumlasidandir.

Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar (harbiy jinoyatlar) deganda, JK VII bo'limida keltirilgan, chaqiruv bo'yicha (muddatli harbiy xizmat, safarbarlik chaqiruv rezervidagi yoki muqobil xizmat) yoki kontrakt (shartnoma) bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, O'zbekiston Respublikasining boshqa harbiy tuzilmalarida harbiy xizmatni o'tayotgan harbiylar tomonidan, shuningdek, zaxiradagi harbiy xizmatga majbur shaxslar tomonidan ular harbiy yig'inlarda ishtirok etayotgan chog'larida o'rnatilgan tartibdagi harbiy xizmatni o'tashga qarshi jinoyatlar tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi 2002 yil 12 dekabrda «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi 436-II-sonli Qonunining 4-moddasida harbiy xizmatning quyidagi turlari ko'rsatilgan:

- muddatli harbiy xizmat;
- safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat;
- kontrakt (shartnoma) bo'yicha harbiy xizmat;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o'tagan rezervchilar xizmati.

Muddatli harbiy xizmat – chaqirilish yoshidagi fuqarolarning oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida, shuningdek, muqaddam harbiy xizmatni o‘tamagan ofitserlarning qonun hujjatlarida belgilangan muddat mobaynida Qurolli Kuchlar safidagi majburiy xizmatidir.

Muddatli harbiy xizmatni o‘tashga yaroqli hamda chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etilish huquqiga ega bo‘lmagan, biroq Qurolli Kuchlar safiga navbatdagi muddatga chaqirilmagan shaxslar safarbarlik chaqiruvi rezervi safiga olinadilar.

Safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmati hududiy prinsip asosida oylik yig‘inlar tarzida tashkil etiladi hamda chaqiriluvchilar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining maxsus hisobvarag‘iga pul badallari kiritilishini nazarda tutadi.

Kontrakt (shartnoma) bo‘yicha harbiy xizmat Qurolli Kuchlar safidagi haqiqiy harbiy xizmatga ixtiyoriylik asosida, harbiy xizmat nazarda tutilgan vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar orqali davlat bilan tuziladigan kontraktga binoan kirgan fuqarolar bajaradigan harbiy xizmat turidir.

Rezervchilar xizmati haqiqiy harbiy xizmatni, shuningdek, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o‘tagan oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar jumlasidan bo‘lgan harbiy xizmatga majburlar uchun Qurolli Kuchlarning qo‘shimchalari, qismlari va bo‘linmalari safini urush davrida taqozo etiladigan shtatlar darajasiga qadar to‘ldirish, shuningdek, urush davri taqozo etadigan tuzilmalarni kuchaytirish maqsadida umumiy harbiy majburiyat asosida joriy etiladigan harbiy xizmat turidir.

Rezervchilar sifatida xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatga majburlar tinchlik davrida, qoida tariqasida, qo‘shinlarning jangovar tayyorgarligini saqlab turish, rezervchilarning harbiy hisobdagi ixtisoslik bo‘yicha majburiyatlarni tinchlik va urush davrida bajarishi uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarini saqlab qolish va takomillashtirish maqsadida harbiy qismlar bazasida hududiy prinsip asosida tashkil etiladigan harbiy tayyorgarlik bo‘yicha harbiy yig‘inlarni o‘tashga jalb etilishlari mumkin.

Harbiy xizmat o'tashning o'rnatilgan tartibini ta'minlovchi munosabatlar, ya'ni shaxslarning harbiy xizmat o'tash chog'idagi huquq va majburiyatlarini O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida qonunchilik, umumharbiy nizomlar, boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rnatilgan tartibda amalga oshirish bo'yicha harbiy xizmatdagi huquqiy munosabatlarni tashkil etishni tartibga solish harbiy jinoyatlarning **bevosita obyekti** hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi ta'kidlaganidek: «Harbiy xizmatni o'tash tartibi – qo'shinlar hayoti va jangovar faoliyati jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar bo'lib, ular qonunlar, harbiy qasamyod va nizomlarda belgilab qo'yilgan. Ushbu hujjatlarda harbiy xizmat fuqaroning konstitutsiyaviy burchi ekanligi, yakkaboshchilik va undan kelib chiqadigan tobe shaxsning boshliqqa so'zsiz itoat qilishi, ushbu munosabatlar subyektlari huquq va erkinliklarining aniq belgilab qo'yilishi kabi harbiy tashkilot tamoyillari mustahkamlab qo'yilgan».

Harbiy huquqiy munosabatlar umumiy va maxsus turga bo'linadi. Birinchi turdagi huquqiy munosabatlar, darajasidan qat'i nazar (masalan, harbiy xizmatchilarning o'zlarini tutish qoidalari) barcha harbiy xizmatchilarga taalluqlidir. Maxsus qo'shin (harbiy) huquqiy munosabatlari harbiy xizmatchilarning alohida darajalari o'rtasida, harbiy faoliyatning alohida sohalarida, aniq vazifalarni hal etish bo'yicha (masalan, qorovul tarkibidagi harbiy xizmatchilarning huquq va majburiyatlari) yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, Davlat chegarasini qo'riqlash qo'mitasi, Ichki ishlar vazirligi qoshidagi Qorovul qo'shinlari, Davlat xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, harbiy qism va muassasalarning harbiy xizmatchilari, harbiy jinoyatlarning **subyekti** bo'lishlari mumkin.

Yuqorida ta'kidlangan Qonunning 3-moddasiga ko'ra, **harbiy xizmatchilar** – haqiqiy harbiy xizmatdagi shaxslardir.

Haqiqiy harbiy xizmat chaqiruv yoki kontrakt bo'yicha oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibi lavozimlarida Qurolli Kuchlar safidagi harbiy xizmatdir.

Harbiy xizmatning boshlanishi fuqaro harbiy qism shaxsiy tarkibi ro'yxatiga kiritilgan kundan boshlab hisoblanadi, **harbiy xizmatning tugallanishi** vaqti esa harbiy xizmat muddatining tugallanishiga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, Davlat chegarasini qo'riqlash qo'mitasi, Ichki ishlar vazirligi qoshidagi ichki va qorovul qo'shinlari, Davlat xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, harbiy qism va muassasalari tarkibida harbiy yig'inlarni o'tayotgan shaxslar – harbiy xizmatchilar hisoblanadilar.

Harbiy xizmatga majbur shaxslar – Qurolli Kuchlar rezervi va zaxirasidagi shaxslardir. Bu shaxslar davriy ravishda qonunda belgilangan yoshgacha, harbiy xizmatga tayyorlash va qayta tayyorlash uchun 2 oy muddatgacha harbiy yig'inlarga chaqiriladilar. Yig'inlar davrida ular harbiy xizmat o'taydilar, harbiy nizomlar va harbiy xizmatga qarshi jinoyatlar yuzasidan jinoiy javobgarlik ularga ham taalluqlidir. Yig'inlarning birinchi kuni ular xizmat o'tashlarining boshlanishi hamda oxirgi kun – xizmatning oxirgi kuni hisoblanadi.

Boshqa fuqarolar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining fuqarolik xodimlari ham harbiy xizmat o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarning subyektlari bo'lmaydilar hamda JK VII bo'limida belgilangan qoidalar bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortilmaydilar. Harbiy jinoyatlarning obyektiv tomoniga o'xshash jinoyatlar sodir etilgan taqdirda ham, aybdor shaxslar, agar ularning xatti-harakatlari ushbu jinoyatlarning belgilari bilan bir xil bo'lganda, JK boshqa moddalari bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Ushbu qoida harbiy xizmatga qarshi har qanday jinoyatlar sodir etishda sheriklik qilgan barcha fuqarolarga ham taalluqlidir. Qonuniy asosda harbiy xizmatda bo'lgan shaxslargina bunday ko'rinishdagi jinoyatlarning ijrochisi va boshqa sheriklari sifatida tan olinishlari mumkin.

«Jinoyat ishlarining harbiy **sudlar sudloviga tegishliligi** «Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi Nizomda belgilangan.

Jumladan, harbiy sudlar sudloviga favqulodda holatlarga ko'ra umumiy sudlar faoliyat ko'rsatmayotgan joylardagi barcha jinoyat ishlari,

davlat sirlariga daxldor ishlar, shuningdek, harbiy xizmat davrida harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan, biroq ish sudda ko‘riladigan paytga kelib harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar sodir etgan jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlar taalluqlidir.

Shuning uchun ham sudlar sudloviga taalluqlilik haqidagi qonun talablariga qat’iy rioya etishlari lozim».

1-§. Bo‘ysunmaslik (JK 279-moddasi)

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida o‘rnatilgan bo‘ysunish tartibi jinoyatning **asosiy bevosita obyekt** hisoblanadi. **Qo‘shimcha bevosita obyekt** bo‘lib esa, insonlar hayoti va salomatligining xavfsizligi, o‘zgalar mol-mulkining saqlanishini ta‘minlovchi jamoat munosabatlari xizmat qiladi (JK 279-moddasi 2-qismi).

Buysunish tartibi harbiy nizomlar bilan tartibga solinadi. Harbiy xizmatda boshliq va unga bo‘ysunuvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar asosi «yakkaboshchilik» prinsipi hisoblanib, u komandir (boshliq)ning o‘z qo‘l ostidagilarni boshqarishda yagona mas’ulligini va bo‘ysunuvchilarning komandirning buyrug‘ini so‘zsiz bajarishini tushuniladi.

Obyektiv tomondan bo‘ysunmaslik, buyruqni bajarishdan ochiqdan-ochiq bosh tortish demakdir, bu esa, buyruqni qasddan bajarmaslik bilan barobar.

NOTA BENE !

Buyruq – qonun talablariga muvofiq, bajarilishi majburiy bo‘lgan, komandir (boshliq)ning qo‘l ostidagilarga qaratilgan farmoyishi.

NOTA BENE !

Boshliq – qo‘l ostida boshqa harbiy xizmatchilar bo‘lgan, ularga buyruq, farmoyish berish va uning ijrosini nazorat qilish huquqiga ega bo‘lgan harbiy xizmatchi.

Harbiy xizmatchi lavozimi yoki harbiy unvoni bo'yicha boshliq bo'lishi mumkin. Harbiy lavozimlar harbiy nizomlar va boshqa hujjatlarda belgilangan. Bu – bo'limlar, vzvodlar, rotalar, batal'on va boshqa jangovar bo'linmalar komandirlari, bo'limlar va xizmatlar, sutkali naryadning alohida turlari (qorovul, nazorat-o'tkazish shoxobchalari va boshq.) boshliqlarining shtat lavozimlaridir.

Boshliq lavozimi shtatdan tashqari bo'lishi ham mumkin, u ma'lum bir vaqtga, ma'lum vazifani bajarish uchun (masalan, otish mashqlari, xo'jalik ishlari, o'quv mashg'ulotlari va boshq.) tashkil etilishi mumkin. Harbiy xizmatchi boshliq lavozimini doimiy ravishda yoki vaqtinchalik egallashi mumkin. Boshliqning vazifalarini, shuningdek, uning o'rinbosari yoki maxsus ko'rsatma bo'yicha boshqa harbiy xizmatchi bajarishi mumkin.

Harbiy xizmatchining unvon bo'yicha bo'ysunishi Qurolli Kuchlar ichki xizmat Nizomi bilan belgilanadi. Unga muvofiq, misol uchun ofitser oddiy askar va serjantlik tarkibidagi barcha shaxslar uchun boshliq hisoblanadi, serjant – o'zi bilan bir harbiy qismdagi oddiy askarlar uchun boshliq hisoblanadi va h.k.

NOTA BENE !

Bo'ysunuvchi – jangovar harbiy qism, bo'lim, xizmat, naryad tarkibiga kiruvchi, o'z boshlig'ining buyruqlarini so'zsiz bajarishga majbur bo'lgan harbiy xizmatchi yoki tegishli boshliq harbiy unvoniga ega bo'lgan boshqa harbiy xizmatchining talablarini bajarishga majbur bo'lgan, harbiy unvoni bor harbiy xizmatchi.

Buyruq og'zaki yoki yozma shaklda yoki texnik vositalar orqali, alohida bir yoki bir necha harbiy xizmatchiga berilishi mumkin. U bo'ysunuvchi tomonidan so'zsiz, aniq va o'z vaqtida bajarilishi kerak. Bunda buyruq vakolatga ega bo'lgan boshliq tomonidan qanday shaklda berilganligi, uning nizom me'yorlariga muvofiq yoki muvofiq emasligi, bo'ysunuvchining haqiqatda uni bajarish imkoniyatiga ega ekanligi va nima sababdan uni bajarmaganligi aniqlanishi kerak.

Shunday ekan, xususan, buyruq faqatgina ijro etish tartibida, mansab vazifalari yuklatilgan komandirlar (boshliqlar) tomonidan berilishi mumkin. Bo‘ysunuvchiga xizmatdan tashqari masala bo‘yicha berilgan farmoyishni (harbiy manfaatlardan tashqari, shaxsiy manfaatlarni ko‘zlab) buyruq deb qabul qilinishi mumkin emas. Xuddi shuning o‘zi boshliqning xizmat bo‘yicha, Nizomdan tashqari shaklda, bo‘ysunuvchining insoniylik g‘ururini kamsituvchi talablariga ham taalluqlidir. Boshliqning g‘ayriqonuniy talabini bajarmagan bo‘ysunuvchi javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Buyruqni bajarishni **ochiqdan-ochiq** rad etish harbiy xizmatchi buyruqni bajarmasligini ochiqdan-ochiq aytgan vaqtda, ochiqdan-ochiq buyruqni bajarishdan bosh tortishni anglatadi. Bu so‘z, qo‘l harakatlari, xatti-harakatlar, behurmat qilish ko‘rinishida, bo‘ysunuvchining boshliq buyrug‘ini bajarish niyati yo‘qligidan dalolat beruvchi va boshqa shakllarda bo‘lishi mumkin.

Buyruqni boshqa tarzda qasddan bajarmaslik, bu bo‘ysunuvchi tomonidan avvaliga boshliq buyrug‘iga ochiqdan-ochiq bo‘ysunmaslikni bildirmay, go‘yo buyruqni qabul qilib, so‘ngra ataylab yoki bila turib uni bajarmaslik ko‘rinishida amalga oshirilishi mumkin.

Bunday holatda, aybdor shaxs olingan buyruqda man etilgan xatti-harakatlarni bajaradi yoki buyruqda aytilgan harakatlarni bajarmaydi yoki bo‘lmasa o‘z irodasini boshliq irodasiga qarshi qo‘yib, buyruqda ko‘rsatilgan harakat vaqti, joyi va mazmun-mohiyatini o‘zboshimchalik bilan o‘zgartiradi, ortga chekinadi (qat’iy belgilangan harakatlanish yo‘nalishini, topshiriqni bajarish uchun kerakli vositalar hisob-kitobini o‘zgartiradi yoki boshqa yo‘l bilan buyruqni bajarishdan chekinadi).

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining bu borada ta’kidlashicha, «Harbiy xizmat vazifalarini o‘tashdan bosh tortish – harbiy xizmatchi tomonidan ochiqdan-ochiq, yolg‘on ishlatmasdan, og‘zaki, yozma yoki boshqa yo‘l bilan harbiy xizmatni o‘tash yoki uning ba’zi majburiyatlarini bajarishni istamaslikda va amalda ularni bajarmay qo‘yishda namoyon bo‘ladi.

Tobe shaxsning o'z qo'mondonining muayyan topshiriqlarini bajarishdan bosh tortishi (masalan, xizmat safariga jo'nash, sutkalik naryadga kirishish va hokazo) harbiy xizmatdan umuman bosh tortish sifatida ko'rilishi mumkin emas. Bunday harakatlar bo'ysunmaslik jinoyati tarkibini tashkil qiladi, chunki bunday holda qo'mondon talabi buyruq xususiyatiga ega bo'lib, harakat esa, harbiy xizmatni o'tashdan bosh tortishga emas, balki buyruqni ochiqdan-ochiq bajarmaslikka qaratilgan».

Jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun buyruqni bajarmaslik sabablari ahamiyatga ega emas, biroq bo'ysunuvchi haqiqatan ham, unga berilgan buyruqni bajarish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Harbiy nizomlar, ko'rsatmalar, qoidalarda ko'rsatilgan, barcha harbiy xizmatchilar uchun majburiy, lekin umumiy talablarni bajarmaslik ko'rsatmalar berish va mashg'ulotlar chog'ida barcha tinglovchilarga berilgan umumiy ko'rsatmalarni bajarmaslik bilan barobardir, lekin ularga buyruqni bajarmaslik sifatida qarash mumkin emas. Ma'lum sharoitlarda bunday umumiy buyruqlarni bajarmaslik bir qator boshqa jinoyatlarni, xususan, qorovul xizmatini o'tash qoidalarining buzilishi (JK 291-moddasi)ni keltirib chiqarishi mumkin.

Agar harbiy xizmatchi biron-bir harakatni bajarish uchun buyruq olib, boshliq boshqa harbiy xizmatchiga emas, aynan unga murojaat qilganligidan norozilik bildirsa yoki ko'rsatmani muhokama qilsa, biron-bir bahona bilan uni bajarishdan qutulishga harakat qilsa, lekin buyruq berilganda uni bajarsa, bunday gap talashish bo'ysunmaslik sanalmaydi. Ular harbiy xizmatchining intizomiy xatti-harakati deb qabul qilinishi mumkin.

Bo'ysunuvchi, bajarilishi natijasida xizmat manfaatlariga zarar yetish-yetmasligidan qat'i nazar, belgilangan muddatda unga berilgan buyruqni bajarish bo'yicha hech qanday harakatlar bajarmagan vaqtdan boshlab, bo'ysunmaslik **tugallangan** hisoblanadi.

JK 279-moddasida belgilangan jinoyat **subyektiv tomondan** to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Bunda aybdor qonuniy, bajarishi majburiy bo'lgan boshliq buyrug'ini bajarmayotganligini va buni istamayotganligini anglaydi.

Ko‘rilayotgan jinoyatni sodir etishning **motiv va maqsadi** turlicha bo‘lishi mumkin va bu kvalifikatsiyaga ta‘sir etmaydi.

Faqatgina 18 yoshga to‘lgan harbiy xizmatchi yoki harbiy yig‘inlarga chaqirilgan harbiy xizmatga majbur, buyruq bergan komandirga (boshliqqa) bo‘ysunuvchi shaxslargina jinoyat **subyekt**i bo‘lishlari mumkin.

JK 279-moddasi 2-qismida bo‘ysunmaslik quyidagicha tavsiflanadi:

- a) bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan;
- b) og‘ir oqibatlarga olib kelgan.

Bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bo‘ysunmaslik deganda, ikki yoki undan ortiq harbiy xizmatchilar tomonidan boshliqning bergan buyrug‘iga bo‘ysunmaslik tushuniladi. Bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bo‘ysunmaslik deb hisoblash uchun, guruhning barcha ishtirokchilari ushbu jinoyatni obyektiv tomondan bajarmaslikda ishtirok etishlari, ya‘ni uning sheriklari bo‘lishlari lozim. Guruhning ayrim ishtirokchilari alohida jinoiy harakatlarda ishtirok etishlari unchalik zarur bo‘lmaganda guruh bo‘ysunmaslik, **JK 279-moddasi 2-qismi «a» bandiga** muvofiq sheriklik kvalifikatsiyasiga ta‘sir ko‘rsatmaydi, lekin jazo tayinlashda sudlar tomonidan hisobga olinishi lozim.

JK 279-moddasi 2-qismi«b» bandida nazarda tutilgan **og‘ir oqibatlar** deyilganda, bajarilmagan talablarning ahamiyatidan kelib chiqqan **oqibatlar** tushuniladi. Bu harbiy operatsiyaning bajarilishini to‘xtatish, harbiy qism yoki alohida bo‘linmaning kurashish qobiliyatining pasayishi, o‘rtacha og‘irlikdagi yoki o‘ta og‘ir tan jarohati yetkazish, bo‘linma shaxsiy tarkibi hayoti yoki sog‘lig‘iga haqiqiy zarar yetkazish xavfining yuzaga kelishi, yirik hajmdagi moddiy zarar yetkazish, boshqa bo‘ysunuvchilarga ta‘sir ko‘rsatish (og‘ir oqibat deganda, masalan, buyruqni bajarishdan bosh tortish, boshliqning boshqa harbiy xizmatchilarga ham tegishli bo‘lgan buyrug‘ini bajarmaslik, agar bunday chaqiruv amalga oshirilgan bo‘lsa) va boshqalar bo‘lishi mumkin. Har bir alohida holatda, aybdor xatti-harakatlari bilan bog‘liq oqibatlar og‘irligi, sud tomonidan ularning qanday ahamiyat kasb etishiga qarab baholanishi kerak.

JK 279-moddasi 3-qismida jangovar vaziyatda sodir etilgan bo‘ysunmaslik jinoyati uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Jangovar vaziyat deganda, qurolli to‘qnashuv yoki harbiy bo‘linma-ning dushman bilan shunday to‘qnashuvi xavfi bilan xarakterlanuvchi tezkor vaziyat tushuniladi. U urush vaqtida ham, tinchlik vaqtida ham yuzaga kelishi mumkin. Tinch vaqtdagi harbiy vaziyat O‘zbekiston Respublikasi hududining butunligi va daxlsizligiga qarshi yo‘naltirilgan nodavlat harbiy tashkilotlarining qurolli harakatlari chog‘ida yuzaga kelishi mumkin.

Masalan, bu chet davlat tomondan, ushbu davlatga tegishli bo‘lmagan begona qurollangan bo‘linmalarning, hududning biron-bir qismida nazorat o‘rnatish yoki separatizmga ko‘maklashish maqsadida davlatga kirib kelishi ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Harbiy holatda bo‘ysunmaslik yuzaga kelgan oqibatlardan qat’i nazar **JK 279-moddasi 3-qismi** bilan javobgarlikka asos bo‘ladi.

2-§. Buyruqni bajarmaslik (JK 280-moddasi)

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida o‘rnatilgan bo‘ysunish tartibini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar jinoyatning **asosiy bevosita obyekt** bo‘lib xizmat qiladi. Insonlar hayoti, salomatligi, o‘zgarar mol-mulki xavfsizligini ta‘minlovchi munosabatlar **qo‘shimcha bevosita obyekt** bo‘lib xizmat qiladi.

Obyektiv tomondan JK 280-moddasida belgilangan jinoyat oqibatida ko‘p miqdorda zarar yoki boshqa og‘ir oqibatlarga olib kelgan buyruqni bajarmaslikda namoyon bo‘ladi.

(«Buyruq», «buyruqni bajarish» tushunchasi JK 279-moddasini tahlil qilish chog‘ida yoritib berildi.)

Ushbu jinoyat ko‘p miqdordagi zarar yoki og‘ir oqibatlar kelib chiqqan paytdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

Ko‘p miqdordagi zarar deganda, eng kam oylik ish haqining 100 barobaridan 300 barobarigacha bo‘lgan zarar tushuniladi.

JK 280-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan **og‘ir oqibatlar** JK 279-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan oqibatlar bilan bir xildir.

Buyruqni bajarmaslik jinoyati **subyektiv tomondan** ehtiyotsizlik yoki xizmatga sovuqqonlik bilan yondashish natijasida sodir etiladi. Shunday ekan, jinoiy ehtiyotsizlik natijasida jinoyat sodir etilganda, aybdor buyruqni bajarmayotganligini anglamaydi, lekin kerakli darajada ziyraklik va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan holatlarni oldindan ko‘ra bilganda, buning oldini olishi mumkin va oldini olishi kerak bo‘ladi. **Jinoiy o‘z-o‘ziga ishonish** natijasida buyruqni bajarmaslik aybdor buyruqda aytilganini bajarmagan va buni bila turib, bunga asossiz ravishda o‘z-o‘ziga ishongan holda buyruq bajarilishiga ishonib harakat qilgan taqdirda yuzaga keladi. Bunday holatda shuni yodda tutish lozimki, bo‘ysunuvchi tomonidan g‘araz bilan g‘ayriqonuniy buyruq bajarilmaganda, uni jinoiy javobgarlikka tortish mumkin emas.

Jinoyat sodir etilishining **motivi va maqsadi** uni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas.

Har qanday 18 yoshga to‘lgan harbiy xizmatchi yoki harbiy yig‘inlarga chaqirilgan harbiy xizmatga majbur bo‘lgan shaxs buyruqni bajarmaslik jinoyatining **subyektiv** bo‘lishi mumkin.

JK 280-moddasi 2-qismida jangovar vaziyatda buyruqni bajarmaslik uchun javobgarlik belgilab qo‘yilgan.

(«Jangovar vaziyat» tushunchasi to‘g‘risida JK 279-moddasi tahliliga qarang.)

3-§. Boshliqqa qarshilik ko‘rsatish yoki uni xizmat vazifalarini buzishga majbur qilish (JK 281-moddasi)

O‘rnatilgan bo‘ysunish tartiblarini, aynan, komandir (boshliqlar)ning normal xizmat faoliyatini, yakkaboshchilik prinsipi va ularga yuklatilgan xizmat vazifalarini bajarayotgan harbiy xizmatchilar obro‘sini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar jinoyatning **asosiy bevosita obyekti** hisoblanadi.

Bu jinoyatda, boshliq, unvoni bo‘yicha yuqori bo‘lgan harbiy xizmatchi yoki unga harbiy xizmat bo‘yicha yuklatilgan vazifalarni bajarayotgan boshqa shaxs – **jabrlanuvchi** hisoblanadi.

(«Boshliq» tushunchasi to‘g‘risida JK 279-moddasi tahliliga qarang.)

Olingan buyruq yoki nizom qoidalariga (qorovul, qo‘riqchi, patrul, kunduzgi qo‘riqlovchi va h.k.) muvofiq ravishda xizmat vazifalarini bajarayotgan har qanday harbiy xizmatchi (aybdorga nisbatan boshliq bo‘lishi shart emas) – **harbiy xizmat yuzasidan o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarayotgan shaxs** hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat boshliqqa, shuningdek, harbiy xizmat bo‘yicha o‘ziga yuklatilgan vazifani bajarayotgan boshqa shaxsga qarshilik ko‘rsatish yoki uni ushbu vazifalarni buzishga majbur etish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Qarshilik ko‘rsatish deganda, boshliq yoki harbiy xizmat bo‘yicha unga yuklatilgan xizmat vazifalarini bajarayotgan boshqa shaxsga ochiqdan-ochiq faol qarshilik ko‘rsatish tushuniladi. Aybdor qarshilik ko‘rsatish chog‘ida o‘zining faol xatti-harakatlari bilan harbiy xizmatchilar tomonidan ko‘rsatilgan harbiy vazifalarni bajarishga monelik qiladi va ularni nizom qoidalari yoki mavjud buyruq, ko‘rsatma va farmoyishlarda talab etiladigan vazifalarni bajarish imkoniyatidan mahrum etishga harakat qiladi.

Harbiy xizmat vazifalari deganda, o‘rnatilgan xizmat vaqti kuni davomida harbiy qism hududida bo‘lishning o‘zigina emas, balki ushbu harbiy xizmatchi harbiy nizom talablari yoki boshliqning tegishli buyrug‘iga muvofiq, xizmat manfaatlarida bajaruvchi aniq konkret xizmat vazifalari tushuniladi.

Bunday holatda, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari bo‘ysunish tartibida belgilangan, namoyish xarakterga ega bo‘ladi. Harbiy xizmat manfaatlariga zid ravishda amalga oshiriladi hamda jabrlanuvchining shaxsiyati ustidan zo‘rlik ishlatish yoki shunga o‘xshash zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish xavfi ko‘rinishida amalga oshishi mumkin.

Bu yerda **zo‘rlik ishlatish** deganda, jabrlanuvchiga yetkazilgan yengil, o‘rtacha og‘irlikdagi tan jarohatlarini tushunish lozim.

Qarshilik ko‘rsatish boshliq yoki boshqa shaxs tomonidan harbiy xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida amalga oshirilishi mumkin.

Boshliq, o‘z xizmat vakolatlarini amalga oshirayotgan chog‘ida (o‘z qo‘l ostidagilarning xatti-harakatlarini boshqaradi, o‘quv mashg‘ulotlari

o'tkazadi, unga bo'ysunuvchilar bilan suhbatlashadi, ularni naryadga kirishishga tayyorlaydi va h.k.) harbiy xizmat vazifalarini bajarayotgan deb hisoblanadi. Alohida hollarda u kutilmaganda xizmat bo'yicha vazifalarni bajarishni boshlashi mumkin. Masalan, boshliq shaharda jamoat tartibini buzayotgan o'z qo'l ostidagi bo'ysunuvchini uchratib qolib, bunday huquqbuzarlikni bas qilishini talab qiladi.

Boshqa harbiy xizmatchilarga (boshqa shaxslarga), masalan, qorovul, patrul yoki ichki naryad tarkibida biron-bir maxsus vazifani bajarayotgan paytda harbiy xizmatchilarga qarshilik ko'rsatish hollari ham uchraydi.

Odatda qarshilik ko'rsatish – boshliq yoki unga yuklatilgan harbiy vazifalarni bajarayotgan shaxsning yo'l qo'yilgan harbiy intizomni (vakolatli komandirning buyrug'i bilan patrul naryad tomonidan jamoat joyida sodir etilgan huquqbuzarlik sodir etishni qo'lga olishga yoki intizomiy tartibda qamoqqa olish uchun gaupvaxtaga keltirish, komendaturaga olib kelishga monelik qilish) buzish bo'yicha teng harakatlariga javob reaksiyasi hisoblanadi.

Majbur qilish deganda, boshliq yoki harbiy xizmat vazifalari yuklatilgan har qanday shaxsni xizmat manfaatlariga zid ravishda, ushbu vazifalarni buzishga qaratilgan harakatlari tushunilishi lozim. Majburlash chog'ida aybdor o'z manfaatlarini ko'zlab, yuqorida ta'kidlangan harbiy xizmatchilarni g'ayriqonuniy xatti-harakatlar qilishga majburlashga (masalan, g'ayriqonuniy ravishda qisqa muddatli ta'til berish, xizmat bo'yicha u yoki bu vazifalarni bajarishdan ozod etish va h.k.) harakat qiladi. Xususan, ayrim harbiy xizmatchilar, masalan, xizmatning oxirgi oylarida serjantlarga nisbatan zo'rlik ishlatib yoki tahdid qilib, yosh soldatlarga nisbatan xizmat sharoitlarini o'zlariga yengillashtiradilar.

Qarshilik ko'rsatishdan farqli o'laroq, aybdor o'z kuchi bilan boshliqqa yoki boshqa harbiy xizmatchiga xizmat vazifalarini bajarishga to'sqinlik qilganda, majbur qilish ushbu shaxslarning o'zlari qoidalarga qarshi chiqishlari uchun ularning idroki va irodasiga ta'sir o'tkazadi.

Majbur qilish boshliqqa va o'ziga yuklatilgan harbiy vazifalarni bajaruvchi shaxsga nisbatan, shu bilan birga, kelajakdagi xizmat vazifalariga (masalan, boshliqni bo'ysunuvchini ko'zda tutilayotgan yangi

xizmat joyiga o'tkazishdan ozod etishga majburlash) nisbatan ham ishlatilishi mumkin. Har qanday holatda ham, jabrlanuvchiga u yoki bu ishni qilishga aniq talab qo'yilishi yoki ma'lum bir harakatni bajarishdan bosh tortish – majburlashning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Qarshilik ko'rsatish yoki majbur qilish jismoniy yoki ruhiy zo'rlik ishlatish orqali yoki shunday zo'rlik ishlatmasdan sodir etilishi mumkin (masalan, harbiy xizmatchining patruldan qochishi yoki aybdorning talablarini bajarmagan holda, boshliq nafsoniyatiga tegadigan ma'lumotlarni oshkor etish). Agar qarshilik ko'rsatish chog'ida badanga yengil, o'rtacha og'ir shikast yetkazilgan bo'lsa, aybdorning harakatlarini jinoyatlar jami bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiya qilish talab etilmaydi. Badanga og'ir shikast yetkazilishi jinoyatlar jami tariqasida JK 281- va 283-moddalari (Badanga shikast yetkazish) bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Jinoyat tarkibi uchun, qarshilik ko'rsatish natijasida boshliq (boshqa shaxs) xizmat bo'yicha o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish imkoniyatidan mahrum bo'lishi, majbur qilinganda esa, ushbu vazifa (majburiyat)larni buzishi kerak. Harbiy xizmat bo'yicha vazifalarni bajarishga monelik qiladigan harakatlarni bajarishning o'zi yoki ularni buzishga majburlagandan boshlab jinoyat **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan JK 281-moddasida nazarda tutilgan jinoyat **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor o'zining qarshilik ko'rsatish va majburlash bo'yicha harakatlari aynan boshliq yoki harbiy xizmat vazifasi yuklatilgan boshqa shaxsga qarshi qaratilganligini angelaydi va ushbu harakatlarni amalga oshirishni istaydi. Bunda vaziyatga ko'ra, agar aybdor jabrlanuvchining huquqiy maqomini anglay olmagan bo'lsa, u sodir etgan jinoyat ko'rilayotgan moddaga asosan kvalifikatsiya qilinadi, asoslar mavjud bo'lgan taqdirda esa, JK boshqa normalari bo'yicha kvalifikatsiya etilishi lozim.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilishda uning **motivi** va **maqsadi** ahamiyat kasb etmaydi.

Har qanday harbiy xizmatchi, jumladan, jabrlanuvchiga bo'ysunmaydigan harbiy xizmatchi ham jinoyatning **subyektiv** bo'lishi mumkin.

JK 281-moddasi 2-qismida quyidagi holatlarda boshliqqa qarshilik ko'rsatish yoki uni xizmat vazifalarni buzishga majbur qilish uchun javobgarlik belgilab qo'yilgan:

- a) bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan;
- b) qurol ishlatib sodir etilgan;
- v) og'ir oqibatlarga sabab bo'lgan.

(«Bir guruh shaxslar» tushunchasi to'g'risida JK 279-moddasi tahliliga qarang.)

JK 281-moddasi 2-qismi «b» bandida nazarda tutilgan **qurol** tushunchasi ostida shtat armiya quroli (avtomat, to'pponcha, shtik-noj) yoki boshqa o'qotar yoki sovuq qurol (ov quroli, finn pichog'i va h.k.), ya'ni tirik nishonni yaralashda maxsus foydalaniluvchi predmetlar tushuniladi. o'qotar yoki sovuq qurol bo'lmagan, qurol sifatida foydalaniladigan narsalar (oshpichoq, bolta, o'qlov va h.k.) aybdorni **JK 281-moddasi 2-qismi «b» bandi** bo'yicha kvalifikatsiya qilish uchun asos bo'la olmaydi. Shuningdek, buzilgan qurol yoki soxta qurol qurol deb hisoblanmaydi.

Qurol ishlatish undan o'z maqsadida foydalanishdir (o'q otish, pichoq otish va h.k.). «Quroldan uning konstruksiyasi va mohiyatidan kelib chiqadigan yakson qiluvchi vosita sifatida emas, balki faqat kaltaklash predmeti sifatida foydalanish qurolni qo'llash hisoblanmaydi».

(«Og'ir oqibatlar» tushunchasi to'g'risida JK 279-moddasi tahliliga qarang. Ushbu alomat ko'rilayotgan moddaga nisbatan ajralib turuvchi xususiyatlarga ega emas.)

JK 281-moddasi 3-qismida jangovar vaziyatda sodir etilgan boshliqqa qarshilik ko'rsatish yoki uni o'z xizmat vazifalarini bajarmaslikka majbur qilish jinoyati uchun javobgarlik belgilab qo'yilgan.

(«Jangovar vaziyat» tushunchasi to'g'risida JK 279-moddasi tahliliga qarang.)

Ba'zan boshliq yoki boshqa harbiy xizmatchiga qarshilik ko'rsatish harbiy xizmatchi tomonidan zo'rlik ishlatib jamoat tartib-qoidalarining buzilishi yoki mol-mulkni yo'q qilib yuborilishi va shu kabi tartibsizlik ko'rinishidagi harakatlarda namoyon bo'lishi mumkin, qarshilik ko'rsatish

esa, tartibsizlik harakatlarini to'xtatish bo'yicha ko'riluvchi chora-tadbirlarga nisbatan reaksiyadir. Bunday holatlarda, JK 281- va 277-moddalarida ko'zda tutilgan ikki jinoyat, ya'ni harbiy va umumjinoiy jinoyatlarga ishora aniq ko'rinib turadi.

4-§. Boshliqni qo'rqitish (JK 282-moddasi)

Boshliqning hayoti, sog'lig'i, jismoniy daxlsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar–mazkur jinoyatning **bevosita obyekti** bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu jinoyatda unvoni bo'yicha yuqori turuvchi boshliq **jabrlanuvchi** hisoblanadi.

(Boshliq tushunchasi to'g'risida JK 279-moddasi tahliliga qarang.)

JK 282-moddasida ko'rsatilgan jinoyat **obyektiv tomondan**, jangovar vaziyatda boshliqni o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitishda, bunday harakat amalga oshirilishi uchun yetarli asoslar mavjud bo'lgan taqdirda sodir etilishida namoyon bo'ladi.

O'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish deganda, obyektiv haqiqatdagi (og'zaki, yozma, qurolni namoyish qilish va h.k.) shaxsan boshliqqa yoki uchinchi shaxslar orqali uni o'ldirish yoki sog'lig'iga shikast yetkazish (badanga har qanday og'irlikdagi shikast yetkazish yo'li bilan) yoki uning jismoniy daxlsizligiga kuch ishlatish (urish, kaltaklash) tushunilishi lozim.

(«Jangovar vaziyat» tushunchasi haqida JK 279-moddasi tahliliga qarang.)

Aybdor tomonning boshliqqa nisbatan qo'rqitish harakatlari JK 112-moddasi (o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish) bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiya qilinmaydi.

Boshliqni o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yuz bersa, bunday qo'rqitishning amalga oshirilishi uchun yetarli darajadigi asoslar mavjud bo'lsa-yu, ushbu harakatlar jangovar vaziyatda amalga oshirilmagan bo'lsa, bizning fikrimizcha, JK 112-moddasi qo'llanishi lozim.

Subyektiv tomondan jinoyat **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Ayblanuvchi jangovar vaziyatda boshliqni o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitayotganligini anglaydi va ushbu harakatlarini amalga oshirishni istaydi.

Jinoyatning **motivi** va **maqsadi** har xil bo'lishi mumkin va ular jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir etmaydi.

Jinoyatning **subyeksi** – unvoni yoki lavozimi bo'yicha bo'ysunuvchi vaziyatida bo'lgan harbiy xizmatchidir.

5-§. Badanga shikast yetkazish (JK 283-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyeksi** boshliqning sog'lig'i, jismoniy daxlsizligi, uning obro'yini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlardir.

JK 283-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning obyektiv tomoni harbiy xizmat yuzasidan o'z vazifalarini bajaraganligi munosabati bilan yoki bajarayotgan vaqtda boshliqni do'pposlash, uning badaniga yengil yoki o'rta og'ir shikast yetkazishda ifodalanadi.

Yuqoridagi zo'ravonlik harakatlarini harbiy xizmat yuzasidan o'z vazifalarini bajarayotgan boshliqqa nisbatan yoki uni o'z vazifalarini bajarish vaqtida aybdor tomonning qarshilik ko'rsatmagan holda yoki uni o'z xizmat vazifalarini buzishga majburlagan kuch ishlatish holatlari ko'rilayotgan modda bo'yicha jinoyatni kvalifikatsiya qilishning zaruriy belgisi hisoblanadi. Agarda boshliqqa nisbatan sodir etilgan zo'ravonlik unga qarshilik bilan birga amalga oshirilsa yoki uni harbiy xizmat vazifalarini buzishga majburlagan bo'lsa, bu holda ayblanuvchining harakatlari JK 281-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi va **JK 283-moddasi** bilan qo'shimcha kvalifikatsiya talab etilmaydi.

(«Harbiy xizmat majburiyatlari» tushunchasi haqida JK 281-moddasi tahliliga qarang.)

Do'pposlash – bu jabrlanuvchi badaniga shikast yetkazish bilan bog'liq va tan jarohatlari alomatlari yo'qligida ikki yoki undan ortiq zarba ko'rsatishdir.

JK 109-moddasiga asosan **badanga yengil shikast yetkazish** sog'liqning qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining

uncha uzoq bo'lmagan muddatga yo'qolishiga olib kelmagan holda sodir etilishi mumkin.

JK 105-moddasiga asosan **badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish** – bu sodir etilayotgan paytda hayot uchun xavfli bo'lmagan va JK 104-moddasi (Qasddan badanga og'ir shikast yetkazish)da nazarda tutilgan oqibatlariga olib kelmagan, lekin sog'liqning uzoq vaqt, ya'ni kamida 21 kun, ammo to'rt oydan ko'p bo'lmagan davrda yomonlashuviga yoki umumiy mehnat qobiliyatining hn foizidan o'ttiz uch foizigacha yo'qolishiga sabab bo'lgan shikast yetkazishdir.

JK 283-moddasi bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortish boshliqqa nisbatan zo'ravonlik ishlatish hollari uning harbiy xizmati bo'yicha vazifalarini bevosita bajarayotgan vaqtda ro'y bergan (masalan, xizmat yuzasidan qilgan tanbehiga javoban uni do'pposlash) yoki uning oldingi xizmat faoliyati bilan bog'liq (masalan, jarimaga tortgani uchun, bo'ysunuvchilarga nisbatan umumiy talabchanlik va h.k. uchun do'pposlanishi) hollarda amalga oshiriladi. Shunday qilib, ayblanuvchining harakatlari jabrlanuvchining aynan xizmat vazifalari bilan bog'liq bo'lishi lozim.

Jinoyat sodir etilayotgan vaqtda boshliq bo'lmagan, sobiq boshlig'iga nisbatan xizmat faoliyati bilan bog'liq zo'rlik ishlatish **JK 283-moddasi** bilan kvalifikatsiya qilinmaydi.

Shuni nazarda tutish lozimki, boshliqning xizmat yuzasidan qonuniy harakati, xizmat manfaatlari, harbiy va nizom talablariga mos harakatlariga javoban sodir etilgan zo'rlik uchun bo'ysunuvchi **JK 283-moddasiga** muvofiq, jinoiy javobgarlikka tortiladi. Agar boshliqqa nisbatan ishlatilgan zo'rlik uning qonunga xilof harakatlariga javoban sodir etilgan bo'lsa, bo'ysunuvchi tahlil etilayotgan modda bo'yicha javobgar bo'lmaydi. Bunday zo'rlik ishning holatlaridan kelib chiqib, zaruriy mudofaa yoki shaxsning hayoti yoxud sog'lig'iga qarshi qaratilgan jinoyat deb baholanishi mumkin.

JK 283-moddasida nazarda tutilgan qilmish badanga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazilgan vaqtdan **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan qilmish **to'g'ri qasd** bilan sodir qilinadi, aybdor boshliqqa nisbatan zo'rlik ishlatayotganini anglaydi va uning sog'lig'iga zarar yetkazishni istaydi.

Jinoyatning **motivi** boshliqning xizmat faoliyatidan norozilik yoki undan xizmat faoliyati bilan bog'liq o'ch olish hisoblanadi.

«Ushbu jinoyatlarning o'ziga xosligi shundan iboratki, ular harbiy xizmat munosabatlari doirasida sodir etiladi. Agarda ko'rsatilgan jinoyatlar shaxsiy munosabatlar doirasida sodir etilsa, bunday harakatlar harbiy jinoyat deb tan olinmaydi va shaxsga qarshi jinoyat sifatida tavsiflanishi kerak».

Jinoyatning **subyeksi** xizmat vazifasi yoki harbiy unvoniga ko'ra boshliqqa doimiy yoki vaqtincha bo'ysunayotgan harbiy xizmatchi hisoblanadi.

Bir harbiy xizmatchining o'ziga tobe bo'lmagan yoki o'zidan past unvonga ega bo'lgan boshqa harbiy xizmatchining badaniga shikast yetkazishi JK 285-moddasiga ko'ra harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga oid ustav qoidalarini buzish sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

JK 283-moddasi 2-qismida badanga og'ir shikast yetkazish, shuningdek, ushbu moddaning 1-qismida nazarda tutilgan harakatlar:

- a) bir guruh shaxslar tomonidan;
- b) qurol ishlatib sodir etilganligi uchun javobgarlik belgilangan.

Badanga og'ir shikast yetkazish –bu sodir etilayotgan paytda hayot uchun xavfli bo'lgan yoki ko'rish, so'zlash, eshitish qobiliyatini yo'qotish yoxud biron a'zoning ishdan chiqishi yoki uning faoliyati tamoman yo'qolishiga, ruhiy kasalga chalinishga yoki umuman sog'lig'i buzilib, umumiy mehnat qobiliyatining o'ttiz uch foizidan kam bo'lmagan qismining doimiy yo'qolishiga yoki homilaning tushishi yoxud badanning tuzalmaydigan darajada xunuklashishiga sabab bo'lgan badanga shikast yetkazishdir (JK 104-moddasi).

JK 283-moddasi 2-qismining og'irlashtiruvchi holatlari boshliqqa qarshilik ko'rsatish yoki uni xizmat vazifalarini buzishga majbur qilishning yuqorida ko'rib chiqilgan og'irlashtiruvchi holatlari bilan bir

xil, ularni mazkur moddaga nisbatan qo‘shimcha tarzda ko‘rib chiqish taqozo etilmaydi.

Agarda boshliqning badaniga u harbiy xizmat yuzasidan o‘z vazifalarini bajarganligi munosabati bilan yoki bajarayotgan vaqtda og‘ir shikast yetkazish natijasida uning o‘limi yuzaga kelsa, aybdorning harakatlari **JK 283-moddasi 2-qismi** va JK 104-moddasi 3-qismi «d» bandi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi kerak, chunki odamni o‘ldirish **JK 283-moddasi 2-qismi** mazmuni bilan qamrab olinmaydi.

Boshliqni ko‘rib chiqilayotgan moddada ko‘rsatilgan holatlarda qasddan o‘ldirish JK 97-moddasi 2-qismi «g» bandi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi. Bu holda jinoyatning **JK 283-moddasi 2-qismi** bo‘yicha qo‘shimcha kvalifikatsiyasi taqozo etilmaydi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar jangovar vaziyatda sodir etilgan bo‘lsa, **JK 283-moddasi 3-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

(«Jangovar vaziyat» tushunchasi to‘g‘risida JK 279-moddasi tahliliga qarang.)

6-§. Bo‘ysunuvchining o‘z boshlig‘ini yoki boshliqning o‘ziga bo‘ysunuvchini haqorat qilishi (JK 284-moddasi)

Jinoyatning bevosita obyekti – boshliq va bo‘ysunuvchining sha‘ni va qadr-qimmatini hurmat qilishni ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar.

Boshliq yoki unga bo‘ysunuvchi ushbu jinoyatning **jabrlanuvchisi** hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat bo‘ysunuvchining o‘z boshlig‘ini yoki boshliqning o‘ziga bo‘ysunuvchini shunday harakatlar uchun intizomiy jazo qo‘llanganidan keyin haqoratlashidir.

Birinchi bo‘lib haqorat qilgan shaxs O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari intizomiy nizomiga muvofiq ravishda intizomiy jazoga tortiladi.

Haqorat qilish deganda, harbiy xizmatchining sha‘ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan tahqirlash tushuniladi.

Haqorat qilish kuch ishlatish ko‘rinishida amalga oshirilgani kabi, kuch ishlatmaslik harakatlari ko‘rinishida bo‘lishi ham mumkin. Kuch ishlatish orqali haqoratlash jismoniy og‘riq yoki sog‘liqqa zarar yetkazish emas, balki harbiy xizmatchining sha‘ni va qadr-qimmatini yerga urish orqali (masalan, jabrlanuvchidagi forma mundirlarini yaroqsiz holga keltirish, pogonlarni uzib olish, tarsaki urish, qo‘l bilan turtish va sh.k.) aynan ma‘naviy (ruhiy) zarar yetkazish. Agar kuch ishlatish orqali haqoratlash oqibatida yengil tan jarohatlari yetkazilsa, agar yetarli asoslar mavjud bo‘lsa, bunday holatni JK 284-, 283- yoki 285-moddalariga (Bir-biriga tobe bo‘lmagan harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga oid ustav qoidalarini buzish) muvofiq ravishda kvalifikatsiya qilish lozim.

Kuch ishlatmay qilingan haqorat jabrlanuvchiga aktiv jismoniy ta‘sir ko‘rsatish (masalan, so‘zlar bilan haqoratlash, tupurish, nomunosib tana harakatlari va h.k.) bilan bog‘liq emas.

Agar aybdorning harakatlari jabrlanuvchiga ma‘naviy zarar yetkazishga emas, balki jismoniy zarar keltirishga qaratilgan bo‘lsa, bu holatni yetarli asoslar bo‘lgan taqdirda JK 283- yoki 285-moddalari bo‘yicha kvalifikatsiya qilish lozim.

Sodir etilish usulidan qat‘i nazar haqorat qilish, jabrlanuvchining shaxsiyatiga salbiy shaklda namoyon bo‘lishi, unga nisbatan hurmatsizlikni o‘zida aks ettirishi hamda aynan haqoratlash xarakteriga ega bo‘lishi kerak. U yoki bu harakatlar haqoratlashga kirish-kirmasligi baholanadi va har bir alohida holatda, ishning mazmun-mohiyatiga qarab sud tomonidan hal etiladi, jumladan, bunday harakatlar qanday shaklda bo‘lganligi va jabrlanuvchi tomonidan qanday qabul qilinganligi inobatga olinadi.

JK 284-moddasida ko‘rsatilgan jinoyat tarkibi bo‘lishi uchun, yuzma-yuz yoki uchinchi shaxslar ishtirokida haqorat qilingan yoki qilinmaganligi ahamiyatga ega emas. Harbiy xizmatchi hatto sirdan – xatlar, mazmuniga mos keluvchi rasmlar tarqatish yo‘li bilan ham haqoratlanishi mumkin, lekin bunday hollarda, aybdorning aybini tan olishi, ularning mazmuni jabrlanuvchiga ma‘lum bo‘lishi yuridik asosga ega bo‘lishi mumkin. Ushbu shart mavjud bo‘lgan taqdirda, jinoiy jazoga tortiluvchi

hamkasblar bilan o‘zaro suhbatda, jamoatchilik oldida so‘zlaganda, jarayonda va boshqa ommaviy axborot vositalarida haqorat qilingan bo‘lishi mumkin.

JK 284-moddasida nazarda tutilgan jinoyat boshliqning o‘ziga bo‘ysunuvchi tomonidan yoki bo‘ysunuvchining o‘z boshlig‘i tomonidan haqoratlangan vaqtdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat, **to‘g‘ri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor o‘z harakatlari bilan aniq harbiy xizmatchining sha‘ni va qadr-qimmatini tahqirlayotganligi, kamsitayotganligini angelaydi va uni haqorat qilishni istaydi. Buni anglamagan hollarda esa, uni harbiy jinoyat uchun javobgarlikka tortish mumkin emas.

Haqorat qilish **motivi** har xil bo‘lishi mumkin, lekin u harbiy xizmat xizmatchilari bilan bog‘liq bo‘lishi lozim.

Agar harbiy xizmatchilarning o‘zaro shaxsiy munosabatlarida haqorat qilishning sababi jabrlanuvchining harbiy xizmatni bajarishi bilan bog‘liq bo‘lmasa va aybdor ham o‘z xizmat vazifasini o‘tayotgan bo‘lmasa, u holda haqorat harbiy jinoyat deb qaralishi mumkin emas. Bunday qilmish JK 140-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Jinoyatning **subyeksi** xizmat yoki harbiy unvoni bo‘yicha boshliq yoki bo‘ysunuvchi bo‘lishi mumkin.

Bir harbiy xizmatchining boshqa harbiy xizmatchi bilan o‘zaro bo‘ysunish munosabatlarida bo‘lmaganda bir-birini haqoratlashi JK 140-moddasi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi. Agar bunday holatda jabrlanuvchi do‘pposlangan bo‘lsa yoki unga nisbatan boshqa kuch ishlatish hollari bo‘lsa, aybdorning harakatlari JK 285-moddasiga binoan yoki tegishlicha shaxsga qarshi jinoyatlar orqali kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

7-§. Bir-biriga tobe bo‘lmagan harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga oid ustav qoidalarini buzish (JK 285-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyeksi** – harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga oid qoidalarni tartibga soluvchi umumharbiy ustavlar talablariga rioya etilishini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar.

Qo‘shimcha bevosita obyekt – harbiy xizmatchining sog‘lig‘i, jismoniy daxlsizligi, uning sha‘ni, qadr-qimmatini hurmat qilishni ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar.

Aybdorga nisbatan boshliq bo‘lmagan yoki unga bo‘ysunmaydigan harbiy xizmatchigina ushbu jinoyatda **jabrlanuvchibo‘lishi** mumkin. Qoida tariqasida, bu muddatli harbiy xizmatchilar bo‘ladi.

JK 285-moddasida nazarda tutilgan jinoyat **obyektiv tomondan** bir-biriga tobe bo‘lmagan harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga oid ustav qoidalarini buzish, ya‘ni muntazam xo‘rlash, azob berish, sog‘liqning buzilishiga sabab bo‘lgan badanga yengil shikast yetkazish yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish, qonunga xilof ravishda ozodlikdan mahrum qilishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlariga muvofiq, «**o‘zaro munosabatlarga oid ustav qoidalarini buzish** deganda, xizmatdoshlarini o‘ziga bo‘ysundirishni ta‘minlash, xizmatni o‘tash chog‘ida o‘zi uchun imtiyozli sharoitlar yaratish maqsadida bir harbiy xizmatchining boshqasiga nisbatan turli xil zo‘rliklar ishlatishi, uning sha‘ni va qadr-qimmatini tahqirlashi deb tushunilishi lozim.

Ushbu qoidalar xizmat mavqei va harbiy unvoni teng, shuningdek, katta va kichik, lekin tobelik munosabatlarida bo‘lmagan shaxslar o‘rtasida buzilsa, Jinoyat kodeksining 285-moddasi bo‘yicha jinoiy javobgarlik vujudga keladi».

Aybdor va jabrlanuvchiga taalluqli bo‘lgan harbiy xizmatchilar kategoriyasi ularni kvalifikatsiya qilish chog‘ida ahamiyat kasb etmaydi, shuningdek, ular chaqiruv bo‘yicha harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgani kabi kontrakt (shartnoma) asosida xizmat qiluvchi, bir-biriga tobe bo‘lmagan harbiy xizmatchilar tomonidan ham sodir etilishi mumkin.

NOTA BENE !

Xo‘rlash – jabrlangan shaxsga nisbatan uning sha‘ni va g‘ururini tahqirlash yo‘li orqali uning sha‘nini yerga urish bilan bog‘liq har qanday harakatlar.

Bu xususda, xo‘rlash, zo‘rlik ishlatish va zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish orqali, hamkasabani xonalarni yig‘ishtirishga, boshqalarning uxlash o‘rinlarini yig‘ishtirishga, boshqalarning kirini yuvishga, ashula ijro etishga majburlash, undan idishdagi oziq-ovqatini, formali kiyim-kechaklarini, pul mablag‘larini olib qo‘yishda va h.k. da namoyon bo‘ladi.

Agarda o‘zaro munosabatlarga oid ustav qoidalarining buzilishlari jarblanuvchidan shaxsiy mulkini olib qo‘yish bilan birgalikda amalga oshirilsa, bu holda jinoiy harakatlar JKga muvofiq, o‘zgarar mulkini talon-toroj qilish bilan bog‘liq normalar orqali qo‘shimcha kvalifikatsiya qilinishi lozim. Xuddi shu tarzda jinsiy xarakterdagi zo‘rlik harakatlari yoki shunday harakatlarni qilishga majburlash ham ko‘rilayotgan modda doirasidan chetga chiqib, qo‘shimcha tarzda JK 119-moddasi (Jinsiy ehtiyojni zo‘rlik ishlatib g‘ayritabiiy usulda qondirish) yoki JK 120-moddasi (Besoqolbozlik) bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Muntazam xo‘rlash deganda, ushbu harakatlarning uch yoki undan ortiq marotaba qilinganligi tushunilishi lozim.

Azob berish harakatlari jismoniy azoblarni yetkazish yo‘li orqali yoki uzoq muddatli va iztirobli og‘riq yetkazish orqali amalga oshiriladi. Qiynash, urish, chimchilash, tishlash, ko‘p miqdorda tirnash, ko‘p miqdordagi, ammo katta hajmda bo‘lmagan yoki o‘tkir sanchiqli narsa orqali jarohat yetkazish, termik, kimyoviy va boshqa moddalar bilan ta‘sir o‘tkazish va h.k.

Sog‘liqning buzilishiga sabab bo‘lgan badanga yengil shikast yetkazish – bu sog‘liqning qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo‘lmagan muddatga yo‘qolishiga olib kelmagan shikast yetkazish. Bunda sog‘liqning qisqa muddatga yomonlashishi bevosita yetkazilgan shikast bilan bog‘liq bo‘lib, davomiyligi 6 kundan ortiq, lekin 21 kundan ko‘p bo‘lmagan sog‘liqning yomonlashishini tushunish lozim. Mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo‘lmagan muddatga yo‘qolishi deganda esa, umumiy mehnatga layoqatlilikning 10 foizigacha yo‘qotilishi tushuniladi.

Qonunga xilof ravishda ozodlikdan mahrum qilish jabrlanuvchining harakat erkinligiga, uning o‘z joyini o‘zi tanlash erkinligiga, o‘ziga

ma'qul bo'lgan vaqtda va usulda boshqa shaxslar bilan muloqot qilishiga to'sqinlik qilish, jabrlanuvchining o'z xohishi bilan bo'lgan doimiy va vaqtinchalik turar joyida yakkalash (izolyatsiya), uni boshqa joyga o'tkazmaslik yo'li orqali (JK 138-moddasi) harakatlarni amalga oshirishdan iborat.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyatni amalga oshirayotgan aybdorning harakatlari JK shaxsga qarshi jinoyatlar bo'limidagi moddalarida ham nazarda tutilgan bo'lib, ular bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilish talab etilmaydi.

Shuni nazarda tutish kerakki, ko'rsatib o'tilgan harakatlar agarda ular harbiy xizmatchining (jabrlanuvchi yoki ayblanuvchi) o'z xizmat vazifalarini o'tash yoki ularni o'tash bilan bog'liq, shuningdek, ushbu vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lmagan hollarda, agarda harbiy jamoaga ochiq hurmatsizlik, bo'linmada ichki tartibni buzish, shaxsiy tarkibning odatdagi uyqu yoki dam olishini buzish bilan birgalikda amalga oshirilsa, **JK285-moddasi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Har qaysi sanab o'tilgan alomatlar harakatlarda o'rin olsa, ular ko'rib chiqilayotgan modda bilan kvalifikatsiya qilishning zaruriy belgisi hisoblanadi, jinoyatning sodir etilgan joyi esa, har xil bo'lishi mumkin. Jinoyat bevosita harbiy qism joylashgan o'rnida bo'lishi yoki uning chegarasidan tashqari, kazarmada, davolash muassasasida, xo'jalik ishlarini bajarish joyida, bo'shagan vaqtda, bo'linmaning tarkibidagi xizmat safarida va hokazo amalga oshirilishi mumkin.

JK 285-moddasida nazarda tutilgan jinoyat xo'rlash, azob berish, sog'liqqa zarar yetkazish yoki qonunga xilof ravishda ozodlikdan mahrum etish harakatlari amalga oshirilgan vaqtdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomonidan jinoyat **to'g'ri qasd** bilan amalga oshiriladi. Jarbrlanuvchi o'z harakatlari bilan umumiy harbiy ustav bilan o'rnatilgan munosabatlar tartibini buzayotganligini angelaydi va buni xohlaydi.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyatning **motivi** har xil bo'lishi mumkin. Ko'pincha, bu bezorilik niyatlari, unda ayblanuvchi o'zining xayoliy ustunligini jabrlanuvchi ustidan o'rnatishga qaratilgan, uning qadr-

qimmatini tahqirlash, o'zining o'rniga ishlarni bajarishga, kamsitadigan xizmatlarni ko'rsatishga majbur qilish harakatlarini amalga oshiradi. Harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga oid ustav qoidalarining buzilishi millatchilik va diniy qarama-qarshilik asosida bo'lishi mumkin, unda jabrlanuvchining uning milliy yoki diniy hissiyotlarini anglangan holda kamsitish harakatlari amalga oshiriladi.

Agarda **JK 285-moddasi** dispozitsiyasida ko'rsatilgan harakatlar chuqur shaxsiy munosabatlar asosida (masalan rashk, yoqtirmaslik, tortishuv asosida, agar harbiy xizmatchilarda qarindoshlik yoki nikoh munosabatlari mavjud bo'lsa) xizmatdan tashqari vaqtda va boshqa harbiy xizmatchilar yo'qligi paytida amalga oshirilsa, **JK 285-moddasi** bo'yicha kvalifikatsiya qilinmaydi, chunki bunday harakatlar harbiy huquq-tartibotiga ta'sir o'tkazmaydi.

Agarda jabrlanuvchi bilan bo'ysunish munosabatlari bo'lmasa har qanday harbiy xizmatchi **subyekt** bo'lishi mumkin.

JK 285-moddasi 2-qismida quyidagi holatlarda bir-biriga tobe bo'lmagan harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga oid ustav qoidalarini buzish jinoyati uchun javobgarlik nazarda tutilgan:

- a) bir guruh shaxslar tomonidan amalga oshirilsa;
- b) qurol ishlatib sodir etilsa;
- v) badanga og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa.

«**Guruh sifatidagi noustav zo'ravonlik harakatlari** qasd umumiyliги bilan birlashgan ikki yoki undan ortiq harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etiladi va ularning har biri Jinoyat kodeksining 285-moddasida ko'rsatilgan jinoyat subyekti bo'ladi va jinoyatda sherik sifatida ishtirok etadi. Bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyat oldindan o'zaro til biriktirib yoki biriktirmasdan sodir etilishi mumkin. So'nggi holda harakatlarni Jinoyat kodeksining 285-moddasi 2-qismi «a» bandi bilan tavsiflashning zarur sharti – har bir aybdor o'z noustav harakatlarini guruh ichida, birlashib sodir etayotganligini anglab yetganligidir.

Qurol tan jarohatlarini yetkazish uchun qo'llanilishi, boshqa xil zo'rlik paytida esa, masalan, aybdor qurol ishlatish tahdidi ostida jabr-

lanuvchini harbiy xizmat yuzasidan o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishga, o'zi uchun turli xizmatlar qilishga majburlash, shuningdek, inson sha'nini kamsitadigan xatti-harakatlar qilish paytida, ruhiy ta'sir o'tkazish uchun qo'llanilishi mumkin».

«Bir-biriga tobelik munosabatlarida bo'lgan va bo'lmagan shaxslar tomonidan zo'rlik harakatlari birgalikda sodir etilgan hollar tavsiflash uchun birmuncha murakkabroq.

Masalan, ham aybdorga va ham jabrlanuvchiga boshliq bo'lgan serjant soldat tomonidan sodir etilgan noustav harakatlarga qo'shiladi yoki tobe shaxs o'z boshlig'ining zo'ravonlik harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Bunday hollarda boshliqning o'ziga tobe shaxs tomonidan sodir etilgan noustav zo'ravonlik harakatlarida ishtirok etishini harbiy mansabdorlik jinoyati sifatida Jinoyat kodeksining 301-moddasi bilan tavsiflash lozim. Ijrochining harakatlarini esa, Jinoyat kodeksining 285-moddasi 1-qismi bilan tavsiflash lozim, chunki boshliq ushbu jinoyatning subyekti emas va sherik sifatida tan olinmaydi.

Agar boshliq tomonidan xizmat mavqei o'zi bilan teng shaxslarga nisbatan sodir etilgan noustav harakatlarga jabrlanuvchiga ham, aybdorga ham tobe shaxs kelib qo'shilsa, boshliqning harakatlari Jinoyat kodeksining 285-moddasi bilan, tobe shaxsning harakatlari esa, jinoyatga sherik sifatida Jinoyat kodeksining 28-, 285-moddalari bilan tavsiflanishi lozim».

«**Qurol** tan jarohatlarini yetkazish uchun qo'llanilishi, boshqa xil zo'rlik paytida esa, masalan, aybdor qurol ishlatish tahdidi ostida jabrlanuvchini harbiy xizmat yuzasidan o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishga, o'zi uchun turli xizmatlar qilishga majburlash, shuningdek, inson sha'nini kamsitadigan xatti-harakatlar qilish paytida, ruhiy ta'sir o'tkazish uchun qo'llanilishi mumkin.

Quroldan uning konstruksiyasi va mohiyatidan kelib chiqadigan yakson qiluvchi vosita sifatida emas, balki faqat kaltaklash predmeti sifatida foydalanish qurolni qo'llash hisoblanmaydi».

JK 285-moddasi 3-qismida bir-biriga tobe bo'lmagan harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga oid ustav qoidalarini

buzish odam o'lishiga sabab bo'lgan holatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

«Odam o'lishiga sabab bo'lgan» deganda, ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish yoki uni o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish harakatlari tushuniladi. Bunda JK 102-moddasi (Ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish) yoki 103-moddasi (o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish) bilan kvalifikatsiya etilmaydi. Agarda bir-biriga tobe bo'lmagan harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga oid ustav qoidalarini buzishda ayblanuvchi qasddan jabrlanuvchini o'ldirsa, uning qilmishini JK 97-moddasi va **285-moddasi 3-qismi «a» bandi** bilan kvalifikatsiya qilish talab etiladi.

Amaliyotda ko'p hollarda jabrlanuvchining vafoti yurakning reflektor to'xtab qolishi yoki mexanik asfiksiyasi natijasida, yurak qafasi qismiga qo'l bilan zarba yetkazishda sodir bo'ladi. Bunday harakatlar, ayblanuvchining jabrlanuvchi o'limiga qasdni tasdiqlovchi ishonarli dalillar yo'q bo'lgan hollarda, bu bir-biriga tobe bo'lmagan harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga oid ustav qoidalarini buzish va ular inson o'limiga olib kelish holati etib kvalifikatsiyalanadi.

JK 285-moddasi 4-qismiga asosan, agarda jinoyatning amalga oshirilishi natijasida quyidagilar kelib chiqsa, javobgarlikka tortiladi:

- a) odamlarning o'limiga;
- b) boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa.

Odamlarning o'limi deb, ikki yoki undan ortiq insonning vafoti tushuniladi.

JK 285-moddasi 4-qismi «b» bandida ko'rsatilgan **boshqa og'ir oqibatlar** deb, ayblanuvchining ustavdan tashqari harakatlari bilan bog'liq oqibatlar tushuniladi, ularning og'irligi sud tomonidan xarakteriga qarab baholanishi kerak.

«Harbiy xizmatchilar o'rtasida o'zaro munosabatlarga oid ustav qoidalarining buzilishi, ba'zi paytlarda, nafaqat odamlar o'limiga, balki jangovar vazifaning bajarilmay qolishiga, harbiy texnikaning ishdan chiqishiga va boshqa oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bunday oqibatlar

sud tomonidan og'ir deb topilgan taqdirda aybdorning harakatlarini Jinoyat kodeksining **285-moddasi 4-qismi** bilan tavsiflashga asos bo'la oladi.

Noustav zo'ravonlik harakatlari oqibatida bir necha jabrlanuvchiga Jinoyat kodeksi 285-moddasining turli qismlarida ko'zda tutilgan zarar yetkazilgan bo'lsa, bu harakatlar Jinoyat kodeksining 33-moddasi qoidasiga ko'ra tavsiflanishi lozim.

Harbiy xizmatchilar o'rtasida o'zaro munosabatlarga oid ustav qoidalarini buzish aybdorlar harbiy xizmatning maxsus turlari bo'yicha majburiyatlarni bajarayotgan paytda sodir etilishi mumkin (qorovullik, ichki xizmat, harbiy navbatchilik va hokazolar). Agar aybdor tomonidan ayni paytda maxsus xizmat qoidalari ham buzilsa, bu harakatlar Jinoyat kodeksining 285-moddasi va u yoki bu xizmat turini buzganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalar majmui bilan tavsiflanishi lozim.

Maxsus xizmat turlarini o'tash qoidalarini buzish, faqat, o'zaro munosabatlarga oid ustav qoidalarini buzish ayni paytda maxsus xizmat turlarini o'tash qoidalarining ham buzilishiga olib kelsagina alohida huquqiy baholanishi mumkin (misol uchun, qism yoki bo'linma ichki naryadiga kiruvchi shaxs tomonidan)».

8-§. Marodyorlik (JK 286-moddasi)

Marodyorlikning **bevosita obyekti** O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining axloqiy me'yorlari hisoblanadi.

Bu jinoyatning **predmeti** yaralangan yoki vafot etgan shaxslarning mulki hisoblanadi.

Obyektiv tomondan marodyorlik halok bo'lgan yoki yaradorlarning buyumlarini jangovar vaziyatda egallashda ifodalanadi.

Buyumlarni egallash deganda, ularni to'liq o'z ixtiyoriga o'tkazish tushuniladi. **JK 286-moddasi** mazmunida egallash har qanday shaklda amalga oshirilishi mumkin, u maxfiy egallash (o'g'rilik) yoki zo'rlik ishlatib egallash (talonchilik, bosqinchilik) bo'lishi mumkin. Bu holatlarda yaralanganlarning yoki vafot etganlarning buyumlarini egallashning zaruriy belgisi jinoyatning jangovar vaziyatda sodir etilishi hisoblanadi.

(«Jangovar vaziyat» tushunchasi haqida JK 279-moddasining tahliliga qarang.)

Marodiyorlik halok bo‘lgan yoki yaradorlarning buyumlarini egalagan vaqtdan boshlab **tugallangan** jinoyat hisoblanadi.

Ushbu jinoyat **subyektiv tomondan** to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi. Ayblanuvchi jangovar vaziyatda halok bo‘lgan yoki yaradorlarning buyumlarini qonunga xilof ravishda egallaganligini anglaydi va buni amalga oshirishni xohlaydi.

Jinoyatning **motiv** va **maqsadi** turli bo‘lishi mumkin, lekin ular jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta‘sir etmaydi.

Marodiyorlikning **subyektiv** faqat harbiy xizmatchi bo‘lishi mumkin. Fuqarolar bunday vaziyatlarda «umumiy» jinoyatlar uchun javobgarlikka tortiladi.

«Bo‘ysunish va harbiy sha‘nga rioya etish tartibiga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar

1. Buyruq deganda siz nimani tushunasiz? Bo‘ysunmaslik nima degani? Uning namoyon etilish shakllari qanday? Mazkur jinoyatning sodir etilishida qonunda qanday og‘irlashtiruvchi sharoitlar belgilangan?

2. Buyruqning bajarilmasligi va unga bo‘ysunmaslik o‘rtasidagi farq nimada? Buyruqning bajarilmaganligi uchun jinoiy javobgarlikning zaruriy belgisi qanday?

3. Boshliqqa qarshilik ko‘rsatish yoki uni xizmat vazifalarini buzishga majbur qilish nimada namoyon bo‘ladi? Boshliqni majbur qilish bilan unga qarshilik ko‘rsatishning farqi nimada?

4. Boshliqni o‘ldirish yoki zo‘rluk ishlatish bilan qo‘rqitish deganda nimalar tushuniladi? Qaysi hollarda bunday qo‘rqitish jinoyat deb hisoblanadi?

5. JK 282-moddasi (Boshliqni qo‘rqitish) bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortishning zaruriy belgisi qanday?

6. JK 283-moddasida qanday jinoyat nazarda tutilgan?


7. Bo‘ysunuvchining o‘z boshlig‘ini yoki boshliqning o‘ziga bo‘ysunuvchini haqorat qilgani uchun jinoiy javobgarlik qo‘llanilishining zaruriy belgilarini ayting.

8. O‘zaro munosabatlarga oid ustav qoidalarini buzish deganda nima tushuniladi? U nima bilan ifodalanadi va bunday jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik kelib chiqishining zaruriy belgilari qanday?

9. Marodyorlik deb nimaga aytiladi? Qanday vaziyatlarda halok bo‘lgan yoki yaradorlarning buyumlarini egallash marodyorlik deb hisoblanmaydi?

VII BOB. HARBIY XIZMATNI O‘TASH TARTIBIGA QARSHI JINOYATLAR

9-sxema



1-§. Harbiy qism yoki xizmat joyini o‘zboshimchalik bilan tashlab ketish (JK 287-moddasi)

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish – har bir fuqaroning burchidir deb belgilangan. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar.

O‘zbekiston Respublikasida haqiqiy harbiy yoki alternativ xizmatni o‘tash tartiblari O‘zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi, «Mudofaa to‘g‘risida»gi Qonunlari va O‘zbekiston Respublikasining harbiy nizomlari asosida o‘rnatilgan.

Jinoyatning **bevosita obyekti** Qurolli Kuchlarda harbiy xizmatni o‘tashning qonunchilikda o‘rnatilgan tartiblarini reglamentlashtiruvchi, har bir harbiy xizmatchi belgilangan joyda xizmatni o‘tashi va harbiy xizmat davom etayotgan vaqt davomida xizmat majburiyatlarini to‘la hajmda bajarishi lozimligidan tarkib topgan ijtimoiy munosabatlardan iborat.

JK 287-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchisining harbiy qism yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketishi, shuningdek, harbiy qismdan qisqa muddatga ruxsat berilganda, boshqa xizmatga tayinlanganda yoki boshqa xizmat joyiga o'tkazilganda, xizmat safaridan, otpuskadan yoki davolash muassasasidan uzrli sabablarsiz bir kecha-kunduzdan ortiq, lekin o'n kecha-kunduzdan ko'p bo'lmagan muddat davomida xizmat joyida hozir bo'lmashligida ifodalanadi.

Chaqiruv bo'yicha harbiy xizmat o'tayotgan harbiy xizmatchilar harbiy qism hududida joylashgan kazarmalarga o'rnashadilar. Harbiy xizmatni o'tash boshqa joylarda bo'lishi ham mumkin.

Harbiy qism hududi qorovul, naryad yoki boshqa usul bilan qo'riqlanadigan, shu harbiy qism yoki alohida ost bo'lim uchun qism komandiri yoki yuqori qo'mondon buyrug'i bilan o'rnatilgan alohida chegaralangan joyda joylashgan kazarma, lager yoki ko'chma hudud hisoblanadi. Chegara qo'shinlarida harbiy qism hududiga nafaqat chegara otryadi joylashgan hudud, balki chegara zastavasi joylanmasi ham ushbu otryadning alohida joylashgan ost bo'limi sifatida kiradi.

Xizmatni o'tash joyi deb, tegishli qo'mondonlik farmoyishi yoki ruxsati bilan har qanday xizmat majburiyatlarini amalda bajarish joylarini tushunish lozim. Bu xo'jalik ishlarini bajarish joyi yoki qorovulda, naryadda; harbiy-tibbiy muassasada statsionar davolanish davrida; vaqtincha safarga yuborilgan vaqt qismida; transportda shaxsiy tarkibni ko'chirishda transport vositalarida (poezdga, avtomobil eshelonlarida, kemalarda) majburiyatlarni bajarish bo'lishi mumkin.

Harbiy qism yoki xizmat joyini faqat tegishli harbiy bo'lim komandirining (boshlig'ining) ruxsati bilan tark etish mumkin. Komandirning ruxsatisiz harbiy qism yoki xizmat joyini yoki xizmat joylashgan joyini tark etish harbiy nizom bilan taqiqlanadi, aks holda bu harbiy qism yoki xizmat joyini **o'zboshimchalik bilan tashlab ketish** bo'ladi.

Agar erkinlik berish huquqiga ega bo'lmagan (masalan, vztvod komandirining ruxsati bilan) boshliqning ruxsati bilan qismdan ketish holatlarida, harbiy xizmatchining olingan ruxsatnomasining vakolatlilik

to'g'risida vijdonan adashganligi sharoitlarida ko'rib chiqilayotgan jinoyat paydo bo'lmaydi. Bunday hollarda o'z xizmat vakolatlarini oshirgan boshliq javobgar bo'ladi.

Muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchisining harbiy qism yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketishining zaruriy belgisi – bir sutkadan ortiq, ammo o'n sutkadan ko'p bo'lmagan vaqtda uning yo'qligidir. Bu muddatni harbiy qismni yoki xizmat joyini tark etgan vaqtdan to shu shaxsning qismga qaytishi yoki uning ushlanish vaqtigacha hisoblash lozim.

Qismdan ruxsatnoma bilan chiqqanda, boshqa joyga tayinlanganda yoki o'tkazilganda, safardan, ta'tildan yoki davolash **muassasasidan uzrli sabablarsiz o'z muddatida xizmatga kelmaslik** deb, harbiy xizmatchi qismdan yoki xizmat joyidan qonunga asoslangan holda chiqib ketib, harbiy xizmatchiga berilgan chaqiruv qog'ozi, safar guvohnomasi, ta'til chiptasi, erkinlik yozuvi bo'yicha ko'rsatilgan qo'mondon tomonidan belgilangan muddatdan ortiq vaqt qismdan yoki xizmat joyidan tashqarida bo'lishiga aytiladi.

Qaytib kelmaslik uchun uzrli sabablar bo'lib harbiy xizmatchining kasal bo'lishi, yaqin qarindoshlarining o'limi, tabiiy ofatlar va ular bilan bog'liq bo'lgan aholi punktlari bilan transport aloqalarining uzilib qolishi, harbiy holat va boshqa harbiy xizmatchini uning xizmat joyiga o'z vaqtida qaytishiga obyektiv to'sqinlik qiluvchi boshqa vaziyatlar hisoblanadi.

O'zboshimchalik bilan tashlab ketish kabi qaytib kelmaslik ham harbiy xizmatchi qismda 1 sutkadan ortiq, ammo 10 sutkadan ko'p bo'lmagan vaqtda yo'q bo'lgan bo'lsa jinoiy javobgarlikka olib keladi.

Ushbu moddaning birinchi qismi ma'muriy preyuditsiyaga ega. Muddatli harbiy xizmatchiga harbiy qism yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketgani uchun intizomiy jazo chorasi qo'llanganidan so'nggina, unga nisbatan xuddi shunday qilmish uchun jinoiy javobgarlik kelib chiqadi.

JK 287-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatlar, agar harbiy xizmatchi qonunga xilof ravishda harbiy qismdan yoki xizmat joyidan

tashqarida bo‘lib, 10 kun davomida xizmatni o‘tash joyiga kelmasa jinoyat **tugallangan** deb topiladi.

Qismni o‘zboshimchalik bilan tashlab ketishning davomiyligi qismni (xizmat joyini) o‘zboshimchalik bilan tashlab ketgan yoki qismga kelish vaqti tugaganidan so‘ng va uning qismga (xizmat joyiga) qaytgan yoki ushlangan vaqtigacha hisoblanadi. Bunda vaqtni hisoblash JPKning 314-moddasida belgilangan muddatlarni hisoblash qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etiladi. Agar, aybdor harbiy qismni yoki xizmat joyini komandirning ruxsatisiz tark etayotganini yoki qism hududiga belgilangan muddatda qaytmasligini anglasa va ushbu qilmishni sodir etishni istasa, ushbu harbiy qismni yoki xizmat joyini o‘zboshimchalik bilan tashlab ketish **qasddan** qilingan deb topiladi. O‘z muddatida xizmatga etib kelmaslik ham **qasddan**, ham **ehtiyotsizlik** bilan sodir etilishi mumkin.

Jinoyat motivi kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas. «Qarindosh va tanishlarni borib ko‘rish, xizmat hordig‘ini chiqarish, oilaviy va shaxsiy ishlarni bajarish, vaqtinchalik muammolarni hal etish istagi kabi sabablar qismni o‘zboshimchalik bilan tashlab ketish hollariga xosdir».

Agar harbiy qismni yoki xizmat joyini o‘zboshimchalik bilan tashlab ketish harbiy xizmatdan bo‘yin tovlash maqsadida sodir etilsa, qilmish JK 288-moddasi (Dezertirlik) bilan kvalifikatsiya qilinadi.

JK 287-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat **subyektiv** bo‘lib qonunning normalariga muvofiq muddatli harbiy xizmatdagi harbiy xizmatchilar, ya’ni askarlar, matroslar va serjantlar hisoblanadilar.

JK 287-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan harakatlar zaxiradagi va harbiy yig‘inlarga chaqirilgan fuqarolarga ham tatbiq etiladi.

JK 287-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchisi, ofitserlar tarkibidan bo‘lgan shaxs yoki harbiy xizmatni kontrakt (shartnoma) bo‘yicha o‘tayotgan harbiy xizmatchining qism yoki xizmat joyini o‘zboshimchalik

bilan tashlab ketishi, shuningdek, uzrli sabablarsiz belgilangan muddatdan o'n kecha-kunduzdan ortiq, lekin bir oydan ko'p bo'lmagan muddat davomida xizmat joyiga etib kelmasligidan iboratdir.

Ofitserlar tarkibidan bo'lgan shaxslar, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar bunday xizmatni o'tayotganda harbiy qismda yoki boshqa xizmat joyida bo'lishlari mumkin. Harbiy xizmatni o'tashdan bo'sh vaqtlarida bu toifadagi harbiy xizmatchilar harbiy qism va xizmat joyidan tashqarida bo'lishlari mumkin. Shu sababli bu toifadagi harbiy xizmatchilar uchun **qismni va xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketish** deb, harbiy xizmat o'tashi lozim bo'lganda uzrli sabablarsiz xizmatga chiqmasligini tushunish lozim. Bunday vaziyatlarda, ko'rsatilgan toifadagi harbiy xizmatchilarga nisbatan boshliq tomonidan kazarmada joylashuv o'rnatilganda, qism va xizmat joyi chegarasidan maxsus ruxsatnomasiz ketish o'z xohishi bilan qismni tark etish kabi ko'rib chiqilishi lozim.

Ofitserlar tarkibidan bo'lgan shaxslar, kontrakt (shartnoma) bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar harbiy qism joyidan tashqarida yashab turib, uzrli sabablarsiz xizmatga chiqmasa va bu bilan xizmat majburiyatlarini o'tashdan bo'yin tovlasa, bu holatlarni **o'z muddatida xizmatga yetib kelmaganlik** sifatida ko'rib chiqilishi lozim.

Aybdorning qilmishi, bu shaxs avval shu kabi qilmishi uchun intizomiy jazo chorasi qo'llanganidan qat'i nazar, **JK 287-moddasi 2-qismi** bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

JK 287-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat **subyekti** muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchisi, ofitserlar tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchilar, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar bo'lishlari mumkin.

Ofitserlar tarkibidan bo'lgan shaxslar deb, haqiqiy harbiy xizmatda turgan kichik, katta va oliy ofitser tarkibiga aytiladi.

Kontrakt bo'yicha xizmat qiluvchilar deb, amaldagi qonunchilikka muvofiq harbiy xizmat qilish istagini bildirgan harbiy xizmatchilarga aytiladi.

JK 287-moddasi 2-qismida ko'rsatilgan subyektlar: muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchilari tomonidan, ofitserlar tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchilar tomonidan, kontrakt bo'yicha harbiy xizmat o'tayotgan harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan qismni yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketish hamda uzrli sabablarsiz bir oydan ortiq muddat xizmatga kelmaslik uchun **JK 287-moddasi 3-qismida** tegishli javobgarlik nazarda tutilgan.

Bunda qismda yoki xizmat joyida qonunga xilof ravishda yo'q bo'lishlikning maksimal davomiyligi kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas, biroq jazo tayinlashda hisobga olinadi.

Agar jinoyat subyekti o'zboshimchalik bilan qismni yoki xizmat joyini harbiy xizmatdan bo'yin tovlash maqsadida o'n sutkadan ortiq yoki umuman maqsadsiz xizmatdan bo'yin tovlash maqsadida bir oydan ortiq davomiylikda tark etsa, ammo bu muddatlar o'tmasidan oldin ushlangan bo'lsa, uning harakatlarini **JK 287-moddasi 1, 2 va 3-qismlarida** nazarda tutilgan jinoyatni sodir etishga suiqasd deb topiladi.

JK 287-moddasi 4-qismi jangovar vaziyatda sodir etilgan qismni yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketganligi uchun, davomiyligidan qat'i nazar javobgarlikni nazarda tutadi.

(«Jangovar vaziyat» tushunchasi to'g'risida JK 279-moddasi tahliliga qarang.)

JK 287-moddasi 4-qismida ko'zda tutilgan jinoyatning **subyekti** harbiy unvonidan, xizmat asoslaridan (kontrakt yoki chaqiruv asosida) qat'i nazar har qanday harbiy xizmatchi bo'lishi mumkin.

2-§. Dezertirlik (JK 288-moddasi)

Ushbu jinoyatning **bevosita obyekti** harbiy xizmat o'tashning o'rnatilgan tartibi hisoblanadi.

Dezertirlikning **obyektiv tomoni** harbiy xizmatdan butunlay bo'yin tovlash maqsadida harbiy qism yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketish, shuningdek, shu maqsadda xizmat joyiga yetib kelmaslikda ifodalanadi.

(«Harbiy qism yoki xizmat joyini o‘zboshimchalik bilan tashlab ketish» va «xizmat joyiga yetib kelmaslik» tushunchalari to‘g‘risida JK 287-moddasi tahliliga qarang.)

Dezertirlik deganda, harbiy xizmatdan butunlay bo‘yin tovlash maqsadida harbiy qismni yoki xizmat joyini o‘zboshimchalik bilan tashlab ketish, shuningdek, o‘sha maqsadda xizmat joyiga yetib kelmaslik tushuniladi.

Dezertirlikda harbiy xizmatchi joyida yo‘qligining davomiyligi sodir etilgan jinoyatning jamiyatga xavfliligi darajasini baholashda va aybdorga jazo tayinlashda ahamiyatga ega bo‘ladi. Agar dezertirlik sodir etilganda xizmat joyidan tashqarida o‘zboshimchalik bilan bo‘lgan vaqti uzoq davom etmasa (muddatli harbiy xizmatchilar uchun – ikki sutkadan kamroq, kontrakt (shartnoma) bo‘yicha harbiy xizmatchilar uchun – o‘n sutkadan kamroq), bunday harakatlar xizmatga o‘z xohishi bilan qaytgan sharoitlarda yoki ikkita yengillashtiruvchi holatlarning mavjudligida **JK 288-moddasi** belgilarining formal tarkibini ifodalovchi sifatida baholanishi va JK 36-moddasiga muvofiq, kam ahamiyatli qilmish deb topilishi mumkin.

Dezertirlik davomli jinoyat hisoblanadi. U aybdorning o‘z xohishiga ko‘ra harakatlarini to‘xtatishi (masalan, uning aybini bo‘yniga olib qismga yoki hukumat idoralariga kelishi) yoki dezertirlikning davom etishiga to‘sqinlik qiluvchi sharoitning ro‘y berguniga (masalan, aybdorning ushlanishi va sh.k.) qadar davom etishi mumkin.

Harbiy qism yoki xizmat joyini tashlab ketib muddatida xizmatga kelmagan vaqtdan boshlab dezertirlik **tugallangan** jinoyat deb topiladi. Bunda shuni nazarda tutish lozimki, dezertirlikdan o‘z xohishi bo‘yicha qaytishi faqat harbiy qismni yoki xizmat joyini tark etgunigacha yoki xizmatga kelish muddati tugagunigacha mumkin bo‘ladi. Dezertirlik sodir etgan harbiy xizmatchining aybini bo‘yniga olib kelishi jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida ko‘rilmog‘i lozim (JK 55-moddasi «a» bandi). Bunday vaziyatlarda JK 66- va 71-moddalarida ko‘rsatilgan ma‘lum sharoitlarning mavjudligida harbiy xizmatchi javobgarlikdan yoki jazodan ozod etilishi mumkin.

Subyektiv tomondan jinoyat to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi. Jinoyat subyektiv tomonining zaruriy belgisi qismni yoki xizmat joyini

o'zboshimchalik bilan tashlab ketishning **maqsadi** hisoblanadi. Aybdor qismni yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketishni yoki xizmat o'tash joyiga harbiy xizmat qilishdan umuman bo'yin tovlash maqsadida qaytmayotganligini anglaydi va bu harakatlarni sodir etishni istaydi.

Harbiy xizmatdan bo'yin tovlash maqsadlari aybdorning qasdida namoyon bo'ladi, ya'ni qonun tomonidan o'rnatilgan harbiy xizmat davomida harbiy xizmat majburiyatlarini o'tashdan bosh tortishida ifodalanadi. Harbiy xizmatchida harbiy xizmatdan bo'yin tovlash bevosita qismni yoki xizmat joyini tark etishdan oldin yoki xizmatga kelmaganida va qismni yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketish jarayoni sodir bo'lganida paydo bo'lishi mumkin.

JK 287-moddasida nazarda tutilgan jinoyat va dezertirlikning obyektiv tomonlarini o'xshashliklarida, bu jinoyatlar tarkiblarini chegaralashni faqat sodir etilgan jinoyatning oxirgi maqsadi bilan aniqlanadigan aybdorning maqsad yo'nalishi bo'yicha – harbiy xizmat o'tashdan butunlay yoki ma'lum vaqtga bosh tortganligidan o'tkazish lozim.

Harbiy xizmat o'tashdan butunlay bo'yin tovlash maqsadi to'g'risida qismni yoki xizmat joyini tashlab ketganidan so'ng o'tgan vaqtning davomiyligi yoki unga kelmaganligi guvohlik beradi. Bundan tashqari, harbiy xizmat o'tashdan butunlay bo'yin tovlash maqsadlari to'g'risida «aybdor tomonidan soxta hujjatlar to'g'rilab olish, fuqaroviy kiyimga qayta kiyinib olish, harbiy kiyimni yo'q qilish, ishga joylashishga yoki yashash uchun boshqa doimiy manba topishga urinish kabi» holatlar ham guvohlik beradi.

«Dezertirlikni sodir etgan shaxsning asosiy sabab qilib ko'rsatadigan vajlari – harbiy xizmat qiyinchiliklari va mahrumliklarini boshdan kechirishni istamaslik, doimiy ravishdagi shaxsiy va oilaviy muammolarni hal qilishga intilish, harbiy xizmatni o'tash davrida sodir etgan jinoyati uchun javobgarlikdan qochish va hokazolar bo'lishi mumkin». Dezertirlikda motiv jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ta'sir ko'rsatmaydi.

JK 288-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat **subyekt** mud-datli xizmatdagi oddiy harbiy xizmatchilar, ya'ni askarlar, matroslar va serjantlar hisoblanadilar.

JK 288-moddasi 1-qismi harakatlari zaxiradagi va harbiy yig'inlarga chaqirilgan fuqarolarga ham tegishli.

Intizomiy tartibga chaqirilgan, intizomiy qismga jo'natish jazosiga hukm qilingan sudlangan yoki qamoq ko'rinishidagi jazoni o'tayotgan (JK 48-moddasiga qarang) harbiy xizmatchining qochishi harbiy qonunbuzarchilik hisoblanadi va ayrim holatlardan kelib chiqib JK 287- va **288-moddasi** bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Unga nisbatan prokuror sanksiyasi yoki sud qarori bo'yicha qo'riqlov ostida saqlash ko'rinishidagi chora tanlangan harbiy xizmatchi tomonidan tergov izolyatoridan qochishni JK 222-moddasi (Qamoqdan yoki qo'riqlov ostidagi saqlash joyidan qochish) bo'yicha kvalifikatsiya qilish lozim.

JK 288-moddasi 2-qismida ofitserlar tarkibidan bo'lgan shaxslar, kontrakt (shartnoma) bo'yicha xizmat o'tayotgan harbiy xizmatchi tomonidan sodir etilgan dezertirlik uchun javobgarlik belgilangan.

Kontrakt bo'yicha harbiy xizmat o'tayotgan harbiy xizmatchilarga nisbatan dezertirlik harbiy xizmatchi tomonidan bir tomonlama kontraktni buzish bilan ifodalanadi. Bu shundan kelib chiqadiki, amal qilinayotgan qonunchilik «kontrakt tuzuvchi»ni kontraktni muddati tugamaguncha o'z tashabbusi bilan buzishi huquqini nazarda tutmaydi. Bunday buzish faqat yangi kontrakt tuzilgandagina mumkin. Masalan, birinchi kontrakt uch yilga tuzilgan, u esa, uni buzib, yangi ko'rinishdagi kontrakt tuzadi – besh yoki o'n yilga.

Bundan tashqari, kontrakt bo'yicha harbiy xizmat o'tayotgan harbiy xizmatchilar uchun, davom etayotgan jinoyat sifatidagi dezertirlik kontrakt muddati tugagan vaqtdan boshlab **tugallangan** deb tan olinadi.

3-§. Halok bo'layotgan harbiy kemani tashlab ketish (JK 289-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekt**i halokat yoki avariyalarda, harbiy kema «halokatida» harbiy munosabatlarning o'rnatilgan tartibi hisoblanadi.

Jinoyat **obyektiv tomondan** halok bo'layotgan harbiy kemani o'z xizmat vazifalarini oxirigacha bajarmagan komandir tomonidan, shuningdek, komandirning tegishli farmoyishi bo'lmasdan kema komandasi tarkibidagi shaxs tomonidan tashlab ketilishida ifodalanadi.

Harbiy kema deb, harbiy xizmat o‘rnatilgan vazirlikka (idoraga) tegishli harbiy qo‘mondon javobgarligida bo‘lgan har qanday o‘zi yurar suv kemasi tushuniladi.

Halok bo‘layotgan harbiy kemani tashlab ketish ham qirg‘oqqa chiqish yo‘li bilan, ham boshqa kemaga o‘tish yoki qutqaruvchi suzuvchi vositaga o‘tish bilan amalga oshiriladi. Harbiy xizmatchining ixtiyoridan tashqari kema halokatining tashqi ta’sirlari natijasida ilojisiz bort ortida qolishi ushbu jinoyat tarkibini hosil qilmaydi.

Harbiy kema komandirining va komanda a‘zolarining nizomda belgilangan xizmat majburiyatlaridan kelib chiqib, kema komandiri va komanda a‘zolari halokatlarda, avariyalarda harbiy kemani qutqarish uchun barcha imkoniyatlarni qabul qilishlari zarur.

Komandirda odamlarni, mol-mulkni qutqarishni tashkil etish bo‘yicha bevosita majburiyat yotadi. Qisman olganda, kema halokati xavfi sharoitlarida kema komandiri odamlarni qutqarish uchun ularni tashkiliy evakuatsiya qilishni, birinchi navbatda, kasallarni va yaradorlarni, bolalarni, ayollarni, fuqaro shaxslarni va faqat ulardan so‘ng, harbiy xizmatchilarni va ekipaj a‘zolarini ta‘minlashga majbur. Majburiy tadbirlar sanog‘iga sirli hujjatlarni, soqchilik va navigatsiya jurnallarini, xaritalarni, pul mablag‘larini va boshqa boyliklarni saqlashni ta‘minlash ham kiradi. Jang holatida hujjatlarni, qurollarni va moddiy boyliklarni qutqarish imkoniyati yo‘q bo‘lganida, ular dushman qo‘liga tushmasligi uchun kema bilan yo‘q qilinishini ta‘minlashi lozim.

Komandir harbiy kemani qutqarish uchun barcha imkoniyatlarni ishlatgan vaziyatlarda, ammo uni qutqarish imkoniyati yo‘qligida harbiy kemani tark etish lozim degan yagona qarorga kelsa, u uni tark etish uchun qaror qabul qiladi. Komandir harbiy kemani eng oxirida tark etadi.

O‘z xizmat vazifalarini oxirigacha bajarmaganlik deganda, Nizomga muvofiq, o‘z majburiyatlarini to‘la bajarmaganlik yoki to‘la bo‘lmagan hajmda bajarganlik tushuniladi.

Halok bo‘layotgan harbiy kemani tark etish uchun komanda a‘zolarining javobgarligi kemani, mol-mulkni, hujjatlarni qutqarish bo‘yicha harbiy kema komandirining buyruq va farmoyishlarini bajarmagan

vaziyatlarda yuzaga keladi. Kema komandirining komandasisiz komanda a'zolaridan hech kim kemani tark etish huquqiga ega bo'lmaydi. Bunday komanda (ruxsat) shaxsan, texnik aloqa vositalari bilan yoki boshqa harbiy xizmatchilar orqali berilishi mumkin. Agar kema komandiri halok bo'lsa yoki o'z qo'l ostidagilariga tegishli ruxsat berish imkoniyatidan mahrum bo'lsa, komanda tomonidan halok bo'layotgan kemani tark etish jinoyat tarkibini paydo qilmaydi.

JK 289-moddasining majburiy belgisi harbiy kema hayotiga xavf solayotgan holatning mavjudligidan iboratdir. Bunday holat paydo bo'lishining sabablari turlicha (bortdagi yong'in, minadagi portlash, boshqa sudna bilan to'qnashuv, tabiiy ofat va h.k.) bo'lishi mumkin va ko'rib chiqilayotgan jinoyatni kvalifikatsiyalashga ta'sir qilmaydi. Hamda oxir-oqibatda kema halok bo'ldimi yoki yo'qmi, bu dalil ham jinoyatni kvalifikatsiyalashga ta'sir etmaydi.

Halok bo'layotgan harbiy kemani komandiri o'z xizmat vazifalarini oxirigacha bajarmay amalda tark etgan vaqtdan boshlab yoki komandirning ruxsatisiz komanda a'zolari tomonidan kemani tark etgan vaqtdan boshlab jinoyat **tugallangan** deb topiladi.

Subyektiv tomondan halok bo'layotgan harbiy kemani tark etish **to'g'ri qasddan** sodir etiladi. Komandir o'z vazifalarini bajarmasdan yoki to'la hajmda bajarmasdan kemani tashlab ketayotganini angelaydi va kemani tashlab ketishni istaydi. Agar aybning ehtiyotsizligi aniqlansa, jinoiy javobgarlik mustasno etiladi.

Harbiy kemaning komanda a'zolari tomonidan tashlab ketilishi ham **to'g'ri qasd bilan** sodir etiladi. Aybdor, harbiy kema komandirining komandasi yo'q bo'lishiga qaramasdan kemani tashlab ketayotganini angelaydi va shuni istaydi. Ehtiyotsizlik shaklidagi ayblar ham jinoiy javobgarlikni mustasno etadi.

Jinoyat **subyekti** – komandir yoki harbiy kema komandasi a'zosi. Harbiy kema komandasi harbiy xizmatchilardan shakllanadi, ammo uning tarkibiga o'quv yig'inlari o'tayotgan davrdagi harbiy majburlar ham kirishlari mumkin.

JK 289-moddasi 2-qismida jangovar holatda sodir etilgan harbiy kemani tashlab ketganlik uchun javobgarlik nazarda tutiladi.

4-§. O‘zining biron a‘zosini mayib qilish yo‘li bilan yoki boshqa usulda harbiy xizmatdan bo‘yin tovlash (JK 290-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekti** harbiy xizmat o‘tashning o‘rnatilgan tartiblarini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlardir.

JK 290-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** o‘zining biron a‘zosini mayib qilish, ya‘ni harbiy xizmatchining o‘z badaniga biron shikast yetkazish yo‘li bilan, shuningdek, o‘zini yolg‘ondan kasallikka solib, hujjatlarni qalbakilashtirish yoki boshqacha aldash yo‘li bilan harbiy xizmat vazifalarini bajarishdan bo‘yin tovlashi yoki bu vazifalarni bajarishdan bosh tortish bilan bo‘yin tovlashda ifodalanadi.

O‘zining biron a‘zosini mayib qilish yo‘li bilan, ya‘ni harbiy xizmatchini harbiy xizmatni o‘tashdan o‘zining biron a‘zosiga qandaydir shikast yetkazish yo‘li bilan bo‘yin tovlashi, harbiy xizmatchi tomonidan a‘zolariga, tanasi to‘qimalariga shikast yetkazish bilan sog‘lig‘iga zarar yetkazishi, shu bilan baravar davolash davrida yoki hamma vaqt harbiy xizmat o‘tashiga to‘sqinlik qiluvchi kasallikning paydo bo‘lishi va o‘tkirlashuvi uchun sharoit yaratishdan iboratdir. O‘ziga qandaydir shikast yetkazish usullari turlicha bo‘lishi mumkin, ammo bu jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas. Bu har qanday quroldan tanaga jarohat yetkazish (to‘qimalarga o‘qotar quroldan otish, barmoqlarni bolta bilan chopish va h.k.), haqiqatda mavjud kasalni medikamentlardan noto‘g‘ri foydalanish yo‘li bilan chaqirish, sun‘iy ravishda o‘zini kasallik holatiga keltirish (metall narsalarni yutish, teri ostiga zaharli narsalarni kiritish va h.k.) bo‘lishi mumkin. Bo‘yin tovlash tarkibi uchun a‘zoni mayib qilish qanday yo‘l bilan sodir etilganligi ahamiyatsiz.

Belgilab qo‘yish lozimki, a‘zolarga shikast yetkazishda aybdorning sog‘lig‘iga zarar yetadi. Bunda, harbiy xizmatchining sog‘lig‘iga zarar o‘zi

tomonidan yoki uning iltimosiga ko'ra, boshqa shaxs tomonidan yetkazilishi holatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir ko'rsatmaydi.

Agar harbiy xizmatchiga shikast yetkazish o'zi tomonidan emas, uning iltimosiga ko'ra boshqa shaxs tomonidan yetkazilgan bo'lsa, unda bu shaxs jinoyatga sherik sifatida jinoiy javobgarlikka tortilishi lozim, jinoyatning ijrochisi deb bunday iltimos bilan murojaat qilgan harbiy xizmatchi hisoblanadi, chunki u harbiy xizmat bo'yicha vazifalarini bajarishdan bo'yin tovlagan.

A'zolariga shikast yetkazishda shikast darajasini aniqlash uchun majburiy sud-tibbiy ekspertiza va harbiy-tabib komissiyasining harbiy xizmatga layoqatliligi to'g'risidagi xulosasi talab etiladi.

Agar sog'liqqa zarar yetkazish aybdorga bog'liq bo'lmagan holatlar-da sodir bo'lsa, masalan, aybdor yaroqsiz vositalarni qo'llashi munosabati bilan yoki sog'liqqa yetkazilgan zarar o'z tavsifi bilan harbiy xizmat bo'yicha u yoki bu vazifalarni bajarishdan ozod etish uchun asos bermasa, aybdorning harakati ushbu jinoyatni sodir etish uchun suiqasd deb tan olinishi mumkin.

O'zini yolg'ondan kasallikka solish ostida harbiy xizmat o'tashga majbur bo'lgan shaxsda harbiy xizmat o'tashiga to'sqinlik qiluvchi qanaqadir kasallikning borligi to'g'risida tibbiy komissiyani aldash (ko'r, kar, ruhiy kasal va h.k. deb ko'rsatish), boshqa har qanday usullar bilan adashtirish yoki mavjud bo'lgan kasallik simptomlarini ongli ravishda oshirib ko'rsatish («kasallik aggravatsiyasi» deb ataluvchi) yotadi. Bunda ham somatik, ham psixik, nevrologik kasalliklar simulyatsiya qilinishi mumkin.

Vijdonan, xizmat vazifalarini bajarishdan bo'yin tovlash maqsadlarisiz, mavjud yoki taxmin etilayotgan kasallikka nisbatan adashish jinoyat tarkibini hosil qilmaydi.

Hujjatlarni qalbakilashtirish harbiy xizmatdan bo'yin tovlash usuli sifatida harbiy xizmat bo'yicha vazifalarni bajarishdan qonunga xilof ravishda ozod bo'lish uchun mazmunan qalbaki hujjatlarni qo'mondonlikka taqdim etishda ifodalanadi. Bunday hujjatlar tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma qalbaki tug'ilgan sanasi bilan, muddatidan avval

zaxiraga bo'shsh maqsadida, ikkinchi farzand tug'ilganligi to'g'risidagi qalbaki guvohnoma, sog'lig'i to'g'risidagi qalbaki tibbiy ma'lumotnoma, huquqni muhofaza qilish organlariga yolg'on chaqiruv, oiladagi o'ylab topilgan baxtsizlik to'g'risidagi telegramma va harbiy xizmatdan ozod bo'lish uchun asos bo'ladigan boshqa qalbakilashtirilgan har qanday hujjat bo'lishi mumkin.

«Barcha hollarda qalbakilashtirishning mohiyati shundaki, hujjatda ko'rsatilgan voqea va hodisalar amalda mavjud bo'lmasdan, ularga tayangan holda harbiy xizmatchi o'zini vaqtincha yoki doimiy ravishda harbiy xizmat majburiyatlarini o'tashdan ozod qilishni iltimos qiladi».

Qalbaki hujjat aybdor tomonidan yoki uning iltimosiga ko'ra, boshqa shaxs tomonidan tayyorlanishi mumkin. Bunda oxirgisining harakatida zarur belgilar mavjudligi JK 228-moddasi bo'yicha (Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish) hamda JK 28-moddasi tegishli qismiga suyanib **290-moddasi** bilan birgalikda kvalifikatsiyalanishi lozim.

Agar qalbaki hujjat harbiy xizmatchi yoki harbiy xizmatga majbur shaxs tomonidan tayyorlansa, unda uning harakatlari JK 228-moddasi bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiyani talab etmaydi, chunki ular bo'yin tovlashning ushbu usuli bilan to'la qamrab olinadi.

Bo'yin tovlashning usuli sifatida **boshqa aldov** harbiy xizmatni o'tashdan ozod bo'lish maqsadida voqea yoki hodisalar to'g'risida bila turib, yolg'on ma'lumot yetkazish yoki mazkur holatlar haqida xabar berishga burchli bo'la turib, o'sha maqsadda ongli ravishda xabar bermaslikdan iborat (masalan, zaxiraga ertaroq bo'shsh maqsadida oliy ma'lumoti borligi to'g'risida yolg'on ma'lumot berish, xuddi shu maqsadda o'zining o'rniga boshqa shaxsni tibbiy ko'rikka yuborish).

Harbiy xizmatdan bo'yin tovlash maqsadida lavozimli shaxsni sotib olish holatlari boshqa aldov sifatida ko'rib chiqiladi. Agar bunda pora berish (olish) mavjud bo'lsa, u holda javobgarlik sodir etilgan jinoyatlar jami tariqasida belgilanadi.

«Harbiy xizmat vazifalarini o'tashdan **bosh tortish** – harbiy xizmatchi tomonidan ochiqdan-ochiq, yolg'on ishlatmasdan, og'zaki, yozma yoki boshqa yo'l bilan harbiy xizmatni o'tash yoki uning ba'zi maj-

buriyatlarini bajarishni istamaslikda va amalda ularni bajarmay qo'yishda namoyon bo'ladi».

Bosh tortish ikki shaklda namoyon bo'lishi mumkin:

birinchidan, u ochiq arizada, ularni bajarishni keyinchalik amalda to'xtatish bilan, harbiy xizmat majburiyatlarini o'tashni istamasligini ifodalashi mumkin. Agar harbiy xizmatni o'tashni istamasligi to'g'risidagi ochiq ariza ularni amaldagi bajarilmasligi bilan kuzatilmasa, bunday harakatlar ko'rib chiqilayotgan jinoyat tarkibini paydo qilmaydi;

ikkinchidan, bosh tortish bu to'g'risida ochiq arizada kuzatilmasdan, harbiy xizmat majburiyatlarini bajarishni amalda to'xtatish bilan ifodalanishi mumkin.

Komandirning aniq talabini bajarishni istamaslik yoki amalda bajarmaslik harbiy xizmat vazifalarini o'tashdan bosh tortish bo'lmaydi (masalan, safarga ketish, sutkali naryadga kirish va h.k.). «Bunday harakatlar bo'ysunmaslik jinoyati tarkibini tashkil qiladi, chunki bunday holda qo'mondon talabi buyruq xususiyatiga ega bo'lib, harakat esa, harbiy xizmatni o'tashdan bosh tortishga emas, balki buyruqni ochiqdan-ochiq bajarmaslikka qaratilgan».

Agar harbiy xizmat vazifalarini bajarishdan bosh tortish aybdor tomonidan, unga qonunchilikka va Qurolli Kuchlarning Umumharbiy Nizomiga muvofiq maxsus vazifalar yuklangan davrda sodir etilsa (jangovar navbatchilik, sutkali yoki garnizon naryadida va h.k.), tegishli jinoyatlarning belgilari mavjud bo'lganda javobgarlik JK 291–294-moddalari bo'yicha jinoyatlar jami tariqasida belgilanadi.

Harbiy xizmatchini o'zining biron a'zosini mayib qilish yo'li bilan o'ziga qandaydir shikast yetkazishi, kasallikning simulyatsiyasi, qalbaki hujjatlarning taqdim etilishi yoki boshqa yolg'on dalillar jinoyatni paydo qilmaydi, bu yo'l bilan harbiy xizmat vazifalarini bajarishdan bo'yin tovlash, ya'ni u yoki bu harbiy vazifalarni bajarishni amalda to'xtatishini paydo qiladi.

Harbiy xizmatdan bo'yin tovlash a'zolariga shikast yetkazish yoki kasallikni simulyatsiya qilish, harbiy xizmat o'tashdan bo'yin tovlash maqsadida hujjatlarni qalbakilashtirish, harbiy xizmat o'tashdan bosh tortish vaqtidan boshlab **tugallangan** deb topiladi.

Jinoyat **subyektiv tomondan to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor harbiy xizmatdan qonunga xilof ravishda ozod etilishga yetishmoqchiligini anglaydi va shuni istaydi. Jinoyat **maqsadi** – harbiy xizmat vazifalarini o'tashdan bo'yin tovlash.

Jinoyat **subyektiv** harbiy xizmatda turgan shaxs hisoblanadi. Bu chaqiruv bo'yicha harbiy xizmat o'tayotgan oddiy askar va serjant (starshina) tarkibidagi shaxslar hamda harbiy unvonidan va qo'shin turidan qat'i nazar harbiy xizmatni kontrakt (shartnoma) bo'yicha o'tayotgan harbiy xizmatchilar bo'lishlari mumkin. Ko'rib chiqilayotgan jinoyat subyektlari, harbiy yig'inga chaqirilgan, zaxirada bo'lgan fuqarolar ham bo'lishlari mumkin.

JK 290-moddasida nazarda tutilgan jinoyat bu jinoyat ishtirokchilari deb topilgan harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatchi bo'lmagan shaxslar ishtirokida sodir etilishi mumkin.

JK 290-moddasi 2-qismida jangovar vaziyatda sodir etilgan harbiy xizmatni o'tashdan bo'yin tovlash uchun oshirilgan javobgarlik nazarda tutilgan.

(«Jangovar vaziyat» tushunchasi to'g'risida JK 279-moddasi tahlilida aytilgan edi.)

5-§. Qorovul xizmatini o'tash qoidalarini buzish (JK 291-moddasi)

Ushbu jinoyatning **asosiy bevosita obyektiv** umumiy tartibda harbiy xizmatni o'tashning tarkibiy qismi kabi qorovul xizmatini o'tashning o'rnatilgan tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardan iboratdir. Bu tartibga qat'iy rioya etish qo'riqlashga ishonilgan obyektivning xavfsizligini va muhofaza etilishini, harbiy xizmatchilar orasida yuqori harbiy tartibni ushlashni ta'minlaydi. Bunday tartiblar qorovul (soqchilik) xizmatini o'tashning shaxslar alohida huquqiy holati, ularga maxsus funksiyalarning yuklanishi, ular bilan bog'liq holda ular ma'lum bo'lgan maxsus huquq va majburiyatlar, qorovul (soqchilik) xizmatini o'tashning nizom asosida chiqarilgan va takomillashtirilgan tegishli buyruqlar, farmoyishlar bilan aniq tartibga solinganligi bilan tavsiflanadi.

Qorovul xizmatini o'tash qoidalarini buzishning **qo'shimcha bevosita obyekt** deb, qorovulga qo'riqlashga topshiriladigan ma'lum obyektlarning xavfsizligi, jamiyat xavfsizligi va tartiblarini (masalan, gaupvtvaxtada saqlanayotgan shaxslarni qo'riqlashni) tushunish lozim.

Jinoyatning **obyektiv tomoni** zararli oqibatlar kelib chiqishi oldini olish uchun tayinlangan qorovul tarkibiga kirgan shaxs tomonidan qorovul (soqchilik) xizmatini o'tashning nizom qoidalarini buzishi natijasida zararli oqibatlar kelib chiqishida ifodalanadi.

Qorovul xizmati o'zida qonunchilik va Qurolli Kuchlar Umumharbiy Nizomlari bilan tartibga solingan harbiy va davlat obyektlarini hamda gaupvtvaxtada va harbiy intizomiy qismida saqlanayotgan shaxslarni qo'riqlash bo'yicha maxsus xizmatni ifodalaydi. Qorovul xizmatini o'tash jangovar vazifani bajarish hisoblanadi va shaxsiy tarkibdan barcha Nizom qoidalariga aniq rioya etishni, yuqori ogohlikni, aniq yechimni hamda tashabbusni talab etadi.

Qorovul xizmati qo'riq ostida saqlanayotgan va jinoiy-tuzatish muassasalarida jazo o'tayotgan qamoqqa olinganlarni qo'riqlash va tashish bo'yicha xizmat hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi IIV ichki qo'shin harbiy xizmatchilari tomonidan amalga oshiriladi.

Harbiy kemalardagi **soqchilik xizmati** qorovul xizmatiga tenglashtiriladi. U kemadagi navbatchilikning alohida turi bo'lib hisoblanadi va jangovar texnikani va kemaning o'zini qo'riqlash hamda uning doimiy jangovar holatini ta'minlash vazifasiga egadir. Kema bo'yicha soqchilik (butun kema bo'yicha) va maxsus soqchilik (kemaning jangovar qismlari va xizmatlari bo'yicha) farqlanadi.

Qorovul (soqchilik) xizmatini o'tash qoidalari qonunchilikda, Qurolli Kuchlar Nizomida, IIV me'yoriy hujjatlarida va ularning bajarilishi bo'yicha chiqarilgan turli buyruqlar, farmoyishlar va h.k.da belgilangan. Shu munosabat bilan jinoyat tarkibi belgilarini aniqlash shu vaziyatda buzilgan qorovul xizmati qoidalarining mazmuniga bog'liq bo'ladi.

Moddaning dispozitsiyasi blanketlidir. Jinoiy javobgarlik yuzaga kelishi uchun Nizomning qaysi konkret qoidalari, yozma farmoyishlarning talablari va postlar tabellarida va instruksiyalarda ko'rsatilgan qorovul shaxsning alohida vazifalari buzilganligini har tomonlama aniqlash lozim.

Qorovul (soqchilik) xizmati ustav qoidalarining buzilishi ham harakatda, ham harakatsizlikda ifodalanishi mumkin: postdan o'zboshimchalik bilan ketish, postdagi uyqu, e'tiborsizlik, postda begonalar bo'lishiga yo'l qo'yish, qo'riqlanayotgan obyektдан mulkni o'qirlash va h.k. Gauptvaxtada va intizomiy harbiy qismda saqlanayotgan shaxslarni qo'riqlash bo'yicha hamda qo'riq ostida saqlanayotgan yoki ozodlikdan mahrum qilish muassasalarida jazo o'tayotgan mahkumlarni qo'riqlash va tashish qorovul tarkibidagi harbiy xizmatchilar tomonidan qorovul xizmati nizom qoidalarining buzilishi, qamoqdagilarga zo'rlik ishlatish, ularning qadr-qimmatini kamsitish, ular huquqlarini va qonuniy manfaatlarini kamsitish va h.k. yo'llar bilan sodir etilishi mumkin.

JK 291-moddasi bo'yicha jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun qorovul xizmatini o'tashning boshlanish va oxirgi vaqtini aniq belgilash zarur bo'ladi.

Qorovul tarkibidagi shaxsning qorovul xizmati bo'yicha vazifalarini bajarishga kirishish vaqti bo'lib razvod vaqtida qorovul bo'yicha (qism bo'yicha navbatchi) navbatchini kutib olish uchun «yig'in» komandasi berilgan vaqt hisoblanadi. Shu vaqtdan boshlab qorovullar qorovul bo'yicha (qism bo'yicha navbatchi) navbatchining hukmi ostiga o'tadi.

Qorovul tarkibidagi xizmat o'tashning oxirgi vaqti bo'lib qorovul almashgan komanda boshlig'i tomonidan smenadan so'ng qismga ketish uchun komanda berilgan vaqt hisoblanadi. Shu vaqtda qorovul ko'rsatilgan shaxsning boshqaruvidan chiqadi.

Agar qorovul xizmatini o'tash qoidalarini razvod boshlanishi oldidan yoki qorovul almashganidan so'ng buzilsa, unda harbiy xizmatchi **JK 291-moddasi** bo'yicha javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Masalan, razvodga borishdan bosh tortish va qorovullikka kirishmagani uchun harbiy xizmatchi JK 279-moddasi bo'yicha buyruqqa bo'ysunmaganlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin.

Qorovul xizmatini o'tash qoidalarining buzilishi va kelib chiqqan zararli oqibatlar orasidagi sababiy bog'lanish ko'rib chiqilayotgan jinoyat tarkibining zaruriy belgisi bo'lib hisoblanadi.

Ko'rib chiqilayotgan moddaning mazmunidagi **zararli oqibatlar** – bular qorovul tarkibida turgan shaxslar ogohlantirishi lozim bo'lgan vazifalarga kirgan oqibatlardir. Bu, masalan, qo'riqlanayotgan obyektдан

harbiy mulkni o'qirlash, qamoqqa olinganning konvoy qilinayotgan vaqtda qochishi, patrul naryadining harakatsizligi oqibatida harbiy xizmatchi tomonidan jamiyat tartiblarining qo'pol ravishda buzilishi va h.k.lar qorovul qo'riqlayotgan obyektlarga zarar sifatida, qamoq ostida saqlanayotgan shaxslarga kuch ishlatish yoki boshqa g'ayriqonuniy choralar bilan ta'sir etish hamda qo'riqdan g'ayriqonuniy qisqa vaqtga ozod etish holatlari sifatida ko'rib chiqilishi lozim.

Zararli oqibatlarning kelib chiqishi ko'rinishidagi belgilar qorovul tarkibiga kirgan har bir shaxsga nisbatan ko'rilmog'i lozim. Agar, zararli oqibatlar oldini olish qorovul emas, balki qaysidir qo'riqchi yoki qorovul boshlig'ining majburiyatiga kirsa, u tomonidan qorovul xizmatini o'tash qoidalarini buzganligi mavjud bo'lsa, **JK 291-moddasi 1-qismi** bilan u javobgarlikka tortilishi lozim.

Agar tahlil etilayotgan jinoyatning sodir etilishi natijasida ularning oldini olish qorovulning vazifasiga kirmagan boshqa zararli oqibatlarga sabab bo'lgan bo'lsa, unda qilmish qorovul xizmatini o'tash qoidalarining buzilishi tarkibini hosil qilmaydi. Masalan, qo'riqchi, postga yaqinlashayotgan begona odamni sezib, ogohlantirishsiz qurol ishlatadi va tajovuzkorni o'ldiradi. U qorovul xizmatini o'tash qoidalarining buzilishiga yo'l qo'ygan bo'lsa-da, **JK 291-moddasida** nazarda tutilgan jinoyat tarkibi uning harakatlarida mavjud emas, chunki zarar qorovul qo'riqlamayotgan obyektga yetkazildi.

Qo'riqlanayotgan obyektidagi muhr yoki plombani buzish, qulflarni sindirish, qo'riqlanayotgan obyektga real zarar yetkazmasdan ularga qo'riqchi yoki boshqa shaxsning kirishi zararli oqibatlar deb topilmaydi va JK 291-moddasi 7-qismi bilan javobgarlikni keltirib chiqarmaydi.

Biroq, ayrim vaziyatlarda qo'riqchi oldini olishi lozim bo'lgan qo'riqlanayotgan obyektga begona shaxsning kirishining o'zi zararli oqibat deb ko'rib chiqilishi lozim. Masalan, qorovul oldini olishi lozim bo'lgan qo'riqlanayotgan maxfiy obyektga begona shaxsning kirishining o'zi zararli oqibat deb qaralishi lozim.

Qorovul (soqchilik) xizmati ustav qoidalarining buzilishi faqat bir sharoitda, agar bu qilmish ushbu qorovul ularning oldini olish uchun

tayinlangan bo'lsa va zararli oqibatlarni yuzaga keltirsa **tugallangan** jinoyat tarkibini hosil qiladi.

Agar qorovul (soqchilik) xizmati ustav qoidalarining buzilishidan zararli oqibatlar kelib chiqmasa, unda **JK 291-moddasi** bo'yicha javobgarlik mustasno etiladi. Qorovul (soqchilik) tarkibidagi harbiy xizmatchilar bunday buzilishlar uchun O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizomiy Nizomi bo'yicha intizomiy javobgarlikka tortilishlari mumkin.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etilishi mumkin. Ayrim qoida buzishlar faqat qasddan sodir etilishi mumkin (postdan ketish, qo'riqlanayotgan obyektдан o'qirlash va h.k.). Boshqalari esa ehtiyotsizlik oqibatida sodir etiladi (qurol bilan ehtiyotsiz munosabatda bo'lish, postda xizmat o'tayotganda yetarli darajada ogoh bo'lmaslik va h.k.). Ammo ham qasddan, ham ehtiyotsizlik orqasida sodir etiladigan buzilishlar bor (postdagi uyqu, patrul qilish yo'li bilan xizmat o'tashda qo'riqchi yo'nalishining buzilishi va h.k.). Og'ir oqibatlarga nisbatan ayb ko'pincha, ehtiyotsizlik ko'rinishida ifodalanadi, ammo qasddan ham sodir etilishi mumkin.

Jinoyatning **motiv** va **maqsadi** turlicha bo'ladi va qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta'sir ko'rsatmaydi.

JK 291-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **subyeksi**, faqat qorovul yoki soqchilik (qorovul boshlig'i, razvodchi, qo'riqchi, qorovul va boshqalar) tarkibidagi shaxslar bo'lishlari mumkin. Qorovul (soqchilik) xizmatini (masalan, garnizon komendanti, garnizon gaupvaxtasi boshlig'i) tashkil etishga va holatiga javobgar bo'lgan, ammo qorovul (soqchilik) tarkibiga kirmaydigan lavozimli shaxslar ko'rib chiqilayotgan jinoyatning subyektlari bo'la olmaydilar. Bu shaxslar tomonidan qorovul (soqchilik) xizmati nizom qoidalarining buzilishi tegishli belgilari yetarli bo'lganida harbiy mansabdorlik jinoyati sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Qonunchilik va Qurolli Kuchlarning Umumharbiy Nizomi harbiy qasam qabul qilmaganlarni harbiy xizmat qorovuliga tayinlashni taqiqlaydi, qasamyod qabul qilish – shaxsni ko'rib chiqilayotgan jinoyat subyeksi deb topilishi uchun zaruriy shartdir.

Jinoyatning bajaruvchisi qorovul xizmati o'tash nizom qoidalarining buzilishida ifodalanayotgan, qorovul xizmati o'tayotgan shaxs bo'ladi, ularning ishtirokchilari esa, qorovul tarkibiga kirmagan ham harbiy xizmatchilar, ham fuqaro shaxslar bo'lishlari mumkin.

Qorovul tarkibiga kiruvchi shaxslar, ko'rib chiqilayotgan jinoyat qamrab olmaydigan boshqa jinoyatlarni sodir etishlari mumkin, ulardan biri qorovul xizmatini o'tash qoidalarini buzish bilan birgalikda kvalifikatsiya qilinadi, boshqasi esa, qo'shimcha kvalifikatsiya qilishni talab etadi.

Qorovul tomonidan qorovulga qo'riqlashga topshirilgan mulkni qo'riqlash begonaning mulkini talon-toroj qilish va qorovul xizmati o'tashning qoidalarini buzishdan tashkil topgan jinoyatlar yig'indisi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Shu bilan bir vaqtda, qorovul tomonidan atrofdagilar uchun orttirilgan xavf tug'diruvchi qurol, moddalar va narsalar bilan muomalada bo'lish qoidalarining buzilishi faqat JK 297-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi (atrofdagilar uchun orttirilgan xavf tug'diruvchi qurol, moddalar va narsalar bilan munosabat qoidalarining buzilishi), agar bunda qo'riqlanadigan obyektlar xavfsizligini ta'minlovchi qorovul xizmatini o'tash qoidalarini amalda buzilmagan bo'lsa (masalan, qo'riqchi qurol bilan o'ynab, undan o'q uzib, unga qo'riqlash uchun topshirilgan yoqilg'i-moylash materiallari omborini yo'qqa chiqarsa), agar bu qoidalar buzilgan bo'lsa, bunda qilmish bir vaqtning o'zida qorovul xizmatini o'tash qoidalarining buzilishiga olib keladi, qilmishning tegishli belgilari mavjud bo'lganda JK 296-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi (Harbiy mulkni nobud qilish yoki unga shikast yetkazish).

Qo'riqchi (qorovul) tomonidan qo'riqlanayotgan obyektningina emas, balki joylashgan harbiy qismni tashlab ketish ham jinoyatlar jami bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim: agar tegishli zarar yetkazilgan bo'lsa, harbiy xizmatdan bo'yin tovlashning tegishli turi (masalan, dezertirlik) va qorovullik xizmati qoidalarining buzilishi.

JK 291-moddasi 2-qismida quyidagi oqibatlariga olib kelgan qorovullik xizmatini o'tash qoidalarining buzilishi uchun javobgarlik nazarda tutilgan:

- a) badanga og'ir shikast yetkazilishi;
- b) odam o'lishi;
- v) boshqa og'ir oqibatlar.

Og'ir oqibatlar mavjudligi to'g'risidagi masala (**JK 291-moddasi 2-qismi «v» bandi**) baholash tavsifiga ega bo'lib, oqibatlarning og'ir deb topilishi huquqbuzarlikning aniq holatlariga bog'liq va maxsus xizmatni o'tashga qarshi boshqa jinoyatlardagi kabi ko'rsatkichlar bilan amalga oshiriladi.

Qorovul (soqchilik) xizmatini o'tashning nizom qoidalari buzilishining **boshqa og'ir oqibatlariga**: bir necha shaxslarga o'rta va og'ir tan jarohatlari yetkazish, bir necha kishining halokati, qo'riqlanayotgan obyektga ko'p va juda ko'p miqdorda zarar yetkazish, obyektning jangovar tayyorgarligini buzish yoki e'lon qilinganida uni ta'minlamaslik, tayinlangan joyga qo'shinni o'z vaqtida harakatlantirmaslik, qismlar boshqaruvining tashkil etilishini buzish, qo'riqlanayotgan obyektдан qurol, o'q-dori va boshqa harbiy mulkni o'qirlash, jangovar texnikani ishdan chiqarish, harbiy qism bayrog'ini yo'qotish, qamalganning qamoqdan qochishi va h.k. kiradi.

Qorovul (soqchilik) tarkibidagi shaxs tomonidan qo'riqlanayotgan obyektдан qurol, o'q-dori, portlovchi moddalar va portlatish qurilmalarini talon-toroj qilish **JK 291-moddasi 2-qismi «v» bandi** va 247-moddasi bo'yicha jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Qorovul (soqchilik) xizmatining nizom qoidalari buzilishi g'ayriqonuniy bakteriologik, kimyoviy va boshqa xil yalpi qirg'in qurol turlarini egallab olish bilan kuzatilsa, bunday hollarda jinoyatlar **JK 291-moddasi 2-qismi «v» bandi** va 2551-moddasi bo'yicha jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilinishi lozim (bakteriologik, kimyoviy va boshqa xil yalpi qirg'in qurollari turlarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish,

to'plash, olish, birovga o'tkazish, saqlash, qonunga xilof ravishda egallash va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etish).

(Bakteriologik, kimyoviy va boshqa ommaviy qirg'in qurol turlari to'g'risida kengroq JK 255-moddasi tahliliga qarang.)

JK 291-moddasi 3-qismida jangovar vaziyatda sodir etilgan qorovul xizmatini o'tash qoidalarining buzilishi uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

6-§. Ichki xizmatni o'tash yoki garnizonda patrullik qilish qoidalarini buzish (JK 292-moddasi)

Jinoyatning **asosiy bevosita obykti** – O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari ichki xizmat Nizomi bilan o'rnatilgan ichki xizmat o'tashning va garnizonda patrullik qilishning tartiblarini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir. O'rnatilgan qoidalarni buzish harbiy xizmatchilar orasida yoki ular ishtirokida tartibsizliklar paydo bo'lishi, harbiy qismlar va bo'linmalarning jangovar qobiliyatini pasaytirib, qurol va o'q-dorilarning o'qirlanishiga sharoit yaratadi, harbiy xizmatchilar orasida nizomga xilof o'zaro munosabatlarning va h.k. paydo bo'lishi xavfini tug'diradi. Shu munosabat bilan ko'rib chiqilayotgan jinoyatning **qo'shimcha bevosita obykti** jamoat tartibini, harbiy mulkning saqlanishini va h.k.ni ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir.

JK 292-moddasida nazarda tutilgan jinoyat **obyektiv tomondan** ichki xizmat ustavi qoidalarini, shuningdek, garnizonda patrullik qilish qoidalarini zararli oqibatlar keltirib chiqaradigan tarzda buzishda ifodalanadi.

Ichki xizmat ustavi qoidalari O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari ichki xizmati Nizomi bilan belgilanadi, unga muvofiq, ichki tartibni, bino va qism (bo'linma) mulkini qo'riqlashni ta'minlash uchun hamda boshqa ichki xizmat vazifalarini bajarish uchun harbiy xizmatchilardan sutkali naryad tayinlanadi (qorovul va soqchilikdan tashqari). Qism bo'yicha navbatchidan, uning yordamchisidan, bo'linma bo'yicha navbatchidan, kunlik navbatchidan va boshqa harbiy xizmatchilardan tarkib topgan bu naryad, ichki tartib-qoidalarining

bajarilishini ta'minlaydi, qismning nazorat-o'tkazuv punktini boshqaradi, shaxsiy tarkibni, qurolni, o'q-dorilarni, harbiy qism binosi va mulkini qo'riqlaydi hamda ichki xizmat bo'yicha boshqa vazifalarni bajaradi.

Ichki xizmat o'tashning nizom qoidalarini buzish rota bo'yicha navbatchi tomonidan kazarmadagi urishishga to'sqinlik qilmaganida, kundalik navbatchining o'z postidan o'zboshimchalik bilan ketishida, bo'linmada sodir etilgan jinoyat to'g'risidagi axborotni qism komandiridan yashirishda va shunga o'xshash buzilishlarda, xizmat binosidagi yong'inni o'chirishni tashkil etishda qism bo'yicha navbatchining harakatsizligida va boshqalarda ifodalanadi.

Qorovul (soqchilik) tarkibidagi harbiy xizmatchi xizmatni o'tash nizom qoidalarini buzishini JK 291-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilish lozim.

Ushbu modda blanket dispozitsiyali. Shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun ichki xizmat Nizomining qaysi moddasi buzilganligi zararli oqibatlar yuzaga kelganligi va ular o'rtasidagi sababiy aloqalar aniqlanishi lozim.

Ichki xizmat qoidalarining buzilishi, agar buning natijasida ularning oldini olish aybdorning vazifasiga kirgan bo'lib, zararli oqibatlarga olib kelgan bo'lsa, jinoyat **tugallangan** hisoblanadi.

Bunday **zararli oqibatlar** qatoriga quyidagilar kiritiladi: kun tartibini yoki harbiy tadbirlarni buzish; harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga oid nizom qoidalarini buzish; bo'linmadagi harbiy xizmatchiga og'ir yoki o'rta og'irlikdagi tan jarohati yetkazish; bo'linma shaxsiy tarkibidan kimningdir harbiy xizmat o'tashdan bo'yin tovlashi yoki o'q-dorilarni, qurollarni yoki katta miqdordagi boshqa harbiy mulkni o'qirlash va h.k.

Ichki xizmat o'tash qoidalarini buzish sodir bo'lsa, ammo zararli oqibatlar yuzaga kelmasa, aybdor ichki xizmat Nizomiga muvofiq intizomiy javobgarlikka tortiladi.

Patrullik qilish har bir garnizonda garnizon boshlig'ining buyrug'i bilan harbiy xizmatchilar tomonidan ko'chalarda va boshqa jamoat

joylarida, vokzallarda, bekatlarda va h.k.larda harbiy intizomga rioya qilish va tartibini saqlashni nazorat qilish uchun tashkil etiladi.

Garnizonda patrullik qilishning nizom qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining garnizon va qorovul xizmati Nizomida belgilangan va u patrul boshlig‘i va bir necha patrullik qiluvchidan tarkib topgan patrullik qilish naryadi tarkibidagi harbiy xizmatchilar uchun majburiy xisoblanadi. Garnizon patrullaridan tashqari aholi punktida patrullik qilish uchun harbiy komendaturada transport vositasiga ega bo‘lgan zaxira patruli bo‘lmog‘i lozim.

Garnizonda patrullik qilish ustav qoidalarini buzish aholi punktlarida bezorilik holatlarining oldini olish bo‘yicha choralar ko‘rmaslikda, shaxslarni asossiz ushlashda, qurolni qonunga xilof ravishda ishlatishda, spirtli ichimliklar ichishda, patrullik qilish jadvalini bajarmaslikda va h.k.larda ifodalanishi mumkin.

Agar patrul oldini olish uchun harakat qilayotgan oqibat kelib chiqsa, patrullik qilishning nizom qoidalarini buzish jinoyati **tugallangan** deb topiladi.

Bunday **zararli oqibatlarga** quyidagilar kiradi: harbiy xizmatchilar orasidagi mushtlashuv, harbiy xizmatchilar va fuqaroviy aholi o‘rtasidagi nizolar, ular tomonidan sodir etilgan o‘qirliklar va boshqa jinoyatlar, ushlangan shaxs sog‘lig‘iga asossiz og‘ir va o‘rtacha og‘ir zarar yetkazish va h.k. Sog‘liqqa zarar yetkazish shaxsga qarshi jinoyatlar to‘g‘risidagi moddalar bo‘yicha qo‘shimcha kvalifikatsiya qilishni talab etadi. Kelib chiqqan oqibat va yo‘l qo‘yilgan qoida buzilishlar orasidagi sababiy aloqalarni aniqlash majburiy. Bu aloqa patrullik qilayotganda oldini olishning obyektiv imkoniyati mavjudligini va boshqa oqibatlarni ko‘zda tutadi.

Ichki xizmat o‘tash va garnizonda patrullik qilish nizom qoidalarini buzib harbiy mulkni talon-toroj qilgan va harbiy xizmat o‘tashdan bo‘yin tovlagan yoki boshqa jinoyatlar sodir etgan shaxsning qilmishi jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

JK 292-moddasida nazarda tutilgan jinoyat **subyektiv tomondanto'g'ri** va **egri qasd** bilan sodir etiladi, ammo aybdorning qilmishi oqibatlariga munosabati **ehtiyotsizlikdan** ham bo'lishi mumkin.

Kvalifikatsiya uchun **motiv** va **maqsad** ahamiyatga ega emas.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyatning **subyektiv** qismning sutkalik naryad tarkibiga kiruvchi yoki patrul naryadi tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchi hisoblanadi. Bu qism bo'yicha navbatchi va uning yordamchisi, navbatchi va bo'linma bo'yicha kundalik navbatchi, nazorat-o'tkazish va nazorat-texnik punktlari bo'yicha navbatchilar, oshxonadagi navbatchi va ishchilar va h.k. javobgarlikka tortiladilar.

Qorovul (soqchilik) tarkibiga kiruvchi shaxslar ushbu jinoyatning subyektlari bo'lmaydilar, chunki qorovul xizmatini o'tash nizom qoidalarini buzganlik uchun ular JK 291-moddasi maxsus moddasi bo'yicha javobgarlikka tortiladilar.

Shuningdek, ishga naryadga tayinlangan harbiy xizmatchilar ushbu jinoyatning subyektlari deb tan olinmaydilar.

7-§. Jangovar navbatchilikni o'tash qoidalarini buzish (JK 293-moddasi)

Jinoyatning **asosiy bevosita obyekti** –O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari ichki xizmat Nizomi bilan va har bir qo'shin uchun qo'llanadigan qo'mondonlik me'yoriy hujjatlari bilan o'rnatilgan jangovar navbatchilikni o'tash tartiblarini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir. Ushbu jinoyatning **qo'shimcha bevosita obyekti** O'zbekiston Respublikasi xavfsizligini, chegaralari daxlsizligini, suverenitetini va manfaatlarini hamda odamlar hayoti, sog'lig'i va h.k.larni ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar bo'lishi mumkin.

JK 293-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** qo'riqlanayotgan obyektga zarar yetkazuvchi yoki jangovar vazifaning bajarilmay qolishiga olib keluvchi jangovar navbatchilikni (jangovar xizmatni) o'tash qoidalarini buzishda ifodalanadi.

Jangovar navbatchilik (jangovar xizmat) tarkibiga jangovar bo'linma (raschyot), kema va uchuvchi apparatlar ekipajlari, boshqaruv

punktlarining, jangovar ta'minlash va xizmat ko'rsatish kuchlarining navbatchi smenalari kiradi. Jangovar navbatchilikni bevosita tashkil etish uchun harbiy qism komandiri javobgardir.

Jangovar navbatchilik strategik ahamiyatga ega bo'lgan raketa qo'shinlarida, havo mudofaasiga qarshi qo'shinlarda, boshqa turdagi qo'shinlarda tashkil etiladi. Turli qo'shinlardagi jangovar navbatchilik (jangovar xizmat) o'tash tartiblari O'zbekiston Respublikasi tegishli turdagi Qurolli Kuchlarining Bosh qo'mondonlarining buyruqlari bilan o'rnatiladi.

Jangovar navbatchilik (jangovar xizmat) o'tash qoidalarining buzilishi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining ichki xizmat Nizomida bayon etilgan me'yorlarni hamda tegishli buyruqlar, instruksiyalar bilan o'rnatilgan tartibda belgilangan maxsus funksiyalarini, navbatchi kuchlar va vositalar tarkibidagi harbiy xizmatchilar uchun boshqa me'yoriy idoraviy hujjatlar bilan belgilangan vazifalarni bajarmaslikdan yoki yetarli darajada bajarmaganlikdan tashkil topgan. Bunday qoida buzish jangovar postdan ketish bilan, postda uxlab qolish, navbatchilikda spirtli ichimliklar ichish, jangovar navbatchilik o'tayotgan joyga begonalar kirishiga yo'l qo'yish, texnik vositalarni buzish, maxsus apparaturadan foydalanish qoidalarini bajarmaslik, asboblar ko'rsatkichlarini nazorat qilmaslik, olingan komandalarni bajarmaslik va boshqalarda ifodalanishi mumkin. Bunda qoida buzish jangovar navbatchilik o'tayotgan vaqtda sodir bo'lishi lozim, aybdor jangovar postda bo'lganmi yoki dam olayotgan smenadami, bu kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Ko'rib chiqilayotgan modda blanket dispozitsiyalidir. Har bir aniq holatni **JK 293-moddasi 1-qismi** bo'yicha kvalifikatsiya qilishda jangovar navbatchilik (jangovar xizmat) o'tashning qaysi qoidasi buzilganligini, qo'riqlanayotgan obyektga zarar yetkazilganligini yoki jangovar vazifa bajarilmaganligini va ular orasidagi sababiy bog'lanishni aniqlamoq zarur.

Ko'rsatilgan zarar yetkazilishi to'g'risidagi masala baholash tavsifiga ega va har bir alohida vaziyatda harbiy xizmatchi jangovar navbatchilik (jangovar xizmat) o'tayotganda O'zbekiston Respublikasiga to'satdan

qilingan hujumni o'z vaqtida payqash va uning xavfsizligini ta'minlash uchun mo'ljallangan vazifalar xususiyatlarini hisobga olib hal qilinadi.

Qo'riqlanayotgan obyektlarga zarar yetkazish yoki jangovar topshiriqni bajarmaslik navbatchilik kuchlari va vositalari boshqaruvi punkti bilan aloqani yo'qotishda, chet el uchuvchi apparati yoki suv kemasi bilan davlat chegaralari kesib o'tilganligi to'g'risidagi axborotni o'z vaqtida bermaslik, bo'linmaning oldiga qo'yilgan vazifalarni to'la hajmda bajarish qobiliyatining real pasayishi va h.k.da ifodalanadi.

Agar jangovar navbatchilik (jangovar xizmat) o'tash qoidalarining buzilishi yoki jangovar vazifani bajarmaslik qo'riqlanayotgan obyektga zarar keltirmasa, aybdor shaxs intizomiy javobgarlikka tortiladi.

Jangovar navbatchilik (jangovar xizmat) o'tash qoidalarining buzilishda harbiy xizmatga nisbatan boshqa mustaqil jinoyat sodir etilsa, qilmish bu jinoyatlar yig'indisi bo'yicha kvalifikatsiyani talab etadi. Masalan, agar navbatchi smena tarkibidagi harbiy xizmatchi o'qirlash maqsadida radioapparaturadan ayrim qismlarni yechib olsa, qilmish **JK 293-** va **296-**moddalari bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim (harbiy mulkni yo'q qilish yoki zarar yetkazish).

JK 293-moddasi 2-qismida jangovar navbatchilik (jangovar xizmat) o'tash qoidalarini buzish uchun javobgarlik O'zbekiston Respublikasiga to'satdan qilingan hujumni o'z vaqtida payqamaslik yoki daf etmaslik og'ir oqibatlar keltirishida ifodalangan.

JK 293-moddasi 2-qismi mazmunidagi **og'ir oqibatlar** bevosita davlat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha jangovar navbatchilik vazifalari bilan bog'liq bo'lmog'i lozim. Ularning mavjudligi to'g'risidagi masala sodir etilgan jinoyatning aniq holatlarini hisobga olish bilan hal qilinadi.

Bunday oqibatlar ostida respublika xavfsizligiga sezilarli yetkazilgan zararni tushunish lozim: hudud bo'yicha respublika obyektlari bo'yicha olovli zarbalar berish, davlat hududiga chet el jangovar samolyotlarini va kemalarining kirib borishi, jangovar texnikaning yo'qotilishi, navbatchi kuchlar va vositalar tarkibidan odamlarning halok bo'lishi va h.k.

Qonunda ko'rsatilgan jangovar navbatchilik o'tash qoidalari buzilishi natijasidagi oqibatlar kelib chiqqan vaqtdan jinoyatlar **tugallangan** deb topiladi.

JK 293-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **subyektiv tomoni** jangovar navbatchilik o'tash qoidalari buzilishiga nisbatan to'g'ri yoki egri qasdning mavjudligi bilan tavsiflanadi, yo'l qo'yilgan qoida buzishlar oqibatlariga nisbatan ayb ehtiyotsizlik shaklida ifodalanadi.

Motiv va **maqsad** har xil bo'lishi mumkin, ammo jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir qilmaydi.

Jinoyatning **subyektiv** navbatchi kuchlar tarkibidagi harbiy xizmatchi bo'ladi.

Agar harbiy xizmatchi qonunga xilof ravishda harbiy xizmatga chaqirilgan bo'lsa yoki zarur shartlarni buzgan holda navbatchi kuchlar tarkibiga tayinlangan bo'lsa (harbiy qasamyod qabul qilishdan oldin, kasallik vaqtida, ushbu harbiy xizmatchi sodir etgan jinoyat bo'yicha tergov o'tkazilayotgan vaqtda va h.k.), bunday vaziyatlarda, qilmish uchun javobgarlik, bunday harbiy xizmatchini jangovar navbatchilik (jangovar xizmat) o'tashga jalb etish to'g'risida g'ayriqonuniy qaror qabul qilgan boshliq (komandir) zimmasiga yuklanadi.

8-§. Chegara xizmatini o'tash qoidalarini buzish (JK 294-moddasi)

O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 20 avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasi to'g'risida»gi 820-1-sonli Qonuniga muvofiq Davlat chegarasini qo'riqlash o'ziga:

– har qanday joy bo'yicha o'tgan chegarani g'ayriqonuniy o'zgartirishga urinishni yo'qotish, O'zbekiston hududiga qo'shin guruhlari va bandalarining qurolli bostirib kirishini daf etish;

– chegarada qurolli va boshqa provokatsiyani yo'qqa chiqarish;

– ko'rsatilgan tajovuzdan aholini, barcha turdagi mol-mulknii himoya etish;

– chegarani kesib o'tishning oldini olish va unga yo'l qo'ymaslik;

– chegara orqali portlovchi, zaharlovchi, radioaktiv, narkotik vositalar, qurollar, o'q dorilar va O'zbekistonga olib kirilishi va olib

chiqilishi taqiqlangan boshqa narsalar hamda kontrabanda predmetlari olib o‘tilishining oldini olish;

– chegara orqali mamlakatimizning iqtisodiy va siyosiy manfaatlariga, davlat xavfsizligiga, jamoat tartibiga, aholi salomatligiga va axloqiga va h.k.larga zarar yetkazuvchi ma’lumotlarga ega bo‘lgan taqiqlangan nashrlarni, video va tovush yozish apparatlarini olib o‘tishning oldini olishni qamrab oladi.

Jinoyatning **bevosita obyekti** o‘rnatilgan chegara xizmatini o‘tash tartiblarini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlardir.

Jinoyatning **obyektiv tomoni** chegaraning daxlsizligiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan, chegara naryadi tarkibiga kiradigan shaxs tomonidan chegara xizmatini o‘tash tartiblarining buzilishida ifodalanadi.

Chegara xizmatini o‘tashning «O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasi to‘g‘risida»gi Qonunida hamda davlat chegaralarini qo‘riqlash instruksiyalarida o‘rnatilgan qoida va tartiblarida va Davlat xavfsizlik xizmati chegara qo‘shinlari boshqarmasi qo‘mondonining ayrim buyruqlarida chegara naryadi tarkibidagi shaxslarning aniq vazifalari belgilangan.

Modda blanket dispozitsiyali hisoblanib, har bir konkret vaziyatda chegara xizmatini o‘tashning qaysi qoidalari buzilganligini va ular O‘zbekiston Respublikasi chegaralarining daxlsizligiga zarar yetkazilishiga olib kelishi mumkinligini aniqlash lozim.

Chegara xizmatini o‘tash qoidalarining buzilishi davlat manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan, qonun bilan va boshqa ko‘rsatilgan me‘yoriy hujjatlar bilan o‘rnatilgan chegara xizmatini o‘tash qoidalarini bajarmaslikda yoki yetarli darajada bajarmaganlikda ifodalanadi.

Ko‘rsatilgan qoidalarning buzilishi postdan o‘zboshimchalik bilan ketish, postda uxlab qolish, chegara naryadi tarkibidaligi vaqtida spirtli ichimliklar iste‘mol qilish, davlat chegara buzilishi belgilarini o‘z vaqtida payqamaslik, begona shaxslarni chegaraning qo‘riqlanayotgan maydoni orqali o‘tkazib yuborish va boshqalarda ifodalanadi.

Jinoyat chegara daxlsizligiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan, chegara xizmatini o‘tash qoidalari buzilgan vaqtdan boshlab **tugallangan** deb topiladi.

JK 294-moddasida nazarda tutilgan jinoyat subyektiv tomondan **to'g'ri** yoki **egri** qasd bilan sodir etiladi, yo'l qo'yilgan qoida buzishlar oqibatlariga nisbatan ayb ehtiyotsizlik shaklida ifodalanadi. **Motiv** va **maqsad** har xil bo'lishi mumkin, ammo jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir qilmaydi.

Jinoyatning **subyektiv** faqat chegara naryadi tarkibiga kirgan yoki chegara xizmatida boshqa vazifalarni bajaradigan harbiy xizmatchi, shuningdek, chegara qo'shinlarini O'zbekiston Respublikasi davlat chegaralarini qo'riqlash bo'yicha xizmat vazifalarini o'rnatilgan tegishli me'yoriy hujjatlar bilan bajarayotgan har qanday harbiy xizmatchisi bo'lishi mumkin.

JK 294-moddasi 2-qismida quyidagi holatlarda chegara xizmatini o'tash qoidalarini buzish uchun javobgarlik nazarda tutilgan:

- a) qonunga xilof ravishda chegaradan o'tish;
- b) boshqa og'ir oqibatlarga olib keluvchi qilmish.

Qonunga xilof ravishda chegaradan o'tish – bu O'zbekiston Respublikasi chegarasini har qanday yo'nalishda qonunda o'rnatilgan tartibni buzish bilan o'tish (vakolatli hukumat idoralarning ruxsatisiz, noto'g'ri rasmiylashtirilgan hujjatlar bilan va h.k.).

JK 294-moddasi 2-qismi «b» bandida nazarda tutilgan boshqa og'ir oqibatlar mazmuni ostida O'zbekiston Respublikasi hududiga qurolangan bosqinchi banda to'dalari, diversantlarning kirib kelishi yoki davlat chegaralari orqali qurollar, narkotik moddalar, boshqa kontrabanda predmetlarining olib o'tilishi, odamlarning halokati, chegara buzuvchilar tomonidan chegara hududi aholisiga hujum qilish va boshqalarni tushunish lozim.

«Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar

1. Ofitser tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatni kontrakt bo'yicha o'tayotgan harbiy xizmatchilarni jinoiy javobgarlikka tortish shartlari va muddatli harbiy xizmatdagi harbiy xizmatchining o'zboshimchalik bilan qismni yoki xizmat joyini tashlab ketganligi, dezertirlik uchun javobgarlikka tortish shartlarining qanday farqlari bor?

2. Dezertirlik qanday harakatlarda ifodalanadi? Uning o'zboshimchalik bilan qismni yoki xizmat joyini tashlab ketishdan qanday farqlari bor?

3. Halok bo'layotgan harbiy kemani tashlab ketish uchun javobgar qilishning qanday xususiyatlari mavjud?

4. O'zining biron a'zosini mayib qilish yo'li bilan harbiy xizmatdan bo'yin tovlashni sodir etish usullari qanday? Uni amalga oshirishning usullari.

5. JK 290-moddasida nazarda tutilgan harbiy xizmatdan bo'yin tovlashning qanday boshqa usullari bor?

6. Jangovar holat deganda nima tushuniladi?

7. Qorovul xizmatini o'tash qoidalarini buzishga ta'rif bering. Ushbu jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilishning qanday zaruriy shartlari mavjud?

8. JK 291-moddasi (Qorovul xizmatini o'tash qoidalarini buzish) mazmunidan kelib chiqib og'ir oqibatlar deganda nimalar tushuniladi?

9. Ichki xizmat yoki garnizonda patrullik qilish qoidalarini buzish qanday usullarda sodir etiladi? JK 292-moddasi mazmunidan kelib chiqib zararli oqibatlar deganda nima tushuniladi (ichki xizmatni o'tash yoki garnizonda patrullik qilish qoidalarini buzish)?

10. Jangovar navbatchilikni o'tash qoidalarini buzish nimada ifodalanishi mumkin? Bunday jinoiy qilmish uchun kuchaytirilgan javobgarlik qanday vaziyatlarda nazarda tutiladi?

11. Chegara xizmatini o'tash qoidalarini buzish nimada ifodalanadi? Bunday buzilishlar qanday og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin?


Qo'shimcha adabiyotlar

Ilmiy maqolalar

Салаев Н.С. Ўзаро тобе бўлмаган ҳарбий хизматчилар жиноятчилигига қарши курашга оид айрим мулоҳазалар // Жиноят ҳуқуқининг долзарб масалалари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами (2014 йил 22 февраль). – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, 2014. – Б.176-180.

VIII BOB. HARBIY MULKNI SAQLASH YOKI UNDA FOYDALANISH TARTIBIGA QARSHI JINOYATLAR

10-sxema



1-§. Harbiy mulkni behuda sarflash, yo'qotish yoki ishdan chiqarish (JK 295-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekti** harbiy nizomlar, yo'riqnomalar, buyruqlar bilan o'rnatilgan harbiy mulkdan foydalanish va saqlash tartiblariga rioya etilishini ta'minlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlardir. Bu tartibga rioya qilish qurollardan, jangovar va boshqa texnikadan, ta'minot vositalaridan, kiyim-boshlardan va boshqa mulkdan to'g'ri foydalanish va ularni tejab-tergashni ta'minlaydi.

Harbiy mulk harbiy xizmatchiga shaxsiy yoki xizmatda foydalanishi uchun beriladi. Shaxsiy foydalanishga kiyim-bosh va aslaha-anjomlar, xizmat uchun – qurollar, o'q-dorilar, harakatlanish vositasi va h.k. beriladi.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyat **predmetiga** harbiy xizmatchiga shaxsiy foydalanishi uchun berilgan harbiy aslaha-anjomlar (**JK 295-moddasi 1-qismi**) hamda unga xizmatda foydalanish uchun ishonib topshirilgan qurol, o'q-dorilar, harakat qilish vositalari, texnika ta'minoti buyumlari (**JK 295-moddasi 2-qismi**) kiradi.

Harbiy xizmatchiga shaxsiy foydalanish uchun berilgan ekipirovka (bronjilet, protivogaz va h.k.), asboblari (sapyor kuragi, dozimetr va h.k.) va boshqalar **harbiy aslaha-anjomlar** hisoblanadi.

Kiyim-bosh va aslaha-anjomlar ofitserlar tarkibidagi shaxslarga va harbiy xizmatni kontrakt bo'yicha o'tayotgan harbiy xizmatchilarga shaxsiy mulk qilib beriladi, ularning bunday buyumlarni kimgadir berishi, yo'qotishi yoki buzib qo'yishi esa, javobgarlikni istisno qiladi.

Muddatli harbiy xizmatdagi harbiy xizmatchilar hamda ofitserlarga va harbiy xizmatni kontrakt (shartnoma) bo'yicha o'tayotgan harbiy xizmatchilarga harbiy qismning mulki bo'lgan inventar buyumlar ham berilishi mumkin. Ularni tasarruf etish, behudaga sarf etish mumkin bo'lmay, davlat mulkini o'qirlash tarkibini vujudga keltiradi.

Qurol deganda, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy qismlarida (harbiy muassasalarida) qurollanishda, saqlashda yoki harbiy qismda foydalanishda turgan, o'q-dorilarni qo'llash yo'li bilan jonli yoki boshqa nishonni nobud etishga mo'ljallangan jangovar texnik qurilmani tushunish lozim. Bu vintovka, pistolet, karabin, avtomat, boshqa o'q otuvchi qurol, minomyot, ognemyot, granatamyot, artilleriya tizimi, raketa uchirish qurilmasi va h.k. bo'lishi mumkin.

Sovuq qurol, shuningdek, o'zi yasagan o'q otish quroli yoki jangovar mo'ljalga ega bo'lmagan qurol (signal yoki qurilish pistoleti, simli-stvolli ov quroli) ushbu jinoyat predmeti hisoblanmaydi.

Ayrim turdagi qurollar faqat ma'lum texnik qurilmalarga o'rnatish uchun maxsus mo'ljallangan bo'lishi mumkin (samolyotlar, vertolyotlar, tanklar). Ularga aviatsiya pushkalari, tank pulemyotlari va h.k.lar ham kiradi, qator vaziyatlarda bunday turdagi qurollar faqat yordamchi qurilmalardan foydalanib harakatga keltirilishi mumkin, ular o'z holicha qurol hisoblanmaydi (aviatsiya pushkalari uchun elektrik va pnevmatik privodlar).

(Qurol tushunchasi to'g'risida kengroq JK 247-moddasi tahliliga qarang.)

O'q-dorilar deganda, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy qismlarida (harbiy muassasalarida) qurollanishda, saqlashda va

foydalanishda bo'lgan jangga mo'ljallangan texnik buyumlar, jonli nishonni yo'qotish uchun bevosita munosabat uchun mo'ljallangan portlovchi moddalar aslahalari yoki o'q-dorilarni harakatga keltiruvchi, otuvchi, artilleriya, raketali, tegishli turdagi o'q otish quroli yoki boshqa qurilmalar tushuniladi. Bular: jangovar o'qlar, artilleriya va reaktiv snaryadlar, minomyotlarga minalar, granatamyotlarga granatalar va boshqalar. o'q-dorilar bir martalik harakati bilan tavsiflanadi, chunki bir marta foydalanganda (to'la yoki qisman) parchalanadi.

JK 295-moddasi 2-qismi mazmunida o'q-qurollarini tan olinishi uchun texnik sozligi emas, buyumning konstruktiv mo'ljallanganligi va yo'qotish ta'sirining amaldagi xususiyatlari ahamiyatga ega. Jonli yoki boshqa nishonni yo'qotishga mo'ljallanmagan signal va imitatsiya vositalari o'q-dorilarga kirmaydi.

Harakat qilish vositalari ko'rib chiqilayotgan modda mazmunida – bu harbiy qism (harbiy muassasa) hisobida turgan harbiy texnikaga kirmaydigan transport vositalari (avtomobil, daryo transporti va h.k.)

Texnika ta'minoti buyumlariga har xil turdagi yoritgichlar, texnik ehtiyoj uchun mo'ljallangan uskunalar (transport vositalari uchun ehtiyot qismlari, yoqilg'i-moylash materiallari, elektron-hisoblash mashinalari uchun qismlar va h.k.) kiradi.

JK 295-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** harbiy mulkni behuda sarflash, ya'ni muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchisining shaxsan o'zi foydalanishi uchun berilgan harbiy aslaha-anjomlarni sotishi, foydalanish uchun birovga berishi yoki garovga qo'yishidan iborat.

Behudaga sarflashning zaruriy belgisi – muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchilariga shaxsiy foydalanishga berilgan harbiy aslaha-anjom buyumlarini boshqa shaxsning huquqsiz egalik qilishiga o'tishidir. Bu holat qonunda ko'rsatilganidek, behudaga sarflash, sotish, foydalanishga topshirish yoki boshqa shaxsga garovga berish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

Harbiy aslaha-anjomni **sotish** uni boshqa shaxslarga haq evaziga topshirishda, ya'ni qandaydir moddiy manfaat evaziga yoki boshqa buyumlarga almashtirishda ifodalanadi.

Harbiy aslaha-anjomni sotish harbiy aslaha-anjomni boshqa shaxsga amalda o'tgan vaqtdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

Harbiy aslaha-anjomni foydalanish uchun **birovga berish** uni boshqa shaxslarga tekinga (masalan, hadya qilish) berish asosida ifodalanadi. Bunda jinoyat predmeti topshirilgan vaqt ahamiyatga ega bo'lmaydi (doimiy yoki vaqtincha foydalanish).

Harbiy aslaha-anjomni birovga berish harbiy aslaha-anjomni boshqa shaxsga amalda o'tgan vaqtdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

Harbiy aslaha-anjomni garovga qo'yish – bu pul yoki mulkiy ziyonni qoplash uchun vaqtinchalik topshirish. Harbiy aslaha-anjomni behudaga sarflashning bu usuli garovni rasmiylashtirgan vaqtdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

Behudaga sarflashda harbiy mulk hamma vaqt davlat mulki bo'lib qoladi va shuning uchun ham u har qanday vaziyatda g'ayriqonuniy egalikdan olib qo'yilishi lozim, agar qaytarish imkoniyati bo'lmagan hollarda aybdordan uning ikki baravar qiymati undiriladi.

JK 295-moddasi 1-qismi bo'yicha jinoyat **subyektiv tomondan to'g'ri qasd** shaklida sodir etiladi. Aybdor unga shaxsan foydalanish uchun berilgan mulkni sotayotganini, garovga topshirayotganini yoki boshqa shaxsga foydalanish uchun berayotganligini anglaydi.

Jinoyatning **motivi** va **maqsadi** qoidaga ko'ra g'araz, ammo bu kvalifikatsiya uchun ahamiyatga ega emas.

Ushbu jinoyatning **subyektiv** faqat muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchisi bo'ladi.

JK 295-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** xizmatda foydalanish uchun ishonib topshirilgan qurol, o'q-dorilar, harakatlanuvchi vositalar, ularni ehtiyotlash qoidalarining buzilishi oqibatida texnik ta'minot predmetlarini ifodalaydi.

Ishonib topshirilgan mulk deganda, harbiy xizmatchiga xizmatda foydalanish uchun o'rnatilgan tartibda topshirilgan harbiy mulk tushuniladi.

Ishonib topshirilgan qurol, o'q-dorilar, harakat qilish vositalari, texnika ta'minoti buyumlarini ehtiyotlash qoidalarining buzilishi oqibatida harbiy xizmatchi egaligidan chiqib ketishini **yo'qotish** deb tushunish zarur

va bunday holda, harbiy qism (harbiy muassasa) vaqtincha yoki butunlay yo‘qolgan harbiy mulkdan foydalanish va tasarruf etish imkoniyatidan mahrum etiladi.

Bu predmetlarni yo‘qotganligi bois harbiy xizmatchini javobgarlikka tortish uchun harbiy mulkni saqlashning qaysi qoidasi buzilganligini aniqlash zarur. Bu qoidalar umumqo‘shin nizomlari, buyruqlari, yo‘riqnomalari, uqtirmalari, rahbarnomalari va boshqa saqlash, qo‘riqlash, foydalanish, ushbu turdagi harbiy mulkning saqlanishini ta‘minlovchi va turgan joyi bo‘yicha harbiy qism (harbiy muassasa) hududidan chiqib ketish imkoniyatining oldini olib transportirovka qilish idoraviy me‘yoriy aktlari bilan tartibga solingan.

Yo‘qotish harbiy xizmatchining ixtiyoridan tashqarida sodir bo‘ladi – predmet yo‘qotilgan, unutilib qoldirilgan, harbiy xizmatchi tomonidan qarovsiz qoldirilganda begonalar tomonidan o‘qirlangan va h.k. bo‘lishi mumkin.

Ko‘rsatilgan predmetlar harbiy xizmatchining egaligidan chiqib ketgan vaqtdan boshlab yo‘qotish **tugallangan** deb hisoblanadi.

JK 295-moddasi 2-qismi mazmunida **ishdan chiqarish** deganda, qurolni, o‘q-dorilarni, harakatlanish vositalarini, texnika ta‘minoti buyumlarini ulardan maqsadli foydalanish uchun qisman yoki to‘la yaroqsizlikka keltirish tushuniladi.

Ko‘rsatilgan predmetlarni ishdan chiqarish ularni qisman yoki to‘la yaroqsiz holatga keltirilgan vaqtdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

JK 295-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **subyektiv tomoni qasddan** yoki **ehtiyotsizlikdan** sodir etiladi. Ko‘rsatilgan predmetlarni ishdan chiqarish qasddan yoki ehtiyotsizlikdandir etiladi. Yo‘qotish – faqat ehtiyotsizlikdandir.

Jinoyatning **motivi** va **maqsadi** turlicha bo‘lishi mumkin va qilmishni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas.

Ushbu jinoyatning **subyektiv** qurol, o‘q-dorilar, harakat qilish vositalari, texnika ta‘minoti buyumlari xizmatda foydalanish uchun ishonib topshirilgan harbiy xizmatchi bo‘ladi.

JK 295-moddasi 3-qismida xizmatda foydalanish uchun ishonib topshirilgan qurol, o‘q-dorilar, harakat qilish vositalari, texnika ta’minoti buyumlarini behuda sarflash, yo‘qotish yoki ishdan chiqarish ularni ehtiyot qilish qoidalarining buzilishi oqibatida jangovar holatda sodir etilgan javobgarlik nazarda tutilgan.

2-§. Harbiy mulkni nobud qilish yoki unga shikast yetkazish (JK 296-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekti** O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida o‘rnatilgan harbiy mulkni saqlash qoidalari bo‘ladi.

JK 295-moddasidan farqli ravishda JK **296-moddasida** nafaqat shaxsiy va xizmatda foydalanish uchun berilgan predmetlarni, balki har qanday harbiy mulkni asrash nazarda tutiladi. Qurol, o‘q-dorilar, harakatlanish vositalari va boshqa harbiy mulk davlat mulki hisoblanadi, shuning uchun ularni qasddan nobud qilish yoki unga shikast yetkazish bilan bir vaqtda aybdor davlat mulkiga tajovuz qilgan bo‘ladi.

Jinoyatning **predmeti** har qanday jangovar mulk bo‘lishi mumkin: qurol, o‘q-dorilar, harakat qilish vositalari, harbiy texnika va boshqa harbiy mulklar.

(«Qurol», «o‘q-dorilar», «harakat qilish vositalari» tushunchalari to‘g‘risida JK 295-moddasi tahliliga qarang.)

Harbiy texnika o‘z ichiga jangovar harakatlar olib borish uchun, shaxsiy tarkibni ularni boshqarishga o‘rgatish uchun, qo‘shinni kundalik faoliyatini ta’minlash uchun turli texnik vositalarni oladi. Jumladan, harbiy texnika predmetlariga: jangovar texnika (samolyotlar, vertolyotlar, tanklar, bronetransportyorlar, artilleriya qurollari, raketa komplekslari, jangovar vositalarni boshqarish tizimlari va h.k.), harbiy qismning muhandislik vositalari, trenajyorlar va boshqa o‘qitish texnik vositalari, aloqa apparaturalari, tungi ko‘rish asboblari va h.k. kiradi. Ko‘rsatilgan xususiyatlarga ega bo‘lmagan harbiy qismning boshqa mulklari (bo‘linma kazarmalaridagi televizor va h.k.) harbiy texnika predmetlari hisoblanmaydi.

Ko'rib chiqilayotgan modda nuqtai nazaridan, **boshqa harbiy mulk** deganda, harbiy qismning (harbiy muassasaning) hisobida bo'lgan va xo'jalik-maishiy maqsadlarda xizmat qiladigan mulk (yumshoq va qattiq inventar), shuningdek, harbiy xizmatchilarning maishiy hayotini yaxshilash maqsadida qo'mondonlik tashabbusi bilan tashkil etilgan yordamchi xo'jalik tushuniladi.

Jinoyat **obyektiv tomondan** qurol, o'q-dorilar, harakat qilish vositalari, harbiy texnika va boshqa harbiy mulkni nobud qilish yoki unga shikast yetkazishda ifodalanadi.

Ko'rsatilgan mulklarni **nobud qilish** deb, uni ham jangovar, ham texnik yoki xo'jalik munosabatlarda yaroqsiz holga keltirish tushuniladi, qachonki u oddiy sozlash vositalari bilan tiklanishi va o'z xususiyatiga muvofiq ishlatilishi mumkin bo'lmagan holatni tushunmoq zarur. Bu nafaqat uni jismoniy yo'qotishda (portlatish, yoqib yuborish va h.k.), balki predmetni to'g'ridan-to'g'ri o'z xususiyati bo'yicha ishlatish imkoniyatidan mahrum etishga yo'naltirilgan harakatlarni sodir etishda (masalan, predmetni quruqlikka chiqarishga texnik imkoniyatlar yo'qligi yoki iqtisodiy maqsadga muvofiq emasligida uni suvga cho'ktirib yuborish) ifodalanadi.

Shikast yetkazish mulkni shunday holatga keltirishda ifodalanadiki, bunda uni tiklashga va xususiyatiga ko'ra, foydalanish imkoniyati mavjud bo'ladi. Shikast yetkazilganda predmetlar o'zining jangovar, texnik va xo'jalik qiymatini qisman yo'qotadi.

Nobud qilish va shikast yetkazish usullari jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir qilmaydi.

Jinoyat harbiy mulkni amalda nobud qilingan yoki shikast yetkazilgan vaqtdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi. Agar aybdor bu mulkni nobud etishga shaylangan bo'lsa, ammo unga bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha faqat unga shikast yetkazsa, qilmishni nobud qilishga tajovuz qilish deb emas, amaldagi oqibatlar bo'yicha harbiy mulkka shikast yetkazilgan kabi kvalifikatsiyalash lozim, chunki ko'rilayotgan moddaning dispozitsiyasi ikki qilmishni bir teng sifatida birlashtiradi.

Harbiy mulkni nobud qilish yoki unga shikast yetkazish atrofdagilar uchun xavfli usulda sodir etilsa (o't qo'yish, cho'ktirib yuborish va h.k.) **JK 296-moddasi** bilan qamrab olinadi va JK 173-moddasi bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiyani talab etmaydi (Mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish).

Qasddan harbiy mulkni nobud qilish yoki unga shikast yetkazish ba'zan shikast yetkazilgan mulkning qandaydir qismini talon-toroj qilish bilan kuzatiladi. Bunday qilmishlar begonaning mulkini o'qirlash va bu mulkni nobud qilish yoki unga shikast yetkazish kabi jinoyatlar jami bo'yicha kvalifikatsiyalanishi lozim.

JK 296-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **subyektiv tomoni to'g'ri** yoki **egri qasd** bilansodir etiladi. Bunda mulkni nobud qilish yoki unga shikast yetkazish maqsadi qo'yiladi va ongli ravishda bunday oqibatlarga yo'l qo'yib beriladi.

Agar aybdor harbiy mulkni nobud qilayotganini faraz qilsa-yu, ammo amalda u bunday bo'lmasa, qilmish harbiy mulkni nobud qilishga suiqasd qilish sifatida baholanishi lozim.

Jinoyatning sabablarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Agar harbiy mulkni nobud qilish yoki unga shikast yetkazish O'zbekiston Respublikasini kuchsizlantirish maqsadida sodir etilsa, qilmish davlatga qarshi jinoyat bo'lmish – qo'poruvchilik sifatida baholanadi (JK 161-moddasi).

Ko'rib chiqilayotgan jinoyatning **subyektiv** har qanday harbiy xizmatchi bo'lishi mumkin.

JK 296-moddasi 2-qismida harbiy mulkni nobud qilish yoki unga shikast yetkazish og'ir oqibatlarga olib kelgandagina javobgarlik nazarda tutilgan.

Og'ir oqibatlar deganda, ehtiyotsizlikdan og'ir tan jarohatlari yetkazish, o'lim yoki halokatlar, bir necha dona qurol yoki jangovar texnikani nobud qilish yoki unga shikast yetkazish, muhim ahamiyatga ega xizmat vazifasi bajarilishiga to'sqinlik qilish, katta moddiy zarar yetkazish va h.k.lar tushuniladi.

JK 296-moddasi 3-qismida jangovar holatda sodir etilgan harbiy mulkni nobud qilish yoki unga shikast yetkazish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

3-§. Atrofdagilar uchun katta xavf manbai bo‘lgan qurol-yarog’, shuningdek, modda va buyumlar bilan muomalada bo‘lish qoidalarini buzish (JK 297-moddasi)

Jinoyatning **asosiy bevosita obyekt** atrofdagilar uchun katta xavf manbai bo‘lgan qurol va boshqa buyumlar bilan muomala qilishning qonun bilan o‘rnatilgan tartibini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlardir. **Qo‘shimcha bevosita obyekt** – fuqarolar sog‘lig‘i, hayoti daxlsizligini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlardir.

Jinoyatning **predmeti** atrofdagilar uchun katta xavf manbai bo‘lgan qurollar, o‘q-dorilar, portlovchi, radioaktiv va boshqa moddalar, buyumlar hisoblanadi.

Nazarda tutish lozimki, hamma ko‘rsatilgan qurilmalar va predmetlar zavodda tayyorlangan, harbiyga mo‘ljallangan va qurollanishda, saqlashda yoki harbiy qismda (harbiy muassasada) O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari yoki bunday shakllanmalarining mavjudligi nazarda tutilgan harbiylashtirilgan vazirliklar, idoralarda foydalanishda turgan bo‘lishi lozim. Turli xil qo‘lda yasalgan qurilma yoki buyumlar hamda xo‘jalik, sport, imitatsiyaga mo‘ljallangan qurilma va buyumlar bunday jinoyatning predmeti bo‘lmaydi, hatto ular halok etish xususiyatlariga ega bo‘lsa-da va atrofdagilarga xavf solsa-da.

(«Qurollar», «o‘q-dorilar» tushunchasi to‘g‘risida JK 295-moddasi tahliliga qarang.) «Jinoyat kodeksining 297-moddasi dispozitsiyasi faqat o‘qotar qurolni (pistolet, avtomat, garnatomyot, artilleriya yoki raketa qurol-yarog‘lari) o‘z ichiga oladi, sovuq qurol bu guruhga kirmaydi».

Portlovchi moddalar tashqi ta‘sir (urish, yoqish, zarba, o‘z-o‘zidan yonish) oqibatida tez ximik o‘zgarishlarga kiruvchi modda va buyumlar bo‘lib, bu ximik o‘zgarishlar natijasida uloqtirish yoki vayron qilish kuchiga ega bo‘lgan ko‘p miqdorda issiqlik va qizigan gaz paydo bo‘ladi

va ajralib chiqadi. Portlovchi moddalarga porox, trotil va uning qorishmasi, plastid hamda initsirovkachi moddalar deb ataluvchi, asosiy portlovchi moddani harakatga keltirish uchun xizmat qiladigan moddalar (tetrazen, gumburlovchi simob va boshqalar) kiradi. Jangovar va yo'qotishga mo'ljallanmagan pirotexnik tarkiblar (ular bilan, masalan, signal va yorituvchi raketalar to'ldiriladi) portlovchi moddalarga kirmaydi.

Radioaktiv moddalar o'z-o'zidan parchalanishi va korpuskulyar yoki elektr magnit nurlanishi orqali tirik mavjudotlarga zarar keltirish xususiyatiga ega yadro qurolini hamda turli texnik nazorat va tadqiqotga mo'ljallangan vositalarni to'ldirish uchun foydalaniladi. Bunday moddalarga qurol uchun plutoniy, stronsiy, kobalt, to'ydirilgan uran, radiy va boshqalar kiradi.

Atrofdagilar uchun katta xavf manbai bo'lgan boshqa modda va buyumlarga fizik, kimyoviy yoki biologik ko'rsatkichlari bo'yicha inson organizmiga zararli ta'sir ko'rsatuvchi har qanday moddalar, predmetlar, texnik qurilmalarni yemirish xususiyatlariga ko'ra qurollar, o'q-dorilar, portlovchilar yoki radioaktiv moddalar bilan tenglashtiriladi. Bular: yuqori zaharli moddalar saqlanadigan sig'implar, biologik preparatlar, radioaktiv yoki zaharlovchi moddalardan bo'shagan idishlar, yuqori o'tkazgichli elektr tizimlari va h.k.

JK 297-moddasida nazarda tutilgan jinoyat **obyektiv tomondan** atrofdagilar uchun katta xavf manbai bo'lgan, o'rtacha yoki og'ir tan jarohatlarini keltirib chiqaruvchi qurol bilan hamda o'q-dori, portlovchi, radioaktiv yoki boshqa moddalar va buyumlar bilan muomalada bo'lish qoidalarini buzishda ifodalanadi.

Moddaning dispozitsiyasi blanket tavsifga ega. Ushbu modda bo'yicha shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun har bir alohida vaziyatda ko'rsatilgan predmet bilan muomala qilishning qaysi qoidasi va bu qoidaning qaysi bandi buzilganligini aniqlash lozim. Ko'rsatilgan qoidalar ichki xizmat Nizomida, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining garnizon va qorovul xizmati Nizomida hamda boshqa maxsus me'yoriy aktlarda (uqtirmalarda, yo'riqnomalarda, idoraviy buyruqlarda va boshqalarda) bayon etilib, ularda qurol bilan, tegishli modda va predmetlar

bilan muomalada bo‘lishning xavfsiz shartlarini ta‘minlovchi qoidalar ro‘yxati ifodalangan.

NOTA BENE !

Qurol-yarog’ bilan muomalada bo‘lish qoidalari – bu quroldan foydalanish jarayonida atrofdagilarning xavfsizligini ta‘minlovchi usul va harakatlarning ketma-ketligi yig’indisidir. Masalan, oldindan saqlash mexanizmidan foydalanish qoidalari, nishonga olish, o‘qlash, o‘qni chiqarish va h.k.

Atrofdagilar uchun katta xavf manbai bo‘lgan boshqa modda va buyumlar bilan muomala qilish qoidalari ularda foydalanish tartiblarini ham o‘z ichiga oladi. Ya‘ni, minalarni o‘rnatishda, portlatish ishlarini amalga oshirishda, elektr qurilmalari bilan ishlashda va h.k.larda xavfsizlik qoidalari mavjud. Shu bilan birga atrofdagilar uchun katta xavf manbai bo‘lgan moddalar va predmetlar bilan muomala qilish tartibi, ulardan foydalanish qoidalarinigina emas, balki ularni saqlash va transportirovka qilish qoidalarini ham o‘z ichiga oladi.

Atrofdagilar uchun katta xavf tug‘diradigan qurollar, o‘q-dorilar, portlovchi, radioaktiv va boshqa moddalar va buyumlar bilan **muomalada bo‘lish qoidalarini buzish** shu bilan tavsiflanadiki, ular bilan muomala qilishda harbiy xizmatchi majburiy usullarni bajarmaydi yoki ko‘rsatilgan predmetlar bilan muomala qilishda o‘rnatilgan ketma-ketlikka rioya qilmaydi hamda ularni saqlash xavfsizligi qoidalarini buzadi, bu esa, o‘z navbatida, odamlarning halok bo‘lishiga va jarohatlanishiga, harbiy texnikaning nobud bo‘lishiga, harbiy tadbirlarning to‘xtashiga va boshqa og‘ir oqibatlariga olib keladi.

Portlovchi moddalar omborida harorat rejimiga rioya qilmaslik, gaz yoki yoqilg‘i moy materiallari sig‘imlari yaqinida olov yoqish, radioaktiv va zaharli moddalar bilan ishlaganda himoyaning yo‘qligi va h.k.larni muomala qilish qoidalarini buzish deb tan olish mumkin.

Atrofdagilar uchun katta xavf tug‘diradigan qurollar, moddalar va predmetlar bilan muomala qoidalarini buzishni va bu predmetlardan

mo'ljallanmagan joyda foydalanishni farqlash zarur – oxirgisi o'zida tahlil qilinayotgan jinoyat tarkibi belgilarini ifodalamaydi. Ko'rsatilgan predmetlardan mo'ljallanmagan joyda foydalanish, atrofdagilar uchun katta xavf tug'diradigan bu qurollar, moddalar va predmetlardan jonli kuchlarni nishonga olish maqsadida emas, balki boshqa maqsadlarda, masalan kovlash uchun, ishni yengillashtiruvchi vosita sifatida va h.k.da foydalanish faraz qilinadi. Zarur belgilar mavjudligida bu qilmishlar, qurolni beparvo saqlash yoki shaxsga qarshi jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutgan JK tegishli moddalari bo'yicha kvalifikatsiyalanishi mumkin.

Agar qorovul qorovul xizmati vazifalarini o'tashdan chalg'ib qurol bilan muomalada bo'lish qoidalarini buzsa va natijada ularning oldini olish uchun qorovul tayinlangan zararli oqibatlar kelib chiqsa, unda qilmish JK 297- va 291-moddalari bilan jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilinadi.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyat qonunda ko'rsatilgan oqibatlar, jumladan, o'rtacha og'irlikdagi tan jarohatlari kelib chiqqan vaqtdan boshlab **tugallangan** deb hisoblanadi (**JK 297-moddasi 1-qismi**).

Nazarda tutish lozimki, o'rtacha og'irlikdagi tan jarohati yetkazish bu jinoyat tarkibi bilan qamrab olinadi va shaxsga qarshi jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalar bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiyani talab etmaydi.

Jinoyatning zaruriy belgisi – atrofdagilar uchun katta xavf tug'diradigan qurollar, moddalar va predmetlar bilan muomala qilish qoidalarini buzish va bu qoidalarning buzilishi bilan kelib chiqqan jamiyatga xavfli oqibatlar o'rtasidagi sababning bog'liqligidir.

Subyektiv tomondan qurol bilan va boshqa moddalar, predmetlar bilan muomala qilish qoidalarini buzish **qasddan** ham, **ehtiyotsizlikdan** ham sodir etiladi. Hamma vaziyatlarda kelib chiqqan oqibatlarga aybdor faqat jinoiy o'z-o'ziga ishonish va beparvolik ko'rinishidagi ehtiyotsizlik bilan munosabatda bo'ladi. Agar harbiy xizmatchi ushbu jinoyatni sodir etishda zararli oqibatlariga qasddan munosabatda bo'lsa, unda qilmishni shaxsga qarshi va mulkka qarshi jinoyatlar to'g'risidagi tegishli moddalar

bo'yicha kelib chiqqan oqibatlariga ko'ra qo'shimcha kvalifikatsiyalash lozim bo'ladi (mulkka zarar yetkazish «boshqa og'ir oqibatlar» belgisi bilan qamrab olinadi – **JK 297-moddasi 3-qismi «b» bandi**).

Jinoyatning **motivi** va **maqsadi** qilmishni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas.

JK 297-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **subyekt** atrof-dagilar uchun katta xavf tug'diradigan qurol, moddalar va predmetlardan o'z xizmat faoliyati bo'yicha foydalanuvchi yoki ularni saqlashni, tashishni yoki yetkazib berishni ta'minlovchi yoki ular yoniga kirishga va ular bilan muomala qoidalarini buzadigan harbiy xizmatchi bo'ladi. Bu harbiy xizmatchi oddiy askar va serjant, shu bilan baravar starshina tarkibi, ofitserlar, harbiy xizmatni kontrakt bo'yicha o'tayotgan harbiy xizmatchilar hamda harbiyga majburlar, o'quv va tekshiruv yig'inlariga chaqirilganlar bo'lishi mumkin.

Agar ko'rib chiqilayotgan jinoyat atrof-dagilar uchun katta xavf tug'diradigan moddalar va predmetlarga egalik qilish uchun qonuniy asoslari bo'lmagan shaxslar tomonidan sodir etilsa, ular JK boshqa moddalari bo'yicha javobgarlikka tortilishlari lozim.

Agar qo'mondonlik tarkibidagi mansabdor harbiy xizmatchi shaxs atrof-dagilar uchun katta xavf tug'diradigan ko'rsatilgan modda va predmetlar bilan muomala qilishning yetarli xavfsizligini ta'minlamasa yoki ular bilan muomala qilishning o'rnatilgan qoidalariga rioya qilishni nazorat qilish bo'yicha vazifalarini yetarli darajada bajarmasa, ular xizmatga sovuqqonlik bilan qarashganliklari uchun javobgarlikka tortilmoqlari lozim (JK 302-moddasi).

JK 297-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadigan qilmishlardan, qorovul, chegara va boshqa maxsus xizmat o'tayotgan shaxslar tomonidan tegishli nizomlarning talablarini buzish bilan inson qurbonlariga va boshqa og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan o'qotar qurollarni qo'llash holatlari farqlanishi lozim. Bunday holatlar o'zida qorovul yoki boshqa maxsus xizmat o'tayotganda qurol qo'llash nizom qoidalarini buzishni ifodalaydi va alohida qismning tegishli moddalari bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

JK 297-moddasida gap o‘z holicha atrofdagilar uchun katta xavf tug‘diradigan qurollar, portlovchi, radioaktiv va boshqa moddalar va predmetlar bilan muomalada bo‘lish qoidalarini buzish haqida ketayapti.

JK 297-moddasi 2-qismida quyidagilarga olib kelgan, atrofdagilar uchun katta xavf tug‘diradigan qurollar hamda moddalar va predmetlar bilan muomala qilish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan:

a) ikki yoki undan ortiq shaxsning badaniga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazilishiga;

b) og‘ir shikast yetkazilishiga;

v) odam o‘lishiga.

JK 297-moddasi 3-qismida quyidagilarga olib kelgan o‘sha qilmishlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan:

a) odamlar o‘limiga;

b) boshqa og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa.

«**Odamlar o‘limi**» belgilari o‘zida atrofdagilar uchun katta xavf tug‘diradigan qurollar, teng baravarlikda moddalar va predmetlar bilan muomala qilish qoidalarini buzish natijasida sodir etilgan ikki yoki undan ortiq odamlar o‘limini qamrab oladi.

Boshqa og‘ir oqibatlar deganda, ekologik katastrofalarni, odamlarning ommaviy kasallanishini, bir necha shaxslar badaniga og‘ir shikast yetkazilishi, katta miqdorlarda moddiy va moddiy bo‘lmagan zarar yetkazishning turli shakllari va h.k. larni tushunish lozim.

Moddiy zarar harbiy mulkni, muhandislik inshootlarini, fuqarolar qurilishlarini va h.k. larni nobud qilish va unga shikast yetkazishda ifodalanishi mumkin. Moddiy bo‘lmagan tavsifdagi zarar muhim harbiy vazifani, jangovar, o‘quv-jangovar vazifalarini yoki boshqa tadbirlarni buzish bilan ifodalanadi.

4-§. Mashinalarni boshqarish va ulardan foydalanish qoidalarini buzish (JK 298-moddasi)

Jinoyatning **asosiy bevosita obyekti** qonun tomonidan o‘rnatilgan jangovar texnikani, maxsus va transport mashinalarini boshqarish va

foydalanish tartiblarini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardan iborat.
Qo'shimcha bevosita obyekt – odamlarning hayoti va salomatligi.

Jinoyatning **predmeti**– jangovar, maxsus va transport mashinalari. Bunday mashinalar deyilganda, har qanday avtonom dvigatelga ega bo'lgan va odam boshqaradigan quruqlikda g'ildirakda yoki gusenitsada o'zi harakatlanadigan harbiy-transport vositasi tushuniladi.

Jangovar mashinalar – bu mashinalar, jangovar vazifani bajarish uchun mo'ljallangan va jonli kuchlarni, dushman harbiy texnikasini va boshqa obyektlarni (tanklar, bronetransportyorlar, o'zi yurar artilleriya va raketa qurilmalari, artilleriya tizimlarini buksir qilishga mo'ljallangan mashinalar va o'zni boshqarish apparaturasi o'rnatilgan tirkagich va boshqa shunday harbiy-texnik vositalar) nishonga olish uchun jihozlangan.

Maxsus mashinalar – bu jangovar mashinalar qatoriga kirmaydigan, harbiy qismlarni va bo'linmalarni muhandislik-texnik ta'minlashda maxsus funksiyalarni bajarish uchun mo'ljallangan mashinalar. Turli muhandislik mashinalari (transheya qazuvchilar, buldozerlar, kovlagichlar va h.k.), sanitar transporti, harakatlanuvchi ta'mirlash ustaxonalari, laboratoriyalar va h.k. maxsus hisoblanadi.

Transport mashinalari shaxsiy tarkibni, qurollarni, o'q-dorilarni, harbiy texnik mulkni tashish uchun mo'ljallangan hamda kundalik xo'jalik, madaniy-maishiy, tibbiy va harbiy qismga boshqa xizmat ko'rsatuvchi (yengil va yuk avtomobillari, avtobuslar, sanitar transporti va boshqalar) mashinalardir. Bunday mashinalarga O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining relsli transporti – teplovoz, temir yo'l drezinalari va boshqalar ham kiradi.

Jinoyat **obyektiv tomondan** badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetishiga olib kelgan jangovar, maxsus va transport mashinasini boshqarish va ulardan foydalanish qoidalarini buzishda ifodalanadi.

«Jangovar, maxsus yoki transport mashinalaridan belgilangan maqsadda foydalanish Ichki xizmat Nizomi, Yo'l harakati qoidalari va boshqa huquqiy aktlarda belgilangan tartibga qat'iy rioya qilishni nazarda tutadi».

Moddaning dispozitsiyasi blanketli. Shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun, mashinalarni boshqarish va ulardan foydalanish

qoidalarining qaysi punkti buzilganligini va bu buzilishlar va ular oqibatida kelib chiqqan badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishi orasida sababiy bog'liqlik mavjudligini aniqlash lozim.

Boshqarish deganda, harakatlanuvchi mashinani bevosita boshqarish jarayoni tushuniladi. Boshqarishning boshlanish vaqti mashinaning yurish qismi (g'ildirak, gusenitsa) harakatlanayotgan vaqtdan boshlanadi, tugagan vaqti – harakatning to'xtatilishdir. Harakatning boshidan to oxirigacha haydovchi o'rnatilgan boshqaruv qoidalariga rioya etishi lozim.

Boshqarish qoidalarini buzish harbiy xizmatchilar uchun majburiy bo'lgan harakat qilish yoki harakat qilmaslik yo'li bilan harbiy-transport vositalarining harakati xavfsizligini ta'minlash me'yorlarini bajar-maslikdan iborat. Harakat tezligini oshirish, quvib o'tish qoidalarini buzish, uzoqni ko'rish chirog'ini yaqiniga almashtirmaslik va h.k.lar shular jumlasidandir.

Harbiy mashinalardan foydalanish deganda, ulardan mo'ljalga muvofiq foydalanish va zarur texnik xizmatni ko'rsatish tushuniladi. Mashinalardan foydalanish deganda, agregatlar, tizim va mexanizmlarni normal ishlashini ta'minlovchi texnika me'yorlariga va qoidalariga rioya etgan holda ishlatish hamda har qanday sharoitlarda xavfsizlik talablarini bajarish tushuniladi.

Foydalanish qoidalarini buzish – mo'ljallanganiga va texnik imkoniyatlariga hamda texnik xizmatiga muvofiq mashinani ishlatish qoidalarini buzish: reysga texnik nosoz mashinani chiqarish, huquqi bo'lmagan shaxs mashinani boshqarishiga yo'l qo'yish, haydovchi noto'g'ri harakatlarining oldini olmaslik (masalan, mashinada boshliq vazifasini bajarayotgan shaxs tomonidan) va h.k.ni ifodalaydi.

«Jinoyat kodeksining 298-moddasi nazarda tutgan jinoyatning muqarrar alomati – yo'l qo'yilgan qonunbuzarliklar natijasida odamlarning halok bo'lishi ularga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish kabi muayyan zararning kelib chiqishidir. Hayot va sog'liqqa zarar yetkazish ushbu jinoyat tarkibi bilan qamrab olingan va u shaxsga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni ko'zda tutuvchi moddalar bilan qo'shimcha tavsiflashni talab qilmaydi».

Jinoyat qonunda ko'rsatilgan oqibatlar, jumladan, badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikastlar yetkazilgan vaqtdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi (**JK 298-moddasi 1-qismi**).

Ko'rib chiqilayotgan jinoyat **subyektiv tomondan qasddan** yoki **ehtiyotsizlik** bo'yicha sodir etiladi. Kelib chiqqan oqibatlarga aybdor faqat ehtiyotsizlik bo'yicha munosabatda bo'ladi. Aybdor o'z qilmishi jamiyatga xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligini ko'ra biladi, ammo unga yetarlicha asoslanmasdan, o'zining yengiltakligi bo'yicha, ular haqiqatan kelib chiqmasligiga yoki oldini olishiga umid qiladi (**jinoiy o'z-o'ziga ishonish**). Aybdor bunday oqibatlarning kelib chiqish imkoniyatini ko'ra olmaydi, ammo ish holatlari bo'yicha u ularni oldindan ko'rishi lozim edi (**jinoiy beparvolik**).

Agar harbiy xizmatchi ushbu jinoyatni sodir etganda zararli oqibatlariga qasddan munosabatda bo'lsa, unda qilmishni oqibatlaridan kelib chiqib shaxsga qarshi va mulkka qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan JK tegishli moddalari bo'yicha kvalifikatsiya qilish lozim.

Jinoyatni sodir etish **motivlari** va **maqsadi** uni kvalifikatsiyalash uchun ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Jinoyatning **subyektiv** jangovar, maxsus yoki transport mashinasidan foydalanish uchun mas'ul bo'lgan yoki uni bevosita boshqaradigan harbiy xizmatchi bo'lishi mumkin.

«Qoidabuzarni boshqarish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikka tortishda uning shtat bo'yicha haydovchi bo'lish-bo'lmasligining va mashinani boshqara olish-olmasligining ahamiyati yo'q».

Harbiy mashinalardan foydalanish qoidalarini buzish subyektiv faqat ushbu qoidalarga rioya qilish majburiyati maxsus yuklatilgan harbiy xizmatchigina bo'lishi mumkin: haydovchilar xizmati bo'yicha bo'ysunadigan boshliqlar, mashina bo'yicha kattalar, KTP bo'yicha navbatchilar va hokazo. U, shuningdek, ma'lum foydalanish qoidalariga rioya qilishga majbur bo'lgan mashina haydovchisi ham bo'lishi mumkin.

Mashina bo'yicha kattaning ushbu katta vazifalarini buzish bilan bog'liq bo'lgan harakatlari boshqa jinoyat tarkiblarini ham yuzaga keltirishi mumkinligini hisobga olish kerak.

«Instruktor nazorati ostida o‘quv mashinasida boshqarishni o‘rganayotgan harbiy xizmatchini Jinoyat kodeksining 298-moddasida nazarda tutilgan jinoyat uchun javobgarlikka tortib bo‘lmaydi. Bunday holda harakat xavfsizligini ta‘minlash instruktorga yuklatilgan bo‘lib, aynan u boshqarish qoidalarini buzganlik uchun javobgardir».

Mashinaning texnik holatini nazorat qilish majburiyatlari yuklatilmagan harbiy xizmatchilar ham ushbu jinoyatning subyektlari bo‘lmaydi. Masalan, sutkalik naryad shaxslari, xususan, faqat haydovchida harbiy qismdan tashqariga chiqish uchun tegishli hujjatning bor-yo‘qligini tekshirishga majbur bo‘lgan nazorat-o‘tish punktining navbatchilari.

JK 298-moddasida ko‘rsatilgan jinoyat harbiy xizmatchi tomonidan jangovar, maxsus yoki transport mashinasida sodir etiladi. Harbiy xizmatchi tomonidan jangovar, maxsus yoki transport mashinasi bo‘lmagan mashinani boshqarish qoidalarini buzish, xuddi fuqaroviy shaxs tomonidan jangovar, maxsus yoki transport mashinasini boshqarish qoidalarini buzish kabi, JK 266-moddasining alomatlariga mos keladi (Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish).

JK 298-moddasi 2-qismida:

a) odam o‘lishiga sabab bo‘lgan mashinalarni boshqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish uchun javobgarlik ko‘zda tutilgan.

Harbiy mashinani boshqarish qoidalarini buzishni hamda ushbu hodisaning natijasida hayoti xavf ostida qolgan va o‘zini o‘zi himoya qilish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan shaxsga yordam ko‘rsatmaslikni birgalikda sodir etgan shaxsning harakatlarini **JK 298-moddasi** bilan birgalikda JK 117-moddasining tegishli qismi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim .

Agar aybdor shaxs tomonidan boshqarish qoidalari buzilmagan bo‘lsa, lekin jabrlanuvchining hayoti xavf ostida qoldirilgan bo‘lsa va voqea joyidan ketgan bo‘lsa yoki voqea joyidagi boshqa shaxslar hayoti xavf ostida qolgan va o‘zini o‘zi himoya qilish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan jabrlangan shaxsga yordam ko‘rsatadi, degan fikrda jabr-

lanuvchiga yordam ko'rsatmagan bo'lsa, uning harakatlari JK 117-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Agar jabrlanuvchiga mashinani boshqarish qoidalarini buzish oqibatida hayot uchun xavfli bo'lmagan yengil tan jarohatlari yetkazilgan bo'lsa yoki uning o'limi bevosita voqea paytida yuz bergani ochiq-oydin bo'lsa yoki aybdor shaxsning jabrlanuvchiga yordam ko'rsatishi majburiy bo'lsa-da, uning o'z hayoti yoki sog'lig'i uchun ochiq xavf yuzaga kelgan bo'lsa, ya'ni uning yordam ko'rsatish imkoniyati bo'lmasa, shaxs JK 117-moddasi bo'yicha javobgarlikdan ozod etiladi.

JK 298-moddasi 3-qismida:

a) odamlar o'limiga;

b) halokatga;

v) boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lgan qilmishlar uchun javobgarlik ko'zda tutilgan.

«**Boshqa oqibatlar**»ga ancha miqdordagi moddiy yoki moddiy bo'lmagan zarar kiradi. Moddiy zarar avtomashina, muhandislik qurilmalari va boshqa binolarni yo'q qilish yoki shikast yetkazishda, chorva mollarining nobud bo'lishi va hokazolarda ifodalanishi mumkin. Moddiy bo'lmagan og'ir oqibatlar muhim harbiy topshiriqlar, jangovar, harbiy-o'quv vazifalari yoki boshqa tadbirlarning barbod bo'lishida ifodalanishi mumkin.

Jangovar, maxsus yoki transport mashinalarini boshqarish yoxud ulardan foydalanish qoidalarini buzishni unga o'xshash boshqa jinoyatlardan farqlash lozim.

JK 266-moddasida ko'zda tutilgan jinoyatlardan qaralayotgan jinoyat obyekti bilan, obyektiv tomonining ba'zi alomatlari bilan yoki subyekti bilan farqlanib turadi. **JK 298-moddasi** bo'yicha jinoyatning obyekti Qurolli Kuchlarda o'rnatilgan jangovar, maxsus yoki transport mashinalaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan harbiy xizmatni o'tash tartibi bo'ladi, JK 266-moddasida ko'zda tutilgan jinoyat esa, harakat xavfsizligi va transportdan foydalanishga tajovuz qiladi. **JK 298-moddasida** ko'rsatilgan jinoyat harbiy xizmatchi tomonidan jangovar, maxsus yoki transport mashinasida sodir etiladi. Harbiy xizmatchi

tomonidan jangovar, maxsus yoki transport mashinasi bo'lmagan mashinada boshqarish qoidalarini buzish, xuddi fuqaroviy shaxs tomonidan jangovar, maxsus yoki transport mashinasida boshqarish qoidalarini buzish kabi, JK 266-moddasi tarkibining alomatlariga mos keladi.

Transport vositalarining texnik holati yoki foydalanilishi uchun mas'ul bo'lgan shaxs tomonidan texnik nosoz holdagi jangovar, maxsus yoki transport mashinalarining foydalanishga chiqarilishi, agar bu JK 262-moddasida ko'rsatilgan oqibatlarga olib kelgan bo'lsa (Transportni ta'mirlash yoki uni foydalanishga chiqarish qoidalarini buzish), JK 262-moddasi bo'yicha malakalashni talab etmaydi, chunki sodir etilgan qilmish **JK 298-moddasi** dispozitsiyasi bilan qamrab olinadi.

JK 298-moddasi harbiy mashinalarni boshqarish yoxud ulardan foydalanish qoidalarini buzishning barcha ehtimoliy oqibatlarini, jumladan bir necha shaxslarning o'limini ko'zda tutadi. Shuning uchun bir necha shaxslarning o'limi kabi alomatning mavjudligi sodir etilgan qilmishni JK 262-moddasi bo'yicha kvalifikatsiyalashga asos bermaydi.

5-§. Uchish yoki uchishga tayyorgarlik ko'rish qoidalarini buzish (JK 299-moddasi)

Jinoyatning **asosiy bevosita obyekti** Qurolli Kuchlarda o'rnatilgan uchish yoki uchishga tayyorgarlik ko'rishning tartibiga hamda harbiy uchish apparatlaridan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar bo'ladi. **Qo'shimcha bevosita obyekt** – fuqarolarning hayoti, sog'lig'i, Qurolli Kuchlar mulkining xavfsizligini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlardir.

Ushbu jinoyatning **predmeti** deb uchish apparatlari tan olinadi.

Uchish apparatlariga O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga tegishli bo'lgan samolyotlar, vertolyotlar, planerlar va ularning maqsadidan qat'i nazar boshqa inson tomonidan boshqariladigan uchish apparatlari (jangovar, razvedka, transport uchish apparatlari), shuningdek, uchuvchisiz uchadigan samolyotlar va planerlar kiradi.

Obyektiv jihatdan JK 299-moddasida ko‘zda tutilgan jinoyat halokat yuz berishiga yoki boshqa og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lgan uchish yoki uchishga tayyorgarlik ko‘rish qoidalarini, shuningdek, uchish apparatlaridan foydalanish qoidalarini buzishda ifodalanadi.

Ushbu modda blanket dispozitsiyali. Har bir alohida holatda uchish qoidalarining, shuningdek, uchish apparatlaridan foydalanish qoidalarining qaysi bandi buzilganligi hamda ushbu buzish va halokat yoki boshqa og‘ir oqibatlar shaklidagi yuz bergan oqibatlar o‘rtasida sababiy bog‘lanishni aniqlash lozim bo‘ladi.

Uchishlarni bajarish tartibi, shuningdek, harbiy uchish apparatlaridan foydalanishning qoidalari ham umumfuqaroviy, ham maxsus harbiy qo‘llanuvchi turli me‘yoriy hujjatlar (boshqarish texnikasi, harbiy aviatsiya xizmatlarining muhandislik-aviatsiya, shturmanlik, navigatsiya, meteorologik va boshqa turlari masalalari bo‘yicha buyruqlar, qo‘llanmalar, yo‘riqnomalar) bilan batafsil belgilab berilgan.

Uchish deb, dvigatellarni uchib ketish uchun ishga tushirishdan boshlab, qo‘nishdan keyin dvigatellarni to‘xtatish bilan tugallanadigan vaqt davri hisoblanadi.

Shuning uchun ushbu jinoyat uchun javobgarlik, faqat uchish apparatini havoda boshqarish vaqtida yoki ko‘tarilish-qo‘nish yo‘lagidagi harakat chog‘ida – ko‘tarilish yoki qo‘ngandan so‘ng dvigatel to‘xtashigacha bo‘lgan vaqtda uchish apparatini boshqarish qoidalarini buzish, shuningdek, mashinani va ekipajni uchish oldidan tayyorlash qoidalarini buzgandagina yuzaga kelishi mumkin. Mashinaning havoga ko‘tarilishi yoki qo‘nishi bilan bog‘liq bo‘lmagan hodisalar ushbu modda bilan javobgarlikka tortishga asos bo‘la olmaydi va boshqa jinoyat tarkibini tashkil etishi mumkin.

Uchish qoidalarini buzish uchuvchi tomonidan uchish apparatining uchib ketishi, uchishi va qo‘nishi paytida uchishni boshqarishning belgilangan qoidalarini bajarmaslik yoki tegishlicha bajarmasligidir. Uchish qoidalarini buzish uchishni boshqarish texnikasida, orientirlarni yoki yo‘l boshqaruvini yo‘qotib qo‘yishda, pikedan chiqishning kechikishida, joyiga yetmay yoki undan oshib ketib yerga qo‘nishda,

oxirigacha chiqarilmagan shassi bilan yerga qo'nishda, qo'nish uchun pasayish tezligidan ortiq tezlik bilan harakatlanishda va hokazolardagi xatolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Uchishga tayyorgarlik ko'rish qoidalarini buzish ekipaj a'zolari-ning uchishga tayyorgarlik ko'rish va uchishga yo'l qo'yilishi qoidalarini bajarmaslik yoki mashinaning o'zini uchishga tayyorlashning qoidalarini buzish bilan bog'liq bo'ladi (kasal uchuvchining uchishi, tibbiy ko'rikdan o'tmaslik, uchish apparatiga ishlatishga yaroqsiz bo'lgan yonilg'i yoki foydalanish suyuqliklarini quyish, uchish apparatiga tegishlicha bo'lmagan texnik xizmat ko'rsatilishi, ayrim tugunlar va agregatlarni sifatsiz ta'mirlash va hokazo).

Uchish apparatidan foydalanish deb, undan maqsadiga ko'ra foydalanish tushuniladi. Foydalanish tushunchasi bilan, shuningdek, uchish apparatlarining avariya-siz ishlab turishini ta'minlaydigan tizimlar va agregatlardan maqsadiga ko'ra foydalanish ham qamrab olinadi.

Uchish apparatidan foydalanish – uning uchishi yoki uchishga tayyorgarlik tushunchasiga qaraganda kengroq tushunchadir. Agar uchish jarayoni undan foydalanishdan ajralmas bo'lsa, u holda undan foydalanish ham uchish davrida, ham undan tashqarida sodir bo'lishi mumkin (masalan, samolyotning angarda turish davrida, vertolyotning uchishdan keyingi xizmat ko'rsatish davrida va hokazo).

Foydalanish qoidalarini buzish, masalan, kerakli qo'shimcha tayyorgarlikdan o'tmagan shaxslarning boshqarishga qo'yilishini, uchish apparatidan maqsadsiz foydalanishni, samolyotda yukni noto'g'ri joylashtirish, uchish xavfsizligini ta'minlaydigan tugunlar va mexanizmlarga texnik xizmat ko'rsatish talablaridan chekinish va uchish apparatlaridan foydalanishning xavfsiz sharoitlarini ta'minlaydigan undan foydalanish tartibining boshqa buzilishlarini o'z ichiga oladi.

Jinoyat halokat yoki boshqa og'ir oqibatlar shaklidagi oqibatlar yuzaga kelgan paytidan boshlab **tugallangan** deb hisoblanadi.

Halokat deganda, harakatlanayotgan uchish apparatining unda uchayotgan ekipaj a'zolaridan, ko'chirilayotgan bo'linma shaxsiy

tarkibidan yoki havo kemasida bo‘lgan boshqa shaxslardan birortasining halok bo‘lishiga sabab bo‘lgan buzilishi yoki shikastlanishi tushuniladi.

Boshqa og‘ir oqibatlarga quyidagilar kirishi mumkin: havo kemasida bo‘lgan shaxslarning badaniga og‘ir shikast yetkazilishi; uchish apparatining yerga qulab tushishi yoki majburan qo‘nishi natijasida yerdagi odamlarning halok bo‘lishi yoki ularning badaniga og‘ir shikast yetkazilishi; avariya, ya’ni samolyotga uning to‘la yaroqsiz holga kelishiga sabab bo‘lgan darajada shikast yetkazilishi; mashinalarning ularni ta’minlash uchun anchagina moddiy xarajatlar talab qiladigan darajada buzilishi; havo kemasining halokati, qulashi yoki majburan qo‘nishi chog‘ida davlat, shuningdek, harbiy mulkning yoki shaxsiy mulkning nobud bo‘lishi yoki ularga katta miqdorda zarar yetkazilishi.

Tergov va sud organlari har bir aniq holatda ushbu voqea va yuz bergan oqibatlar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘lanishi mavjudligini aniqlashi lozim, aks holda sodir etilgan qilmishda ushbu jinoyat tarkibining borligini ta’kidlash mumkin emas.

Jinoyatning **subyektiv tomoni** ehtiyotsizlik shaklidagi aybi bilan ifodalanadi. Uchish yoki uchishga tayyorgarlik ko‘rish qoidalarini buzishga yo‘l qo‘ygan shaxs og‘ir oqibatlar yuz berishi mumkinligini oldindan ko‘ra oladi, lekin asossiz holda ushbu oqibatlar yuz bermaydi, deb hisoblaydi yoki ularni oldindan ko‘ra olishi lozim va mumkin edi.

Sodir etilgan qilmishni JK ushbu moddasi bo‘yicha kvalifikatsiyalash uchun jinoyatni sodir etish motivi ahamiyatga ega emas.

JK 299-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **subyektiv** – zimmasiga uchish yoki uchishga tayyorgarlik ko‘rishni ta’minlashga oid maxsus vazifa yuklatilgan harbiy xizmatchilar bo‘lishlari mumkin. Uchish rahbari, havo kemasining qo‘mondoni, uchuvchi, bort muhandisi, shturman va boshqalar ham javobgarlikka tortilishlari mumkin.

6-§. Kemani boshqarish qoidalarini buzish (JK 300-moddasi)

Jinoyatning **asosiy bevosita obyekt**i Qurolli Kuchlarda o‘rnatilgan kemani boshqarishning tartibini hamda harbiy kemalardan foydalanish

qoidalarini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar bo'ladi. **Qo'shimcha bevosita obyekt** – fuqarolarning hayoti, sog'lig'i, Qurolli Kuchlar mulkining xavfsizligini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlardir.

Ushbu jinoyatning **predmeti** faqat harbiy kemalar, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Harbiy Dengiz floti kema tarkibining kemalari bo'lishi mumkin. Bular jangovar va qorovul kemalari, maxsus maqsadli suzish vositalari, katerlar va boshqalar bo'lishi mumkin.

Obyektiv jihatdan JK 300-moddasida ko'zda tutilgan jinoyat kemaning halokatga uchrashiga yoki jiddiy shikastlanishiga, odamlar halok bo'lishiga yoki boshqa og'ir oqibatlariga sabab bo'lgan kemani boshqarish qoidalarini buzishda ifodalanadi.

Ushbu modda blanket dispozitsiyalidir. Jinoiy javobgarlik yuz berishi uchun kemani boshqarish qoidalarining buzilishini hamda ushbu qoida buzish bilan kemaning halokatga uchrashi yoki jiddiy shikastlanishi, odamlar halok bo'lishi yoki boshqa og'ir oqibatlar o'rtasida sababiy bog'lanishni aniqlash lozim bo'ladi.

Kemani boshqarish kemani suzish paytida bevosita boshqarishni, kemaning kursi va tezligini aniqlash, uning manzilini aniqlash, manevrlarni amalga oshirish, buksirga olish, to'qnashishning oldini olish choralari ko'rish, ob-havo o'zgarishi holatida xavfsizlik choralari ko'rish va hokazo, ya'ni Kema nizomi, maxsus qo'llanmalar, yo'riqnomalari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan belgilangan suv kemasini boshqarishning ma'lum qoidalarini o'z ichiga oladi.

Kemani boshqarish qoidalarini buzish, masalan, kema boshlig'ining chuqurliklarni muntazam o'lchab borish yoxud daryoning tor joyida yoki qirg'oqqa yaqin joyda suzish tezligini kamaytirish choralari ko'rmaslikda ifodalanishi mumkin.

Faqat qonunda belgilangan og'ir oqibatlariga, ya'ni kemaning halokatga uchrashi, uning jiddiy shikastlanishi, odamlar halok bo'lishi yoki boshqa og'ir oqibatlariga olib kelgan kema boshqarish qoidalarining buzilishlari jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Kemaning halokatga uchrashi deb, uning to'liq buzilishi yoki cho'ktirilishi tushuniladi. Kemani tiklash mumkin bo'lmagan holda u halokatga uchragan deb tan olinadi.

Kemaga jiddiy shikast yetkazilishi deb, kemaga kapital ta'mirlashni talab etuvchi shikastlar yetkazilishi tushuniladi.

Odamlar halok bo'lishi deb, kema komandasi ikki va undan ortiq a'zosining o'limi tushuniladi.

Boshqa og'ir oqibatlarga quyidagilar kiradi: ikki yoki undan ortiq komanda a'zolariga yoki kema yo'lovchilariga og'ir yoki o'rtacha og'irlikdagi tan jarohatlarining yetkazilishi, harbiy topshiriqning buzilishi, ekologik halokat, o'simliklar, hayvonlarning ommaviy halokati va boshqalar.

Kemani boshqarish qoidalarining buzilishi kemaning halokatga uchrashi yoki jiddiy shikastlanishi, odamlar halok bo'lishi yoki boshqa og'ir oqibatlar yuzaga kelgan paytidan boshlab **tugallangan** jinoyat deb hisoblanadi.

Tergov va sud organlari har bir aniq holatda ushbu voqea va yuz bergan oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish mavjudligini aniqlashi lozim, aks holda sodir etilgan qilmishda ushbu jinoyat tarkibining borligini ta'kidlash mumkin emas.

Subyektiv tomonidan kemani boshqarish qoidalarini buzish ham **qasddan**, ham **ehtiyotsizlik** bilan bo'lishi mumkin. Lekin yuz bergan oqibatlarga nisbatan jinoyat subyektining aybi doimo ehtiyotsizlik shaklida ifodalanadi (jinoiy o'z-o'ziga ishonish yoki jinoiy beparvolik). Aks holda aybdor shaxsning JK boshqa moddalari bilan javobgarligi (davlatga xoinlik qilish, mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish va boshqalar) masalasi qo'yilishi mumkin.

Qaralayotgan jinoyatning **subyekt**i kemani boshqarish qoidalarini buzgan harbiy xizmatchi bo'lishi mumkin. Bu kemaning rahbari, kema rahbarining yordamchisi, kemani boshqarish, jumladan manevr qilish vazifalarini bajarayotgan shturman va soqchilikdagi zobit bo'lishi mumkin.

«Harbiy mulkni saqlash yoki undan foydalanish tartibiga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar

1. Harbiy mulk deganda nimalar tushuniladi? Harbiy mulkni behuda sarflash, yo'qotish yoki ishdan chiqarish nimadan iborat? Ushbu huquqqa qarshi harakatlar nimada ifodalanishi mumkin?

2. Harbiy mulkni, harbiy texnikani qasddan nobud qilish yoki unga shikast yetkazish deganda nimalar tushuniladi? Ushbu jinoiy qilmishlarni amalga oshirish usullari qanday?

3. Harbiy mulkni, harbiy texnikani qasddan nobud qilish yoki unga shikast yetkazishning uni yo'qotish yoki ishdan chiqarishdan farqi nimada?

4. Atrofdagilar uchun katta xavf manbai bo'lgan qurol-yarog', shuningdek, modda va buyumlar bilan muomalada bo'lish qoidalarini buzish uchun jinoiy javobgarlik yuz berishining shartlarini aytib bering.

5. Harbiy mashinalarga va maxsus mashinalarga nimalar kiradi? Jangovar mashinalarni boshqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish nimadan iborat?

6. JK 298-moddasida ko'zda tutilgan jinoyatning (Mashinalarni boshqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish) malakalovchi alomatlari qaysilar? Uning subyekti kim bo'lishi mumkin?


7. Uchish apparatlariga nimalar kiradi? Uchish yoki uchishga tayyorgarlik ko'rish qoidalarini buzish nimada ifodalanishi mumkin?

8. Uchish yoki uchishga tayyorgarlik ko'rish qoidalarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlikning vujudga kelish shartlari qanday? Ushbu qilmish uchun kim javobgar bo'ladi?

9. Kemani boshqarish deganda nima tushuniladi? Kemani boshqarish qoidalarini buzish qanday usullarda sodir etiladi? JK 300-moddasida (Kemani boshqarish qoidalarini buzish) nazarda tutilgan qilmish uchun jinoiy javobgarlikning vujudga kelishi uchun qanday shartlar bo'lishi kerak?

IX BOB. HARBIY MANSABDORLIK JINOYATLARI

11-sxema



1-§. Hokimiyatni suiiste'mol qilish, hokimiyat vakolatidan tashqariga chiqish yoki hokimiyat harakatsizligi (JK 301-moddasi)

Jinoyatning **asosiy bevosita obyekti** Qurolli Kuchlarda o'rnatilgan harbiy boshqaruv organlarining normal ish faoliyatini, ularning obro'sini, harbiy boshliqlar va mansabdor shaxslarning xizmat vakolatlarini amalga oshirishning belgilangan tartibini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar. **Qo'shimcha bevosita obyekt** – fuqarolarning hayoti, sog'lig'i, o'zgarar mulkining daxlsizligini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlardir.

Mazkur jinoyat **obyektiv tomondan** boshliq yoki boshqa mansabdor shaxsning o'z hokimiyat yoki xizmat mavqeini suiiste'mol qilishi, hokimiyat yoki xizmat vakolati doirasidan chetga chiqishi, shuningdek, hokimiyat harakatsizligi Qurolli Kuchlarning manfaatlariga, harbiy xizmatchi yoki boshqa fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo'lishida ifodalanadi.

«**Hokimiyatni yoki xizmat mavqeini suiiste'mol qilish** — boshliq yoki boshqa mansabdor shaxsning qasddan o'z xizmat mavqeidan harbiy xizmat manfaatlariga zid maqsadlarda foydalanishidir.

Hokimiyatni yoki xizmat mavqeini suiiste'mol qilish mansabdor shaxs tomonidan uning o'z vakolatlarini buzishida ifodalanishi mumkin, ammo bu harakatlar aybdor zimmasiga xizmat yuzasidan yuklatilgan u

yoki bu muayyan huquq va majburiyatlarning buzilishi bilan bog'liq bo'lmasligi ham mumkin. Biroq barcha hollarda ham shaxs mazkur xatti-harakatlarni, faqat o'zi egallab turgan xizmat mavqeiga ko'ra sodir etgan bo'lishi va bu xatti-harakatlar o'z mohiyatiga ko'ra xizmat burchiga zid bo'lishi shart.

Xizmat manfaatlariga xilof ravishda sodir etilgan deb, xizmat zarurati taqozo etmagan, xizmat burchi va mansab majburiyatlarini buzadigan, qonunlar, harbiy nizomlar va qo'mondonlik buyruqlariga zid bo'lgan xatti-harakatlar tushunilishi lozim. Bunda xizmat bo'yicha yuklatilgan majburiyatlarning mansabdor shaxs tomonidan buzilishini, unga berilgan huquqlarning suiiste'mol qilinishini, o'z faoliyatida qonun talablaridan chetga chiqilishini maqsadga muvofiqlik yoki xizmat zaruriyati tufayli qilingan deb oqlab bo'lmaydi.

Hokimiyat yoki xizmat vakolatidan tashqariga chiqish, mansabni suiiste'mol qilishdan farqli o'laroq, qo'mondon yoki boshqa mansabdor shaxsning o'ziga berilgan huquq va vakolatlar doirasidan qasddan, ochiqchasiga chetga chiqadigan harakatlarni sodir etishida ifodalanadi. **Hokimiyat yoki xizmat vakolatidan tashqariga chiqish** jumlasiga mansabdor shaxs xizmat yuzasidan faqat muayyan, ayni vaqtda mavjud bo'lmagan hollardagina sodir etishga haqli bo'lgan yoki yuqori lavozimda turgan yoxud maxsus vakolatli shaxs sodir etishi lozim bo'lgan harakatlar ham kiradi.

Shaxsning xizmat mavqei doirasidan chetga chiqishda aybdorligi masalasini hal etish chog'ida har doim uning vakolat doirasini aniqlab olish muhimdir. Harbiy mansabdor shaxslarning huquq va vakolatlari qonunlar, nizomlar va qo'mondonlik buyruqlarida aniq belgilab qo'yilgan. Ayni paytda shuni e'tiborga olish kerakki, mansabdor shaxs tomonidan qurol va boshqa jismoniy zo'rlik ishlatilishi, agar bu harakatlar uning tomonidan o'z xizmat majburiyatlarini bajarishi va xizmat yuzasidan jabrlanuvchiga nisbatan mavjud vakolatlar doirasidan chetga chiqishi bilan bog'liq bo'lgan hollardagina hokimiyatni suiiste'mol qilish deb baholanishi mumkin. Jabrlanuvchi aybdorga tobe yoki aybdor hokimiyat vakili bo'lganligi bois unga qaram bo'lgan hollarda muayyan vakolatlar

mavjud bo'lishi mumkin. Aks holda shaxsga qarshi jinoyat uchun Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan javobgarlik yuzaga kelishi mumkin.

Hokimiyat harakatsizligi boshliq o'z harbiy xizmat majburiyatlariga ko'ra sodir qilishi lozim bo'lgan harakatlarni qasddan bajarmaganligida ifodalanadi.

Harbiy nizomlar har bir boshliq o'ziga berilgan hokimiyatdan harbiy xizmat manfaatlari, unga ishonib topshirilgan qism (bo'linma)ning jangovar salohiyatini oshirish, tartib va intizomga qat'iy amal qilish yo'lida to'liq foydalanishi kerakligini talab etadi. Boshliqning jinoiy harakatsizligi, muayyan sharoitda ijtimoiy xavfli oqibatlarining oldini olish uchun qo'llashi lozim bo'lgan choralarni qo'llamasligi harbiy xizmatga katta ziyon yetkazishi mumkin.

Agar bo'linma komandiri o'ziga tobe shaxs bo'linma mulkini tashish paytida jangovar o'qlarni o'qirlab, begona shaxsga sotayotganligini ko'ra turib, buning oldini olmasa, bu qo'mondon jinoiy harakatsizlik uchun javobgarlikka tortilishi kerak.

Boshliqning tobe shaxslarga nisbatan ularning noustav harakatlariga barham berish uchun chora ko'rmasligi ham hokimiyat harakatsizligi deb baholanishi lozim.

Hokimiyat harakatsizligi qasddan qilinadigan xatti-harakat bo'lib, u aynan shu bilan xizmatga sovuqqonlik bilan qarashdan farq qiladi. Hokimiyat harakatsizligi hokimiyat vakolatini suiiste'mol qilishdan shunisi bilan farq qiladiki, bu jinoyat boshliq faqat hokimiyat vakolati doirasida va faqat xizmat vazifasiga ko'ra qilishi shart bo'lgan harakatni sodir etmasligi shaklida bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham har bir holda bajarilmay qolgan harakatlarni sodir etish mazkur mansabdor shaxsning vakolatiga kirish-kirmasligi va buning uchun unda yetarli imkoniyat bo'lgan-bo'lmaganligi aniqlanishi zarur».

O'rganilayotgan jinoyat tarkibi Qurolli Kuchlarning manfaatlariga, harbiy xizmatchi yoki boshqa fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazilishi shaklidagi jinoiy oqibatlar yuz bergan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi. Hokimiyatni suiiste'mol qilish yoki hokimiyat

harakatsizligi hamda yuz bergan oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi hisoblanadi.

Mansabdorlik jinoyatiga xos jinoiy oqibat jiddiy zarar bo'lib, u o'z xususiyati va ko'lamiga ko'ra ko'p miqdorni tashkil etadi. Jiddiy zarar Qurolli Kuchlar, alohida xizmatchilar va boshqa shaxslarga yetkazilishi va turlicha, ham moddiy, ham moddiy bo'lmagan muayyan tusda namoyon bo'lishi mumkin. Jinoyat **tugallangan** deb tan olinishi uchun zarar amalda yetkazilgan bo'lishi shart.

«Mansabdorlik jinoyatiga xos jinoiy oqibat **jiddiy zarar** bo'lib, u o'z xususiyati va ko'lamiga ko'ra ko'p miqdorni tashkil etadi. Jiddiy zarar Qurolli Kuchlar, alohida xizmatchilar va boshqa shaxslarga yetkazilishi va turlicha, ham moddiy, ham moddiy bo'lmagan muayyan tusda namoyon bo'lishi mumkin. Jinoyat tugallangan deb tan olinishi uchun zarar amalda yetkazilgan bo'lishi shart.

Jiddiy zarar sifatida, jumladan, sodir etilgan jinoyat tufayli bo'linmada (qismda) harbiy intizomga putur yetishi, jangovar topshiriqning, o'quv otishmalarining, ishlarning barbod bo'lishi, harbiy mulkka ziyon yetkazish yoki uni yo'q qilish, jiddiy moddiy zarar yetkazish, harbiy xizmatchilar va boshqa shaxslarning shaxsiy yoki mulkiy huquqlarining buzilishi kabilar tan olinadi. Jiddiy zarar tushunchasi o'z ichiga hokimiyat yoki xizmat vakolati doirasidan chetga chiqish jinoyati uchun xos bo'lgan jabrlanuvchining hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararni ham oladi. Qasddan odam o'ldirish yoki qasddan badanga og'ir shikast yetkazish sifatida yetkazilgan zarar hokimiyat yoki xizmat vakolatidan chetga chiqish jinoyati alomatlaridan tashqariga chiqadi va og'irroq jinoyat sifatida mustaqil tavsiflashni taqozo etadi».

Subyektiv tomondan hokimiyat yoki xizmat mavqeini suiiste'mol qilish, hokimiyat yoki xizmat vakolati doirasidan chetga chiqish, shuningdek, hokimiyat harakatsizligi – **qasddan** sodir etiladigan jinoyatlardir. Aybdor shaxs uning xizmat vakolatlaridan foydalanib sodir etgan harakatlari (harakatsizligi) harbiy xizmat manfaatlariga zid kelishini anglab yetadi va aynan shunday ish tutishni istaydi yoki o'z harakatlarining shunday turda ekanligiga beparvo qaraydi.

Aybdor shaxsning jinoyat oqibatlariga – qonunga ko‘ra jinoyat tarkibining zaruriy belgilaridan biri bo‘lgan jiddiy ziyonga munosabati ham qasd qilish, ham ehtiyotsizlik shaklida ifodalanishi mumkin.

Jinoyatni sodir etish **motivi** va **maqsadi** uni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lmaydi.

JK 301-moddasida ko‘zda tutilgan jinoyatning **subyekt**i mansabdor shaxs bo‘lgan harbiy xizmatchi bo‘lishi mumkin.

«Harbiy mansabdorlik jinoyatlari harbiy boshqaruv organlarining Qurolli Kuchlar salohiyatini mustahkamlash manfaatlariga mos keluvchi, to‘g‘ri faoliyatiga, harbiy boshliq va mansabdor shaxslar uchun belgilangan xizmat vazifalarini amalga oshirish tartibiga tajovuz qiladi.

Harbiy mansabdorlik jinoyatlarining subyektlari harbiy boshliqlar va boshqa mansabdor shaxslar bo‘lishi mumkin. Ichki xizmat Nizomiga muvofiq boshliq xizmat mavqei (lavozimi)ga va harbiy unvoniga ko‘rabo‘lishi mumkin. Harbiy mansabdor shaxslarning namunaviy ro‘yxatlari Ichki xizmat Nizomida, Intizomiy Nizomda, Garnizon va qorovul xizmati Nizomida va boshqa huquqiy aktlarda keltirilgan.

Boshqa harbiy xizmatchilar ham, agar ular boshliq bo‘lmay turib, muayyan tashkiliy-farmoyish berish yoki ma‘muriy-xo‘jalik vazifalarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan lavozimlarni doimiy yoki vaqtincha egallab tursa yoki bu vazifalarni qo‘mondonlikning maxsus farmoyishi bo‘yicha bajarsa, mansabdor shaxs bo‘lishi mumkin. Ushbu vazifalarni bajarish uchun harbiy xizmatchilarga yuridik ahamiyatga ega harakatlar sodir eta olishi bilan bog‘liq tegishli vakolatlar beriladi.

Harbiy mansabdorlik jinoyatlarining ijrochilari faqat boshliqlar va mansabdor shaxslar, ishtirokchilari esa boshqa shaxslar ham bo‘lishi mumkin.

Harbiy mansabdorlik jinoyatlarining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, uni sodir etishdan kelib chiqadigan ijtimoiy xavfli oqibatlar, ba‘zan, aybdor tomonidan bevosita emas, balki xizmat bo‘yicha unga tobe shaxslardan foydalanish, ularga noqonuniy buyruq berish orqali yetkazilishi mumkin. Bunday buyruqni qasddan bergan mansabdor shaxs noqonuniy buyruqni ijro etish natijasida kelib chiqqan oqibatlar uchun

javob beradi. Bunday holda uning xatti-harakati shaxsan o'zi sodir etgani singari mansabdorlik jinoyati sifatida, agar oqibatlarining o'zi mustaqil jinoyatni tashkil etsa, qilmishlar majmui bilan tavsiflanishi lozim.

Mansabdor shaxsning noto'g'ri harakatlari bilan u sodir etgan jinoyat oqibatlari o'rtasida sababiy bog'lanish borligi aniqlangan bo'lishi kerak»¹.

Agar hokimiyat yoki xizmat mavqeini suiiste'mol qilish, hokimiyat yoki xizmat vakolati doirasidan chetga chiqish, shuningdek, hokimiyat harakatsizligi o'rtacha og'irlikdagi yoki og'ir tan jarohatlarini yetkazish bilan birga sodir etilgan bo'lsa, aybdor shaxsning harakatlari **JK 301-moddasi 2-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

JK 301-moddasi 3-qismida:

a) odam o'lishiga;

b) boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lgan qilmishlar uchun javobgarlik ko'zda tutilgan.

JK 301-moddasi 3-qismi «b» bandi ma'nosidagi **boshqa og'ir oqibatlar** deganda, ikki yoki undan ortiq shaxsning badaniga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishi, odamlar o'limi, halokatlar va boshqalar tushunilishi lozim.

Hokimiyat yoki xizmat mavqeini suiiste'mol qilish, jangovar vaziyatda sodir etilgan hokimiyat yoki xizmat vakolati doirasidan chetga chiqish, shuningdek, hokimiyat harakatsizligi mansabdor shaxs bo'lgan harbiy xizmatchining **JK 301-moddasi 4-qismi** bo'yicha javobgarlikka tortilishiga olib keladi.

2-§. Xizmatga sovuqqonlik bilan qarash (JK 302-moddasi)

Jinoyatning **asosiy bevosita obyekt** mansabdor shaxs bo'lgan harbiy xizmatchining o'ziga yuklatilgan vazifalarini bajarishining belgilangan tartibini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar bo'ladi. **Qo'shimcha bevosita obyekt** bu yerda fuqarolarning hayoti, sog'lig'i, o'zgarar mulkining daxlsizligini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlardir.

JK 302-moddasida ko'zda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** boshliq yoki boshqa mansabdor shaxsning o'z xizmat vazifalariga nisbatan

pala-partish yoki vijdotsizlarcha munosabatda bo'lishi tufayli bu vazifalarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi ko'p miqdorda zarar yetkazilishiga yoki boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lishida ifodalanadi.

NOTA BENE !

Xizmatga sovuqqonlik bilan qarash mansabdor shaxsning o'z xizmat vazifalariga nisbatan pala-partish yoki vijdotsizlarcha munosabatda bo'lishi tufayli bu vazifalarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligidan iborat.

«**Majburiyatlarni lozim darajada bajarmaslik** ularning yuzaki, ishtiyoqsiz, e'tiborsizlik bilan, o'ylamasdan va kerakli g'ayrat, tashabussiz bajarilishida namoyon bo'ladi. Bu ko'rinishdagi sovuqqonlik harbiy mansabdor shaxsning unga ishonib topshirilgan harbiy mulkka loqayd munosabatda bo'lishi oqibatida mazkur mulkning nobud bo'lishi yoki unga shikast yetishi, moddiy boyliklardan foydalanishda hisob-kitob va nazoratning yetarlicha bo'lmaganligi yoki ularni saqlash yomon tashkil etilganligi sababli talon-toroj yoki kamomad kelib chiqishi, qo'mondon bo'linmada harbiy tartib o'rnatish uchun tegishli chora-tadbirlar ko'rmaganligi tufayli tobe shaxslar tomonidan intizomning qo'pol buzilishi yoki qo'mondonlik bergan topshiriqlarning bajarilishi barbod bo'lishi kabilarda namoyon bo'ladi.

Sovuqqonlik mansabdorlik jinoyati bo'lib, mansabdor shaxs tomonidan bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan harakatlar uning xizmat vakolatiga tegishli bo'lishini, lavozimi bo'yicha uning zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar doirasiga kirgan bo'lishini taqozo etadi.

Mansabdor shaxs u yoki bu majburiyatlarni o'z xizmat burchi tufayli bajarishi nafaqat shart bo'lgan, balki uni lozim darajada bajarishi mumkin va buning uchun real imkoniyatga ega bo'lgan holdagina sovuqqonlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin. Agar mansabdor shaxs o'z xizmat vazifalarini lozim darajada amalga oshirish uchun yetarli imkoniyatga ega

bo‘lmagan sharoitga tushib qolgan bo‘lsa, sovuqqonlik uchun javobgarlik istisno etiladi».

Ko‘rib chiqilayotgan mazkur jinoyat ko‘p miqdorda zarar yoki boshqa og‘ir oqibatlar yuz bergan paytdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi. Xizmatga sovuqqonlik bilan qarash hamda yuz bergan oqibatlar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi bo‘ladi.

Fuqarolarning sog‘lig‘iga zarar yetkazilishi shaxsga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi JK tegishli moddalari bilan jinoyatlar jami tariqasida javobgarlikka tortiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat **ehtiyotsizlikning** jinoiy o‘z-o‘ziga ishonish yoki jinoiy beparvolik shaklida sodir etiladi.

Jinoyatning **subyekt**i mansabdor shaxs bo‘lgan harbiy xizmatchi bo‘ladi.

«Harbiy mansabdorlik jinoyatlari» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar

1. Harbiy mansabdorlik jinoyatlari qaysi turlarga bo‘linadi? Ularning bir-biridan qanday farqlari bor?

2. Harbiy mansabdorlik jinoyatlarining qanday o‘ziga xos xususiyatlari mavjud?

3. Hokimiyatni suiiste‘mol qilish hokimiyat harakatsizligidan nimalar bilan farqlanadi? Ushbu jinoyat uchun javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlarga nimalar kiradi?

4. Xizmat vazifalarini bajarishga jinoiy sovuqqonlik bilan qarash nimada ifodalanadi? Ushbu jinoyat uchun jinoiy javobgarlikni istisno etuvchi sharoitlar qanday?

Qo‘shimcha adabiyotlar

O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar

Борисенко В.М., Егоров К.И., Исаев Г.Н., Сансай А.В. Преступления против военной службы / Под общей ред. к.ю.н., зам. председателя Верховного суда РФ Н.А. Петухова. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 360 Б.

Борисенко В.М. Судебная защита прав военнослужащих. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 300 Б.

Волженкин Б.В. Служебные преступления. – М.: «Юристь», 2000.– 368 Б.

Горный А.Г. Командиру о военно-уголовном законодательстве. – М.: Воениздат, 1985. – 206 Б.

Мирзаев Т.Қ., Кабулов Р. Ҳарбий хизматни ўташ тартибига қарши жиноятлар. ўқув кўлланма. – Т.: ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2005. – 160 Б.

Преступления против военной службы / Под общ. ред. канд. юрид. наук зам. председателя Верховного суда РФ Н.А. Петухова – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 399 Б.

Сызранцев В.Г. Военские преступления. Комментарий к главе 33 УК РФ. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 304 Б.

RUSTAMBAYEV MIRZAYUSUP XAKIMOVICH

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist,
yuridik fanlar doktori, professor

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JINOYAT HUQUQI
K U R S I**

V T O M

**MAXSUS QISM
JAMOAT XAVFSIZLIGI VA JAMOAT TARTIBIGA QARSHI
JINOYATLAR.HARBIY XIZMATNI O'TASH TARTIBIGA
QARSHI JINOYATLAR**

Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik
(2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan)

«Complex Print» nashriyoti, Toshkent, 2018

Muharrir: O.Rahimov
Texnik muharrir: Murakayeva Z.I.
Korrektorlar: Qosimjonova D.R., Ahmadaliyev M.B.
Dizayner: Gabbasov B.R.

Bosishga ruxsat berildi 12.12.2018. Buyurtma № 3-и Format 60x84/16
Times New Roman garniturasida bilan raqamli usuli bilan bosildi.
Hajmi: 23.06 sh.-b.t. 17,55 n.-x.t. Adadi 80 nusxa

Nashriyot lisenziyasi Ai №004, 20.07.2018 y.
«Complex Print» nashriyoti, Toshkent sh., A.Navoiy ko'ch., 24.
Tel.: +998 71 244 40 89

«Complex Print» bosmaxonasida chop etildi.
Lisenziya № 10-3606, 10.12.2016 y.
Toshkent sh., A.Navoiy ko'ch., 24.
Tel.: +998 71 244 40 89